2-jadval. Hayvon turlari böyiça postvaksinal serologik körsatkiçlar

| **Hayvon turi** | **Tekşirilgan, bosh** | **Emlaşdan oldin SP-musbat, bosh (%)** | **30-kunda SP-musbat, bosh (%)** | **90-kunda SP-musbat, bosh (%)** |
|---|---|---|---|---|
| Qoramol | 120 | 52 (43,3) | 111 (92,5) | 99 (82,5) |
| Qöy | 80 | 31 (38,8) | 68 (85,0) | 61 (76,3) |
| Eçki | 50 | 17 (34,0) | 40 (80,0) | 35 (70,0) |
| **Jami** | **250** | **100 (40,0)** | **219 (87,6)** | **195 (78,0)** |

Qoramollarda emlaşdan keyingi immun javob qöy va eçkilarga nisbatan yuqori böldi. Eçkilarda 30- va 90-kunlardagi nisbatan past natijalar uşbu guruhda emlaş texnikasi, vaksina dozasi, yoş tarkibi, oziqlantiriş darajasi va fiziologik holatni qöşimça baholaş zarurligini körsatadi.

NSP-ELISA tekşiruvining namunaviy natijalarida emlaşdan oldin 210 ta namunadan 8 tasi yoki 3,8% NSP-musbat böldi. Emlaşdan keyingi 30-kunda 7 ta (3,3%), 60- va 90-kunlarda esa 6 tadan (2,9%) NSP-musbat namuna aniqlandi. NSP-musbatlikning saqlanib qolişi avvalgi tabiiy infeksiya, yaşirin virus kontakti yoki testning diagnostik xususiyatlari bilan boğliq bölişi mumkin. Şu sababli bunday natijalar takroriy NSP-ELISA, epizootologik suriştiruv va real-time RT-PCR yordamida tekşirilişi lozim.

## MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari postvaksinal serologik monitoring emlaş samaradorligini baholaşning muhim vositasi ekanini körsatdi. Emlaş tadbirining hujjatda qayd etilişi hayvon

 https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311001 

organizmida yetarli immunitet şakllanganini anglatmaydi. Serologik monitoring esa vaksinaning amaliy immunogenligini populyatsiya darajasida baholaş imkonini beradi.

SP-antitelolar uluşining 30-kunda 87,6% ga yetişi vaksina yuborilgandan keyin faol serokonversiya yuz berganini körsatdi. Bu davr postvaksinal immun javobni birlamçi baholaş uçun maqbul muddat hisoblanadi. FAO va EuFMD tavsiyalarida ham emlaşdan keyingi monitoringni belgilangan muddatlarda ötkaziş, tanlanmaning hayvon turlari, yoşi va xöjaliklar böyiça reprezentativ bölişi ta'kidlangan [3, 4].

Seropozitivlikning 90-kunda 78,0% gaça kamayişi antitelolar darajasi doimiy emasligini körsatadi. Bunday pasayiş revaksinatsiya muddatlarini faqat kalendar reja asosida emas, balki serologik ma'lumotlardan kelib çiqib belgilaş zarurligini asoslaydi. Biroq ELISA natijasi antitelo mavjudligini körsatsa-da, himoyaning mutlaq kafolati hisoblanmaydi. Zarur hollarda virusni neytrallaş reaksiyasi, vaksina va dala ştammining antigenik mosligi hamda klinik-epizootologik ma'lumotlar ham baholanişi kerak [1, 7].

Hayvon turlari örtasidagi farqlar barça hayvonlar uçun yagona monitoring sxemasini qöllaş yetarli bölmasligi mumkinligini körsatdi. Qöy va eçkilarda oqsil kasalligi köpinça yengil yoki subklinik keçişi sababli ularni monitoring dasturidan çetda qoldiriş virusning sezilmasdan aylaniş xavfini oşiradi.

NSP-ELISA emlangan podalarda tabiiy infeksiya ehtimolini aniqlaşda muhim ahamiyatga ega. Biroq NSP-musbat natija mustaqil ravişda yakuniy taşxis qöyiş uçun yetarli emas. Soxta musbat reaksiyalar, oldingi infeksiya oqibatida antitelolarning uzoq saqlanişi yoki yetarliça tozalanmagan vaksinalarning takroriy qöllanişi natijaga ta'sir qilişi mumkin [5, 6]. Şuning uçun NSP-musbat hayvonlar klinik tekşiruv, takroriy serologik tahlil va molekulyar diagnostikadan ötkazilişi lozim.

1. Umuman, postvaksinal monitoring vaksinaning immunologik samaradorligini baholaş, immuniteti yetarli bölmagan guruhlarni aniqlaş, sovuq zanjir va emlaş texnikasidagi kamçiliklarni topiş hamda revaksinatsiyani manzilli taşkil etiş imkonini beradi. Namunaviy natijalarni real işlab çiqariş şaroitida tasdiqlaş uçun hududlar, xöjaliklar va hayvonlarning yoş guruhlari böyiça keng qamrovli serologik tadqiqotlar ötkazilişi zarur.

## XULOSALAR

1. Postvaksinal serologik monitoring oqsil kasalligiga qarşi emlaşdan keyin populyatsiyada amalda şakllangan immunitet darajasini aniqlaş imkonini beradi.

2. Namunaviy tadqiqotda SP-seropozitivlik emlaşdan oldingi 40,0% dan 30-kunda 87,6% gaça oşdi; 90-kunda esa 78,0% gaça pasaydi. 3. Eng yuqori postvaksinal seropozitivlik qoramollarda — 92,5%, qöylarda 85,0% va eçkilarda 80,0% qayd etildi.

4. Emlaş samaradorligini birlamçi serologik baholaş uçun emlaşdan keyingi 21–30-kunlar, immunitet davomiyligini nazorat qiliş uçun esa 60- va 90-kunlar maqbul hisoblanadi.

5. SP-ELISA natijalarini NSP-ELISA, klinik kuzatuv va epizootologik ma'lumotlar bilan birgalikda baholaş tabiiy infeksiya xavfini aniqlaş hamda revaksinatsiya çoralarini asoslaş imkonini beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Organisation for Animal Health. *Manual of Diagnostic Tests and Vaccines for Terrestrial Animals: Foot and Mouth Disease (infection with foot and mouth disease virus).* Paris: WOAH, 2024.

2. Grubman M.J., Baxt B. Foot-and-mouth disease // *Clinical Microbiology Reviews*. — 2004. — Vol. 17, No. 2. — P. 465–493. DOI: 10.1128/CMR.17.2.465-493.2004.
3. FAO, EuFMD, OIE. *Foot-and-mouth disease vaccination and post-vaccination monitoring: Guidelines*. — Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2016.
4. Lyons N.A., Lyoo Y.S., King D.P., Paton D.J. Challenges of generating and maintaining protective vaccine-induced immune responses for foot-and-mouth disease virus in pigs // *Frontiers in Veterinary Science*. — 2016. — Vol. 3. — Article 102. DOI: 10.3389/fvets.2016.00102.
5. Paton D.J., de Clercq K., Greiner M., Dekker A., Brocchi E., Bergmann I. et al. Application of non-structural protein antibody tests in substantiating freedom from foot-and-mouth disease virus infection after emergency vaccination of cattle // *Vaccine*. — 2006. — Vol. 24, No. 42–43. — P. 6503–6512. DOI: 10.1016/j.vaccine.2006.06.032.
6. Clavijo A., Wright P., Kitching P. Developments in diagnostic techniques for differentiating infection from vaccination in foot-and-mouth disease // *The Veterinary Journal*. — 2004. — Vol. 167, No. 1. — P. 9–22. DOI: 10.1016/S1090-0233(03)00087-X.
7. Barnett P.V., Cox S.J. The role of small ruminants in the epidemiology and transmission of foot-and-mouth disease // *The Veterinary Journal*. — 1999. — Vol. 158, No. 1. — P. 6–13. DOI: 10.1053/tvjl.1998.0338.
8. Wong C.L., Yong C.Y., Ong H.K., Ho K.L., Tan W.S. Advances in the diagnosis of foot-and-mouth disease // *Frontiers in Veterinary Science*. — 2020. — Vol. 7. — Article 477. DOI: 10.3389/fvets.2020.00477.

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

UDK: (575.172)
619:636.2:591.13:616.002

# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDAGI SIGIRLARDA MODDA ALMASHINUVI BUZILISHLARINING TARQALISHI VA KLINIK BELGILARI

**Yunusov X.B.,** ***Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachlik va biotexnologiyalar universiteti rektori, b.f.d., professor;***

***Bakirov B., Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachlik va biotexnologiyalar universitet professori, v.f.d.;***

***Meliboyev N.Q., Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachlik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali tayanch doktoranti.***

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311002

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
23–26

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Yunusov X.B., Bakirov B., Meliboyev N.Q. Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitidagi sigirlarda modda almashinuvi buzilishlarining tarqalishi va klinik belgilari // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 23–26. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311002

ANNOTATSIYA *Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasining Shumanay tumanidagi «Sultan bereketli sharwa» fermer xo‘jaligi sharoitidagi sigirlarni dispanserlash orqali aniqlangan modda almashinuvining buzilishlarining turlari, tarqalishi va mazkur buzilishlar paytida kuzatiladigan asosiy klinik belgilarning tahlili berilgan.*

АННОТАЦИЯ В статье приведен анализ результатов диспансеризации коров в условиях фермерского хозяйства «*Sultan bereketli sharwa*» Шуманайского района Республики Каракалпакистан. Определены виды нарушений метаболизма, установлено распространение и клинические признаки этих нарушений.

ABSTRACT This article presents an analysis of the results of dispanserization of cows in the conditions of the "*Sultan bereketli sharwa*" farm in the Shumanay district of the Republic of Karakalpakstan. The types of metabolic disorders were identified, and their prevalence and clinical signs were established

KALIT SO‘ZLAR *Sigir. Dispanserlash. Modda almashinuvining buzilishlari. Turlari. Tarqalishi.Asosiy klinik belgilari.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА *Корова. Диспансеризация. Нарушения обмена веществ. Виды и распространение этих нарушений. Клинические признаки.*

KEY WORDS Korova. Dispensary. Disturbance of metabolism. Clinical indicators.

**Kirish.** O‘zbekiston Respubikasi aholisining chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan talabini muntazam qondirib borishga chorva mollarining kasalliklari, shu jumladan, sigirlar orasida modda almashinuvining buzilishlari, xususan, alimentar distrofiya, ketoz, osteodistrofiya, har xil gipovitaminoz va gipomakro-mikroelementozlar, oyoq kasalliklari va har xil tabiatli bepushtliklar eng asosiy to‘siqlardan biri hisoblanadi. Bunday kasalliklar, ayniqsa Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitidagi sigirlar orasida ko‘p uchraydi va kasallik oqibatida sigirlarning sut va go‘sht mahsuldorligining o‘rtacha 30-40% kamayib borishi,

shuningdek sigirlar orasida bepushtlikning oshib borishi, aksariat hollarda esa ushbu guruh kasalliklarining surunkali kechishi tufayli podada semizligi o‘rtachadan past hayvonlar salmog‘ining oshib borishi, qolaversa, majburan so‘yilish holatlarining ko‘payib borishi oqibatida fermer xo‘jalikari har bosh sigir hisobiga o‘rtacha bir yilda 3,5-6,0 mln so‘mdan iqtisodiy zarar ko‘rmoqda.

Bunday holat, tabiiyki, Qoraqalpog‘iston Respublikasining yuqori sho‘rlanishga asoslangan keskin ekstremal sharoitlaridagi sigirlarda modda almashinuvi buzilishlariga qarshi kurash chora-tadbirlari majmuyini ishlab chiqishga qaratilgan imiy tadqiqotlar olib borishni taqoza etadi.

**Ishning maqsadi.** Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitidagi sigirlarda modda almashinuvi buzilishlarining turlari, tarqalishi, asosiy klinik belgilarini aniqlash va ularga qarshi guruhli oldini olish chora-tadbirlari majmuyini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob’ekti va uslublari.** Ilmiy tadqiqotlar 2025-2026 yillar davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasining Shumanay tumanidagi «*Sultan bereketli sharwa*» fermer xo‘jaligi sharoitidagi sigirlarni dispanserlash orqali poda sindromatikasi, suruvning kliniuk statusi va modda almashinuvi darajasining kartogrammasini aniqlash asosida fermada modda almashinuvi buzilishlarining turlari, tatrqalishi, sabablari va buzilishlar paytida kuzatiladigan klinik belgilarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borildi. Shu maqsadda hayvonning umumiy ahvoli, tana harorati, semizlik darajasi, teri va teri qoplamasi, shilliq pardalari, pulsi, nafas soni, katta qorin devori qissqarishlarining soni, jigar chegarasining karttalashishi va uning chuqur palpatsiyada og‘riq sezishi aniqlandi

**Tadqiqotning natijalari.** Tekshirish natijalari shuni ko‘rsatdiki, moddalar almashinuvi buzilishlari paytida sigirlarda sut mahsuldorligining 30-50% gacha pasayishi, 40-50% hayvonda intensiv oriqlash (alimentar distrofiya), kuyikishning kechikishi, shuningdek, modda almashinuvi buzilishi kuzatilayotgan sigirlarda puls va nafasning tezlashishi (mos holda, 73,5±0,8 va 35,3±1,44 marta/daq. gacha), oshqozon oldi bo‘limlari gipo va atoniyasi hamda lizuxa belgilari, 30-40% hayvonda esa shilliq pardalarning sarg‘ayishi va chuqur paypaslashda jigarning og‘riq sezish belgilari kuzatildi (1-12 fotosuratlar).








https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311002

| | | |
|---|---|---|
| 1-rasm. Prof. B.Bakirov va mustaqil tadqiqotchi N.Meliboyev QQR Shumanay tumanidagi «*Sultan bereketli sharwa*» f/x qoramolchilik fermasida. 2026 y.23-oktyabr. | 2-rasm. Prof. B.Bakirov va mustaqil tadqiqotchi N.Meliboyev «*Sultan bereketli sharwa*» f/x qoramolchilik fermasining ichki sharoitlari bilan tanishmoqda. 2026 y.23-oktyabr. | 3-rasm. Prof. B.Bakirov va mustaqil tadqiqotchi N.Meliboyev «*Sultan bereketli sharwa*» f/x qoramolchilik fermasida kasal sigirni qabul qilish paytida. 2026 y.23-oktyabr. |
|  |  |  |
| 4-rasm. Prof. B.Bakirov va mustaqil tadqiqotchi N.Meliboyev dispanserlashda sigirning KQDH aniqlash paytida. 2026 y.23-oktyabr. | 5-rasm. Mustaqil tadqiqotchi N.Meliboyev dispanserlashda sigir yuragini auskultatsiya qilmoqda. 2026 y.23-oktyabr. | 6-rasm. Mustaqil tadqiqotchi N.Meliboyev dispanserlashda sigirning nafas harakatlarini kuzatmoqda. 2026 y.23-oktyabr. |
|  |  |  |
| 7-rasm. Prof. B.Bakirov va mustaqil tadqiqotchi N.Meliboyev dispanser-lashda sigirga vitamin inyektsuyasini amalga oshirmoqda. 2026 y.23-oktyabr. | 8-rasm. Mustaqil tadqiqotchi N.Meliboyev dispanserlashda sigirning koʻz shilliq qavatini koʻzdan kechirmoqda. 26.23.10. | 9-rasm. Mustaqil tadqiqotchi N.Meliboyev dispanserlashda tajriba hayvoni boʻyintiriq venasidan qon olmoqda.2026.23.10. |
|  |  |  |
| 10-rasm. Prof.B.Bakirov va mustaqil tadq. N.Meliboyev dispanserlashda tajriba hayvoni yuragini auskultatsiya qilmoqda. 2026.23.10. | 11-rasm. Prof.B.Bakirov va mustaq. tadqiqotchi N.Meliboyev tajriba hayvonida nafas sonini aniqlamoqda. 2026.23.10. | 12-rasm. Prof.B.Bakirov va mustaqil tadqiqotchi N.Meliboyev tajriba hayvonida vitamin in'ektsiyasi oldidan. 2026.23.10. |

## XULOSA

1. Qoraqalpogʻiston Respublikasining Shumanay tumanidagi «*Sultan bereketli sharwa*» fermer xoʻjaligi sharoitidagi sigirlar orasida modda almashinuvining buzilishlarining tarqalish darajasi oʻrtacha 40-50% ni tashkil etadi va bunday buzilishlar asosan oqsillar, uglevodlar va lipidlar almashinuvining buzilishlari koʻrinishida namoyhon boʻladi.

2. Sigirlarda oqsillar, uglevodlar va lipidlar almashinuvining buzilishlari paytida hayvonda oriqlash, sut mahsuldorligining 30-50%gacha pasayishi, shilliq pardalarning oqarishi, jigarning chuqur paypaslaganda ogʻriq sezishi, oyoqlar distal qismlarining shishi, kuyikishning kechikishi kabi oʻzgarishlar kuzatiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi «Chorvachilik tarmogʻini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi PQ -4576-sonli qarori.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi «Chorvachilikni yanada rivojlantirish va ozuqa bazasini mustahkamlash chora tadbirlari toʻgʻrisida» gi PQ-121-sonli qarori.
3. Norboyev Q., Bakirov B., Roʻziqulov N.B. Ichki yuqumsiz kasalliklar. Darslik. SDVMCHBU Nashr matbaa markazi. 2025. -416B.
4. Bakirov B., Roʻziqulov N.B., Daminov A.S. va b.lar. Hayvonlar kasalliklari. Ma'lumotnoma (Oʻquv qoʻllanma). – Samarqand: "Nasimov" XK, 2019. – 552 b.
5. Практикум по внутренним болезням животних / Под обш. ред. Шербакова Г.Г., Яшина А.В., Курденко А.П., Мирзагулова К.Х.: Учебник. — СПб.: Издателство «Лан», 2021. – С. 543.
6. Петрянкин Ф.П., Петрова О.Ю. Болезни молодняка животних: Учебное пособие для СПО. – Санкт-Петербург: Лан, 2021. – С. 352.
7. Bradford P.Smith, David C. Van Metre, Nicola Pusterla. Large Animal Internal Medicine. Sixth Edition. ELSEVIER. Printed in the United States of America, 2020 by. – P. 1874.



https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311002

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

УДК: 619:636.576. 895.

# ВЛИЯНИЕ ПРИРОДНО-КЛИМАТИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ НА ФЕНОЛОГИЮ ЭКТОПАРАЗИТОВ В ЗООЦЕНОЗАХ КАРАКАЛПАКСТАНА

**Камалова Айнура Илалатдиновна – к.в.н. (PhD) и.о. доцент,**
**Бекниязова Мехрибану Жумабаевна-магистрант**
Нукусский филиал Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311003
NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus
SAHIFALAR
27–31
NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Камалова А.И., Бекниязова М.Ж. Влияние природно-климатических условий на фенологию эктопаразитов в зооценозах Каракалпакстана // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 27–31. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311003

АННОТАЦИЯ В данной статье изучена распространенность и сезонная фенология эктопаразитов в скотоводческих и овцеводческих хозяйствах в условиях Нукусского и Караузакского районов Республики Каракалпакстан. По результатам исследования была описана фенология доминантных эктопаразитов, паразитирующих на сельскохозяйственных животных, а также вызываемые ими заболевания.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА Каракалпакстан, скотоводство, овцеводство, иксодовый клещ, шерстеед, bovicola, зоофильное насекомое, доминирующие эктопаразиты, сезонная фенология.

**Введение.** Сегодня спрос населения мира на продукты животноводства, включая мясо, шерсть и коженое сырье, растет из года в год. Удовлетворение этого спроса, создание новых рабочих мест, дальнейшее увеличение объемов животноводческой продукции-важная задача.

Эктопаразиты, в частности иксодовые клещи и зоофильные насекомые, представляют серьезную угрозу для крупного рогатого скота и овец, содержащихся в специализированных животноводческих хозяйствах в некоторых районах республики Каракалпакстан. Изучение распространения, а также сезонной динамики эктопаразитов в этих регионах имеет важное значение для борьбы с ними. В последние годы в результате изменения формы собственности в животноводстве среди сельскохозяйственных животных растет число случаев заражения эктопаразитами и вызываемыми ими болезнями. В том числе гиаломмоз, бовиколиоз, псороптоз, саркоптоз, эстроз, мелофагоз и другие заболевания, приводящие к росту телят и ягнят, отставанию от их сверстников, снижению продуктивности, такой как производство мяса, молока, шерсти, кожи, потомство.

Поэтому актуальной проблемой является изучение фенологии эктопаразитов, паразитирующих в организме сельскохозяйственных животных, и распространения вызываемых ими паразитарных заболеваний.

**Целью исследования** является изучение распространения и сезонной фенологии эктопаразитов в скотоводческих и овцеводческих хозяйствах в условиях Каракалпакстана.

**Материал и методы исследования.** Виды клещей, собранные у крупного рогатого скота в скотоводческих хозяйствах отдельных районов Республики Каракалпакстан, изучаются лабораторией арахноэнтомологии и акарологии Нукусского филиала Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии и научно-исследовательским институтом ветеринарии (“Атлас иксодоидных клешей” м.”Колос", 1968, И.М.Ганиев и другие детерминанты (1959)), были определены с использованием детерминантов, представленных в их книгах и учебных пособиях, а также в литературе.

Собранные эктопаразиты хранили в пробирках. Каждый образец был помечен. На этикетке черным карандашом был нанесен номерной знак (номер), название фермы и хозяйства населения, место, время, когда был собран паразит, вид животного, возраст, части тела животного, с которых был собран эктопаразит.

**Результаты исследования.** Исследовательская работа проводилась на животноводческих фермах и личных подворьях населения Нукусского и Караузакского районов Республики Каракалпакстан по содержанию крупного рогатого скота и овец, то есть в условиях вторичных (антропогенных экотопов) и первичных биоценозов (зообиоценозов). Всего было использовано более 1200 голов крупного рогатого скота и более 2400 голов овец и коз.

Сезонное перемещение (эндемичная миграция) эктопаразитов в природе в исследуемых районах наблюдалось начиная со второй декады апреля с повышением температуры воздуха. В ходе исследований в зообиоценозах Нукусского и Караузакского районов в качестве основных свободноживущих зоопаразитов в организме крупного рогатого скота и овец были отмечены представители родов Hyalomma (H.anatolicum, H.plumbeum, H.scupense, H.detritum), Rhipicephalus (Rh.bursa, Rh.turanicus), Haemaphysalis (H.sulcata, H.punctata), Dermacentor marginatus, Ixodes (I.ricinus) эктопаразитов. Было обнаружено, что среди эктопаразитов доминируют виды родов Hyalomma и Rhipicephalus.

В ходе изучения сезонной фенологии эктопаразитов, в ходе проверок и наблюдений, проведенных в фермах “Дами-ата” Нукусского района, махалле “Саманбай” и специализирующихся на овцеводстве фермах “Нур Тилек Караузек” и махаллях “Куйбак” Караузакского района, по изучению степени поражения эктопаразитами имеющихся животных, было установлено, что в регионах преобладают экопаразиты Hyalomma anatolicum, H.plumbeum, H.detritum, Rhipicephalus bursa, Rh.turanicus, Dermacentor marginatus, отмечена встреча эктопаразитов шерстеедов, относящихся к родам Bovicola (Bovicola ovis, Bovicola bovis) (табл.1, Рис. 1).


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311003



**Рисунок 1. Личиночные и имаго формы Bovicola Ovis**

Таблица 1. Виды эктопаразитов, встречающиеся на территории Нукусского и Караузакского районов Республики Каракалпакстан

| п/н | Виды эктопаразитов | Зараженные виды животных | Сезоны |
|---|---|---|---|
| 1. | Hyalomma anatolicum | крупный рогатый скот | В теплое время года зимой |
| 2. | Hyalomma detritum | | |
| 3. | Hyalomma plumbeum | крупный рогатый скот | В теплое время года нимфа |
| 4. | Hyalomma.scupense | крупный рогатый скот | В теплое время года |
| 5. | Dermacentor marginatus | крупный рогатый скот | В теплое время года |
| 6. | Rhipicephalus bursa | крупный рогатый скот | Во всех сезонах, зимой личинка и нимфа |
| 7 | Rhipicephalus turanicus | | |
| 8. | Haemaphysalis sulcata | крупный рогатый скот | В теплое время года |
| 9. | Haemaphysalis punctata | крупный рогатый скот | В теплое время года |
| 10. | Hyalomma anatolicum | овцы | В теплое время года |
| 11. | Bovicola ovis | овцы | Во всех сезонах |
| 12. | Bovicola bovis | крупный рогатый скот | Во всех сезонах |

Эти эктопаразиты были идентифицированы как сезонные зоопаразиты, паразитирующие в организме крупного рогатого скота и овец. Установлено, что их сезонное движение начинается в начале весеннего периода в зависимости от температуры внешней среды и совпадает с пиком их паразитического характера в летний период (табл.1, Рис. 2).

В организме крупного рогатого скота эктопаразиты были обнаружены поштучно, в конце марта-начале апреля. А в июне и июле наблюдалось ускорение процесса их размножения. В результате проведенных нами научных исследований были

зафиксированы пики заболеваемости эктопаразитозом крупного рогатого скота в летний период.





**Рисунок 2. Спинной и брюшной вид клещей рода Rhipicephalus.**

В результате анализа проведенных нами исследований по изучению сезонной динамики заражения эктопаразитами овец и коз в хозяйстве “Кониратбай-Мехри” Нукусского района и в хозяйствах населения, относящихся к махаллям “Куйбак” Караузакского района и “Саманбай” Нукусского района, следует отметить, что показатель заражения эктопаразитами овец в зимний период составляет в среднем по сезону, в максимуме весной и летом- а в осенние месяцы установлено, что она минимальна.

**Выводы.** 1. Среди сельскохозяйственных животных в условиях Республики Каракалпакстан отмечено паразитирование преимущественно эктопаразитов 12 видов – Hyalomma anatolicum, H.plumbeum, H.scupense, H.detritum, Rhipicephalus bursa, Rh.turanicus, Haemaphysalis sulcata, H.punctata, Dermacentor marginatus, Ixodes ricinus, Bovicola bovis, B. ovis.

2. Установлено, что в условиях Каракалпакстана сезонная фенология эктопаразитов, то есть клещей, у крупного рогатого скота и овец на животноводческих фермах начинается со второй декады апреля, а пик наблюдается в июне-июле.

3. Среди сельскохозяйственных животных было обнаружено, что эктопаразиты, вызывающие энтомозы, а именно бовикола, маллофаги и т.д., в изобилии встречаются в зимние и весенние месяцы.

## СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Балашов Ю.С. Кровососущие клещи (Ixodidae) – переносчики болезней человека и животных. Л.: 1967. С. 311-320.
2. Балашов Ю.С. Паразитизм клещей и насекомых на наземных позвоночных // – Санкт-Петербург: Наука, 2009. – С. 106-357.

 https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311003 

3. Глазунов Ю. В., Некоторые аспекты фенологии иксодовых клещей на юге Тюменской области // Современные проблемы науки и образования. – 2013. – No 6. – С.746.
4. Ибодова Г.И. Бобоназаров Г. Я. Изучение кровососущих клещей сем. Ixodidae в Узбекистане. Наука и инновации. Материалы научно-практической конференции. Каршив, 2013. – с. 66-69.
5. Исакова Д.Т. Шакарбаев Е.Б. Ветеринарная паразитология. Издательство "Ношир", 2017. – с. 231-252.
6. Ainura, K. (2023). DISTRIBUTION OF ECTOPARASITES IN LIVESTOCK FARMS OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN. In *Formation and Development of Pedagogical Creativity: International Scientific-Practical Conference (Belgium)* (Vol. 1, pp. 193-194).
7. Ainura, K. (2023). STUDY OF THE DISEASES IXODIDOSIS IN EXPERIMENTAL EXPERIMENTS. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, *3*(28), 190-196.
8. Мавланов, С., Камалова, А., Пулотов, Ф., & Исмоилов, А. (2024). Исследование остатка «АЛЬФА-ШАКТИ» 10% ЭК в коровьем молоке. *in Library*, *2*(2), 201-205.
9. Мавланов, С., & Камалова, А. (2023). ИЗУЧЕНИЕ ЗАБОЛЕВАЕМОСТИ ИКСОДОЗОМ КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА В ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫХ ОПЫТАХ. *Science and innovation*, *2*(Special Issue 8), 1755-1761.

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

# ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДА ОТЛАРНИНГ ANOPLOCEPHALIDAE CHOLODKOWSKY, 1902 ОИЛАСИГА МАНСУБ ЦЕСТОДАЛАР БИЛАН ЗАРАРЛАНИШ ДИНАМИКАСИ

**Каниязов А.Ж.**

***Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети Нукус филиали ўқув ишлари бўйича директор ўринбосари, биология фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент***

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311004

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
32–34

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Каниязов А.Ж. Қорақалпоғистонда отларнинг Anoplocephalidae Cholodkowsky, 1902 оиласига мансуб цестодалар билан зарарланиш динамикаси // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 32–34. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311004

**Кириш.** Бугунги кунда республикамизда уй ва қишлоқ хўжалик ҳайвонлари жумладан, отларнинг гельминтлари ва улар чақирадиган касалликларни ўрганишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Мазкур йўналишда амалга оширилган дастурий чора-тадбирлар асосида ҳайвонларда паразитлик қиладиган гельминт турлари аниқланган, гельминтозларнинг ҳайвон организмига салбий таъсири ва паразитларнинг сонини бошқариш борасида муайян натижаларга эришилган. Отлар организмида гельминтларнинг 100 га яқин тури паразитлик қилиши аниқланган [4].

Отлар гельминтозлари ичида анаплоцефалидозлар муҳим аҳамиятга эга бўлиб, уларнинг қўзғатувчилари ошқозон ичак трактининг паразитлари ҳисобланади. Уларни ўрганиш назарий ва амалий аҳамиятга эга.

Тадқиқот ишининг мақсади Қорақалпоғистонда отларда паразитлик қилувчи Anoplocephalidae Cholodkowsky, 1902 оиласига мансуб цестодалар тур таркибини ва зарарланиш динамикасини ўрганишдан иборат.

**Тадқиқот материали ва усуллар.** Тадқиқот ишлари Қорақалпоғистон Республикасида олиб борилди. Отларнинг цестодалар билан зарарланишини аниқлашда академик К.И.Скрябиннинг (1928) тўлиқ ва тўлиқ бўлмаган гельминтологик ёриб кўриш усулидан фойдаланилди [5]. Тўлиқ бўлмаган гельминтологик ёриб кўриш усули билан 143 бош отларнинг ичаклари текширилди.

Тадқиқот давомида топилган гельминтлар тур таркибини аниқлашда морфологик белгилари, паразит локализациясига эътибор қаратилди [2, 3, 4, 6]. Олинган натижаларни таҳлил қилишда инвазия экстенсивлиги (ИЭ) ва инвазия интенсивлиги (ИИ) кўрсаткичлари инобатга олинди.

**Тадқиқот натижалари ва уларнинг таҳлили.** Олиб борилган тадқиқотлар натижасида Қорақалпоғистоннинг турли ҳудудларида отлар ўртасида Anoplocephalidae

Cholodkowsky, 1902 оиласига мансуб 3 та турдаги цестодалар *Anoplocephala perfoliata, Anoplocephala magna* ва *Paranoplocephala mamillana* турлари аниқланди. *Anoplocephala perfoliata* тури билан отларнинг ўртача зарарланиш даражаси 27,3% бўлиб, инвазия интенсивлиги 12-43 нусхани ташкил этди. *Anoplocephala magna* билан отларнинг ўртача зарарланиш даражаси 24,5% бўлиб, инвазия интенсивлиги 24-52 нусхага тенглини аниқланди. *Paranoplocephala mamillana* билан отларнинг зарарланиши юқоридаги турларга қараганда анча кам, ўртача зарарланиш даражаси 2,8% бўлиб, инвазия интенсивлиги 18-37 нусхани ташкил этди.

Тадқиқот давомида аниқланган гельминтлар ривожланиш циклига кўра биогельминт бўлиб, оралиқ хўжайин иштирокида ривожланади. Оралиқ хўжайин вазифасини Е.Я. Башкирова [1] маълумотига кўра Ceratocetidae, Notospididae, Liacaridae, Galumnidae, Carabodidae оилаларига мансуб орибатид каналари бажаради.

Олиб борилган тадқиқотлар натижасида, аноплоцефалидозлар барча мавсумларда учраши аниқланди. Отларнинг цестодалар билан зарарланиши асосан ёз ойларида, яйлов мавсумида амалга ошиши кузитилди. Инвазия экстенсивлиги йилнинг турли мавсумларида бир-биридан фарқ қилиши қайд этилди. Отлар аноплоцефалидозлари динамикаси битта юқорига кўтарилувчи нуқта билан характерланади. Инвазия экстенсивлиги куз мавсумида отлар ўртасида юқори бўлиши, яъни сентябрда – 22,7%, октябрда – 25,8%, ноябрда – 23,2% ни ташкил этади. Шундан кейин зарарланиш даражаси май ойигача пасайиб бориб, ўртача 7,8% га тенг бўлиши кузатилди. Отларнинг цестодалар билан зарарланишининг мавсумий динамикасини ўрганиш, уларнинг олдини олиш ва преимгинал дегельминтизацияда муҳим аҳамиятга эга.

Тадқиқотлар давомида аниқланган Anoplocephalidae оиласига мансуб цестодалар отлар ингичка бўлим ичакларда паразитлик қилиши натижасида, овқат ҳазм қилиш тизими функциясининг жиддий бузилишига олиб келади. Бу ўз навбатида ҳайвоннинг барча маҳсулдорлигининг пасайишига, ёш ҳайвонларнинг ўсиш ва ривожланшдан орқада қолишига сабабчи бўлади.

**Хулоса.** Олиб борилган тадқиқотлар натижасида Қорақалпоғистон Республикаси ҳудудида отларнинг Anoplocephalidae оиласига мансуб цестодалар билан зарарланиши ўрганилди. Қорақалпоғистонда отларнинг *Anoplocephala perfoliata* цестодаси билан зарарланиш инвазия экстенсивлиги 27,3% ни ва инвазия интенсивлиги 12-43 нусхани, *Anoplocephala magna* билан отларнинг ўртача зарарланиш даражаси 24,5% ни, инвазия интенсивлиги 24-52 нусхани ва *Paranoplocephala mamillana* билан отларнинг ўртача зарарланиш даражаси 2,8% ни ҳамда инвазия интенсивлиги 18-37 нусхани ташкил этиши аниқланди. Отларнинг аноплоцефалятлар билан зарарланиши мавсумий характерга эга бўлиб, инвазия экстенсивлигининг юқори кўрсатгичлари куз ойларида кузатилди.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. *Башкирова Е.Я.* Эхиностоматиды птиц СССР и обзор циклов их развития // Тр. Башкирской научн. – исслед. вет.станции. – Уфа, 1941. – Т.3 – С. 39-41.
2. *Боев С.Н., Соколова И.Б., Панин В.Я.* Гельминты копытных животных Казахстана. Алма-Ата, 1962. Т. I. – 377 с.
3. *Двойнос Г.М.* Прижизненная и посмертная диагностика и идентификация гельминтов лошадей. Методические рекомендации. – М.: Агропромиздат, 1993. – 86 с

4. *Ивашкин В.М., Двойнос Г.М.* Определитель гельминтов лошадей. Киев: Наукова думка, 1984. – С. 7-16.
5. *Скрябин К.И.* Методы полных и неполных гельминтологических вскрытий, включая и человека. – Москва: МГУ, 1928. – 45 с.
6. *Kaniyazov A.J, Shakarboev E.B.* Helminths of horses in Karakalpakstan: seasonal, spatial and age dynamics // Acta Biologica Sibirica, 2023;.9: 539–548.


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311004

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

# QORAQALPOĞISTON ŞAROITIDA QUYONLAR EYMERIOZINING TARQALIŞI VA PROFILAKTIKASI

**Seypullaev A.K. - Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, çorvaçilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali katta öqituvçisi**

**Baltabaeva Sh.N.- Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, çorvaçilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali**

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311005

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
**35–37**

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Seypullaev A.K., Baltabaeva Sh.N. Qoraqalpoğiston şaroitida quyonlar eymeriozining tarqalişi va profilaktikasi // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 35–37. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311005

ANNOTATSIYA **Annotatsiya**

Uşbu tezisda Qoraqalpoğiston Respublikasi şaroitida quyonlar orasida uçraydigan eymerioz kasalligining tarqaliş xususiyatlari, kasallikni laboratoriya usullarida aniqlaş va profilaktika çoralari yoritilgan. Eymerioz quyonlarning *Eimeria* avlodiga mansub sodda parazitlar tomonidan çaqiriladigan invazion kasallik bölib, içak va jigar töqimalarining zararlanişi bilan keçadi. Kasallik, ayniqsa, yoş quyonlarda ösiş va rivojlanişning sekinlaşişi, iç ketişi, ozib ketiş va ayrim hollarda ölimga sabab bölişi mumkin. Qoraqalpoğiston şaroitida kasallikning tarqaliş darajasini aniqlaş uçun xöjaliklarda muntazam veterinariya tekşiruvlarini ötkaziş muhim hisoblanadi.

KALIT SÖZLAR quyon, eymerioz, *Eimeria*, invaziya, epizootologiya, koprologik tekşiruv, diagnostika, profilaktika, veterinariya sanitariyasi.

## MAVZUNING DOLZARBLIGI

Bugungi kunda quyonçilik çorvaçilikning muhim yönalişlaridan biri hisoblanadi. Quyonlarni intensiv usulda boqişda ularning yuqumli va parazitar kasalliklarini öz vaqtida aniqlaş hamda oldini oliş muhim ahamiyatga ega. Şunday kasalliklardan biri eymerioz bölib, u quyonlarning mahsuldorligiga salbiy ta’sir körsatadi.

Quyonlar eymeriozi bilan zararlaniş, asosan, parazitning taşqi muhitda yetilgan ootsistalari bilan ifloslangan yem, suv va saqlaş joylari orqali yuzaga keladi. Kasallikning rivojlanişida saqlaş ziçligi, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilinmasligi, oziqlantirişdagi kamçiliklar va yoş quyonlarning immunologik holati muhim örin tutadi.

Qoraqalpoğiston Respublikasida quyonçilik xöjaliklarining veterinariya-sanitariya holatini örganiş, eymeriozning tarqaliş darajasini aniqlaş va samarali profilaktika tadbirlarini işlab çiqiş ilmiy-amaliy jihatdan dolzarbdir.

## TADQIQOTNING MAQSADI

Qoraqalpoğiston Respublikasi şaroitida quyonlar eymeriozining tarqaliş darajasi va mavsumiy xususiyatlarini örganiş, kasallikni aniqlaş usullarini baholaş hamda samarali profilaktika çora-tadbirlarini takomillaştiriş.

## TADQIQOTNING VAZIFALARI

1. Quyonçilik xöjaliklarida eymeriozning uçraş holatlarini örganiş.
2. Turli yoş guruhidagi quyonlarning eymeriyalar bilan zararlaniş darajasini aniqlaş.
3. Kasallikning mavsumiy dinamikasi va saqlaş şaroitlari bilan boğliqligini baholaş.
4. Koprologik tekşiruvlar yordamida eymeriya ootsistalarini aniqlaş.
5. Kasallikning oldini olişga qaratilgan veterinariya-sanitariya tadbirlarini takomillaştiriş.

## TADQIQOT MATERIALLARI VA USULLARI

Tadqiqotlarni Qoraqalpoğiston Respublikasining quyonçilik bilan şuğullanuvçi xöjaliklarida ötkaziş rejalaştiriladi. Tekşiruvga turli yoşdagi quyonlar jalb qilinib, ularning saqlaş şaroitlari, oziqlantirilişi va veterinariya-sanitariya tadbirlari örganiladi.

Laboratoriya tekşiruvlari uçun quyonlardan yangi olingan najas namunalari yiğiladi. Namunalar flotatsiya yoki Darling usuli yordamida tekşirilib, mikroskop ostida eymeriya ootsistalarining mavjudligi aniqlanadi. Zarur hollarda parazit turlarini farqlaş uçun ootsistalarning morfologik xususiyatlari va sporulyatsiyasi ham örganiladi.

## KUTILAYOTGAN NATIJALAR VA PROFILAKTIKA ÇORALARI

Tadqiqot natijasida Qoraqalpoğiston Respublikasidagi tekşirilgan quyonçilik xöjaliklarida eymeriozning tarqaliş darajasi, yoşga boğliq xususiyatlari va ehtimoliy xavf omillarini aniqlaş kutiladi. Şuningdek, kasallikning oldini oliş böyiça amaliy tavsiyalar işlab çiqiladi.

Eymerioz profilaktikasida quyidagi tadbirlarga alohida e’tibor qaratiş lozim:

- Quyonlar saqlanadigan kataklarni muntazam tozalaş va najasdan xoli saqlaş.
- Yem va içimlik suvining najas bilan ifloslanişiga yöl qöymaslik.
- Yoş quyonlarni katta yoşdagi hayvonlardan alohida saqlaş.
- Kataklarda ortiqça ziçlikni kamaytiriş va şamollatişni ta’minlaş.
- Yangi keltirilgan quyonlarni veterinariya körigidan ötkaziş.
- Rejali ravişda najas namunalarini laboratoriyada tekşiriş.
- Eymeriozga qarşi preparatlarni faqat veterinar tavsiyasi asosida, hayvonning yoşi va vaznini hisobga olgan holda qöllaş.

Uşbu tadbirlar kasallik qözğatuvçisining taşqi muhitda tarqalişini çeklaş va quyonlar orasida qayta zararlaniş xavfini kamaytirişga yordam beradi.

## XULOSA

Quyonlar eymeriozi quyonçilik xöjaliklarida iqtisodiy zarar keltirib çiqarişi mumkin bölgan muhim parazitar kasalliklardan biridir. Qoraqalpoğiston şaroitida kasallikning haqiqiy tarqaliş darajasini aniqlaş uçun turli hududlardagi xöjaliklarda rejali epizootologik va koprologik tekşiruvlar ötkaziş zarur.


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311005

Kasallikning oldini olişda veterinariya-sanitariya qoidalariga rioya qiliş, yem va suv tozaligini ta’minlaş, quyonlarni yoşiga qarab guruhlaş hamda laboratoriya nazoratini yölga qöyiş muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari asosida Qoraqalpoğiston şaroitiga mos profilaktika tavsiyalarini işlab çiqiş mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xuşnazarov A.X., Davlatov R.B. Quyon eymeriozining diagnostikasi va epizootik holati. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 2023.
2. Xuşnazarov A.X., Davlatov R.B. Quyonlar eymeriozining mavsumiy dinamikasi hamda kasallikni patologoanatomik taşxislaş. *Veterinariya meditsinasi*, 2025, № 11 (216).
3. Xuşnazarov A.X. Study of the Spread of Eimeriosis among Rabbit Breeds in Some Districts of the Samarkand Region. *Researç Focus International Scientific Journal*, 2025.

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

# ИЗУЧЕНИЕ ЭПИЗООТИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ И ПРОФИЛАКТИКА БОЛЕЗНИ НЬЮКАСЛА В УСЛОВИЯХ КАРАКАЛПАКСТАНА

**Сейпуллаев А.К. -Старший преподаватель кафедры «Ветеринарной медицины и фармакологии» Нукусского филиала Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии.**

**Бекбаулиева Д. - Магистрант Нукусского филиала Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии.**

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311006

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
38–40

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Сейпуллаев А.К., Бекбаулиева Д. Изучение эпизоотической ситуации и профилактика болезни Ньюкасла в условиях Каракалпакстана // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 38–40. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311006

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА болезнь Ньюкасла, птица, эпизоотическая ситуация, профилактика, вакцинация, биобезопасность, диагностика, вирусная инфекция.

**Актуальность** Болезнь Ньюкасла является одной из наиболее опасных вирусных инфекционных болезней птиц, наносящей значительный экономический ущерб птицеводческим хозяйствам. Возбудитель болезни — вирус из рода *Orthoavulavirus*, семейства *Paramyxoviridae*. Заболевание характеризуется высокой контагиозностью, поражением органов дыхания, пищеварения и центральной нервной системы, а при высокопатогенных штаммах может сопровождаться значительной смертностью птицы. Особую опасность болезнь представляет для промышленных птицеводческих хозяйств, фермерских и личных подсобных хозяйств, где при нарушении ветеринарно-санитарных требований возможно быстрое распространение инфекции.

## ЦЕЛЬ ИССЛЕДОВАНИЯ

Целью работы являлось изучение эпизоотической ситуации по болезни Ньюкасла среди сельскохозяйственной птицы и разработка комплекса профилактических мероприятий, направленных на предупреждение возникновения и распространения инфекции.

## МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

Исследования проводились с использованием данных ветеринарного учёта и отчётности птицеводческих хозяйств, результатов клинического наблюдения за птицей, лабораторной диагностики, анализа вакцинации и оценки санитарно-гигиенического состояния хозяйств.

При изучении эпизоотической ситуации учитывались возраст и вид птицы, условия содержания, уровень вакцинации, наличие контакта с дикой птицей, санитарное состояние помещений, случаи заболеваемости и падежа.

В качестве модели анализа в исследуемой группе из 400 голов птицы было предусмотрено сравнение двух групп. В первой группе проводилась плановая вакцинация и комплекс мероприятий по биобезопасности, во второй — профилактические мероприятия выполнялись в недостаточном объёме. При условном анализе было установлено, что в группе с комплексной профилактикой уровень заболеваемости был значительно ниже.

| Показатель | Группа с комплексной профилактикой | Группа с недостаточной профилактикой |
|---|---|---|
| Количество птицы | 200 | 200 |
| Заболевшие | 5 (2,5%) | 35 (17,5%) |
| Падёж | 2 (1%) | 20 (10%) |
| Клинически здоровые | 96,5% | 82,5% |

Полученные показатели демонстрируют, что сочетание своевременной вакцинации с ветеринарно-санитарными мероприятиями позволяет существенно снизить риск возникновения и распространения болезни.

**Профилактика** Основой профилактики болезни Ньюкасла является плановая вакцинация восприимчивой птицы с учётом эпизоотической ситуации и применяемой вакцины. Не менее важное значение имеют биобезопасность хозяйства, недопущение контакта домашней птицы с дикой птицей, карантинирование вновь поступившей птицы, регулярная дезинфекция помещений, инвентаря и транспортных средств.

При подозрении на болезнь необходимо своевременно изолировать больную птицу, ограничить перемещение птицы и продукции, уведомить ветеринарную службу и провести необходимые диагностические мероприятия. Меры по ликвидации очага должны осуществляться в соответствии с действующими ветеринарными правилами.

## ВЫВОДЫ

1. Болезнь Ньюкасла представляет значительную эпизоотологическую и экономическую опасность для птицеводства.
2. Основными факторами риска являются нарушение вакцинации, низкий уровень биобезопасности, занос инфекции с вновь поступившей птицей и контакт с потенциально инфицированной птицей.
3. Своевременная вакцинация является одним из основных методов специфической профилактики болезни Ньюкасла.
4. Постоянный эпизоотологический мониторинг позволяет своевременно выявлять угрозу возникновения болезни и принимать меры по предотвращению её распространения.

## СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Alexander D.J. Newcastle disease and other avian paramyxoviruses. // *Revue Scientifique et Technique*.

2. WOAH. *Terrestrial Manual: Newcastle disease (infection with Newcastle disease virus).*
3. OIE/WOAH. *Newcastle disease: epidemiology, diagnosis and control.*
4. Aldous E.W., Alexander D.J. Detection and differentiation of Newcastle disease virus. // *Avian Pathology*.
5. Seal B.S., King D.J., Sellers H.S. The avian response to Newcastle disease virus. // *Developmental & Comparative Immunology*.
6. Miller P.J., Koch G. Newcastle disease. In: *Diseases of Poultry*. Wiley-Blackwell.

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

# QORAMOL KANALARIGA QARŞI KURAŞDA INTEGRATSIYALAŞGAN YONDAŞUV: XORIJIY TAJRIBANING TAHLILI VA ÖZBEKISTON ŞAROITI UÇUN XULOSALAR

**Abbosov Nurali Nosiroviç**

**N.N.Abbosov, mustaqil izlanuvçi, Samarqad davlat veterinariya meditsinasi, çorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali**

**S.I.Mavlanov, v.f.d., professor**

**A.Ismoilov, v.f.f.d., katta ilmiy xodim, Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti**

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311007

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
**41–43**

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Abbosov N.N., Mavlanov S.I., Ismoilov A. Qoramol kanalariga qarşi kuraşda integratsiyalaşgan yondaşuv: xorijiy tajribaning tahlili va Özbekiston şaroiti uçun xulosalar // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 41–43. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311007

ABSTRACT The article reviews foreign experience with the integrated approaç (Integrated Tick Management, ITM) to controlling ixodid ticks of cattle, based on a literature analysis. It summarizes data on the limitations of reliance on çemical agents, and on vaccines, entomopathogenic fungi, plant-based products, and pasture management. Because most of the foreign data relate to the tick *Rhipicephalus microplus*, the article şows that local trials are necessary before transferring these findings to *Hyalomma* and *Boophilus calcaratus*, whiç are widespread in Uzbekistan.

KEYWORDS cattle, ixodid ticks, integrated control, acaricide resistance, *Metarhizium*, Bm86 vaccine, Uzbekistan.

АННОТАЦИЯ В статье на основе анализа литературы рассмотрен зарубежный опыт применения интегрированного подхода (англ. Integrated Tick Management, ITM) в борьбе с иксодовыми клещами крупного рогатого скота. Обобщены данные об ограничениях, связанных с опорой на химические средства, а также о вакцинах, энтомопатогенных грибах, растительных средствах и управлении пастбищами. Поскольку основная часть зарубежных данных относится к клещу *Rhipicephalus microplus*, показана необходимость местных испытаний при переносе этих результатов на широко распространённые в Узбекистане виды *Hyalomma* и *Boophilus calcaratus*.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА крупный рогатый скот, иксодовые клещи, интегрированная борьба, резистентность к акарицидам, *Metarhizium*, вакцина Bm86, Узбекистан.

ANNOTATSIYA Maqolada qoramol ixodid kanalariga qarşi kuraşda integratsiyalaşgan yondaşuvning (inglizça *Integrated Tick Management, ITM*) xorijiy tajribasi adabiyotlar tahlili asosida körib çiqilgan. Kimyoviy vositalarga tayanişning çeklovlari, vaksinalar, entomopatogen zamburuğlar, ösimlik vositalari va yaylov boşqaruvi böyiça ma'lumotlar umumlaştirilgan. Xorijiy ma'lumotlarning asosiy qismi *Rhipicephalus microplus* kanasiga tegişli bölgani uçun ularni Özbekistonda keng tarqalgan *Hyalomma* va *Boophilus calcaratus* turlariga ötkazişda mahalliy sinovlar zarurligi körsatilgan.

KALIT SÖZLAR qoramol, ixodid kanalar, integratsiyalaşgan kuraş, akaritsidlarga qarşilik, *Metarhizium*, Bm86 vaksinasi, Özbekiston.

## KIRIŞ

Ixodid kanalar qoramolçilikda mahsuldorlikni pasaytiradi va piroplazmoz kabi kasalliklarni tarqatadi. Özbekiston xöjaliklarida 14 million boşdan ortiq qoramol boqiladi, qoramolni zararlantiruvçi ixodid kanalarning 40 dan ortiq tur va kenja turi qayd etilgan [4]. Şimoli-şarqiy Özbekistonda tekşirilgan qoramolning 51,3 foizi kanalar bilan zararlangani aniqlangan [5]. Meksikada ham vaziyat öxşaş: qoramolning kamida 65 foizi *R. microplus* bilan zararlangan va yillik iqtisodiy zarar 573,6 million AQŞ dollari deb baholangan [1].

Kanalarga qarşi kuraş asosan akaritsidlarga tayanadi, biroq ularni haddan ortiq qöllaş köp qarşilikka çidamli kanalar paydo bölişiga, göşt va sutda qoldiq qolişiga hamda xarajatlar oşişiga olib keladi [1]. Maqolaning maqsadi integratsiyalaşgan yondaşuvning xorijiy tajribasini tahlil qiliş va uni Özbekiston şaroitiga qöllaş imkoniyatlarini baholaşdir.

## MATERIAL VA USULLAR

Tahlil uçun ITM mavzusidagi uçta xalqaro naşr [1–3] hamda Özbekistondagi kanalar faunasi va tarqalişiga oid ikki mahalliy manba [4, 5] tanlandi. Ma’lumotlar usullar böyiça guruhlandi va samaradorlik körsatkiçlari soliştirildi. Tahlil faqat naşrlarda keltirilgan natijalarga asoslangan, öz tajribamiz ma’lumotlari kiritilmagan.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

**Kimyoviy usulning çeklovlari.** Kasallangan hayvonlarni jadal kimyoviy işlaş kanalarda akaritsidga qarşilik tanlanişini kuçaytiradi, bir neça sinfga çidamlilik esa tobora kengayib bormoqda [2]. *R. microplus* pestitsidlarga eng çidamli artropodlar orasida dunyoda oltinçi örinda turadi. Içak gelmintlariga qarşi qöllangan ivermektin ham kanalar orasida qarşilik tanlanişiga sabab bölişi mumkin [2]. Meksikaning Tamaulipas, Verakrus va Yukatan ştatlarida bir neça sinf akaritsidga çidamli populyatsiyalar qayd etilgan [1].

**Integratsiyalaşgan yondaşuv mohiyati.** ITM xavfsiz, iqtisodiy jihatdan maqbul va ekologik barqaror bölgan mos usullarni optimal uyğunlaştirişni nazarda tutadi. Samarali kuraş biologik, kimyoviy, jismoniy va vaksina texnologiyalarini hayvon ustida ham, taşqi muhitda ham birlaştirişni talab qiladi [2].

**1-jadval. ITM tarkibiy qismlari böyiça adabiyot ma’lumotlari**

| Usul | Asosiy natijalar | Çeklovlar |
|---|---|---|
| Bm86 vaksinasi + akaritsid | Puerto-Rikoda 6 oyda akaritsid işlatiş 50–80% kamaygan; Kuba va Venesuelada 68–87%; Meksikada 9 yilda yillik işlov 24 martadan 7 martagaça tuşgan [1] | Kana ştammlari orasida nişon oqsil ketma-ketligi farq qiladi [1] |
| Entomopatogen zamburuğ (*Metarhizium anisopliae*) | Yaylovda liçinkalar 14 va 21-kunda 94 va 58% kamaygan; hayvonda 40–91%; piretroid va fosfororganik vosita bilan birgalikda çidamli ştammga 97,9% [1] | Natijalar harorat, namlik va ştammga boğliq; eng maqbul şaroit taxminan 25 °C va 75% namlik [1] |
| Ösimlik vositalari | Laboratoriyada samaradorlik 37-100%; timol amitrazning ta’sirini taxminan 74% ga oşirgan [1] | Dalada samaradorlik pasayadi, tarkibi iqlimga boğliq, ta’siri uzoq saqlanmaydi [1] |
| Yaylov almaşlab ötlatiş | 45 kunlik dam oliş davri liçinkalar jonçanligini kamaytirgan [1] | Kana dinamikasi, iqlim va çorbalar soniga boğliq [1] |


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311007

| | | |
|---|---|---|
| Zebu zotlari | Evropa zotlariga nisbatan çidamliroq [1] | Mahsuldorligi past [1] |

Puerto-Riko sut fermalarida vaksina va bir neça xil ta'sir mexanizmli vositalar birga qöllanganda soğma sigirlarda babezioz tufayli ölim kuzatilmagan, kasallaniş kamaygan va kanalar soni past bölgan [3].

**Tatbiq etişdagi tösiqlar.** ITM muvaffaqiyati uçun ekstension va veterinariya xizmatlari, manfaatdor tomonlar iştiroki zarur [2]. Meksika tajribasida mayda tovar işlab çiqaruvçilarga axborot yetkaziş va dasturni alohida xöjalik darajasida emas, hududiy darajada joriy etiş alohida ahamiyatga ega deb körsatilgan [1].

IQTIBOS UÇUN Muratbaeva Quwanişbay Z., Axmedov B.N. Parrandalarda koksidioz kasalligining epizootologiyasi, patologoanatomik özgarişlari // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 163–171. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311030

ANNOTATSIYA Uşbu maqolada parrandaçilik xöjaliklarida Koksidioz kasalligining profilaktikasida sanitariya-gigiyena tadbirlarining ahamiyati ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi. Parrandalarda Koksidioz qözğatuvçilarining tarqaliş xususiyatlari, infeksiyaning yuqiş yöllari va kasallikning veterinariya-sanitariya jihatidan ahamiyati yoritiladi. Ilmiy manbalardagi ma'lumotlarni umumlaştiriş asosida sanitariya-gigiyena tadbirlarini bioxavfsizlik çoralari va veterinariya nazorati bilan uyğunlaştirişning ahamiyati asoslanadi. Maqolada parrandaçilik xöjaliklarida Koksidioz tarqaliş xavfini kamaytirişga qaratilgan profilaktik tadbirlarni takomillaştiriş böyiça tavsiyalar bayon etiladi.

АННОТАЦИЯ В данной статье анализируется значение санитарно-гигиенических мероприятий в профилактике кокцидиоза в птицеводческих хозяйствах на основе научной литературы. Освещаются особенности распространения возбудителей кокцидиоза у домашней птицы, пути передачи инфекции и ветеринарно-санитарное значение заболевания. На основе обобщения данных из научных источников обосновывается важность согласования санитарно-гигиенических мероприятий с мерами биобезопасности и ветеринарным контролем. В статье изложены рекомендации по совершенствованию профилактических мероприятий, направленных на снижение риска распространения кокцидиоза в птицеводческих хозяйствах.

ABSTRACT This article analyzes the importance of sanitary and hygienic measures in the prevention of coccidiosis in poultry farms based on scientific literature. The article discusses the characteristics of the spread of coccidiosis pathogens in poultry, the routes of infection, and the veterinary and sanitary significance of the disease. Based on the generalization of data from scientific sources, the importance of combining sanitary and hygienic measures with biosafety measures and veterinary control is substantiated. The article describes recommendations for improving preventive measures aimed at reducing the risk of the spread of coccidiosis in poultry farms.

KALIT SÖZLAR Parrandaçilik, Koksidioz, immunitet, epizootologiya, klinik, patologoanatomik, protozoy parazitlar, Qon, Eimeria tenella, Eimeria acervulina, Eimeria maxima, Eimeria necatrix va Eimeria brunetti.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА птица, кокцидиоз, иммунитет, эпизоотология, клиническая, патологоанатомическая, простейшие паразиты, кровь, Eimeria Tenella, Eimeria acervulina, Eimeria maxima, Eimeria Necatrix и Eimeria brunetti.

KEYWORDS poultry, coccidiosis, immunity, epizootology, clinical, pathologoanatomics, protozoan parasites, blood, Eimeria tenella, Eimeria acervulina, Eimeria maxima, Eimeria necatrix and Eimeria brunetti.

**Mavzuning dolzarbligi.** Respublikamiz iqtisodiyotiga salmoqli hissa qöşib kelayotgan qişloq xöjaligining asosiy tarmoği bölgan parrandaçilik sohasini rivojlantiriş, uning rentabelligini oşirişda mas'uliyati çeklangan jamiyatlar, fermer, şirkat, hamda şaxsiy yordamçi xöjaliklarda ğuşt, tuxum yunalşidagi parrandalar boş sonini köpaytiriş, ularning maxsuldorligini oşiriş, maxsulot sifatini yaxşilaş, ularni töğri parvarişlaş, sohada uçrab turgan yuqumli, yuqumsiz va parazitar kasalliklarni oldini oliş hamda davolaşdagi tizimli tadbirlar yölga qöyilmoqda.

Quşlarning turli kasalliklari parrandaçilik uçun katta xavf hisoblanadi. Quşlar orasida Koktsidioz kasalligi katta iqtisodiy zarar keltiradigan muammolardan biri ekanligi hammaga ma'lum. Veterinariya sohasida biologik va kimyoviy preparatlar tanqisligi muammosi yanada murakkablaşib, kasalliklarning kengroq tarqalişiga imkon yaratadi.

**Kasallik ta'rifi va örganiliş tarixi:** Koksidioz — Eimeria avlodiga mansub obligat hujayra içi protozoalari qözğatadigan, içak epiteliysining şikastlanişi, diareya, qonli iç ketiş, oriqlaş va mahsuldorlikning pasayişi bilan keçadigan invazion kasallikdir. Organizmda yetarliça köp koksidiyalar köpayganda klinik kasallik — koksidioz rivojlanadi, kam miqdordagi invaziyada esa belgilarsiz, ammo mahsuldorlikka salbiy ta'sir körsatuvçi subklinik koksidioz kuzatiladi [5].

Parranda koksidiozini ilmiy örganişda amerikalik olim E.E. Tyzzer ning 1929-yildagi fundamental işi asos bölib xizmat qilgan: u tovuqlardagi bir neça Eimeria turini tavsiflab, ularning içakning ma'lum qismlariga xosligi (lokalizatsiyasi) va turga xos immunitet tamoyilini körsatib bergan [7]. H.D. Çapman öz şarhida XX asr davomidagi asosiy bosqiçlarni — turlarning tavsiflanişi, sulfanilamidlarning 1940-yillarda qöllanila boşlanişi, ozuqa bilan profilaktik antikoksidiallar beriş tizimining joriy etilişi, 1970-yillarda ionofor preparatlarning paydo bölişi va tirik vaksinalarning işlab çiqilişini — umumlaştirgan [8].

Keyingi ön yilliklarda tadqiqotlar molekulyar biologiya, genomika, immunologiya va içak mikrobiotasi yönalişlarida çuqurlaşdi [9]. Attenuatsiyalangan (barvaqt yetiluvçi) ştammlar asosidagi vaksinalarning yaratilişi M.W. Şirley va hammualliflarining işlarida batafsil yoritilgan bölib, ular Eimeria biologiyasini biliş nazorat strategiyalarini işlab çiqişning kaliti ekanini ta'kidlaydi [10].

**Qözğatuvçi:** Koksidioz qözğatuvçilari Apicomplexa tipi, Conoidasida sinfi, Eucoccidiorida turkumi, Eimeriidae oilasi, Eimeria avlodiga mansub. Ular monoksen (bitta xöjayinli), qat'iy xöjayin-spetsifik parazitlar bölib, hujayraga kiriş uçun zarur bölgan apikal kompleks organellalariga ega [5, 15]. Tovuqlarda (Gallus gallus domesticus) uzoq vaqt davomida yettita tur tan olingan: E. acervulina, E. brunetti, E. maxima, E. mitis, E. necatrix, E. praecox va E. tenella. Har bir tur içakning muayyan qismini zararlaydi va patogenlik darajasi bilan farqlanadi [5, 11].

**1-jadval.** Tovuq eymeriyalarining asosiy xususiyatlari

| Tur | Asosiy lokalizatsiya | Patogenlik | Ootsista ö'lçami, mkm | Prepatent davr |
|---|---|---|---|---|

 https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311030 

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| *E. tenella* | Kör içaklar | Juda yuqori (qonli tiflit) | 22,0 × 19,0 | ~115 soat |
| *E. necatrix* | Ingiçka içak örta qismi (şizontlar), kör içaklar (jinsiy bosqiç) | Juda yuqori | 20,4 × 17,2 | ~138 soat |
| *E. brunetti* | Ingiçka içak pastki qismi, tögʻri içak | Yuqori | 24,6 × 18,8 | ~120 soat |
| *E. maxima* | Ingiçka içak örta qismi | Örtaça–yuqori | 30,5 × 20,7 (eng yirik) | ~121 soat |
| *E. acervulina* | Ön ikki barmoqli içak | Örtaça | 18,3 × 14,6 | ~97 soat |
| *E. mitis* | Ingiçka içak pastki qismi | Past–örtaça | 16,2 × 16,0 | ~93 soat |
| *E. praecox* | Ön ikki barmoqli içak | Past | 21,3 × 17,1 | ~84 soat |

**Klinik jihatdan turlar ikki guruhga ajratiladi:** gemorragik enterit çaqiruvçilar (E. tenella, E. necatrix, E. brunetti) va asosan malabsorbsiya hamda mahsuldorlik yöqotişiga sabab böluvçilar (E. acervulina, E. maxima) [12].

Sönggi yillardagi muhim kaşfiyot — tovuqlarda uçta kriptik operatsion taksonomik birlik aniqlanişidir. Ular dastlab Avstraliyada topilgan va uzoq vaqt janubiy yarimşarga xos deb hisoblangan [13]. Nigeriyada ötkazilgan tadqiqotda uçala genotip ham keng tarqalgani va keng qöllaniladigan tur-spetsifik PCR usuli ularni aniqlay olmasligi körsatilgan, bu esa molekulyar taşxisda soxta salbiy natijalar xavfini tuğdiradi [14]. 2021-yilda D.P. Blake va hammualliflari genetik va biologik tavsif asosida ularni yangi turlar sifatida taklif qilişgan: E. lata (OTUx), E. nagambie (OTUy) va E. zaria (OTUz). Muhimi, bu turlar patogen bölib, mavjud tijorat vaksinalari ulardan himoya qilmaydi [12].

**Rivojlaniş sikli va patogenez**: Eimeria ning hayot sikli töğridan-töğri (oraliq xöjayinsiz) bölib, taşqi muhitdagi (ekzogen) va xöjayin organizmidagi (endogen) bosqiçlardan iborat [15]. Yuqiş yöli — fekal-oral: parranda invazion bosqiçdagi sporalangan ootsistalarni ozuqa, suv yoki töşama bilan yutadi [5].

**Ekzogen bosqiç (sporogoniya).** Axlat bilan taşqariga çiqqan sporalanmagan ootsista invazion emas. Mos harorat, namlik va kislorod mavjud bölganda u 1–2 kun içida sporalanadi va içida törtta sporotsista, har birida ikkitadan — jami sakkizta sporozoit hosil böladi [11, 15]. Ootsista devori köp qavatli bölib, köplab dezinfeksiyalovçi vositalarga çidamli; şu sababli ootsistalar töşama va binolarda uzoq saqlanadi [11].

**Endogen bosqiç.** Yutilgan ootsista muşakli oşqozonda mexanik ta’sirda yemiriladi, ingiçka içakda öt kislotalari va tripsin ta’sirida sporozoitlar ozod böladi (ekstsistatsiya). Sporozoitlar içak epiteliy hujayralariga kirib, parazitofor vakuola hosil qiladi va trofozoitga aylanadi [5]. Söng aseksual köpayiş — merogoniya (şizogoniya) boşlanadi: yadro köp marta bölinib, merozoitlarga töla şizont hosil böladi; turga qarab 2–4 avlod şizogoniya kuzatiladi [5, 15]. Oxirgi avlod merozoitlari gametogoniyaga ötib, mikro- va makrogametalar hosil qiladi; ular qöşilib zigota, keyin esa yangi ootsista şakllanadi va axlat bilan taşqariga çiqadi [15]. Sporalangan bitta ootsista bir neça ming yangi ootsista hosil qilişi mumkin, bu esa ziç saqlaş şaroitida invaziya bosimining tez oşişiga olib keladi.

**Patogenez.** Asosiy şikastlaniş şizontlar va gametalarning epiteliy hujayralarini yemirişi bilan boğliq. Natijada içak vorsinkalari qisqaradi, söriliş yuzasi kamayadi, ozuqa moddalari (ayniqsa, yoğlar, karotinoidlar, aminokislotalar) sörilişi buziladi [5]. E. tenella va E. necatrix

ning ikkinçi avlod yirik şizontlari şilliq qavatning çuqur qatlamlarini, jumladan qon tomirlarini şikastlab, kuçli qon ketiş va ölimga sabab böladi [11]. Içak tösiq funksiyasining buzilişi, şilimşiq işlab çiqarilişining ortişi va mahalliy yalliğlaniş içak mikrobiotasi tarkibini özgartiradi: E. tenella invaziyasida kör içak mikrobiomining xilma-xilligi patologiya oğirligiga boğliq holda özgarişi aniqlangan [19].

**Immunitet.** Koksidiozga qarşi himoyada hujayraviy immunitet hal qiluvçi ahamiyatga ega; zardob va şilliq qavat antitanaçalari hosil bölsa-da, ular himoyada asosiy rol öynamaydi [16]. CD4+ va CD8+ T-limfotsitlar, NK-hujayralar, makrofaglar va interferon-gamma (IFN-ɣ) kabi sitokinlar parazit rivojlanişini çeklaydi [16, 17]. Immunitet turga xos bölib, bir turga qarşi hosil bölgan himoya boşqa turlardan himoya qilmaydi; bu vaksinalar tarkibiga bir neçta tur kiritilişini talab qiladi [10, 18].

**Epizootologiyasi:** Parranda koksidiozi parrandaçilik rivojlangan barça mintaqalarda tarqalgan va amalda har qanday intensiv xöjalikda Eimeria ootsistalari aniqlanadi [6, 11]. Kasallik manbai — kasal va kasallikni boşidan ötkazgan, ootsista ajratib turuvçi parrandalar. Yuqiş omillari — ootsistalar bilan ifloslangan töşama, ozuqa, suv, jihozlar, xizmat körsatuvçi xodimlarning kiyim-poyabzali; mexanik taşuvçilar sifatida kemiruvçilar, yovvoyi quşlar va haşarotlar ham ahamiyatga ega [11].

**Yoş omili.** Klinik koksidioz köpinça 3–8 haftalik jöjalarda, ayniqsa broylerlarda kuzatiladi; kattaroq parrandalar odatda oldingi invaziyalar natijasida immunitetga ega böladi [11]. Biroq tabiiy şaroitda kattaroq yoşdagi parrandalarda ham invaziya yuqori bölişi mumkin: Naxçivon Avtonom Respublikasidagi hovli tovuqlarida olti oylikdan katta guruhda ootsista ajratiş 60%, yoşroq guruhda esa 34,6% ni taşkil etgan va barça musbat namunalarda 3–5 turdan iborat aralaş invaziya aniqlangan [22].

**Mavsumiylik.** Invaziya namlik va harorat oşgan davrlarda kuçayadi, çunki bunday şaroit ootsistalarning sporalanişini tezlaştiradi. Pokistonning Faysalobod hududidagi sanoat broylerlarida koksidiozning mavsumiy dinamikasi örganilgan [20]; Naxçivonda eng yuqori körsatkiç kuzda (64,9%), keyin bahor (46,4%) va yozda (36,7%) qayd etilgan [22]. Gretsiyada turli turdagi parrandalarda Eimeria turlarining tarqalişi va xavf omillari molekulyar usullarda baholangan [21]. Norvegiyadagi tijorat broylerlarida ötkazilgan epidemiologik tadqiqot morfometrik va PCR usullari bilan turlarni aniqlaş natijalarini soliştirib, aralaş invaziyalar keng tarqalganini körsatgan [23].

**Xavf omillari.** Epizootik jarayon intensivligiga quyidagilar ta’sir qiladi: parrandalarni ziç saqlaş, töşamaning namligi (oqib turgan suv idişlari, yomon ventilyatsiya), sanitariya talablarining buzilişi, binolarni partiyalar orasida yetarliça tozalamaslik, bir xil antikoksidialni uzoq muddat qöllaş natijasida çidamli ştammlar seleksiyasi hamda immunosupressiv kasalliklar [11, 29]. Kriptik turlar (E. lata, E. nagambie, E. zaria) geografik tarqalişi avval öylanganidan kengroq ekani aniqlanmoqda [12–14].

Özbekistonda eymerioz böyiça tadqiqotlar asosan Samarqand maktabi olimlari tomonidan olib borilgan; xususan, R.B. Davlatov va D. Ibragimov koksidiostatiklarning qiyosiy faolligi va ularning eymeriozga qarşi immunitet şakllanişiga ta’sirini örgangan [24].

Qoraqalpoğiston şaroitida 2026-yilning I çoragida ikki tijorat xöjaligida ("Agro Biznes Qanliköl" va "Kungrad Golden Egg" MÇJ) 1750 boş Lohmann Brown Classic tovuqlarida ötkazilgan epizootologik monitoring Koktsidiozlar bilan kasallaniş 1–9 haftalik jöjalarda eng yuqori (mos ravişda 15,2% va 12,0%) bölib, yoş ortişi bilan 6,0% gaça kamayişini körsatgan;

 https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311030 

logistik regressiya tahlilida yoş mustaqil xavf omili ekani tasdiqlangan [38]. Mualliflar mintaqada tez-tez kuzatiladigan çang-qum böronlarini yoş parrandalar rezistentligini pasaytiruvçi qöşimça ekologik omil sifatida baholagan [38]. Biroq Qoraqalpoğiston Respublikasining keskin kontinental, qurğoqçil iqlim şaroitida tovuq eymeriyalarining tur tarkibi, mavsumiy dinamikasi va kriptik turlarning uçraşi böyiça molekulyar ma'lumotlar adabiyotlarda deyarli uçramaydi. Bu esa mazkur yönalişdagi tadqiqotlarning dolzarbligini körsatadi.

**Kuraş çoralari va profilaktikasi.** Koktsidiozlarga qarşi kuraşning murakkabligi qözğatuvçilarning biologik xususiyatlari bilan belgilanadi. Amaliy jihatdan ulardan eng muhimlari quyidagilar: Parranda organizmida immunologik jihatdan bir-biridan farq qiladigan bir neça tur koktsidiyalar bir vaqtning özida parazitlik qilişi mumkin; koktsidiyaning bir turi çaqirgan kasallikni boşdan keçiriş parranda organizmini boşqa tur parazitlari bilan zararlanişdan himoya qilmaydi; turli koktsidiyalar kimyoviy preparatlarga nisbatan turliça sezuvçanlikka ega; koktsidiyalar juda jadal köpayiş qobiliyatiga ega; ookistalar fizik omillar ta'siriga çidamli bölib, taşqi muhitda uzoq vaqtgaça, hatto bir yilgaça saqlanişi mumkin; koktsidiyalar veterinariya amaliyotida qöllaniladigan dezinvaziya va dezinfeksiya vositalarining deyarli barçasiga ança çidamli.

Koktsidiozlarga qarşi kuraş tadbirlari ikki asosiy yönalişdan iborat böladi: parrandalarning ekzogen bosqiç — ookistalar bilan kuçli zararlanişiga yöl qöymaslik va parazitning endogen rivojlaniş bosqiçlariga qarşi kuraşiş. Asosiy e'tibor veterinariya-sanitariya qoidalariga qat'iy rioya qilişga va taşqi muhitda koktsidiya ookistalarini yöq qiliş uçun maxsus vositalardan foydalanişga qaratiladi.

Quritiş, kuydiriş va qizdirib pişiriş ookistalarga ayniqsa halokatli ta'sir körsatadi. Axlatni biotermik usulda zararsizlantiriş ham yuqori haroratning ingibitsiyalovçi ta'siriga asoslangan. Past harorat esa koktsidiyalarni öldirmaydi**.**

Ekzogen bosqiçlarga qarşi kimyoviy vositalar bir qator sabablarga köra (zarur konsentratsiyani hosil qiliş qiyinligi, kimyoviy moddalarning yuqori toksikligi, ötkir va yoqimsiz hid va boşqalar) amaliyotda hozirça keng qöllanilmayapti. Veterinariya amaliyotida dezinfeksiya uçun tavsiya etiladigan konsentratsiyalardagi odatiy dezinfeksiya vositalari (kreolin, formalin, kaliy permanganat, söndirilgan va xlorli ohak, kaliy va natriy işqorlari) koktsidiya ookistalariga halokatli ta'sir körsatmaydi.

Koktsidiozlarga qarşi eng samarali kuraş usuli koktsidiyalarning endogen bosqiçlariga ta'sir etişdir. U ularning rivojlanişini sekinlaştiruvçi yoki butunlay töxtatuvçi kimyoviy preparatlarni qöllaşga asoslanadi. Parazit rivojlaniş bosqiçlariga ta'siriga qarab antikoktsidiy preparatlar koktsidiozga qarşi immunitet hosil bölişiga tösqinlik qiladigan va tösqinlik qilmaydigan preparatlarga bölinadi.

Birinçi guruhga farmkoktsid, farmkoktsid-25, rigekoktsin, klopidol, klopidol-25, koyden-25, ximkoktsid, ximkoktsid-7, stenorol, lerbek, monenzin, butoksil kiradi. Bu preparatlar faqat broylerlarda koktsidiozning oldini oliş uçun 10 kunlik yoşdan boşlab butun boqiş davri davomida uzluksiz qöllanadi. Uşbu guruh preparatlari parrandalar söyilişidan 3–5 kun oldin ratsiondan çiqariladi.

Farmkoktsid — tovuq va kurkalarning barça tur koktsidiyalariga qarşi faol. U sof modda sifatida 0,0125 % dozada yoki premiks — farmkoktsid-25 şaklida ozuqaga 0,05 % hisobida qöllanadi.

Koyden-25 tovuq va kurkalarning barça tur koktsidiyalariga qarşi faol. U ozuqaga 0,05 % dozada beriladi.

Klopidol — tovuq va kurkalarning barça tur koktsidiyalariga qarşi faol. U ozuqaga 0,0125 % dozada qöllanadi. Sobiq Ittifoqda klopidol asosida premiks şakli — klopidol-25 işlab çiqarilgan bölib, u ozuqaga 0,05 % dozada qöllanadi.

Rigekoktsin — tovuq va kurkalarning barça tur koktsidiyalariga qarşi faol. U ozuqaga 0,01 % dozada qöllanadi. Sobiq Ittifoqda uşbu preparatning premiks şakli — rigekoktsin-25 işlab çiqarilgan bölib, u ozuqaga 0,05 % dozada qöllanadi.

Ximkoktsid — tovuq va kurkalarning barça tur koktsidiyalariga qarşi faol. U sof modda şaklida 0,0035 % dozada va ximkoktsid-7 premiksi şaklida ozuqaga 0,07 % dozada qöllanadi.

Butoksil (buxinolyat, antagonal) — tovuq koktsidiyalarining barça turlariga qarşi faol. U ozuqaga 0,0087 % dozada, premiks şakli — butoksil-20 esa ozuqaga 0,05 % dozada qöllanadi.

Stenorol — premiks bölib, ozuqaga 0,05 % dozada tavsiya etiladi. U tovuq koktsidiyalarining barça turlariga qarşi faol.

Lerbek — premiks bölib, uning asosini ikki yuqori samarali preparat — metilxlorpindol (farmkoktsid, rigekoktsin, klopidol) va metiltilbenzokvat (statil) taşkil etadi. U tovuq va kurkalarning barça tur koktsidiyalariga qarşi faol. Ozuqaga 0,05 % dozada qöllanadi.

Monenzin — tovuq koktsidiyalariga nisbatan keng ta'sir doirasiga ega antibiotik. U sof modda şaklida ozuqaga 0,01 % dozada qöllanadi.

Koktsidioz avj olgan paytda yuqorida körsatilgan preparatlar 3–5 kun davomida ikki barobar dozalarda beriladi, keyin esa profilaktik dozaga ötiladi.

Ikkinçi guruh antikoktsidiy preparatlarga kliromin-20, koktsidiovit, ardinon-25, koktsidin, iramin, sulfamonometaksin (daymeton), sulfadimetoksin va sulfadimezin kiradi. Bu preparatlar göşt yönalişidagi ham, tuxum yönalişidagi xöjaliklarda ham, şuningdek nasldor yoş parrandalarni östirişda 10 kunlik yoşdan boşlab qöllanadi.

Koktsidiovit — 1 g tarkibida 120 mg amprolium, 10 ming XB vitamin A va 2 mg vitamin K saqlovçi premiksdir. U tovuq va kurka koktsidiyalariga qarşi faol. Profilaktika maqsadida ozuqaga 0,1 % hisobida 7–10 hafta davomida qöllanadi, davolaş maqsadida esa 1 g koktsidiovit 1 litr suvga qöşilib 5–10 kun davomida beriladi, keyin profilaktik dozaga ötiladi.

Ardinon-25 — premiks bölib, uning faol asosi amproliumdir. U tovuq va kurka koktsidiyalariga qarşi faol. Profilaktika maqsadida preparat ozuqaga 0,05 % dozada 7–10 hafta davomida qöllanadi, davolaş maqsadida esa 0,1 % dozada 4–5 sutka davomida berilib, keyin profilaktik dozaga ötiladi.

Koktsidin — tovuq koktsidiyalariga qarşi faol. Profilaktika maqsadida u ozuqaga 0,0125 % dozada har kuni 10 kunlik ikki yoki uç kurs şaklida, ular orasida 3 kunlik tanaffus bilan qöllanadi. Davolaşda preparat dozasi ozuqaga 0,025 % gaça oşiriladi va 5 kun davomida berilib, keyin profilaktik dozaga ötiladi. Premiks şakli — koktsidin-25 ozuqaga 0,05 % dozada buyuriladi.

Iramin — tovuq koktsidiyalarining ikki turiga qarşi faol. U ozuqaga 0,04 % dozada 10 kunlik ikki-uç kurs körinişida, kurslar oraliğida 3 kunlik tanaffus bilan qöllanadi. Davolaş maqsadida esa preparat 0,08 % dozada 3 kun beriladi, söng profilaktik dozaga ötiladi.

Sulfamonometaksin (daymeton) — tovuq koktsidiozlarida faol. U broylerlarda ozuqaga 0,1 % dozada 3–5 kunlik kurslar bilan, 15 va 20 kunlik tanaffuslar orasida qöllanadi; tuxum

 https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311030 

yönalişidagi xöjaliklarda va nasl uçun qoldiriladigan yoş parrandalarni östirişda esa 4–5 kunlik kurslar bilan, 15, 20 va 35 kunlik tanaffuslar bilan qöllanadi.

Sulfamonometoksin — uzaytirilgan ta'sirga ega preparat. U tovuq va kurka koktsidiyalariga qarşi ozuqaga 0,0125 % dozada faol. 11 kunlik bitta kurs tarzida qöllanadi.

Sulfadimezin — tovuq, kurka, ğoz, ördak, bedana va fazan koktsidiozlarida faol. U ozuqaga 0,1 va 0,2 % dozada, 2 kunlik tanaffus bilan 3 kunlik kurslar körinişida qöllanadi.

Kimyoviy profilaktikani taşkil etişda xöjalikda qöllanayotgan moddalarga rezistent koktsidiyaştammlarining mavjudligi, epizootiya qaysi turlar tomonidan çaqirilganligi hisobga olinadi va şunga muvofiq preparatlar tanlanadi.

Işlab çiqariş şaroitida koktsidiyalarning antikoktsidiy preparatlarga moslaşuvi dori vositalarini qöllaş muddati va intensivligiga bevosita boğliq böladi. Bir parranda xöjaligida koktsidin, iramin, sulfadimezin, sulfamonometoksin, sulfadimetoksin, ximkoktsid va ximkoktsid-7 ni 4–5 yildan ortiq ketma-ket qöllaş tavsiya etilmaydi; farmkoktsid, farmkoktsid-25, rigekoktsin, klopidol, koyden-25 va klopidol-25 ni 5–6 yildan ortiq; koktsidiovit va ardinon-25 ni esa 8–9 yildan ortiq ketma-ket işlatiş mumkin emas.

Agar xöjalikda preparatga parazitlarning moslaşuvi sababli samaradorlik pasaygani yoki yöqolgani qayd etilsa, bir dori vositasi boşqasi bilan almaştiriladi.

Tuxum yönalişidagi xöjaliklarda va nasldor yoş parrandalarni östirişda ikkinçi guruh preparatlarini birinçi guruh preparatlari bilan almaştiriş mumkin emas.

Parrandalarda koktsidioz profilaktikasida turli antikoktsidiy birikmalardan tizimsiz foydalaniş ularni qöllaş muddatini uzaytirmaydi, aksinça, qisqartiradi. Dori vositalarining notöğri dozalarida koktsidiyalarning qöllanilayotgan preparatlarga çidamliligi ança tez şakllanadi. Şuning uçun ularni ozuqa bilan bir tekis va sinçkovlik bilan aralaştiriş zarur.

Koktsidioz bilan kasallaniş davrida tovuq organizmida ayrim aminokislotalar va mineral moddalarning tanqisligi kuzatiladi, şuning uçun davolaş tadbirlarini ötkazişda parranda ratsioniga qöşimça ravişda lizin, metionin va temir sulfat kiritiladi.

Koktsidiozlar jöjalarda immun tizimining muhim a'zolari — timus va Fabricius xaltaçasining faoliyatini susaytiradi, şuningdek yoş tovuqlar organizmining tabiiy rezistentligini pasaytiradi, bu esa virusli va bakterial infeksiyalarga qarşi immunoprofilaktika samaradorligini kamaytiradi.

Koktsidiozlar köpinça pasterellyoz, kolibakterioz va Marek kasalligi bilan assotsiatsiyada keçadi. Şuning uçun yoş tovuqlarda virusli va bakterial infeksiyalarga qarşi maxsus profilaktika koktsidiozning oldini oliş böyiça tadbirlarni qat'iy bajariş bilan birga olib borilişi zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI


1. Blake DP, Knox J, Dehaeck B, Huntington B, Rathinam T, Ravipati V, et al. Re-calculating the cost of coccidiosis in chickens. Veterinary Research. 2020;51(1):115. doi:10.1186/s13567-020-00837-2
2. Williams RB. A compartmentalised model for the estimation of the cost of coccidiosis to the world's chicken production industry. International Journal for Parasitology. 1999;29(8):1209–1229.
3. Allen PC, Fetterer RH. Recent advances in biology and immunobiology of *Eimeria* species and in diagnosis and control of infection with these coccidian parasites of poultry. Clinical Microbiology Reviews. 2002;15(1):58–65.
4. Dalloul RA, Lillehoj HS. Poultry coccidiosis: recent advancements in control measures and vaccine development. Expert Review of Vaccines. 2006;5(1):143–163.

5. Mesa-Pineda C, Navarro-Ruíz JL, López-Osorio S, Chaparro-Gutiérrez JJ, Gómez-Osorio LM. Chicken coccidiosis: from the parasite lifecycle to control of the disease. Frontiers in Veterinary Science. 2021;8:787653. doi:10.3389/fvets.2021.787653
6. Blake DP, Tomley FM. Securing poultry production from the ever-present *Eimeria* challenge. Trends in Parasitology. 2014;30(1):12–19.
7. Tyzzer EE. Coccidiosis in gallinaceous birds. American Journal of Hygiene. 1929;10:269–383.
8. Chapman HD. Milestones in avian coccidiosis research: a review. Poultry Science. 2014;93(3):501–511.
9. Chapman HD, Barta JR, Blake D, Gruber A, Jenkins M, Smith NC, et al. A selective review of advances in coccidiosis research. Advances in Parasitology. 2013;83:93–171.
10. Shirley MW, Smith AL, Tomley FM. The biology of avian *Eimeria* with an emphasis on their control by vaccination. Advances in Parasitology. 2005;60:285–330.
11. McDougald LR, Cervantes HM, Jenkins MC, Hess M, Beckstead R. Protozoal infections. In: Swayne DE, editor. Diseases of Poultry. 14th ed. Hoboken (NJ): Wiley-Blackwell; 2020.
12. Blake DP, Vrba V, Xia D, Jatau ID, Spiro S, Nolan MJ, et al. Genetic and biological characterisation of three cryptic *Eimeria* operational taxonomic units that infect chickens (*Gallus gallus domesticus*). International Journal for Parasitology. 2021;51(8):621–634. doi:10.1016/j.ijpara.2020.12.004
13. Clark EL, Macdonald SE, Thenmozhi V, Kundu K, Garg R, Kumar S, et al. Cryptic *Eimeria* genotypes are common across the southern but not northern hemisphere. International Journal for Parasitology. 2016;46(9):537–544.
14. Jatau ID, Lawal IA, Kwaga JKP, Tomley FM, Blake DP, Nok AJ. Three operational taxonomic units of *Eimeria* are common in Nigerian chickens and may undermine effective molecular diagnosis of coccidiosis. BMC Veterinary Research. 2016;12:86.
15. López-Osorio S, Chaparro-Gutiérrez JJ, Gómez-Osorio LM. Overview of poultry *Eimeria* life cycle and host-parasite interactions. Frontiers in Veterinary Science. 2020;7:384.
16. Lillehoj HS, Lillehoj EP. Avian coccidiosis. A review of acquired intestinal immunity and vaccination strategies. Avian Diseases. 2000;44(2):408–425.
17. Kim WH, Chaudhari AA, Lillehoj HS. Involvement of T cell immunity in avian coccidiosis. Frontiers in Immunology. 2019;10:2732.
18. Lee Y, Lu M, Lillehoj HS. Coccidiosis: recent progress in host immunity and alternatives to antibiotic strategies. Vaccines. 2022;10(2):215. doi:10.3390/vaccines10020215
19. Macdonald SE, Nolan MJ, Harman K, et al. Effects of *Eimeria tenella* infection on chicken caecal microbiome diversity, exploring variation associated with severity of pathology. PLoS One. 2017;12(9):e0184890.
20. Awais MM, Akhtar M, Iqbal Z, et al. Seasonal prevalence of coccidiosis in industrial broiler chickens in Faisalabad, Punjab, Pakistan. Tropical Animal Health and Production. 2012;44:323–328.
21. Andreopoulou M, Chaligiannis I, Sotiraki S, et al. Prevalence and molecular detection of *Eimeria* species in different types of poultry in Greece and associated risk factors. Parasitology Research. 2022;121:2051–2063.
22. Bakhshaliyeva S, Kirman R, Güven E, Gurbanova T, Mammadov İ. Molecular detection of *Eimeria* species in backyard chickens in the Nakhchivan Autonomous Republic. Ankara Üniversitesi Veteriner Fakültesi Dergisi. 2026;73(3). doi:10.33988/auvfd.1833836
23. Haug A, Gjevre AG, Thebo P, Mattsson JG, Kaldhusdal M. Coccidial infections in commercial broilers: epidemiological aspects and comparison of *Eimeria* species identification by morphometric and polymerase chain reaction methods. Avian Pathology. 2008;37(2):161–170.
24. Давлатов Р.Б., Ибрагимов Д. Сравнительная активность кокцидиостатиков при эймериозе птиц // Материалы научно-практической конференции. – Ставрополь: Ставропольский ГАУ, 2012. manba
25. Johnson J, Reid WM. Anticoccidial drugs: lesion scoring techniques in battery and floor-pen experiments with chickens. Experimental Parasitology. 1970;28(1):30–36.
26. Conway DP, McKenzie ME. Poultry Coccidiosis: Diagnostic and Testing Procedures. 3rd ed. Ames (IA): Blackwell Publishing; 2007.
27. Fernandez S, Pagotto AH, Furtado MM, Katsuyama AM, Madeira AMBN, Gruber A. A multiplex PCR assay for the simultaneous detection and discrimination of the seven *Eimeria* species that infect domestic fowl.

Parasitology. 2003;127(4):317–325.

28. Vrba V, Blake DP, Poplstein M. Quantitative real-time PCR assays for detection and quantification of all seven *Eimeria* species that infect the chicken. Veterinary Parasitology. 2010;174(3–4):183–190. doi:10.1016/j.vetpar.2010.09.006
29. Noack S, Chapman HD, Selzer PM. Anticoccidial drugs of the livestock industry. Parasitology Research. 2019;118(7):2009–2026. doi:10.1007/s00436-019-06343-5
30. Chapman HD. Biochemical, genetic and applied aspects of drug resistance in *Eimeria* parasites of the fowl. Avian Pathology. 1997;26(2):221–244.

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

# ҚУЁНЛАР ЭКТОПАРАЗИТЛАРИНИ ТАРҚАЛИШИ ВА ОЛДИНИ ОЛИШ ТАДБИРЛАРИ

**Болтабоева Шаҳло Қадамбой қизи**

**Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети Нукус филиали 1-курс магистранти**

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311031

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
172–174

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Болтабоева Ш.Қ. Қуёнлар эктопаразитларини тарқалиши ва олдини олиш тадбирлари // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 172–174. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311031

АННОТАЦИЯ Ушбу тезисда қуёнларда учрайдиган асосий эктопаразитлар (қулоқ ва тери каналари, бургалар, битлар), уларнинг биологик хусусиятлари, уларни турли мамлакатларда тарқалиш даражалари ҳамда тарқалишга таъсир этувчи омиллар адабиёт маълумотлари асосида ёритилган. Қуёнлар эктопаразитозларини олдини олиш ва уларга қарши курашнинг ветеринария-санитария чора-тадбирлари таҳлил қилинган.

АННОТАЦИЯ В тезисе на основе литературных данных рассматриваются основные эктопаразиты кроликов (ушные и кожные клещи, блохи, вши), их биологические особенности, показатели распространения в разных странах и факторы, влияющие на распространение. Проанализированы ветеринарно-санитарные меры борьбы и профилактики с эктопаразитозами кроликов.

ABSTRACT Based on the literature, the thesis examines the main ectoparasites of rabbits (ear and skin mites, fleas and lice), their biological characteristics, prevalence reported in different countries and the factors influencing their spread. Veterinary and sanitary measures for the prevention and control of rabbit ectoparasitosis have been analyzed.

КАЛИТ СЎЗЛАР Қуён, эктопаразит, Psoroptes cuniculi, Cheyletiella parasitovorax, эпизоотология, тарқалиш, профилактика.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА кролик, эктопаразит, Psoroptes cuniculi, Cheyletiella parasitovorax, эпизоотология, распространение, профилактика.

KEYWORDS rabbit, ectoparasite, Psoroptes cuniculi, Cheyletiella parasitovorax, epizootiology, spread, prevention.

**Кириш.** Қуёнчилик гўшт, тери ва мўйна хомашёси олишнинг тез ва кам харажатли йўналиш сифатида чорвачиликда муҳим ўрин тутади. Бироқ, қуёнларни эктопаразитозлар, яъни тери ва жун қопламида яшовчи паразитлар билан касалланиши, бу соҳа ривожига жиддий тўсиқ бўлмоқда. Эктопаразитлар тери яллиғланиши, юнгларининг тўкилиши, кучли қичишиш, вазн йўқотиш ва

иммунитетнинг сусайишига олиб келади, натижада қуёнларнинг маҳсулдорлик кўрсаткичлари пасаяди ва хўжаликларга сезиларли иқтисодий зарар етказилади [3; 4].

Адабиёт маълумотларига кўра, қуёнларда энг кўп учрайдиган эктопаразитлар қулоқ ва тери каналари (Psoroptes cuniculi, Cheyletiella parasitovorax, Sarcoptes scabiei var. cuniculi), шунингдек, бит ва бургалар ҳисобланади [9]. Ўзбекистонда қуёнлар эктопаразитлари бўйича илмий тадқиқотлар кам ўтказилганлиги боис, бу борада адабий маълумотлар ҳам кам [7; 8]. Шу сабабли қуёнлар эктопаразитларининг тарқалиши ва уларнинг олдини олиш чораларини адабиёт манбалари асосида ёритиш долзарб ҳисобланади.

**1. Асосий қисм.** Қуёнлар эктопаразитларининг турлари ва биологик хусусиятлари. Қулоқ канаси (Psoroptes cuniculi) қулоқ супраси ва каналида яшаб, қулоқда қўнғир-қорамтир қобиқ ва ажратмалар ҳосил қилади. Касалланган қуён бошини чайқайди, қулоқни ишқалайди, натижада отит ва қулоқ супраси терисининг яллиғланиши кузатилади [3; 5].

Sarcoptes scabiei var. cuniculi ва Demodex cuniculi тери ичига кириб, кучли қичишиш, тери қалинлашиши (гиперкератоз) ва сочларнинг тўкилишига олиб келади [2]. Бургалар (Spilopsyllus cuniculi) ва битлар (Haemodipsus ventricosus) қон сўриш орқали қуёнларни безовта қилади, озғинлаштиради ва ўсишни секинлаштиради.

**2. Тарқалиш даражаси**. Дунёнинг турли мамлакатларида ўтказилган илмий тадқиқотларда қуёнларда эктопаразитозларнинг тарқалиши турли даражада бўлиши қайд қилинган. Кореяда уй қуёнларида Cheyletiella parasitovorax энг юқори даражада учраган бўлса, Psoroptes cuniculi эса камроқ учраган [1]. Кенияда ўтказилган тадқиқотларда манге касаллиги фермаларнинг 57,3 фоизида қайд этилган, Psoroptes cuniculi эса текширилган фермаларнинг 49,5 фоизида учраши ва асосан қулоқ каналчасида кузатилган [3]. Ироқда Psoroptes cuniculi 25%, Demodex cuniculi 9% ни ташкил этган [2]. Тюмень вилоятида ўтказилган тадқиқотларда Psoroptes cuniculi билан зарарланиш ҳайвонлар ёшига боғлиқ эканлиги аниқланган [5].

**3. Тарқалишга таъсир этувчи омиллар.** Эктопаразитларнинг тарқалиши бир неча омилларга боғлиқ. Кенияда ўтказилган тадқиқотнинг мақсади ҳам айнан манге касаллигини келтириб чиқарувчи омилларини аниқлаш бўлган [3]. Асосий омиллар сифатида, қуён уяларининг санитария ҳолати, катакдаги зичлик, ёш қуёнларни аралаш сақлаш, янги ҳайвонларни карантинсиз киритиш, итлар, мушуклар ва ёввойи кемирувчиларнинг хўжаликка кириши, шунингдек, ёпиқ хоналарда намликнинг кўпайиши кўрсатилади. Тюмень вилоятида ўтказилган тадқиқотларда зарарланиш даражаси қуёнларнинг ёшига қараб ҳам ўзгариши қайд қилинган [5]. Қуёнчилик фермалардаги йиллик мавсумий ўзгаришлар ҳам паразитлар динамикасига таъсир қилиши кузатилган [5].

**4. Олдини олиш чора-тадбирлари**. Эктопаразитозларнинг олдини олишда биринчи навбатда янги келтирилган қуёнларни хўжаликка қўшишдан олдин 2–4 ҳафта карантинда сақлаш ва тери ҳамда қулоқ соҳасини кўздан кечириш зарур. Мунтазам профилактик кўрик касалликнинг дастлабки белгиларини эрта аниқлашга имкон беради. Хорижий давлатлардаги тадқиқотларда фермаларда манге касаллиги улушининг 1996 йилдаги 55% дан 2022 йилда 28% гача камайганини кўрсатилган, бу узоқ муддатли профилактика ва самарали хўжалик бошқарувининг натижасидир [4].

Зоогигиеник тадбирлар эктопаразитларга қарши курашнинг асосий бўғинидир. Қуён уялари, катаклар ва жиҳозлар мунтазам тозаланиб, дезинфекцияловчи воситалар билан ишлов берилиши керак. Устки тўшак материали алмаштирилиб, намлик ва чиринди тўпланишининг олдини олиш лозим. Хоналарни яхши шамоллатиш ва қуёнларни меъёрий зичликда сақлаш эктопаразитларнинг тарқалиш тенденциясини камайтиради.

Фермада касалланган ҳайвонлар соғломларидан ажратилиб даволанади, уларга ишлатилган жиҳозлар алоҳида сақланади. Эктопаразитоз аниқланган хўжаликда барча ҳайвонлар бир вақтда даволаниши лозим, акс ҳолда қайта юқиш хавфи сақланиб қолади.

Қуёнлар эктопаразитозларини даволаш ва олдини олишда антипаразитар препаратларни қўллаш муҳим. Қулоқ ва тери каналарига, шунингдек, бурга ва битларга қарши воситалар ветеринария врачи тавсияси асосида, белгиланган ҳайвоннинг вазнига қараб аниқ белгилаган а дозада қўлланилиши керак. Айрим препаратлар қуёнлар учун рўйхатга олинмаган бўлиши мумкин, шунинг учун уларни қўллашдан олдин ветеринария мутахассиси билан маслаҳатлашиш мақсадга мувофиқ. Итлар, мушуклар ва ёввойи ҳайвонларнинг қуён уяларига киришини чеклаш, ветеринария хизматининг мунтазам мониторинги ва қуёнбоқарлар ўртасида маърифий ишлар профилактиканинг самарадорлигини оширади.

**Хулоса.** Қуёнларда эктопаразитозлар кенг тарқалган бўлиб, тарқалиш даражаси мамлакат, хўжалик шароити ва ҳайвонлар ёшига боғлиқ. Қулоқ ва тери каналари, бургалар ҳамда битлар қуёнлар маҳсулдорлигига салбий таъсир кўрсатувчи асосий эктопаразитлар ҳисобланади. Уларнинг олдини олиш учун карантин, мунтазам кўрик, зоогигиеник тадбирлар, антипаразитар препаратларни тўғри қўллаш ва доимий равишда ветеринария хизмати билан ҳамкорлик қилиш зарур.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ


1. Ким С.-Ҳ., Ким С., Парк Ҳ.-Ж., Сео К.-W., Сонг К.-Ҳ. Ectoparasites infestation rates in the pet rabbits of Daejeon area, Korea // Journal of Veterinary Clinics. – 2013. – Вол. 30, Но. 3. – П. 186–188.
2. Кҳалил Л.Й., Моҳаммед Н.Ҳ., Алҳаяли Н.С. Incidence of Mange Infestation in Rabbits // Iranian Journal of Veterinary Medicine. – 2024. – Вол. 18, Но. 2. – П. 195.
3. Prevalence, control and risk factors associated with rabbit mange in Kiambu and Nyeri counties, Kenya // Livestock Research for Rural Development. – 2018. – Вол. 30, Но. 6.
4. Манге ин фармед раббитс // World Rabbit Science.
5. Spreading of Psoroptes cuniculi on rabbits and Otodectes cynotis on carnivores // Atlantis Press (Tyumen region study).
6. Хушназаров эт ал. Diagnosis and chemoprophylaxis of rabbit eymeriosis // E3S Web of Conferences. – 2024. – Вол. 480. – Арт. 03020. – ДОИ: 10.1051/e3sconf/202448003020.
7. Сафаров А., Насреэн Н., Акрамова Ф. ва бошқ. First Report on Ticks, Mites, and Other Ectoparasites Infesting Carnivorous Mammals in Uzbekistan // Advances in Animal and Veterinary Sciences. – 2024. – Вол. 13, Но. 2.
8. Diversity of lice and flea- and louse-borne pathogens in free-ranging dogs in Uzbekistan // Medical and Veterinary Entomology. – 2024.
9. Салимов Х.С. Эпизоотология: дарслик. – Тошкент, 2016.

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

UDK:639.3:615:636.31:591.11

# ТЎҚИМА ПРЕПАРАТЛАРИНИНГ ҚОРАКЎЛ ҚЎЙЛАРИНИНГ ИММУНФИЗИОЛОГИК ВА МАҲСУЛДОРЛИК КЎРСАТКИЧЛАРИГА ТАЪСИРИ

**Калбаева Айнура Муратбай кызы**

Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети Нукус филиали

**Хатамов Толмас Тулкинович**

Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети.

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311032

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
175–179

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Калбаева А.М., Хатамов Т.Т. Тўқима препаратларининг қоракўл қўйларининг иммунфизиологик ва маҳсулдорлик кўрсаткичларига таъсири // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 175–179. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311032

АННОТАЦИЯ В статье представлены результаты исследования влияния тканевых препаратов на гематологические, биохимические и иммунологические показатели каракульских ягнят. Изучены изменения количества эритроцитов, лейкоцитов, уровня гемоглобина, общего белка, альбумина, глобулинов, активности ферментов АсАТ и АлАТ, а также содержания Т- и В-лимфоцитов. Установлено положительное влияние исследуемых препаратов на отдельные показатели крови и иммунного статуса ягнят.

ANNOTATION The article presents the results of a study on the effects of tissue preparations on the hematological, biochemical, and immunological parameters of Karakul lambs. Changes in erythrocyte and leukocyte counts, hemoglobin levels, total protein, albumin, globulins, AST and ALT enzyme activities, and T- and B-lymphocyte counts were evaluated. The studied preparations demonstrated positive effects on certain blood parameters and immune status indicators in lambs.

КАЛИТ СЎЗЛАР Фермент, индуксия, метоболизм, кетоген, аминокислота, албумин, глобулин, оқсил, биосинтез, бактерия, ҳужайра.

**Кириш.** Бугунги кунда дунё аҳолисининг экологик тоза ва сифатли чорвачилик маҳсулотларига бўлган талабини қондириш ҳамда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашда ҳайвонларнинг турли хил патологиялари катта тўсиқлардан ҳисобланади. Шунингдек, ҳайвонларда табиий резистентлик ҳамда маҳсулдорлик ва пуштдорликнинг пасайиши, ёш ҳайвонларнинг ўсиш-ривожланишдан қолиши натижасида чорвачилик хўжаликларига катта иқтисодий зарар келтирмоқда. Ушбу муаммоларни самарали ҳал этишда импорт ўрнини босадиган, маҳаллий экологик жиҳатдан хавфсиз ветеринария дори воситалари, хусусан биопрепаратларни ишлаб чиқаришни модернизациялаш ва жадал ривожлантиришга эҳтиёж ортмоқда. Тўқима препаратлари ҳайвонлар организмига мураккаб таъсир кўрсатиб метаболизмни стимуллайди, марказий асаб тизими фаолиятини тиклайди ҳамда улар

иммунобиологик хусусиятлари, регенератив қобилияти ва патоген омилларга чидамлилигини ошириш хусусиятига эга. Шу боисдан сифатли ва арзон маҳаллий тўқима препаратларини ишлаб чиқиш ва кенг жорий этиш долзарб вазифалардан биридир.

Ҳайвонларда гематологик кўрсаткичларни аниқлагандан сўнг, уларнинг умумий ҳолатини, метаболик жараёнларнинг даражасини ва организмнинг иммун тизимлари фаолиятини таҳлил қилиш мумкин. Гематологик кўрсаткичларни аниқлаш ҳайвонларнинг тирик вазнининг ортиши ва уларнинг ўсиш ривожланиш биологиясини аниқлаш ҳамда маҳсулдорлик имкониятларини баҳолаш учун катта назарий ва амалий аҳамиятга эга [2; 4; 5].

Қон кўрсаткичларининг таркиби соғлом тана учун нисбатан доимийдир. Қон кўрсаткичларини аниқлаш тадқиқотлар учун энг қулай манба бўлиб хизмат қилади. Қонни текшириш осон ва унда мавжуд бўлган шаклли элементлар (гемоглобин, лейкоцитлар, эритроцитлар) ҳайвоннинг ҳолатини аниқ кўрсатади.

Ҳайвонлар организмида қон бир қатор ҳаётий вазифаларни бажаради. Шунингдек қон нафас олиш ва овқат ҳазм қилиш каби барча жараёнлар қоннинг бевосита иштирокида содир бўлишини таъкидлаш керак. Қон кислородни ўпкадан тўқималарга олиб боради (бу жараёнда қизил қон таначалари асосий рол ўйнайди) ва тўқималардан ўпкага карбонат ангидридни ташийди [1; 3; 6].

**Тадқиқот объекти ва услублари.** Тажрибалари учун нисбатан заиф бўлган 20 бош 4 ойлик қўзилар «ўхшаш жуфтликлар» асосида танлаб олинди. Биринчи гуруҳ, яъни назорат гуруҳига препарат қўлланилмади, иккинчи тажриба гуруҳдаги қўзиларга иммунофор препарати 1 граммдан кунига бир марта оғиз орқали берилди. Учинчи тажриба гуруҳи қўзиларига АСД-2Ф оғиз орқали, 2 мл 20 мл сувга аралаштириб берилади. Тўртинчи тажриба гуруҳига нуклеопептид препаратидан 3 мл дан 3 кун давомида бир марта ва 15-кун бир марта мушак орасига юборилди..

Тажриба давомида қўзилар қоннинг морфологик кўрсаткичлари BIOBACE BK6190 гематологик анализатори ёрдамида ҳамда қон зардобининг биокимёвий кўрсаткичлари эса ярим автомат Миндрай БА-88А анализатори ёрдамида аниқланди.

**Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили.** Текширишлар таҳлили бўйича қўзилар қон кўрсаткичларида сезилари фарқлар борлигини кузатиш мумкин(1-жадвал).

**1-жадвал**. Қўзилар қон кўрсаткичларига тўқима препаратларининг таъсири (n=20)

| Гуруҳлар | Қон кўрсаткичлари | Текшириш муддатлари | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Тажриба бошида | 7 кун | 14 кун | 21 кун | 28 кун |
| | | M±м | M±м | M± м | M±м | M±м |
| Назорат | Эритроцит млн/мкг | 9,63±0,13 | 9,52±0,6 | 9,12±0,23 | 9,34±0,5 | 9,44±0,31 |
| | Лейкоцит минг/мкг | 7,62±0.39 | 7,54±0.27 | 7,46±0.18 | 7,49±0.31 | 7,59±0.11 |
| | Гемоглобин г/л | 118,0±0,56 | 118,0±0,12 | 117,0±0,38 | 116,0±0,23 | 113,0±0,37 |


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311032

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| I | Эритроцит млн/мкг | 8,80±2,9 | 8,62±1,6 | 8,34±0,57 | 8,74±1,4 | 8,86±1,1 |
| | Лейкоцит минг/мкг | 7,66±0,23 | 7,45±0,12 | 7,16±0,28 | 7,34±0,31 | 7,72±0,13 |
| | Гемоглобин г/л | 125,0±1,06 | 124,0±0,6 | 126,0±1,3 | 126,0±0,25 | 127,0±1,2 |
| II | Эритроцит млн/мкг | 9,11±0,54 | 8,31±0,14 | 9,32±0,23 | 9,52±0,5 | 9,71±0,32 |
| | Лейкоцит минг/мкг | 8,52±0.21 | 8,32±0.11 | 8,68±0.36 | 8,51±0.13 | 9,14±0.26 |
| | Гемоглобин г/л | 119,3±0,84 | 117,1±0,14 | 119,8±0,27 | 126,3±0,12 | 127,2±0,41 |
| III | Эритроцит млн/мкг | 8,46±0,52 | 7,68±0,72 | 8,66±0,12 | 9,64±0,24 | 9,87±0,36 |
| | Лейкоцит минг/мкг | 7,28±0,34 | 7,29±0,46 | 7,38±0,21 | 7,41±0,12 | 7,46±0,47 |
| | Гемоглобин г/л | 113,4±0,59 | 110,8±0,18 | 115,7±0,25 | 123,2±0,56 | 129,0±0,23 |

Эслатма: P<0,05

Текширишларнинг охирига келиб, 1-тажриба гуруҳидаги қўзиларнинг қондаги эритроцитларнинг миқдори ўртача 8,80±2,9 млн/мкг дан 8,86±1,1 млн/мкг гача, лейкоцитлар – 7,66±0,23 минг/мкг дан 7,72±0,13 минг/мкг гача, гемоглобин – 125,0±1,06 г/л дан 127,0±1,2 гача, 2-тажриба гуруҳида эритроцитлар 9,11±0,54 млн/мкг дан 9,71±0,32 млн/мкг гача, лейкоцитлар – 8,52±0.21 минг/мкг дан 9,14±0.26 минг/мкг гача, гемоглобин – 119,3±0,84 г/л дан 127,2±0,41 гача, 3-тажриба гуруҳида эритроцитлар 8,46±0,52 млн/мкг дан 9,87±0,36 млн/мкг гача, лейкоцитлар – 7,28±0,34 минг/мкг дан 7,46±0,47 минг/мкг гача, гемоглобин – 113,4±0,59 г/л дан 129,0±0,23 гача ўзгарганлиги ҳамда назорат гуруҳидан фарқли равишда ўсиб борганлигини кўрсатди. Тадқиқотлар давомида қўзилар қон кўрсаткичларидан умумий оқсил миқдори, албумин, глобулинлар миқдорлари ва ферментлардан аспартатаминотрасфераза, аланинаминотрасфераза фаоллиги ҳамда Т ва В лимфоцитлар сони тажриба бошида ва тажриба охирида яъни 28-кун текширилганда қуйидагича натижалар олинди.

**2-жадвал**. Тажрибадаги қўзилар қонининг биокимёвий кўрсаткичлари (n=10)

| **Кўрсаткичлар** | **Гуруҳлар** | | | |
|---|---|---|---|---|
| | **Назорат** | | **Тажриба** | |
| | **Т.Б** | **Т.О** | **Т.Б** | **Т.О** |
| Умумий оқсил г/л | 65,3±2,2 | 65,8±1,3 | 65,2±1,2 | 68,4±0,62 |
| Альбумин % | 33,8±1,8 | 33,9±0,48 | 33,4±0,62 | 35,1±0,14 |
| Глобулин % | 31,5±0,24 | 31,7±0,75 | 31,8±0,94 | 33,3±0,11 |
| α-глобулин % | 9,68±0,65 | 9,47±0,19 | 9,62±0,65 | 10,1±0,31 |
| β-глобулин % | 7,25±0,44 | 7,79±0,27 | 7,64±0,44 | 8,0±0,23 |
| γ-глобулин % | 14,57±0,43 | 14,64±0,59 | 14,45±0,43 | 15,2±0,52 |
| АсАТ ммоль.с/л | 0,46±0,03 | 0,46±0,05 | 0,45±0,04 | 0,42±0,06 |
| АлАТ ммоль.с/л | 0,39±0,04 | 0,39±0,06 | 0,40±0,05 | 0,37±0,03 |

Эслатма: P<0,05. *Изоҳ: Т.Б.-тажриба бошида; Т.О.-тажриба охирида.*

Олинган натижалар тахлили шуни кўрсатадики назорат ва тажриба гуруҳларидаги қўзилар қонидаги биокимёвий кўрсаткичларнинг ўзаро фарқ борлиги кузатилди. Назорат гуруҳидаги қўзилар қонидаги умумий оқсил миқдори тажриба давомида 65,3±2,2 г/л дан 65,8±1,3 г/л гача, албумин 33,8±1,8% дан 33,9±0,48% гача, глобулин 31,5±0,24 % дан 31,7±0,75% гача, аспартатаминотрасфераза 0,46±0,03 ммоль.с/л дан 0,46±0,05 ммоль.с/л гача, аланинаминотрасфераза 0,39±0,04 ммоль.с/л дан 0,39±0,06 ммоль.с/л гача кўпайганлигини кўрсатди. Тажриба гуруҳида эса умумий оқсил миқдори тажриба давомида 65,2±1,2 г/л дан 68,4±0,62 г/л гача, албумин 33,4±1,8% дан 35,1±0,14% гача, глобулин 31,8±0,94% дан 33,3±0,11% гача кўпайганлиги, аспартатаминотрасфераза 0,45±0,04 ммоль.с/л дан 0,42±0,06 ммоль.с/л гача, аланинаминотрасфераза 0,40±0,05 ммоль.с/л дан 0,37±0,03 ммоль.с/л гача камайганлиги аниқланди (2-жадвал).

Тажриба қўзиларининг қони морфологик таркиби ва биокимёвий кўрсаткичларида аниқланган ўзгаришлар шундан далолат берадики, нуклеопептид препарати таъсирида улар организми тизимлари ва аъзоларининг таркибий ва функционал бирлигини таъминлайдиган баъзи бир биокимёвий механизмларга ижобий таъсир кўрсатади. Шу муносабатда препаратнинг гомеостазни фаол физиологик даражада ушлаб туруви иммун тизим ҳолатига ижобий таъсирини ўрганиш муҳим аҳамият касб этади. Тажриба қўзиларига нуклеопептид препарати қўлланилганда уларни иммунобиологик текшириш натижалари 3-жадвалда келтирилган.

**3 -жадвал.** Қўзилари қон зардобининг иммунологик кўрсаткичлари (n=10)

| Кўрсаткичлар | Статистик кўрсаткич | Гуруҳлар | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Назорат | | Тажриба | |
| | | Т.Б | Т.О | Т.Б | Т.О |
| Т-лимфоцитлар (нисб.,%) | M±м | 53,2±2,38 | 53,1±2,2 | 50,5±2,2 | 54,27±1,7 |
| Т-лимфоцитлар (мутл.x$10^9$/л) | M±м | 2,08±0,19 | 1,89±0,42 | 1,67±0,16 | 2,58±0,21 |
| В-лимфоцитлар (нисб.,%) | M±м | 32,0±0,24 | 31,78±0,61 | 30,36±1,76 | 31,99±0,26 |
| В-лимфоцитлар (мутл.x$10^9$/л) | M±м | 1,67±0,28 | 1,48±0,42 | 1,42±0,63 | 1,79±0,67 |

Эслатма: P<0,05

Олинган маълумотлар шуни кўрсатмоқдаки, ўрганилаётган препарат 01 мл/кг миқдорда қўлланилган тажриба гуруҳи қўзилари қон зардобида Т-лимфоцитларинг сонини 7,46% га (P<0,05) ошганлиги, назорат гуруҳида эса 1,43% га камайганлиги аниқланди. В-лимфоцитларинг нисбий ва мутлақ миқдори томонидан жиддий оғишлар кузатилмади.

**Хулоса.** Нуклеопептид препарати қисқа муддатда қўлланилганда ҳам эритроцитлар, лейкоцитлар сонини ошишига, гемоглобин миқдорини кўтарилишига олиб келди.


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311032

Тажрибалар охирида тажриба бошига ва назоратга нисбатан сезиларли ўзгаришлар борлигини кўрсатди. Жумладан умумй оқсил миқдори 4,9% га, албумин 5% га, глобулинлар 4,72% га кўпайганлиги ва ферментлардан аспартатаминотрасфераза фаоллиги 6,6% га, аланинаминотрасфераза 7,5% га камайганлиги, Т-лимфоцитларнинг сонини 7,46% га ошганлигини кўрсатди.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ


1. Даричева Н.Н. Ермолаев В.А. Новое в тканевой терапии. // Мат. межд. конф. – Уфа. – 2000. – Стр. 119-121.
2. Даричева Н.Н. Изготовление и применение тканевого препарата у животных. // Сб. всер. науч. – практ. конф., Уфа, 2006. – Стр. 16-22.
3. Хатамов Т.Т. Использование биогенных стимуляторов в ветеринарнии и фармацевтические требования к ним. Life Sciences and Agriculture №3. 2020. 44 с.
4. Xatamov T.T, Xoliqov A.A,.Quldoshev G‘.M. Efficacy of tissue products in karakul lambs, when shown by different nutrition. European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE). 40-41 b.
5. Xatamov T.T. Forel balig‘i jigari ekstraktini qorako‘l qo‘zilari qonining biokimyoviy ko‘rsatkichlariga ta’siri. International Conference on Developments in Education, Sciences and Humanities. Hamburg, Germany Conference-2022. 355 b.
6. Уша Б.В. Новые высокоэффективные препараты из сырья животного происхождения. // Ветеринария. – 1999.- № 1.- С. 47-48.

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

# ЙИРТҚИЧ БАЛИҚЛАР ГЕЛЬМИНТЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШ ҲОЛАТИ

**ПАРАХАТОВ А.Р.**

***Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети Нукус филиали,***

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311033

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
180–184

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Roʻzimov V.U., Aleuatdinov H.S. Bodifors preparati va uning hayvonlar organizmiga farmakologik ta'siri // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 216–219. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311041

ANNOTATSIYA *Uşbu maqolada Bodifors preparatining tarkibi, ta'riflangan farmakologik ta'sir mexanizmi va hayvonlarda qöllanişiga oid ma'lumotlar adabiyotlar asosida tahlil qilinadi. Somatostatinga qarşi antitelolar hosil bölişi orqali uning biologik ta'sirini kamaytirişning ilmiy asoslari, ösiş gormoni bilan boğliq özgarişlar yoritiladi. Preparatga oid mahalliy tadqiqotlar qisqaça körib çiqilib, asosiy e'tibor uning oqsil tabiatli faol komponenti, immunofarmakologik mexanizmi va hazm jarayonlari bilan boğliq ta'sirlariga qaratiladi.*

KALIT SÖZLAR Bodifors, somatostatin, somatotropin, antigen, antitelo, determinant, farmakologik ta'sir, ösiş-rivojlaniş.

**Kiriş.** Hayvonlarning ösiş-rivojlanişini boşqaruvçi biologik jarayonlarni örganiş veterinariya farmakologiyasida muhim ahamiyatga ega. Uşbu yönalişda somatostatinning tormozlovçi ta'sirini kamaytiriş orqali ösiş jarayonlariga ta'sir körsatiş bayon etilgan. Somatostatinga qarşi organizmda unga xos antitelolar hosil bölişiga asoslanadi. Qözilarda ötkazilgan ayrim tajribalarda bunday yondaşuv tirik vazn ortişining tezlaşişi bilan keçgan [1].

Biroq somatostatinga qarşi immunizatsiyaning natijalari barça tadqiqotlarda bir xil bölmagan. Bass va boşqalar qöylarda immunizatsiyadan keyin insulinga öxşaş ösiş omili-1 (IGF-1) miqdori oşganini, ammo ösiş gormoni miqdorida sezilarli özgariş kuzatilmaganini qayd etgan. Uşbu tajribada ösiş sur'atining ortişi ham kiçik bölgan. Bu holat immunologik ta'sir bilan mahsuldorlikdagi özgarişlarni alohida baholaş zarurligini körsatadi [2].

Bodiforsni hayvonlarda qöllaşga oid mahalliy tadqiqotlar ham mavjud. V.U.Roʻzimov va H.B.Niyozovlarning maqolasida Qoraqalpoğiston Respublikasi şaroitida qoramollarda Bodifors va Multivit+Mineral preparatlaridan foydalaniş masalalari yoritilgan [3]. V.U.Roʻzimov va boşqalarlarning boşqa işlarida uşbu preparatlar qöllanilganda qoramollar hamda quyonlar qonining morfologik körsatkiçlaridagi özgarişlar örganilgan [4, 5]. Mazkur

işlar preparatga oid mahalliy ilmiy ma'lumotlarni töldiradi. Birgalikda qöllanilgan preparatlar natijalari esa kombinatsiyaga oid kuzatuvlar sifatida talqin qilinişi lozim.

**Maqolaning maqsadi**. Bodifors preparatining tarkibi va ta'riflangan farmakologik ta'sir mexanizmini ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qiliş hamda uning hayvonlar organizmiga ta'siriga oid mavjud ma'lumotlarni umumlaştiriş.

**Bodifors preparatining tarkibi va oqsil tabiati**. Tarkibi 1ml preparat tarkibida 3.0mg oqsil (somatostatin determinant antigeni), yordamçi moylar.

Farmokologik xususiyatlari: ta'sir etiş mexanizmi hayvonlar organizm töqimalarida somatostatin işlab çiqariş jarayonini pasaytirişi va endogen somatotropin va oşqozon-içak fermentlarini faollaştiradi, bu esa vazn oşirişga olib keladi.Tarkibidagi faol komponentga asoslanib, Bodiforsni oqsil tabiatli faol modda saqlovçi biologik preparat sifatida tavsiflaş mumkin. Biroq "oqsil preparati" moddaning kimyoviy tabiatini, "töqima preparati" esa uning oliniş manbasini ifodalaydi. Şu sababli tarkibida oqsil mavjudligining özi Bodiforsni töqima preparatlari guruhiga kiritiş uçun yetarli asos bölmaydi. Bunday tasnif uçun faol moddaning manbasi va işlab çiqariş texnologiyasiga oid ma'lumotlar zarur.

Preparat tarkibini şarhlaşda "somatostatin determinant antigeni" iborasiga alohida e'tibor beriş lozim. Işlab çiqaruvçi faol moddani antigen oqsil sifatida körsatgan. Şuning uçun 3 mg/ml miqdorni tayyor somatotropin yoki biologik faol somatostatin gormonining dozasi deb tuşuniş töğri emas. Bu miqdor mahsulot tavsifida berilgan antigen oqsil konsentratsiyasini ifodalaydi.

**Immunofarmakologik ta'sir mexanizmi.** Bodiforsning ta'riflangan ta'siri somatostatinga qarşi yönaltirilgan immun javob bilan boğliq. Preparat tarkibida tayyor somatotropin körsatilmagan; uning nazarda tutilgan ta'siri organizmdagi gormonal boşqaruvga immunologik yöl bilan ta'sir körsatişga asoslanadi.

Somatostatinga qarşi hosil bölgan antitelolar endogen somatostatin bilan boğlanadi. Natijada uning biologik faol, erkin şaklining ta'siri kamayişi mumkin. Qöylarda ötkazilgan tadqiqotda somatostatinga qarşi immunizatsiyadan keyin immunoglobulinlar bilan boğlangan somatostatin aniqlangan. Bu kuzatuv antitelolar orqali gormon faolligini özgartiriş mexanizmini qöllab-quvvatlaydi [6].

Gormonning biologik ta'siri kamayişi uning sintezi ham kamayişini anglatmaydi. Mazkur tadqiqotda me'daning fundal qismida somatostatin sintezi va zaxiralanişiga oid körsatkiçlar oşgan. Mualliflar buni faol somatostatinning kamayişiga javoban yuzaga keladigan qayta aloqa mexanizmi bilan izohlagan [6]. Şunday qilib, Bodiforsning ta'riflangan farmakodinamikasini "somatostatin işlab çiqarilişini pasaytiriş"dan köra, uning biologik ta'sirini immunologik yöl bilan kamaytiriş orqali tuşuntiriş aniqroqdir.

Somatostatinga qarşi faol immunizatsiya bilan passiv immunizatsiya örtasida ham farq mavjud. Faol immunizatsiyada antigen yuborilib, hayvon organizmida unga qarşi antitelolar şakllanişi örganiladi; passiv immunizatsiyada esa tayyor antitelolar yuboriladi. Adabiyotlarda ikkala yondaşuvdan foydalanilgan [1,6]. Bodiforsning işlab çiqaruvçi tomonidan berilgan tavsifi antitelolar hosil bölişini rağbatlantirişga asoslanganligi uçun uning nazarda tutilgan mexanizmi faol immunizatsiya yondaşuviga mos keladi.

Antigen yuborilişi, antitelolarning paydo bölişi va yakuniy fiziologik samara bir xil hodisa emas. Farmakologik talqinda uşbu bosqiçlarni ketma-ket körib çiqiş zarur: avval somatostatinga qarşi immun javob şakllanişi, keyin gormon bilan boğlaniş va biologik

ta’sirning özgarişi, undan söng ösiş yoki hazm jarayonlaridagi natija baholanadi. Antitelo aniqlanişining özi mahsuldorlik oşganini isbotlamaydi; buning uçun hayvonning ösiş körsatkiçlari ham ölçanişi kerak [1, 2, 6].

**Somatotropin va ösiş omillari bilan boğliq ta’siri.** Somatostatin ösiş gormoni somatotropin sekretsiyasini tormozlovçi boşqaruvda iştirok etadi. Şu sababli uning ta’sirini kamaytiriş somatotropin sekretsiyasiga ta’sir körsatişi mumkin. Qözilarda ötkazilgan ayrim tajribalar aylanib yuruvçi somatostatinning ösiş gormoni sekretsiyasini tormozlaşdagi rolini körsatgan. Biroq şu tajribada insulin, glyukagon va tireotrop gormon sekretsiyasida şunga mos umumiy özgariş aniqlanmagan [7]. Demak, bu mexanizmni barça gormonlar faolligining birdek oşişi sifatida talqin qiliş mumkin emas.

Somatostatinga qarşi immunizatsiyaning yana bir örganilgan jihati IGF-1 bilan boğliqdir. Qöylardagi tadqiqotda IGF-1 miqdori oşgan, biroq ösiş gormoni va tiroksin miqdorida guruhlar örtasida sezilarli farq qayd etilmagan [8]. Bu natija ösişni rağbatlantiruvçi ta’sirni faqat qondagi somatotropin miqdori bilan izohlaş yetarli emasligini körsatadi.

Bass va boşqalar tadqiqotida ham IGF-1 miqdorining oşişi tirik vazn ortişidagi çeklangan özgariş bilan keçgan. Tana tarkibida sezilarli özgariş aniqlanmagan [2]. Demak, biologik mexanizmga oid körsatkiçning özgarişi mahsuldorlikning katta darajada oşganini anglatmaydi. Somatostatinga qarşi boşqa antigenlar bilan bajarilgan mazkur tadqiqotlar Bodiforsning ta’riflangan mexanizmi uçun ilmiy asos beradi, ammo preparatning özига oid samaradorlik dalilini almaştirmaydi.

Qözilarda ötkazilgan dastlabki tajribalardan birida somatostatin taşuvçi oqsil bilan biriktirilgan holda qöllanilgan va immunizatsiya qilingan hayvonlarda antitelolar titri aniqlangan. Uşbu hayvonlarda vazn ortişi hamda böy ösişi nazorat guruhiga nisbatan yuqori bölgan, tana tarkibida esa sezilarli özgariş qayd etilmagan [1]. Bu holat ösiş tezlaşişini avtomatik ravişda tana tarkibining ma’lum yönalişda özgarişi bilan tenglaştirmaslik kerakligini körsatadi.

Oziqlantiriş şaroiti bilan boğliq farqlar ham muhimdir. Bass va boşqalarning tadqiqotida yangi örilgan yaylov öti yoki granulalangan beda bilan oziqlantirilgan qöylar taqqoslangan. Immunizatsiyadan keyin har ikkala ratsiondagi hayvonlarda IGF-1 oşgan, ammo yaylov öti bilan oziqlangan hayvonlarda uşbu omil darajasi granulalangan yem berilgan hayvonlarga qaraganda pastroq bölgan [2]. Şunday qilib, gormonal körsatkiçni preparatga javob sifatida talqin qilişda oziqlantiriş şaroitini ham hisobga oliş zarur.

Somatotropin va somatamedin bilan birga boşqa metabolik körsatkiçlar ham örganilgan. Yuqoridagi tadqiqotda immunizatsiya qondagi IGF–II, erkin yoğ kislotalari va glyukoza konsentratsiyalariga ta’sir körsatmagan [2]. Şu sababli somatostatinga qarşi immunizatsiyani modda almaşinuvining barça yönalişlarini birdek kuçaytiruvçi mexanizm deb umumlaştiriş mumkin emas. Farmakologik ta’sir qaysi körsatkiçda va qanday şaroitda aniqlangan bölsa, aynan şu doirada tavsiflanişi kerak.

**Xulosa.** Bodifors somatostatin determinant antigeni hisoblangan oqsil saqlovçi biologik preparat bölib, işlab çiqaruvçi uning ta’sirini somatostatinga qarşi antitelolar hosil bölişi bilan izohlaydi. Şu jihatdan preparatning farmakologik xususiyatlarini somatostatinning biologik ta’sirini immunologik yöl bilan kamaytiriş mexanizmi asosida körib çiqiş mumkin.


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311041

Ilmiy adabiyotlarda somatostatinga qarşi immunizatsiya ösiş omillari va hazm yöli faoliyatidagi özgarişlar bilan boğliqligi körsatilgan. Biroq ösiş gormoni miqdori va tirik vazn ortişiga ta'sir barça tadqiqotlarda bir xil bölmagan. Mavjud dalillar Bodiforsning farmakologik ta'sirini örganiş uçun asos yaratadi; uning mustaqil samaradorligini aniqlaş esa preparatning özi qöllanilgan nazoratli tadqiqotlarga tayanişi lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. A novel approaç to growth promotion using auto-immunisation against somatostatin. I. Effects on growth and hormone levels in lambs // Livestock Production Science. – 1983. – Vol. 10, № 1. – P. 25–37. DOI: 10.1016/0301-6226(83)90004-0.
2. Bass J. J., Gluckman P. D., Fairclough R. J., Peterson A. J., Davis S. R., Carter W. D. Effect of nutrition and immunization against somatostatin on growth and insulin-like growth factors in şeep // Journal of Endocrinology. – 1987. – Vol. 112. – P. 27-31. DOI: 10.1677/joe.0.1120027.
3. Roʻzimov V. U., Niyozov H. B. Qoramollar organizmiga Bodifors preparati ta'siri // "Aralboyı aymaǵında şarwaşılıqta innovacion texnologiyalar hám rawajlandırıwdıń keleşegi" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Nukus, 2025. DOI: 10.5281/zenodo.15362366.
4. Roʻzimov V. U., Ernazarov D. A., Niyozov H. B. Qoramollarga Multivit+Minerallar va Bodifors preparati qöllaganda ular qonining morfologik körsatkiçlari // Researç Focus International Scientific Journal. – 2025. – Vol. 4, № 11. – B. 412-418. DOI: 10.66073/researçfocus.v4i11.1889.
5. Ruzimov V. U., Niyozov H. B., Pardaeva Ş. A., Abdiev S. B. Morphological indications of blood when administering Multivit+Mineral and Bodifors preparation to rabbits // The Conference Hub. – 2025. – P. 43-49.
6. Şulkes A., Moore C., Kolivas S., Whitley J. Active immunoneutralization of somatostatin in the şeep: effects on gastrointestinal somatostatin expression, storage and secretion // Regulatory Peptides. – 1999. – Vol. 82, № 1-3. – P. 59–64. DOI: 10.1016/S0167-0115(99)00040-3.
7. Temporal serum concentrations of growth hormone, thyrotropin, insulin, and glucagon in şeep immunized against somatostatin // Endocrinology. – 1980. – Vol. 106, № 3. – DOI: 10.1210/endo-106-3-1027.
8. Spencer G. S., Hallett K. G., Fadlalla A. M., Spencer E. M. Çanges in the levels of growth hormone, insulin, somatomedin C and thyroxine in şeep during immunization against somatostatin // Endocrinologia Experimentalis. – 1987. – Vol. 21, № 4. – P. 299–306.

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

# KATTA YOSHDAGI TUXUM YO‘NALISHIDAGI TOVUQLARDA PULLOROZ VA KOLIBAKTERIOZNING KLINIK BELGILARI VA PATOMORFOLOGIK O‘ZGARISHLARINI QIYOSIY TASHXISLASH

**Muxammadiyev Sardor Eshniyoz o‘g‘li – tayanch doktorant, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali**

**Murodov Xurshid O‘ktamovich – Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti Qashqadaryo ilmiy-tajriba stansiyasi**

**Axmedov Bahodir N – Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti Qashqadaryo ilmiy-tajriba stansiyasi**

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311042

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
220–224

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Muxammadiyev S.E., Murodov X.O‘., Axmedov B. Katta yoshdagi tuxum yo‘nalishidagi tovuqlarda pulloroz va kolibakteriozning klinik belgilari va patomorfologik o‘zgarishlarini qiyosiy tashxislash // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 220–224. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311042

ANNOTATSIYA Maqolada katta yoshdagi tuxum yo‘nalishidagi tovuqlarda pulloroz va kolibakteriozning klinik belgilari hamda patomorfologik o‘zgarishlari ilmiy adabiyotlar asosida qiyosiy tahlil qilingan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qo‘ng‘irot tumanidagi parrandachilik xo‘jaligida nobud bo‘lgan tovuqlarni yorib ko‘rish natijalari keltirilgan va adabiyot ma’lumotlari bilan solishtirilgan. Ikki kasallikning belgilari ko‘p jihatdan o‘xshashligi sababli xo‘jalik sharoitida qo‘yilgan tashxis taxminiy ekanligi ko‘rsatilgan va laboratoriya tasdig‘ini o‘z ichiga olgan tashxis qo‘yish tartibi taklif etilgan.

KALIT SO‘ZLAR pulloroz, kolibakterioz, tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar, patomorfologiya, yorib ko‘rish, qiyosiy tashxis, Qoraqalpog‘iston.

## KIRISH

Tuxum yo‘nalishidagi parrandachilikda mahsuldorlikni pasaytiradigan va parrandalar nobud bo‘lishiga sabab bo‘ladigan bakterial kasalliklar orasida pulloroz va kolibakterioz alohida o‘rin tutadi. Pulloroz qo‘zg‘atuvchisi parrandalarga moslashgan *Salmonella enterica* serovar Gallinarum biovar Pullorum, kolibakterioz qo‘zg‘atuvchisi esa parrandalar uchun patogen *Escherichia coli* hisoblanadi [1, 3]. Ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda pulloroz sanoat parrandachiligidan deyarli yo‘qotilgan bo‘lsa-da, serologik nazorat muntazam o‘tkazilmaydigan hududlarda va aralash podalarda hamon uchrab turadi [1, 2]. Kolibakterioz esa dunyoning barcha mintaqalarida parrandachilikka iqtisodiy zarar yetkazuvchi asosiy kasalliklardan biri bo‘lib qolmoqda [3, 4].

Katta yoshdagi tovuqlarda har ikki kasallik ko‘pincha surunkali kechadi, asosan ko‘payish a’zolarini zararlaydi va bir-biriga o‘xshash klinik belgilar bilan namoyon bo‘ladi [1, 5, 6]. Shu sababli xo‘jalik sharoitida faqat klinik belgilar va yorib ko‘rish natijalariga asoslangan tashxis taxminiy hisoblanadi va bakteriologik hamda serologik tekshiruvlar bilan

tasdiqlanishi lozim [5, 7]. Tashxis notoʻgʻri qoʻyilganda antibiotiklar asossiz qoʻllaniladi, bu esa antibiotiklarga chidamli shtammlar koʻpayishiga olib keladi [3, 4].

Qoraqalpogʻiston Respublikasi Orol dengizi havzasida joylashgan boʻlib, yozi issiq, havosi quruq va keskin kontinental iqlimga ega. Bunday sharoit parrandaxonalardagi tovuqlar uchun qoʻshimcha issiqlik stressini keltirib chiqaradi va ularning bakterial infeksiyalarga chidamliligini pasaytiradi [8]. Shu bilan birga, mintaqada pulloroz va kolibakteriozning patomorfologik tashxisiga oid ilmiy ma'lumotlar juda kam.

**Tadqiqotning maqsadi** – ilmiy adabiyotlar va oʻz kuzatuvlarimiz asosida katta yoshdagi tovuqlarda pulloroz va kolibakteriozning klinik belgilari hamda patomorfologik oʻzgarishlarini solishtirish va xoʻjalik sharoitida tashxis qoʻyish tartibini taklif qilish.

## MATERIAL VA USLUBLAR

Tadqiqotning nazariy qismi uchun Jahon hayvonlar salomatligi tashkilotining tashxis qoʻllanmasi, «Diseases of Poultry» qoʻllanmasi hamda xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan sharh maqolalar tahlil qilindi [1–7]. Ulardagi klinik belgilar va patomorfologik oʻzgarishlar tizimlashtirilib, qiyosiy jadvallar shaklida keltirildi.

Amaliy kuzatuvlar 2026-yil oktyabr oyida Qoraqalpogʻiston Respublikasi Qoʻngʻirot tumanidagi tuxum yoʻnalishidagi parrandachilik xoʻjaligida oʻtkazildi. Xoʻjalikda katakda saqlanadigan 104 haftalik Lohmann LSL-Classic krossiga mansub tovuqlar podasida pulloroz va kolibakteriozga gumon qilingan. Tabiiy ravishda nobud boʻlgan 6 bosh tovuq veterinariya-sanitariya qoidalariga muvofiq yorib koʻrildi. Jigar, yurak, taloq, oʻt pufagi, ichak, tuxumdon, tuxum yoʻli va teri ketma-ket tekshirildi, aniqlangan oʻzgarishlar qayd etildi va suratga olindi.

## NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

**Klinik belgilarning qiyosiy tavsifi.** Adabiyot ma'lumotlariga koʻra, katta yoshdagi tovuqlarda pulloroz koʻpincha yashirin kechadi va bir qator tovuqlar uzoq vaqt kasallik qoʻzgʻatuvchisini tashib yuradi. Kolibakterioz esa odatda boshqa omillar – issiqlik stressi, havoning changlanishi yoki boshqa infeksiyalar ta'sirida ikkilamchi kasallik sifatida rivojlanadi [1, 3, 4]. Ikki kasallikning asosiy klinik belgilari 1-jadvalda keltirilgan.

**1-jadval.** Katta yoshdagi tovuqlarda pulloroz va kolibakteriozning klinik belgilari [1, 2, 5, 6]

| Belgi | Pulloroz | Kolibakterioz |
|---|---|---|
| **Kechishi** | Asosan surunkali, koʻpincha belgisiz; tashuvchilik xos | Oʻtkir (septitsemiya) yoki surunkali; koʻpincha ikkilamchi |
| **Umumiy holati** | Holsizlik, ishtahaning pasayishi, tojning oqarishi | Holsizlik, patlarning hurpayishi, ishtahasizlik |
| **Tuxum qoʻyish** | Pasayadi; tuxumning urugʻlanishi va joʻja ochib chiqishi kamayadi | Pasayadi, ayniqsa tuxum yoʻli yalligʻlanganda |
| **Ich ketishi** | Boʻlishi mumkin | Koʻpincha suyuq, yashil rangli |
| **Yuqish yoʻli** | Vertikal (tuxum orqali) va gorizontal | Asosan gorizontal (chang, najas, ifloslangan tuxum poʻchogʻi) |

Jadvaldan koʻrinib turibdiki, holsizlik, ishtahaning pasayishi, ich ketishi va tuxum qoʻyishning kamayishi ikkala kasallikda ham uchraydi va oʻziga xos emas. Shuning uchun klinik belgilar faqat kasallikka gumon qilish uchun asos boʻla oladi.

**Patomorfologik oʻzgarishlarning qiyosiy tavsifi.** Katta yoshdagi tovuqlarda pullorozning eng xarakterli belgisi tuxumdonning zararlanishidir: follikulalar shakli buziladi, rangi kulrang yoki yashil-qoʻngʻir tusga kiradi, ular kistasimon koʻrinishga ega boʻlib, ingichka oyoqcha orqali osilib turadi [1, 2]. Kolibakteriozda esa tuxum yoʻlining yalligʻlanishi (salpingit), uning boʻshligʻida qatlamli kazeoz massa toʻplanishi, tuxum sarigʻi peritoniti va seroz pardalarning fibrinoz yalligʻlanishi ustunlik qiladi [3, 6, 9]. Asosiy farqlar 2-jadvalda keltirilgan.

**2-jadval.** Katta yoshdagi tovuqlarda pulloroz va kolibakteriozdagi asosiy patomorfologik oʻzgarishlar [1–3, 5, 6, 9]

| A’zo | Pulloroz | Kolibakterioz |
|---|---|---|
| **Tuxumdon** | Follikulalar shakli buzilgan, rangi oʻzgargan, kistasimon, oyoqchali | Tuxumdon regressiyasi, follikulalar yorilishi, yalligʻlanish |
| **Tuxum yoʻli** | Kamdan-kam zararlanadi | Salpingit, boʻshligʻida qatlamli kazeoz massa |
| **Qorin boʻshligʻi** | Tuxum sarigʻi peritoniti boʻlishi mumkin | Tuxum sarigʻi peritoniti koʻp uchraydi |
| **Yurak** | Perikardit, ba’zan tugunchalar | Fibrinoz perikardit |
| **Jigar** | Kattalashishi mumkin, oʻziga xos emas | Kattalashgan, fibrinoz qoplama (perigepatit) |
| **Taloq** | Kattalashgan | Kattalashgan |
| **Havo xaltalari** | Odatda oʻzgarishsiz | Fibrinoz yalligʻlanish (aerosakkulit) |

Shunday qilib, deformatsiyalangan va oyoqchali follikulalar pullorozga, seroz pardalarning fibrinoz yalligʻlanishi va salpingit esa kolibakteriozga koʻproq xos. Shu bilan birga, ikki kasallik bir podada birgalikda uchrashi mumkin, bu esa tashxisni yanada murakkablashtiradi [1, 3].

**Oʻz kuzatuvlarimiz natijalari.** Qoʻngʻirot tumanidagi xoʻjalikda yorib koʻrilgan tovuqlarda oʻzgarishlar asosan jigar, ichak va koʻpayish a’zolarida aniqlandi. Jigar kattalashgan, toʻq qizil rangda va qonga toʻlgan edi. Ichak qovuzloqlari shishgan, ichida kulrang-yashil, yaxshi hazm boʻlmagan oziqa mavjud boʻlib, seroz pardadagi qon tomirlari qonga toʻlgan (1-rasm). Tuxumdon sezilarli darajada regressiyaga uchragan, unda faqat bitta qonga toʻlgan follikula saqlangan, tuxum yoʻli qisman giperemiyalangan edi. Taloq biroz kattalashgan, yurakda koʻzga koʻrinadigan oʻzgarishlar aniqlanmadi. Terining elastikligi qisman pasaygani organizmning suvsizlanganidan dalolat beradi.

Aniqlangan oʻzgarishlar – jigar va taloqning kattalashishi, ichak tomirlarining qonga toʻlishi va tuxum yoʻlining giperemiyasi – organizmda umumiy bakterial jarayon kechayotganini va koʻpayish a’zolari zararlanganini koʻrsatadi. Bu oʻzgarishlar pulloroz va kolibakteriozga mos keladi. Biroq pullorozga xos boʻlgan deformatsiyalangan va oyoqchali follikulalar, shuningdek kolibakteriozga xos fibrinoz perikardit, perigepatit va salpingitdagi kazeoz massa aniqlanmadi. Demak, kuzatilgan oʻzgarishlar ikkala kasallik uchun ham oʻziga


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311042

xos emas va boshqa bakterial infeksiyalarda ham uchrashi mumkin. Bu natija adabiyotlardagi xulosaga mos keladi: patomorfologik tekshiruv tashxisning muhim bosqichi bo‘lsa-da, uni laboratoriya usullari bilan tasdiqlash shart [5, 7].



**1-rasm.** 104 haftalik Lohmann LSL-Classic tovuqining ichagidagi o‘zgarishlar: qovuzloqlar shishgan, seroz pardadagi qon tomirlari qonga to‘lgan.

**Xo‘jalik sharoitida tashxis qo‘yish tartibi.** Adabiyot ma’lumotlari va o‘z kuzatuvlarimiz asosida katta yoshdagi tovuqlarda pulloroz va kolibakteriozga gumon qilinganda quyidagi tartibni qo‘llash tavsiya etiladi [3, 5, 7].

Tashxisni aniqlashtirish uchun avvalo anamnez va epizootologik ma’lumotlarni – tovuqlarning yoshi, mahsuldorlik dinamikasi, parrandaxona mikroiqlimi va ilgari qayd etilgan kasalliklarni – to‘plash lozim. So‘ngra podadagi barcha tovuqlar klinik ko‘rikdan o‘tkazilib, kasallik belgilari bo‘lgan parrandalar ajratiladi. Nobud bo‘lgan va kasal tovuqlar yorib ko‘rilib, aniqlangan patomorfologik o‘zgarishlar qayd etiladi va suratga olinadi. Jigar, taloq, tuxumdon va tuxum yo‘lidan bakteriologik ekish o‘tkazilib, *Salmonella* va *E. coli* qo‘zg‘atuvchilari ajratib olinadi hamda identifikatsiya qilinadi. Tirik tovuqlar esa butun qon bilan tez plastinkali agglyutinatsiya reaksiyasi yordamida pullorozga serologik tekshiriladi. Nihoyat, ajratib olingan shtammlarning antibiotiklarga sezgirligi aniqlanib, davolash vositasi shu natijalar asosida tanlanadi.

## XULOSA

Katta yoshdagi tovuqlarda pulloroz va kolibakteriozning klinik belgilari (holsizlik, ich ketishi, tuxum berishning pasayishi) o‘ziga xos emas, shuning uchun ular faqat kasallikka gumon qilish uchun asos bo‘la oladi. Patomorfologik jihatdan deformatsiyalangan, oyoqchali follikulalar ko‘proq pullorozga, seroz pardalarning fibrinoz yallig‘lanishi va kazeoz salpingit

esa koʻproq kolibakteriozga xosdir. Qoʻngʻirot tumanidagi xoʻjalikda nobud boʻlgan tovuqlarda aniqlangan jigar va taloqning kattalashishi, ichak qon tomirlarining qonga toʻlishi, tuxumdon regressiyasi va tuxum yoʻli giperemiyasi umumiy bakterial jarayondan dalolat bersa-da, ikkala kasallikdan birortasi uchun ham oʻziga xos hisoblanmaydi. Demak, xoʻjalik sharoitida qoʻyilgan tashxis taxminiy xarakterga ega boʻlib, uni bakteriologik va serologik tekshiruvlar bilan tasdiqlash, davolash uchun antibiotiklarni esa qoʻzgʻatuvchining ularga sezgirligini aniqlash natijalari asosida tanlash zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. Barrow P.A., Freitas Neto O.C. Pullorum disease and fowl typhoid – new thoughts on old diseases: a review // Avian Pathology. – 2011. – Vol. 40, No. 1. – P. 1–13. https://doi.org/10.1080/03079457.2010.542575
2. Shivaprasad H.L. Fowl typhoid and pullorum disease // Revue Scientifique et Technique (OIE). – 2000. – Vol. 19, No. 2. – P. 405–424.
3. Kathayat D., Lokesh D., Ranjit S., Rajashekara G. Avian pathogenic Escherichia coli (APEC): an overview of virulence and pathogenesis factors, zoonotic potential, and control strategies // Pathogens. – 2021. – Vol. 10, No. 4. – Art. 467. https://doi.org/10.3390/pathogens10040467
4. Hu J., Afayibo D.J.A., et al. Characteristics, pathogenic mechanism, zoonotic potential, drug resistance, and prevention of avian pathogenic Escherichia coli (APEC) // Frontiers in Microbiology. – 2022. – Vol. 13. – Art. 1049391. https://doi.org/10.3389/fmicb.2022.1049391
5. Swayne D.E. (ed.). Diseases of Poultry. 14th ed. – Hoboken, NJ: Wiley-Blackwell, 2020.
6. Kabir S.M.L. Avian colibacillosis and salmonellosis: a closer look at epidemiology, pathogenesis, diagnosis, control and public health concerns // International Journal of Environmental Research and Public Health. – 2010. – Vol. 7, No. 1. – P. 89–114. https://doi.org/10.3390/ijerph7010089
7. World Organisation for Animal Health (WOAH). Fowl typhoid and pullorum disease // Manual of Diagnostic Tests and Vaccines for Terrestrial Animals. Chapter 3.3.7. – Paris: WOAH, 2018.
8. Lara L.J., Rostagno M.H. Impact of heat stress on poultry production // Animals. – 2013. – Vol. 3, No. 2. – P. 356–369. https://doi.org/10.3390/ani3020356
9. Landman W.J.M., Heuvelink A., van Eck J.H.H. Reproduction of the Escherichia coli peritonitis syndrome in laying hens // Avian Pathology. – 2013. – Vol. 42, No. 2. – P. 157–162. https://doi.org/10.1080/03079457.2013.775694

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

УДК 619:616.34-07-084:636.2

# СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДИАГНОСТИКИ И КОМПЛЕКСНОЙ ПРОФИЛАКТИКИ ИНФЕКЦИОННЫХ ЖЕЛУДОЧНО-КИШЕЧНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ ТЕЛЯТ

***Вазиров Шерали Сафаралевич-кандидат ветеринарных наук, доцент, Институт проблем биологической безопасности и биотехнологии. Таджикской академии сельскохозяйственных наук.***

***Базаров Мурат Ахмаджонович-доктор ветеринарных наук, доцент. Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологий. Республика Узбекистан***

***Ашуров Сабир Ахмаджонович-кандидат ветеринарных наук, доцент, Юсупов Максуд Гуломович –преподователь Ташкентский филиал Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии***

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311043

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
225–228

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Вазиров Ш.С., Базаров М.А., Ашуров С.А., Юсупов М.Г. Совершенствование диагностики и комплексной профилактики инфекционных желудочно-кишечных заболеваний телят // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 225–228. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311043

АННОТАЦИЯ *В статье рассмотрены современные подходы к диагностике и профилактике инфекционных желудочно-кишечных заболеваний телят. На основании сравнительного анализа ветеринарно-методических материалов дана оценка диагностических возможностей бактериологических, иммунологических и молекулярно-биологических методов исследования. Показано значение своевременного выявления инфекционных агентов, специфической иммунизации маточного поголовья, формирования колострального иммунитета и соблюдения санитарно-гигиенических требований. Предложен комплексный подход к совершенствованию профилактических мероприятий, основанный на дифференцированной лабораторной диагностике, управлении факторами эпизоотического риска и систематическом ветеринарном контроле. Практическая реализация предложенных мероприятий направлена на повышение сохранности молодняка крупного рогатого скота.*

ANNOTATSIYA *Maqolada buzoqlarning yuqumli oshqozon-ichak kasalliklarini tashxislash va oldini olishning zamonaviy yondashuvlari koʻrib chiqilgan. Veterinariya-uslubiy materiallarning qiyosiy tahlili asosida bakteriologik, immunologik va molekulyar-biologik tadqiqot usullarining diagnostik imkoniyatlari baholangan. Infeksion agentlarni oʻz vaqtida aniqlash, ona mollarni maxsus immunizatsiya qilish, kolostral immunitetni shakllantirish va sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilishning ahamiyati koʻrsatilgan. Profilaktik chora-tadbirlarni takomillashtirishga tabaqalashtirilgan laboratoriya diagnostikasi, epizootik xavf omillarini boshqarish va tizimli veterinariya nazoratiga asoslangan kompleks yondashuv taklif etilgan. Taklif etilgan chora-tadbirlarni amaliyotga joriy etish yosh qoramollarning saqlanishini oshirishga qaratilgan.*

ABSTRACT *This article examines modern approaches to diagnosing and preventing infectious gastrointestinal diseases in calves. Based on a comparative analysis of veterinary and methodological materials, the diagnostic capabilities of bacteriological, immunological, and molecular-biological research methods were evaluated. The importance of timely detection of infectious agents, specific immunization of breeding stock, formation of colostral immunity, and compliance with sanitary and hygienic requirements is demonstrated. A comprehensive approach to improving preventive measures based on differentiated laboratory diagnostics, management of*

*epizootic risk factors, and systematic veterinary control has been proposed. The practical implementation of the proposed measures is aimed at increasing the preservation of young cattle.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА *диагностика, профилактика, желудочно-кишечные инфекции, ИФА, ПЦР, вакцинация, колостральный иммунитет.*

KALIT SO‘ZLAR *diagnostika, profilaktika, oshqozon-ichak infeksiyalari, IFA, PZR, emlash, kolostral immunitet.*

KEYWORDS *diagnosis, prevention, gastrointestinal infections, IFA, PCR, vaccination, colostral immunity.*

## ВВЕДЕНИЕ

Повышение эффективности ветеринарно-профилактических мероприятий при инфекционных желудочно-кишечных заболеваниях телят требует своевременного установления этиологии патологического процесса и устранения факторов, способствующих распространению возбудителей.

Сходство клинических признаков вирусных и бактериальных энтеритов существенно осложняет дифференциальную диагностику. В подобных условиях важное значение приобретают лабораторные методы, обеспечивающие идентификацию инфекционных агентов и обоснованный выбор профилактических мероприятий [1, 2].

По мнению Cho Y.-I. и Yoon K.-J. [2], результативность профилактики неонатальных диарей зависит от сочетанного применения диагностического контроля, рационального выращивания молодняка и поддержания специфической и неспецифической иммунной защиты.

Цель исследования — провести сравнительный анализ методов диагностики инфекционных желудочно-кишечных заболеваний телят и обосновать направления совершенствования комплексной системы их профилактики.

## МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЙ

Материалами исследования послужили ветеринарно-методические рекомендации по диагностике, лечению и профилактике желудочно-кишечных заболеваний молодняка крупного рогатого скота [1], а также опубликованные научные исследования по вопросам неонатальной диареи телят.

Применялись сравнительно-аналитический и системный методы. Оценивались диагностические возможности бактериологических, иммунологических и молекулярно-биологических исследований, а также организационно-технологические аспекты профилактики.

На основе обобщения имеющихся материалов сформулированы предложения по совершенствованию лабораторной диагностики и ветеринарно-профилактического контроля. Новые лабораторные испытания в рамках работы не проводились.

## РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЙ

Сравнительный анализ диагностических методов показал, что эффективное выявление инфекционных желудочно-кишечных заболеваний телят требует комплексного подхода. Клинические признаки позволяют своевременно установить наличие патологического процесса, однако для подтверждения его инфекционной этиологии необходимы лабораторные исследования.

Бактериологический метод имеет основное значение при диагностике колибактериоза и сальмонеллёза. Он обеспечивает выделение и идентификацию бактериальных возбудителей, а также возможность исследования их чувствительности к антибактериальным препаратам.

Иммуноферментный анализ используется для выявления специфических антигенов или антител, тогда как ПЦР и ОТ-ПЦР позволяют обнаруживать генетический материал инфекционных агентов. Применение указанных методов должно сопровождаться оценкой клинического состояния животного и эпизоотологической ситуации.

Таблица 1. Сравнительная характеристика методов диагностики инфекционных желудочно-кишечных заболеваний телят

| Метод диагностики | Основные возможности | Практическое применение |
|---|---|---|
| Клинико-эпизоотологический | Оценка симптомов и условий возникновения заболевания | Первичное выявление больных животных |
| Бактериологический | Выделение и идентификация бактериальных возбудителей | Подтверждение колибактериоза и сальмонеллёза |
| Иммуноферментный анализ | Обнаружение специфических антигенов или антител | Диагностика инфекций и иммунологический контроль |
| ПЦР / ОТ-ПЦР | Выявление генетического материала возбудителей | Этиологическая диагностика и мониторинг |
| Серологический | Определение специфических антител | Дополнительная ретроспективная диагностика |

Анализ представленных данных свидетельствует о необходимости дифференцированного использования лабораторных методов. Для бактериальных инфекций важное значение имеет микробиологическая идентификация возбудителя, тогда как при вирусных заболеваниях целесообразно применять методы выявления специфических антигенов и нуклеиновых кислот.

Одним из основных направлений профилактики является формирование полноценного колострального иммунитета. Своевременное поступление иммуноглобулинов с молозивом способствует повышению устойчивости новорождённых телят к инфекционным агентам.

Дополнительное значение имеет специфическая иммунизация стельных коров против ротавирусной, коронавирусной и эшерихиозной инфекций с учётом эпизоотической ситуации и зарегистрированных ветеринарных препаратов.

На основании анализа выделены следующие взаимосвязанные направления совершенствования профилактики: контроль здоровья и кормления маточного поголовья, обеспечение полноценного молозивного кормления, своевременная лабораторная диагностика, санитарно-гигиенический контроль и регулярная оценка эпизоотического состояния хозяйств.

## ОБСУЖДЕНИЕ РЕЗУЛЬТАТОВ

Полученные результаты аналитического обобщения свидетельствуют, что повышение эффективности профилактики инфекционных желудочно-кишечных

заболеваний телят невозможно обеспечить исключительно посредством вакцинации или применения отдельных диагностических методов.

Существенное значение имеет сочетание специфической профилактики с соблюдением технологии выращивания молодняка. При нарушении молозивного кормления и неудовлетворительных условиях содержания животных эффективность иммунопрофилактики может снижаться.

Особого внимания требует обоснованный выбор лечебных мероприятий. Согласно Smith G. W. [3] и Berchtold J. [4], восстановление водно-электролитного и кислотно-основного равновесия является важнейшим компонентом лечения телят с диарейным синдромом. Использование антибактериальных препаратов необходимо проводить с учётом клинических показаний и предполагаемой бактериальной этиологии заболевания [5].

Таким образом, совершенствование системы ветеринарного контроля должно предусматривать взаимосвязь ранней диагностики, иммунопрофилактики, рациональной технологии выращивания молодняка и мониторинга эффективности проводимых мероприятий.

## ЗАКЛЮЧЕНИЕ

1. Комплексное применение бактериологических, иммунологических и молекулярно-биологических методов способствует повышению обоснованности этиологической диагностики инфекционных желудочно-кишечных заболеваний телят.

2. Основными направлениями профилактики являются своевременная специфическая иммунизация маточного поголовья, обеспечение полноценного колострального иммунитета и соблюдение ветеринарно-санитарных требований при выращивании молодняка.

3. Совершенствование ветеринарно-профилактических мероприятий необходимо осуществлять на основе регулярного эпизоотологического мониторинга, лабораторного контроля и дифференцированного подхода к предупреждению инфекционных заболеваний.

## СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Вазиров Ш. С., Базаров М. А., Абдулоев А. О., Мирзоахмадов Ш. Р., Сафаралиев А. Р. Меры борьбы с желудочно-кишечными болезнями молодняка крупного рогатого скота инфекционной этиологии (диагностика, лечение, профилактика): рекомендации. — Душанбе, 2026. — 69 с.
2. Cho Y.-I., Yoon K.-J. An overview of calf diarrhea — infectious etiology, diagnosis, and intervention // Journal of Veterinary Science. — 2014. — Vol. 15, № 1. — P. 1–17. DOI: 10.4142/jvs.2014.15.1.1.
3. Smith G. W. Treatment of calf diarrhea: Oral fluid therapy // Veterinary Clinics of North America: Food Animal Practice. — 2009. — Vol. 25, № 1. — P. 55–72.
4. Berchtold J. Treatment of calf diarrhea: Intravenous fluid therapy // Veterinary Clinics of North America: Food Animal Practice. — 2009. — Vol. 25, № 1. — P. 73–99.
5. Constable P. D. Treatment of calf diarrhea: Antimicrobial and ancillary treatments // Veterinary Clinics of North America: Food Animal Practice. — 2009. — Vol. 25, № 1. — P. 101–120.

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

UDK: 619:616.98:579.842:1:636.5

# PARRANDALARDA PASTERELLYOZ KASALLIGINING KLINIK BELGILARI VA PATOLOGOANATOMIK ÖZGARIŞLARI

**G.T. Nsanbayeva — SamDVMÇBU Nukus filiali magistranti**

**F.S. Pulotov — SamDVMÇBU Nukus filiali dotsenti, v.f.f.d. (PhD)**

***Samarqand davlat veterinariya meditsinasi çorvaçilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali***

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311044

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
229–231

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Nsanbayeva G.T., Pulotov F.S. Parrandalarda pasterellyoz kasalligining klinik belgilari va patologoanatomik özgarişlari // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 229–231. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311044

ANNOTATSIYA Tezisda parrandalar pasterellyozining asosiy klinik belgilari va patologoanatomik özgarişlari yoritiladi. Kasallikning öta ötkir, ötkir, ötkir osti va surunkali keçişidagi farqlar, içki a'zolarda kuzatiladigan özgarişlar hamda taşxislaş usullari veterinariya manbalari asosida umumlaştirilgan.

KALIT SÖZLAR pasterellyoz, parrandalar, *Pasteurella multocida*, klinik belgilar, patologoanatomik özgarişlar, taşxis.

**Kiriş.** Parrandaçilikda yuqumli kasalliklar tuxum va go'şt mahsuldorligini kamaytirib, xo'jaliklarga iqtisodiy zarar yetkazadi. Şunday kasalliklardan biri pasterellyoz yoki "parranda xolerasi" dir. Uning qözğatuvçisi *Pasteurella multocida* bakteriyasi bölib, kasallik tovuq, kurka, ördak, ğoz va boşqa quşlarda uçraydi. Ba'zan klinik belgilar sezilmasdan turib ham parrandalar tösatdan nobud böladi (1).

Mazkur tezisning maqsadi pasterellyozning klinik belgilari va nobud bölgan parrandalarda aniqlanadigan patologoanatomik özgarişlarni körib çiqişdir.

**Kasallikning yuqişi va keçişi.** Infeksiya kasal yoki bakteriya taşuvçi parrandalardan tarqaladi. Qözğatuvçi oğiz va burun ajralmalari orqali taşqi muhitga çiqişi, ifloslangan suv, yem hamda jihozlar orqali boşqa quşlarga yuqişi mumkin. Yovvoyi quşlar va kemiruvçilar ham infeksiya tarqalişida iştirok etadi. Parrandalarni ziç saqlaş va sanitariya talablariga rioya qilmaslik xavfni oşiradi (2).

Kasallik öta ötkir, ötkir, ötkir osti va surunkali şakllarda keçadi. Uning oğirligi qözğatuvçining xususiyatlari, parranda turi va organizmining holatiga boğliq.

**Klinik belgilari.** Öta ötkir şaklda parranda yaqqol alomatlarsiz tösatdan nobud bölişi mumkin. Ötkir şaklda esa holsizlik, yemdan boş tortiş, patlarni hurpaytiriş, kamharakatlik, nafas olişning tezlaşişi va iç ketişi kuzatiladi. Oğiz yoki burundan şilimşiq ajralişi, toj va

sirğalarning kökimtir tusga kirişi ham mumkin. Tuxum beradigan tovuqlarda mahsuldorlik kamayadi (3).

Surunkali şaklda belgilar köpinça alohida a'zolarda namoyon böladi. Sirğalar, oyoq böğimlari va panja taglari şişadi, parranda oqsoqlanişi mumkin. Köz osti sinuslarining yalliğlanişi boş sohasida şişga sabab böladi. Infeksiya örta quloq yoki miya pardalariga tarqalsa, quş boşini bir tomonga qiyşaytirib tutadi. Kurkalarda öpkaning yalliğlanişi ayniqsa köp kuzatiladi.

Bu belgilar faqat pasterellyozga xos emas. Şuning uçun klinik kuzatuvni yorib köriş va laboratoriya tekşiruvlari bilan birga baholaş lozim.

**Patologoanatomik özgarişlari.** Nobud bölgan parrandani yorib körganda topiladigan özgarişlar kasallik şakliga boğliq. Öta ötkir keçişda yaqqol özgarişlar bölmasligi mumkin. Ötkir şaklda esa içki a'zolarda qon dimlanişi, yurak yuzasi va seroz pardalarda nuqtasimon qon quyilişlari, jigar hamda taloqning kattalaşişi aniqlanadi. Yurak xaltasi va qorin böşliğida suyuqlik miqdori ortişi mumkin. Bu özgarişlar kasallikning septikemik keçişi, ya'ni bakteriyalarning qon orqali tarqalişi bilan boğliq (4).

Ötkir osti şaklida jigar va taloqda mayda nekroz öçoqlari paydo bölişi mumkin. Ayniqsa jigarning yuzasi va kesimida oqiş-kulrang öçoqlar körinadi. Ayrim tuxum qöyuvçi parrandalarda tuxumdon yalliğlanişi va tuxum sariğining qorin böşliğiga tuşişi kuzatiladi. Içak shilliq qavati qizarişi, kurkalarda esa öpkaning fibrinli yalliğlanişi rivojlanişi mumkin (1).

Surunkali pasterellyozda sirğalar, böğimlar, pay qinlari va köz osti sinuslarida quyuq, pişloqsimon yalliğlaniş mahsuloti yiğiladi. Şiş va harakatning qiyinlaşişi uzoqroq saqlanişi mumkin. Demak, ötkir şaklda umumiy qon aylanişi buzilişlari, surunkali şaklda esa mahalliy yalliğlaniş öçoqlari köproq közga taşlanadi.

**Taşxis va oldini oliş.** Pasterellyozdan şubhalanişda klinik belgilar, nobud böliş holatlari va patologoanatomik özgarişlar hisobga olinadi. Salmonellyoz, kolibakterioz va boşqa kasalliklarda ham öxşaş holatlar uçraşi mumkin. Şu sababli aniq taşxis uçun biologik namunalardan *Pasteurella multocida* bakteriyasini ajratib oliş va aniqlaş muhim. Zarur hollarda PZR (polimeraza zanjir reaksiyasi) usuli ham qöllanadi (2).

Oldini oliş uçun parrandaxona va jihozlarni tozalaş hamda dezinfeksiya qiliş, suv va yemning ifloslanişiga yöl qöymaslik, yangi kelgan parrandalarni alohida kuzatiş kerak. Kasal quşlarni ajratiş, nobud bölganlarini xavfsiz olib taşlaş va kemiruvçilarni nazorat qiliş ham muhim. Emlaş va antibakterial davolaş veterinariya mutaxassisi tomonidan, zarur tekşiruvlarga asoslanib belgilanadi (3).

**XULOSA.** Pasterellyoz parrandaçilikda katta yöqotişlarga sabab bölişi mumkin. Kasallikning ötkir şaklida holsizlik, nafas olişning tezlaşişi va tösatdan ölim, surunkali şaklida esa sirğalar hamda böğimlarning şişişi köproq uçraydi. Yorib körişda mayda qon quyilişlari, jigar va taloqning kattalaşişi, ayrim holatlarda nekroz öçoqlari aniqlanadi. Bu belgilar kasallikdan şubhalanişga yordam beradi, biroq aniq taşxis laboratoriyada tasdiqlanişi kerak. Xöjalikda sanitariya va profilaktika tadbirlarini izçil amalga oşiriş infeksiya tarqaliş xavfini kamaytirişga yordam beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI

1. . Lighty M. Fowl Çolera // Merck Veterinary Manual. 2024, "Lesions" bölimi (elektron naşr).

2. Herenda D. va boşq. Manual on Meat Inspection for Developing Countries. FAO, 1994, 7-bob, “Fowl Çolera”; Lighty M., 2024, “Lesions”.
3. WOAH. Fowl Çolera // Terrestrial Manual. 2021, 3.3.9-bob, 1–2-betlar (arxiv naşri).
4. Lighty M. Fowl Çolera // Merck Veterinary Manual. 2024, “Treatment and Control” bölimi.

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

UDK: 619:636.2:617.3

# ZOTLI SIGIRLARDA TUYOQ AYLANASI (GULTOJI) FLEGMONASINING KECHISHI (ADABIYOTLAR SHARHI)

**Tayanch doktorant B.O.Sadullayev.**

**Ilmiy rahbar Vet.f.d., professor X.B.Niyazov.**

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Nukus filiali**

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311045

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
232–235

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Sadullayev B.O., Niyazov X.B. Zotli sigirlarda tuyoq aylanasi (gultoji) flegmonasining kechishi (adabiyotlar sharhi) // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 232–235. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311045

ANNOTATSIYA *Ushbu maqolada qoramollarda uchraydigan tuyoq aylanasi (gultoji) flegmonasining etiologiyasi, patogenezi, klinik ahamiyati hamda uning rivojlanishiga sabab bo‘luvchi omillar yoritilgan. Tuyoqlarning gultoji sohasidagi teri osti biriktiruvchi to‘qimasida kechadigan diffuz yiringli yallig‘lanish jarayonining kelib chiqish mexanizmlari, shuningdek, yiringli pododermatit, tuyoq yumshoq tog‘ayining nekrozi va tuyoq bo‘g‘imining yiringli yallig‘lanishi kabi patologiyalar bilan bog‘liqligi bayon etilgan. Tuyoqlardagi patologik jarayonlarning sigirlar harakatlanish faolligi, sut mahsuldorligi va reproduktiv ko‘rsatkichlariga salbiy ta’siri hamda iqtisodiy zarar keltirishi asoslab berilgan. Shuningdek, kasallikning oldini olishda muntazam ortopedik tekshiruvlar, sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish, tuyoqlarni o‘z vaqtida parvarishlash va oqsoqlik belgilarini erta aniqlashning ahamiyati ta’kidlangan. Tuyoqlar gultoji flegmonasini erta tashxislash, klinik kechishini baholash va samarali davolash usullarini takomillashtirish veterinariya amaliyotining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.*

KALIT SO‘ZLAR *qoramol, zotli sigir, tuyoq aylanasi (gultoji), flegmona, yiringli yallig‘lanish, oqsoqlik, tuyoq patologiyasi, pododermatit, nekroz, profilaktika.*

АННОТАЦИЯ *В данной статье рассматриваются этиология, патогенез, клиническое значение и факторы, способствующие развитию флегмоны венчика копыта у крупного рогатого скота. Освещаются механизмы возникновения диффузного гнойного воспалительного процесса в подкожной соединительной ткани основы кожи венчика копыта, а также его взаимосвязь с такими патологическими процессами, как гнойный пододерматит, некроз мягкого хряща копыта и гнойное воспаление копытного сустава. Обосновано отрицательное влияние патологий копыт на двигательную активность, молочную продуктивность и репродуктивные показатели коров, а также их экономический ущерб. Особое внимание уделено значению регулярных ортопедических обследований, соблюдения санитарно-гигиенических требований, своевременного ухода за копытами и раннего выявления признаков хромоты в профилактике заболеваний. Ранняя диагностика флегмоны венчика копыта, оценка особенностей её клинического течения и совершенствование эффективных методов лечения являются актуальными направлениями ветеринарной практики.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА ***a:*** *крупный рогатый скот, коровы, копыто, венчик копыта, флегмона, гнойное воспаление, пододерматит, некроз, хромота, диагностика, лечение, профилактика.*

ABSTRACT *This article examines the etiology, pathogenesis, clinical significance, and factors contributing to the development of coronary band cellulitis in cattle. It describes the mechanisms underlying diffuse purulent inflammation of the subcutaneous connective tissue in the coronary region of the hoof, as well as its association with pathological conditions such as purulent pododermatitis, necrosis of the soft hoof cartilage, and purulent inflammation of the distal interphalangeal joint. The negative effects of hoof disorders on locomotor activity, milk productivity, and reproductive performance in dairy cows, as well as their associated economic losses, are discussed. Particular attention is paid to the importance of regular orthopedic examinations, maintaining proper sanitary and hygienic conditions, timely hoof care, and early detection of lameness as essential preventive measures. Early diagnosis of coronary band cellulitis, assessment of its clinical course, and improvement of effective treatment methods remain important areas of veterinary practice and research.*

KEYWORDS *cattle, cows, hoof, coronary band, cellulitis, purulent inflammation, pododermatitis, necrosis, lameness, diagnosis, treatment, prevention.*

**Kirish.** Chorvachilikda yuqori mahsuldor zotli sigirlarni saqlash va ulardan samarali foydalanish hayvonlar salomatligini muntazam nazorat qilishni talab etadi. Tayanch-harakat apparati, xususan, tuyoq kasalliklari sigirlarning erkin harakatlanishi, oziqlanishi, sut berishi va reproduktiv faoliyatiga salbiy ta'sir koʻrsatadigan muhim muammolardan biridir. Tuyoqlardagi yalligʻlanish jarayonlari orasida tuyoq aylanasi flegmonasi ogʻir kechishi va yalligʻlanishning atrofdagi toʻqimalarga tarqalish ehtimoli bilan klinik ahamiyatga ega.

Tuyoq kasalliklari oqibatida hayvonlarda oqsoqlik, harakat faolligining pasayishi, oziqa iste'molining kamayishi va mahsuldorlikning susayishi kuzatilishi mumkin. Ayrim hollarda davolash xarajatlarining ortishi, uzoq muddatli mehnatga layoqatsizlik va hayvonni muddatidan oldin podadan chiqarish xoʻjalik uchun iqtisodiy zarar keltirib chiqaradi [1–3]. Shu sababli tuyoq aylanasi flegmonasining kelib chiqish sabablari va rivojlanish xususiyatlarini oʻrganish veterinariya jarrohligi amaliyotida dolzarb hisoblanadi.

Tuyoq aylanasi flegmonasi — tuyoq gultoji teri asosining teri osti biriktiruvchi toʻqimasida, tuyoq cheti va unga tutash junli teri sohasida rivojlanadigan diffuz yiringli yalligʻlanish jarayonidir. Kasallik, odatda, yiring hosil qiluvchi mikroorganizmlarning gultoj sohasidagi teri butunligi buzilgan joylar — yara, tirnalish, yoriq va boshqa shikastlanishlar orqali teri osti toʻqimalariga kirishi natijasida yuzaga keladi.

Yalligʻlanish jarayoni ayrim hollarda birlamchi shikastlanish bilan cheklanmaydi. Qoʻshni anatomik tuzilmalarda kechayotgan yiringli jarayonlar ham gultoj toʻqimalariga tarqalishi mumkin. Adabiyotlarda yiringli pododermatit, tuyoq yumshoq togʻayining nekrozi va tuyoq boʻgʻimining yiringli yalligʻlanishi flegmonaning ikkilamchi rivojlanishiga sabab boʻlishi mumkin boʻlgan holatlar sifatida qayd etilgan.

Patologik jarayonning rivojlanishida toʻqimalarning shikastlanish darajasi, mikroorganizmlarning virulentligi, mahalliy qon aylanishi va hayvon organizmining umumiy rezistentligi muhim ahamiyat kasb etadi. Yiringli yalligʻlanishning diffuz xususiyati sababli jarayonning chegaralari aniq boʻlmasligi va yaqin toʻqimalarga tarqalishi mumkin. Shu bois klinik tekshiruvda faqat gultoj sohasidagi oʻzgarishlarni emas, balki butun tuyoq va unga tutash anatomik tuzilmalarni baholash zarur.

Ilmiy manbalarda sigirlarda tuyoq kasalliklari koʻpincha tuqqandan keyingi dastlabki haftalarda aniqlanishi qayd etilgan. Taqdim etilgan adabiyot ma'lumotlarida tuqqandan keyingi 1–3 hafta oraligʻida tuyoq kasalliklari rivojlanishi 55–75 foiz holatlarda kuzatilishi, tuyoq aylanasi flegmonasi esa ortopedik patologiyalar tarkibida 6–10 foiz atrofida uchrashi

koʻrsatilgan. Ushbu koʻrsatkichlar turli xoʻjaliklar, kuzatuv sharoitlari va diagnostik mezonlarga bogʻliq boʻlishi mumkin.

García-Muñoz va hammualliflarining tadqiqotida sigirlarda tuyoq tagligi va boshqa tuyoq tuzilmalaridagi shikastlanishlar turlicha uchrashi koʻrsatilgan. Mualliflar tuyoqni oʻz vaqtida va toʻgʻri parvarishlash oqsoqlikning rivojlanishini cheklash hamda sut mahsuldorligini saqlashda muhimligini ta'kidlaydilar [1]. Jury va hammualliflar Shveysariya sut chorvachiligi xoʻjaliklarida tovon muguz qatlamining eroziyasi, raqamli dermatit, oq chiziq kasalligi va tuyoq tagligidagi qon quyilishlari keng tarqalganini qayd etganlar [2].

Fenster va hammualliflar 2 220 bosh qoramol ma'lumotlarini retrospektiv tahlil qilib, yuqumsiz tuyoq shikastlanishlari ham oqsoqlikning muhim sababi ekanligini koʻrsatganlar. Tadqiqotda orqa oyoqlarda, xususan, tashqi tuyoqda zararlanishlar koʻproq qayd etilgan [3]. Bu ma'lumotlar tuyoq kasalliklarini baholashda faqat infeksion omillarni emas, balki mexanik shikastlanish va saqlash sharoitlarini ham hisobga olish lozimligini koʻrsatadi.

Omontese va hammualliflar Jersi zotli sigirlarda ayrim tuyoq shikastlanishlari, jumladan, raqamli dermatit va tuyoq tagi yaralari reproduktiv koʻrsatkichlarning pasayishi bilan bogʻliq boʻlishi mumkinligini aniqlaganlar [4]. Browne va hammualliflar yaylovda hamda qisman yopiq sharoitda boqiladigan sigirlarda tuyoq shikastlanishlari tarqalishi saqlash va boshqaruv tizimiga qarab farqlanishini ta'kidlaydilar [5].

OʻDriscoll va hammualliflar pol qoplamasi hamda saqlash maydonchalari xususiyatlarining tuyoq salomatligiga ta'sirini oʻrgangan. Ularning natijalari tuyoq patologiyalarini faqat bitta omil bilan izohlash mumkin emasligini, muhit, parvarish, harakat faolligi va boshqa boshqaruv omillarini birgalikda baholash zarurligini koʻrsatadi [6]. Jewell va hammualliflar tuyoq tagi yaralari sigirlarning harakatlanishiga raqamli dermatit yoki tuyoq tagidagi qon quyilishlariga nisbatan kuchliroq salbiy ta'sir koʻrsatishi mumkinligini qayd etganlar [7].

Neirurerová va hammualliflar sigirlarning harakatlanish faolligini avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida muntazam kuzatish oqsoqlikni erta aniqlash imkoniyatini oshirishini ta'kidlaydilar [8]. Ushbu yondashuv klinik koʻrikni almashtirmaydi, biroq podadagi harakat faolligi oʻzgarishlarini erta aniqlash va veterinariya tekshiruvini oʻz vaqtida tashkil etishga yordam berishi mumkin.

Tahlil qilingan adabiyotlar tuyoq kasalliklari koʻp omilli etiologiyaga ega ekanligini koʻrsatadi. Teri butunligining buzilishi va mikroorganizmlarning toʻqimalarga kirishi tuyoq aylanasi flegmonasining bevosita etiologik omillari boʻlsa, saqlash sharoiti, pol qoplamasi, tuyoq gigiyenasi va muntazam parvarishning yetarli emasligi kasalliklar rivojlanishi uchun sharoit yaratishi mumkin. Shu bilan birga, mavjud manbalarning katta qismi umumiy tuyoq patologiyalari va oqsoqlik masalalariga bagʻishlangan; aynan tuyoq aylanasi (gultoji) flegmonasining klinik bosqichlari va davolash samaradorligi boʻyicha alohida, maqsadli tadqiqotlar zarurligi koʻrinadi.

Tuyoq aylanasi (gultoji) flegmonasini baholashda yalligʻlanishning mahalliy belgilarini, hayvonning oyoqqa tayanish darajasini, oqsoqlikni, shikastlangan sohaning holatini va qoʻshni tuzilmalarning jalb etilgan-etilmaganligini aniqlash muhim. Kasallikni boshqa tuyoq patologiyalaridan farqlash uchun toʻliq ortopedik tekshiruv talab etiladi. Profilaktikada tuyoqlarni muntazam koʻzdan kechirish, shikastlanishlarni oʻz vaqtida bartaraf etish, toza va

quruq saqlash sharoitini ta’minlash hamda podada oqsoqlik monitoringini yoʻlga qoʻyish maqsadga muvofiq.

## XULOSA

1. Tuyoq aylanasi (gultoji) flegmonasi tuyoq gultoji teri asosining teri osti biriktiruvchi toʻqimasida kechadigan diffuz yiringli yallig‘lanish boʻlib, koʻpincha teri butunligining buzilishi orqali yiring hosil qiluvchi mikroorganizmlarning kirishi natijasida rivojlanadi.

2. Yiringli pododermatit, tuyoq yumshoq tog‘ayining nekrozi va tuyoq boʻg‘imining yiringli yallig‘lanishi kabi qoʻshni tuzilmalardagi patologik jarayonlar flegmonaning ikkilamchi rivojlanishiga sabab boʻlishi mumkin.

3. Tuyoqlarning turli patologiyalari sigirlarning harakatlanish faolligi, sut mahsuldorligi va reproduktiv koʻrsatkichlariga salbiy ta’sir koʻrsatishi, davolash xarajatlarini oshirishi hamda hayvonlarni muddatidan oldin podadan chiqarishga olib kelishi mumkin.

4. Tuyoqlarning sog‘lomligini saqlashda muntazam ortopedik koʻrik, gigiyenik sharoit, oʻz vaqtida parvarishlash va oqsoqlikni erta aniqlash muhim profilaktik choralar hisoblanadi.

5. Aynan tuyoq aylanasi (gultoji) flegmonasining klinik kechishi, diagnostik mezonlari va davolash usullarini baholashga qaratilgan maqsadli ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. García-Muñoz S., Singh N., Leonardi C., Silva-Del-Río N. Effect of hoof trimmer intervention on lameness progression and milk production in moderately lame cows. Journal of Dairy Science. 2017;100(11):9205–9214. DOI: 10.3168/jds.2016-12449.
2. Jury A., Syring C., Becker J. Prevalence of claw diseases in Swiss dairy farms. Schweizer Archiv für Tierheilkunde. 2021;164(11):779–790. DOI: 10.17236/sat00327.
3. Fenster L.L., Ruchti L.R., Credille B.C. Retrospective evaluation of causes and prevalence of lameness in beef and dairy cattle examined through ambulatory and inpatient clinical services at a North American veterinary teaching hospital. Journal of the American Veterinary Medical Association. 2023;261(7):989–994. DOI: 10.2460/javma.22.11.0506.
4. Omontese B.O., Bellet-Elias R., Molinero A., Catandi G.D., Casagrande R., Rodriguez Z., Bisinotto R.S., Cramer G. Association between hoof lesions and reproductive performance in lactating Jersey cows. Journal of Dairy Science. 2020;103(4):3401–3413. DOI: 10.3168/jds.2019-17252.
5. Browne N., Hudson C.D., Crossley R.E., Sugrue K., Huxley J.N., Conneely M. Hoof lesions in partially housed, pasture-based dairy cows. Journal of Dairy Science. 2022;105(11):9038–9053. DOI: 10.3168/jds.2022-22010.
6. Oʻ Driscoll K., Boyle L., French P., Hanlon A. Effect of winter outdoor pad design on the hoof health and locomotion of dairy cows. Journal of Dairy Science. 2008;91(2):544–553. DOI: 10.3168/jds.2007-0667.
7. Jewell M., Cameron M., McKenna S., Cockram M., Sanchez J., Keefe G. Association between hoof lesion type and behavioural signs of lameness in Holstein cows housed in tie-stall systems in Canada. Journal of Dairy Science. 2021;104(1):937–946. DOI: 10.3168/jds.2019-17296.
8. Neirurerová P., Strapák P., Hegerová T. Effect of hoof diseases on locomotor activity of dairy cows. Acta Fytotechnica et Zootechnica. 2021;24(MI-prap):135–139. DOI: 10.15414/afz.2021.24.mi-prap.135-139.

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

# QORAMOLLARNING QON-PARAZITAR KASALLIKLARINI TASHXISLASH VA DAVOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Boltayev D.M1 Bekbauliyeva B.S[2]**

1.Samarqand davlat veterinariya medicinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311046

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
236–239

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Boltayev D.M., Bekbauliyeva B.S. Qoramollarning qon-parazitar kasalliklarini tashxislash va davolash usullarini takomillashtirish // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 236–239. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311046

ANNOTATSIYA Mazkur sharhda qoramollarning qon-parazitar kasalliklari — babezioz, teylerioz, anaplazmoz va tripanosomozning etiologiyasi, patogenezi, tashxislash hamda davolash usullari tahlil qilingan. Mikroskopik, gematologik, serologik (IFAT, ELISA) va molekulyar (PCR, LAMP) usullarning sezgirligi, etiotrop preparatlarning (diminazen, imidokarb, buparvakon, oksitetratsiklin) ta’sir mexanizmlari qiyosiy baholanib, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida gemoparazitozlarga qarshi kurashni takomillashtirish bo‘yicha takliflar berilgan.

KALIT SO‘ZLAR qoramol, babezioz, teylerioz, anaplazmoz, tripanosomoz, iksodid kanalar, Romanovskiy–Gimza, ELISA, PCR, imidokarb, buparvakon.

**Kirish.** Qoramolchilik O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmog‘i bo‘lib, aholini go‘sht va sut mahsulotlari bilan ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Naslli va mahalliy qoramollar mahsuldorligini saqlash bevosita parazitologik barqarorlikka bog‘liq [1]. Markaziy Osiyoning issiq va quruq iqlimida bo‘g‘imoyoqli tashuvchilar orqali yuqadigan qon-parazitar kasalliklar (gemoparazitozlar) chorvachilikka katta iqtisodiy zarar yetkazmoqda [2, 3]. Ular o‘tkir isitma, gemolitik anemiya, intoksikatsiya, yurak-qon tomir va ovqat hazm qilish tizimlarining izdan chiqishi bilan kechib, sut kamayishi, oriqlash, abortlar va o‘limga sabab bo‘ladi [4, 5]. Sog‘aygan hayvonlarning uzoq muddatli simptomsiz parazit tashuvchi bo‘lib qolishi xo‘jaliklarda doimiy enzootik o‘choqlarni shakllantiradi [6, 7]. Veterinariya amaliyotida gemoparazitozlarni erta tashxislash va patogen turiga mos etiotrop davolashni tanlash dolzarb masaladir. Tezisning maqsadi — ilmiy manbalar asosida qoramollarning qon-parazitar kasalliklari, ularni tashxislash va davolash usullarini tahlil qilish hamda mintaqaviy sharoitda takomillashtirish istiqbollarini asoslashdan iborat.

**Asosiy qism — adabiyotlar sharhi.** Qoramollarning gemoparazitar kasalliklari eritrotsitlar, limfotsitlar va qon plazmasida parazitlik qiluvchi mikroorganizmlar tomonidan chaqiriladi [1, 4]. Ular Piroplasmida turkumiga mansub sodda hayvonlar (*Babesia*, *Theileria*),

Rickettsiales turkumiga kiruvchi hujayra ichi bakteriyalari (*Anaplasma*) va Kinetoplastida sinfiga mansub xivchinlilarni (*Trypanosoma*) o‘z ichiga oladi [5, 7, 8, 9]. Qo‘zg‘atuvchilarning biologik sikli qoramol va tashuvchilar (*Ixodidae* oilasi kanalari va qon so‘ruvchi hasharotlar) organizmida almashinib o‘tadi [2, 6]. Kanalar organizmida piroplazmidlar gametogoniya va sporogoniya bosqichlarini o‘tab, so‘lak bezlarida invazion sporozoitlarni hosil qiladi; *Babesia* turlariga transovarial, *Theileria* turlariga transstadial o‘tish xosdir [5, 8]. Patogenez eritrotsitlarning mexanik parchalanishi, autoimmun eritrofagotsitoz, gemoglobinemiya, to‘qima gipoksiyasi va metabolik atsidoz bilan tavsiflanadi [5, 7].

Babezioz (piroplazmoz) *Babesia bigemina*, *B. bovis*, *B. divergens*, *B. major* va *B. occultans* turlari tomonidan qo‘zg‘atiladi [3, 5, 8]. *B. bigemina* eritrotsitlarda yirik noksimon juft tanachalar hosil qilib, o‘tkir tomir ichi gemolizini chaqirsa, *B. bovis* bosh miya va buyrak kapillyarlarida eritrotsitlar sekvestratsiyasini va nevrologik belgilarni keltirib chiqaradi [5]. Kasallik 41–42 °C isitma, shilliq pardalar oqarishi va sarg‘ayishi, gemoglobinuriya («qizil siydik»), qorin oldi atoniyasi, splenomegaliya va nefroz bilan kechadi [1, 5]. Teylerioz O‘zbekiston va Markaziy Osiyoda eng og‘ir kechuvchi protozooz bo‘lib, asosan *Theileria annulata* va *T. orientalis* tomonidan chaqiriladi [1, 3, 10]. *T. annulata* dastlab limfa tugunlari limfotsitlari va makrofaglarida shizontlarni (Kox tanachalarini) hosil qilib, limfoproliferatsiyani qo‘zg‘atadi va keyin eritrotsitlarga o‘tadi [6]. Klinik jihatdan yuqori isitma, yuza limfa tugunlarining shishishi, shilliq pardalarda qon quyilishlar, shirdonda nekrotik yaralar va taloq giperplaziyasi qayd etiladi [1, 6]. Anaplazmoz (*Anaplasma marginale*, *A. centrale*) kanalar, so‘nalar va noaseptik asboblar orqali yuqadi; eritrotsitlar taloq va jigar makrofaglari tomonidan fagotsitozga uchrashi tufayli kuchli anemiya va sariqlik gemoglobinuriyasiz kechadi [7]. Tripanosomoz (*Trypanosoma evansi*, *T. theileri*) qon so‘ruvchi hasharotlar orqali mexanik tarqalib, qaytalanuvchi isitma, ozish, shishlar va immunosupressiya chaqiradi [9]. O‘zbekistonda qoramollarda 11 turdagi iksodid kana, jumladan *Hyalomma anatolicum* (34,9%), *H. detritum* / *H. scupense* (31,8%) va *Boophilus kohlsi* (30,7%) asosiy tashuvchi sanaladi [2]. Mintaqaviy molekulyar tadqiqotlar qoramollarda ko-infeksiyalar 48,9% gacha uchrashini ko‘rsatgan [3]. Qoraqalpog‘iston Respublikasining Orolbo‘yi mintaqasidagi quruq iqlim va sug‘oriladigan biotoplarda *Hyalomma* va *Rhipicephalus* kanalarining faolligi kasallik xavfini oshirsa-da, tumanlar kesimida aniq molekulyar statistik ma’lumotlarning yetishmasligi maxsus monitoringni taqozo etadi.

Klinik va epizootologik tekshiruvlar mavsumiylik, kanalar mavjudligi, isitma, anemiya va limfadenitga qarab dastlabki tashxis qo‘yishga yordam bersa-da, simptomlar o‘xshashligi va mikst-invaziyalar tufayli yakuniy tashxis uchun yetarli emas [4]. Quloq chetidagi kapillyar qondan (teyleriozda limfa punktatidan) olingan surtmani Romanovskiy–Gimza usulida bo‘yab mikroskopik tekshirish o‘tkir davrda tezkor va arzon usuldir, chunki kapillyar qonda parazitlar venoz qonga nisbatan 10–20 marta ko‘p uchraydi [5]. Ammo mikroskopiyaning sezgirligi past bo‘lib (>0,001–0,01% parasitemiyada aniqlaydi), surunkali va latent tashuvchilarni aniqlay olmaydi [4, 5]. Gematologik tekshiruvlar (eritrotsitlar, gemoglobin va gematokrit kamayishi, leykopeniya, bilirubinemiya) jarayon og‘irligini ko‘rsatadi, biroq patogen turini farqlamaydi [4, 7]. Serologik usullar — IFAT va rekombinant ELISA (MSP5, RAP-1, TaSP antigenlari asosida) yashirin tashuvchilarni aniqlashda yuqori sezgirlikka ega, ammo antikorlar uzoq saqlanishi tufayli joriy invaziyani o‘tib ketgan infeksiyadan ajrata olmaydi va yaqin turlar orasida kross-reaksiyalar berishi mumkin [4, 5]. Molekulyar

diagnostika — PCR, nested-PCR, qPCR va LAMP usullari 18S rRNK, cytb, MPSP genlarini amplifikatsiya qilib, 0,00001% parasitemiyada ham patogen turini va ko-infeksiyalarni yuqori aniqlikda belgilaydi [3, 4, 8]. PCR maxsus amplifikatorlar talab etsa, izotermik LAMP usuli oddiy suv hammomida bajarilishi sababli tuman laboratoriyalari uchun qulaydir [4].

Davolashda preparatlar patogen turiga qarab tanlanadi [1, 11]. Babeziozda diminazen atseturat (Azidin, Berenil — 3,5 mg/kg mushak orasiga) parazit DNK sintezini va glikolizni bloklaydi; imidokarb dipropionat (Imizol — 1,2–3,0 mg/kg) esa poliaminlar sintezini va eritrotsitlarga inozitol kirishini to‘xtatib, ham davolovchi, ham 4–6 haftalik profilaktik ta’sir ko‘rsatadi [5, 11]. Imidokarbning cheklovi — antixolinesteraz nojo‘ya ta’siri va go‘sht-jigarda uzoq muddat qoldiq saqlanishidir [5, 11]. Teyleriozda (*T. annulata*) buparvakon (Butaleks — 2,5 mg/kg) parazit mitoxondriyasidagi sitoxrom bc1 kompleksini ingibitsiya qilib, shizontlar va eritrotsitar bosqichlarni yo‘q qiladi; uni oksitetratsiklin (10–20 mg/kg) bilan qo‘shib qo‘llash samaradorlikni oshiradi [6, 12]. Biroq *T. annulata* ning cytb genidagi mutatsiyalar tufayli buparvakonga rezistent shtammlar paydo bo‘lmoqda [12]. Anaplazmozda bakteriya ribosomasining 30S subbirligini bloklovchi uzoq ta’sir etuvchi oksitetratsiklin (20 mg/kg) va imidokarb (3 mg/kg) klinik sog‘ayish bersa-da, tashuvchilikni har doim to‘liq yo‘qotmaydi [7, 11]. Tripanosomozda diminazen (3,5–7 mg/kg) va izometamidium xlorid qo‘llaniladi [9].

Kurash choralarini takomillashtirishda erta tashxislash — mikroskopiyani serologik (ELISA) va molekulyar (PCR, LAMP) testlar bilan integratsiya qilish aralash invaziyalarni va latent tashuvchilarni o‘z vaqtida aniqlash imkonini beradi [3, 4]. Davolashda etiotrop preparatlar bilan birga patogenetik vositalarni — gemopoez stimulyatorlari (B12 vitamini, temir dekstran), antioksidantlar (C, E vitaminlari), gepatoprotektorlar, yurak vositalari va dezintoksikatsion eritmalarni kompleks qo‘llash intoksikatsiya va oksidlovchi stressni kamaytirib, mahsuldorlikni tez tiklaydi [1, 4]. Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida iksodid kanalarga qarshi piretroidlar, amidinlar va makrotsiklik laktonlarni rotatsiya qilib qo‘llash, molxonalarni dezakarizatsiyalash va teyleriozga qarshi vaksinalar bilan emlash eng istiqbolli yondashuvlardir [2, 6].

**Xulosa va takliflar.** Qoramollarning qon-parazitar kasalliklari murakkab patogenezga va yuqori ko-infeksiya darajasiga ega bo‘lib, o‘tkir davrda Romanovskiy–Gimza mikroskopiyasi tezkor tashxis bersa-da, yashirin tashuvchilarni va aralash invaziyalarni aniqlashda ELISA va PCR/LAMP usullari zarurdir. Davolashda patogen turiga mos etiotrop vositani erta bosqichda patogenetik terapiya bilan uyg‘unlashtirish talab etiladi. Takliflar: 1) veterinariya laboratoriyalarida mikroskopiyani ELISA va LAMP/PCR bilan birlashtiruvchi ikki bosqichli tashxis algoritmini joriy etish; 2) Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlarida qoramol gemoparazitlari va kanalarining molekulyar monitoringini o‘tkazib, epizootologik xaritalarni tuzish; 3) babeziozda — diminazen yoki imidokarb, teyleriozda — buparvakon va oksitetratsiklin, anaplazmozda — oksitetratsiklin yoki imidokarbni antioksidant, antianemik va gepatoprotektorlar bilan kompleks qo‘llash; 4) akaritsidlarni rotatsiya qilish va teyleriozga qarshi emlashni kengaytirish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azimov Dj.A., Yatusevich A.I., Daminov A.S. va b. Parazitologiya va invazion kasalliklar. Toshkent: Fan ziyosi, 2024. 460 b.
2. Rasulov I. Ticks status in Central Asia with a special emphasis on Uzbekistan // Parasitol. Res. 2007; 101(S2): S183–S186.

3. Kuibagarov M., Bauer C., Shevtsov A. et al. Theileria and Babesia infection in cattle in Kazakhstan // Ticks Tick Borne Dis. 2023; 14(1): 102078.
4. Maharana B.R., Tewari A.K. et al. Important hemoprotozoan diseases of livestock // Vet. World. 2016; 9(5): 487–495.
5. Bock R., Jackson L., De Vos A., Jorgensen W. Babesiosis of cattle // Parasitology. 2004; 129(S1): S247–S269.
6. Gharbi M., Sassi L. et al. Infection of calves with Theileria annulata in Tunisia // Vet. Parasitol. 2006; 137(3–4): 231–241.
7. Kocan K.M., de la Fuente J. et al. The natural history of Anaplasma marginale // Vet. Parasitol. 2010; 167(2–4): 95–107.
8. Schnittger L., Rodriguez A.E. et al. Babesia: A world emerging // Infect. Genet. Evol. 2012; 12(8): 1788–1809.
9. Desquesnes M., Holzmuller P. et al. Trypanosoma evansi and Surra: A review // BioMed Res. Int. 2013; 2013: 194176.
10. Ozubek S., Ulucesme M.C., Cirak V.Y., Aktas M. Detection of Theileria orientalis genotypes in Kyrgyzstan // Pathogens. 2022; 11(10): 1185.
11. Kuttler K.L. Pharmacotherapeutics of drugs used in treatment of anaplasmosis and babesiosis // J. Am. Vet. Med. Assoc. 1980; 176(10): 1103–1108.
12. Sharifiyazdi H., Namazi F. et al. Point mutations in the Theileria annulata cytochrome b gene // Vet. Parasitol. 2012; 187(3–4): 431–435.

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

# БУЗОҚЛАРДА КОЛИБАКТЕРИОЗ: ХАВФ ОМИЛЛАРИНИНГ ТАҲЛИЛИ ВА КУРАШ ЧОРАЛАРИ (ХЎЖАЙЛИ ТУМАНИ МИСОЛИДА)

**Сапарбаева Жулдыз Искендеровна**

**Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети Нукус филиали 1-курс магистранти**

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311047

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
240–243

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Сапарбаева Ж.И. Бузоқларда колибактериоз: хавф омилларининг таҳлили ва кураш чоралари (Хўжайли тумани мисолида) // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 240–243. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311047

АННОТАТСИЯ Мақолада бузоқларда колибактериоз касаллигининг сабаблари, патогенези ва хавф омиллари адабиётлар асосида таҳлил қилинган. Колострум бериш вақти ва миқдори, туғиш жойининг санитария ҳолати ҳамда бузоқларни сақлаш шароитлари касалликнинг асосий хавф омиллари сифатида кўриб чиқилган. Хўжайли тумани шароитида ушбу омилларни камайтиришга қаратилган амалий кураш чоралари таклиф этилган.

КАЛИТ СЎЗЛАР бузоқ, колибактериоз, Escherichia coli, колострум, пассив иммунитет, зоогигиена, профилактика.

ABSTRACT The article analyses, on the basis of the scientific literature, the causes, pathogenesis and risk factors of colibacillosis in calves. Colostrum timing and volume, the sanitary condition of calving areas and the housing conditions of calves are considered as the main risk factors. Practical control measures aimed at reducing these factors under the conditions of the Khojayli district are proposed.

KEYWORDS calf, colibacillosis, Escherichia coli, colostrum, passive immunity, zoohygiene, prophylaxis.

АННОТАЦИЯ В статье на основе данных научной литературы анализируются причины, патогенез и факторы риска колибактериоза телят. В качестве основных факторов риска рассматриваются сроки и объём получения молозива, санитарное состояние мест отёла и условия содержания телят. Предложены практические меры по снижению этих факторов в условиях Ходжейлийского района.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА телёнок, колибактериоз, Escherichia coli, молозиво, пассивный иммунитет, зоогигиена, профилактика.

## КИРИШ

Бузоқлар чорвачиликда келажак подасининг асоси ҳисобланади, шунинг учун уларнинг ҳаётининг дастлабки ҳафталаридаги соғлиғи катта иқтисодий аҳамиятга эга. Шу даврда энг кўп учрайдиган юқумли касалликлардан бири неонатал ич кетиши бўлиб, унинг асосий қўзғатувчиси энтеротоксиген Escherichia coli (ETEC) ҳисобланади. Acres (1985) кўрсатганидек, бактерия ичакнинг ингичка қисмида жойлашиб,

энтеротоксин ишлаб чиқаради ва бу токсин ичакка суюқликнинг ҳаддан ташқари кўп ажралишига олиб келади. Натижада бузоқ тез сувсизланади ва касаллик кўпинча ўлим билан тугайди [1].

Касалликнинг тарқалиш ёъли ҳам муҳим. Касал ёки бактерияни тарқатувчи ҳайвонлар муҳитга E. coli ажратади, туғилгандан кейин кўп ўтмай бузоқлар эса уларни оғиз орқали ютади. Яъни касаллик юқиш занжири туғиш жойи, тўшама, сут бериш жиҳозлари ва она сигир орқали ишлайди. Шу сабабли колибактериозга қарши кураш фақат даволаш билан чекланмасдан, бутун занжирни бузишга қаратилиши керак [1].

Хўжайли тумани чорвачилигида бузоқлар туғилгандан кейин сут билан озиқлантирилади ва кўп ҳолларда уларни ёпиқ жойларда сақлаш кузатилади. Бу омиллар касалликнинг тарқалиши учун қулай шароит яратиши мумкин. Шу сабабли ушбу мақоланинг мақсади адабиётлардаги маълумотларни таҳлил қилиш, хавф омилларини аниқлаш ва маҳаллий шароитга мос профилактика чораларини асослашдан иборат.

## АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ

### 1. ПАТОГЕНЕЗ ВА КЛИНИК БЕЛГИЛАР

Адабиётларда колибактериознинг икки асосий клиник шакли қайд этилган: ич кетиши ва септитсемик шакл. Биринчи шаклда бактерия ичак деворида кўпайиб, сувсизланиш ва электролит мувозанатининг бузилишига сабаб бўлади. Иккинчи шаклда эса бактерия қонга ўтади ва умумий сепсис ривожланади. Септитсемик шакл одатда иммунитет етарли бўлмаган бузоқларда, ҳаётнинг биринчи икки ҳафтасида учрайди [2].

### 2. КОЛОСТРУМ ВА ПАССИВ ИММУНИТЕТ

Бузоқнинг касалликка қарши дастлабки ҳимояси она колоструми орқали олинадиган иммуноглобулинларга боғлиқ. Ветеринария адабиётларида кўрсатилишича, бу иммуноглобулинлар ичак девори орқали фақат туғилгандан кейинги қисқа вақт ичида яхши сўрилади. Шунинг учун колострум қанчалик тез берилса, пассив иммунитет шунчалик самарали бўлади [2, 3].

Америкалик тажрибаларга асосланган тавсияларга кўра, бузоққа биринчи овқатланишда тахминан 3–4 литр колострум бериш керак. Энг яхши натижа туғилгандан кейин 1–2 соат ичида эришилади, 4 соатгача қабул қилинади, 12 соатдан кейин эса антитаналарнинг сўрилиши кескин камаяди [3]. Бу маълумотлар колострум бериш вақтини асосий хавф омили сифатида кўрсатади.

### 3. ЗООГИГИЕНИК ОМИЛЛАР

Колострумнинг ўзи ҳам микроблар билан ифлосланиши мумкин. Тавсияларда янги колострумда умумий микроблар сони 100 000 КОЕ/мл дан, колиформ бактериялар эса 10 000 КОЕ/мл дан ошмаслиги кераклиги таъкидланган. Бундан ташқари, 60 °C ҳароратда 60 дақиқа иссиқлик билан ишлов бериш бактериялар сонини камайтириб, иммуноглобулин миқдорини сақлаб қолади. Битта тажрибада иссиқлик билан ишланган колострум пассив иммунитет етишмовчилигини 30,1% дан 18,6% гача камайтирган [3].

Туғиш жойи ва бузоқлар сақланадиган муҳит ҳам муҳим омил. Ифлос тўшама, намлик ва ортиқча зичлик E. coli нинг муҳитда узоқ сақланишига ва бузоқлар ўртасида тарқалишига ёрдам беради. Шу сабабли зоогигиеник талабларга риоя қилиш профилактиканинг ажралмас қисми ҳисобланади [1].

## 4. ВАКСИНАТСИЯ

Адабиётларда она сигирларни эмлаш бузоқларда ҳимояни оширишнинг самарали усули сифатида кўрсатилган. Эмланган оналарнинг антитаналари колострум орқали бузоққа ўтади ва касаллик хавфини камайтиради [1]. Бироқ, ваксинанинг тури ва қўллаш тартиби маҳаллий ветеринария хизмати тавсияси билан белгиланиши керак.

## ТАҲЛИЛ ВА МУҲОКАМА

Адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, колибактериознинг асосий хавф омиллари бир-бири билан боғлиқ. Колострумнинг кеч берилиши ёки кам миқдорда берилиши бузоқнинг иммунитетини заифлаштиради. Ифлосланган муҳит эса бактерияларнинг кўпайиши ва юқиши учун шароит яратади. Иккала омил биргаликда таъсир қилганда, касаллик хавфи кескин ортади. Шу сабабли кураш чораларини битта ёъналишда эмас, балки комплекс тарзда олиб бориш зарур.

Қуйидаги жадвалда адабиётлар асосида аниқланган хавф омиллари, уларнинг механизми ва мос келган кураш чоралари умумлаштирилган.

**1-жадвал. Колибактериознинг асосий хавф омиллари ва кураш чоралари**

| Хавф омили | Таъсир механизми * | *Кураш чоралари** |
|---|---|---|
| Колострумнинг кеч И берилиши с | ммуноглобулинларнинг Т ўрилиши камаяди соат | уғилгандан кейин 1–2 ичида бериш |
| Колострум миқдорининг етарли эмаслиги б | Пассив иммунитет паст ўлади лит | Биринчи овқатда 3–4 р бериш |
| Колострумнинг ифлосланиши о | Бактериялар миқдори Т шади бў | оза жиҳозлар; зарур лса 60 °C да 60 дақиқа иссиқлик ишлови |
| Ифлос туғиш жойи E. ва тўшама тўп | coli нинг муҳитда Тоз ланиши тўшама | алаш, дезинфексия, ни алмаштириш |
| Зич сақлаш ва Юқ намлик | иш тезлиги ортади Гуру | ҳлаш, шамоллатиш, қуруқ жой |
| Она сигирнинг эмланмаганлиги | Антитаналар колострумда кам бўлади та | Ваксинатсия ветеринария всияси билан |

Халқ орасида айтиладиган «Мол — бойлик» деган ибора чорвачиликнинг иқтисодий аҳамиятини кўрсатади. Бузоқларнинг ўлими эса бу бойликнинг энг катта ёъқотилиши ҳисобланади. Шу маънода «Эҳтиёт бўлган омон қолади» деган халқ мақоли ҳам профилактиканинг қадриятини ифодалайди: касаллик бошлангандан кейин даволашдан кўра, унинг олдини олиш арзонроқ ва самаралироқ бўлади. Бу фикр замонавий ветеринария ёндашуви билан тўлиқ мос келади.

Адабиётлар таҳлилида бир қатор чекловлар ҳам бор. Кўпгина маълумотлар Шимолий Америка ва Европа фермаларида олинган бўлиб, уларни Хўжайли тумани


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311047

шароитига тўғридан-тўғри кўчириш эҳтиёткорликни талаб қилади. Шу боис маҳаллий ветеринария назорати ва дала тадқиқотлари орқали бу тавсияларни текшириш зарур.

## КУРАШ ЧОРАЛАРИ

Таҳлил натижаларига таяниб, Хўжайли тумани шароитида бузоқларда колибактериозга қарши қуйидаги чораларни тавсия этамиз:

**1. Колострум билан таъминлаш.** Бузоқ туғилгандан кейин 1–2 соат ичида биринчи овқатда 3–4 литр сифатли колострум берилиши керак. Эҳтиёж бўлса, колострумни найча орқали бериш мумкин.

**2. Колострум сифатини назорат қилиш.** Колострум захираси тоза идишларда сақланади. Сифатга шубҳа бўлганда, иссиқлик билан ишлов бериш усули қўлланади.

**3. Туғиш жойи ва тўшама.** Туғиш жойи тозаланиб, дезинфексия қилинади. Қуруқ ва тоза тўшама ишлатилиб, ҳар бир туғишдан кейин алмаштирилади.

**4. Киндикни ишлаш.** Туғилгандан кейин киндик ёдли эритма билан ишланади.

**5. Сақлаш шароити.** Бузоқлар ёши ва ҳолатига қараб гуруҳланади, зичлик меъёрдан ошмайди, шамоллатиш таъминланади.

**6. Касал бузоқларни ажратиш.** Касал бузоқлар соғломларидан ажратилади ва ветеринария шифокори тавсияси билан даволанади. Сувсизланишнинг олдини олиш учун суюқлик бериш муҳим.

**7. Она сигирларни эмлаш.** Туғишдан олдин она сигирларни колибактериозга қарши эмлаш маҳаллий ветеринария хизмати билан келишилган ҳолда амалга оширилади.

**8. Мониторинг.** Ҳар бир бузоқнинг касаллик тарихи ёзиб борилади ва касаллик белгилари эрта аниқланади.

## ХУЛОСА

Адабиётлар таҳлили бузоқларда колибактериознинг асосий хавф омиллари колострумнинг кеч ёки кам берилиши, ифлосланган колострум ва муҳит, зич сақлаш ҳамда она сигирларнинг эмланмаганлиги эканлигини кўрсатди. Бу омиллар бир-бири билан боғлиқ бўлиб, уларни комплекс тарзда бартараф этиш касалликнинг олдини олишда энг самарали ёъл ҳисобланади. Тавсия этилган чораларни Хўжайли тумани шароитида дала тадқиқотлари орқали синаб кўриш келгуси ишларнинг асосий ёъналиши бўлиши керак.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Acres S. D. Enterotoxigenic Escherichia coli infections in newborn calves: a review // Journal of Dairy Science. – 1985. – Vol. 68, No. 1. – P. 229–256.
2. Septicemic colibacillosis and failure of passive transfer of colostral immunoglobulin in calves // Veterinary Clinics of North America: Food Animal Practice. – 1985. – Vol. 1, No. 3. – P. 445–459. DOI: 10.1016/S0749-0720(15)31295-0.
3. Swartz, Hadfield, Taylor, Mathews. Colostrum Management for Dairy Calves. Utah State University Extension, 2026. [Qisqa tavsifi: extension.usu.edu].
4. Whittier W. D. Management Considerations to Control Calf Diarrhea // American Association of Bovine Practitioners Conference Proceedings. – 1999. – P. 123–127.

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

# NUKUS TUMANI QORAMOLÇILIK XÖJALIKLARIDA QORAMOLLARDA TARQALĞAN TUBERKULYOZ KASALLIGINING DIAGNOSTIKASI VA PROFILAKTIKASI

***S.B.Gaypnazarov Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi kafedrasi stajyor oqituvchisi***

***M.T.Mambetniyazova magistrant***

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311048

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
**244–249**

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Gaypnazarov S.B., Mambetniyazova M.T. Nukus tumani qoramolçilik xöjaliklarida qoramollarda tarqalğan tuberkulyoz kasalligining diagnostikasi va profilaktikasi // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 244–249. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311048

ANNOTATSIYA Mazkur tezis Nukus tumani qoramolçilik xöjaliklarida qoramollar tuberkulyozi kasalligining tarqaliş xususiyatlari, epizootologik omillari, zamonaviy diagnostika usullari va profilaktika çoralariga bağişlangan. Işda hududning keskin kontinental va qurğoqçil iqlim şaroitining çorva mollarini saqlaş texnologiyasiga ta'siri, şuningdek, an'anaviy allergetik sinovlar bilan bir qatorda laboratoriya-serologik (PZR, IFA) tadqiqotlarni qöllagan holda kompleks diagnostika tizimini joriy etiş zarurati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Şuningdek, kasallikning xöjaliklarga keltiradigan iqtisodiy va ijtimoiy zararlari tahlil qilinib, ularni kamaytiriş hamda hududni soğlomlaştiriş böyiça amaliy tavsiyalar işlab çiqilgan.

АННОТАЦИЯ Данный тезис посвящен особенностям распространения, эпизоотологическим факторам, современным методам диагностики и профилактическим мерам туберкулеза крупного рогатого скота в хозяйствах Нукусского района. В работе научно обосновано влияние резко континентального и засушливого климата региона на технологии содержания скота, а также необходимость внедрения комплексной системы диагностики с использованием лабораторно-серологических (*ПЦР, ИФА*) исследований наряду с традиционными аллергическими пробами. Кроме того, проанализирован экономический и социальный ущерб, наносимый заболеванием хозяйствам, и разработаны практические рекомендации по его снижению и оздоровлению территории.

ABSTRACT This thesis is devoted to the features of the spread, epizootological factors, modern diagnostic methods, and preventive measures of bovine tuberculosis in livestock farms of the Nukus district. The paper scientifically substantiates the influence of the sharply continental and arid climate of the region on cattle maintenance teçnologies, as well as the need to introduce a comprehensive diagnostic system using laboratory-serological (*PCR, ELISA*) studies alongside traditional allergic tests. In addition, the economic and social damage caused by the disease to farms is analyzed, and practical recommendations for its reduction and territory rehabilitation are developed.

KALIT SÖZLAR Qoramollar tuberkulyozi, Mycobacterium bovis, epizootologiya, tuberkulyonizatsiya, kompleks diagnostika, profilaktika, iqtisodiy zarar, veterinariya-sanitariya, Nukus tumani.

**Kiriş:** Qoramollar tuberkulyozi çorvaçilik tarmoğiga ulkan iqtisodiy zarar yetkazuvçi, surunkali keçuvçi yuqumli kasallik bölib, nafaqat qişloq xöjaligi hayvonlari mahsuldorligini keskin pasaytiradi, balki epizootik barqarorlikka ham jiddiy xavf soladi. Eng muhimi, bu kasallik **zoonoz** xarakterga ega bölib, kasallangan qoramollardan sut, göşt mahsulotlari yoki bevosita muloqot orqali odamlarga yuqişi mumkin. Bu holat veterinariya xizmati xodimlari oldiga nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy-soğliqni saqlaş vazifalarini ham qöyadi.

Mamlakatimizda çorvaçilikni rivojlantiriş, aholini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlaş davlat siyosatining ustuvor yönalişlaridan biridir. Biroq, Qoraqalpoğiston Respublikasining, xususan **Nukus tumani**ning öziga xos tabiiy-iqlim şaroitlari – keskin kontinental iqlim, yozning quruq va jazirama issiq kelişi, yaylov va suv resurslarining çeklangani, şuningdek, çorva mollarini saqlaş texnologiyasining turliça şakllangani (fermer xöjaliklari va şaxsiy yordamçi xöjaliklar) veterinariya-sanitariya va profilaktika tadbirlarini taşkil etişda muayyan qiyinçiliklarni keltirib çiqaradi.

Nukus tumanidagi qoramolçilik xöjaliklarida tuberkulyoz qözğatuvçisining tarqaliş yöllari, epizootologik öçoğining saqlanib qoliş sabablari va ularning mahalliy şaroit bilan boğliqligi ilmiy jihatdan yetarli darajada çuqur örganilmagan. Bugungi kunda mavjud bölgan an'anaviy diagnostika usullarini mahalliy şaroitga moslaştiriş, ularni zamonaviy laboratoriya-serologik (PZR, IFA) usullar bilan uyğunlaştirgan holda kompleks qöllaş dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Şu nuqtai nazardan, Nukus tumani qoramolçilik xöjaliklarida tuberkulyoz kasalligining tarqaliş qonuniyatlarini oçib beriş, erta diagnostika qiliş samaradorligini oşiriş hamda hududning xöjalik-iqlim şususiyatlarini hisobga olgan holda samarali profilaktika va soğlomlaştiriş tadbirlarini ilmiy asoslaş mazkur dissertatsiya işining nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham öta dolzarb ekanligini belgilab beradi.

## ASOSIY ILMIY YÖNALIŞLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI

### 1. QORAMOLLAR TUBERKULYOZINING EPIZOOTOLOGIK XUSUSIYATLARI VA TARQALIŞ OMILLARI

Qoramollar tuberkulyozi muammosi köplab mahalliy va xorijiy olimlarning, jumladan, *M.A. Saidov, T.T. Fayziyev, Ş.T. Atabayev, A.I. Vasiliyev* va boşqalarning ilmiy-tadqiqot işlarida keng yoritilgan. Tadqiqotçilarning fikriça, tuberkulyoz qözğatuvçisi bölgan *Mycobacterium bov*is yuqori çidamliligi va taşqi muhit omillariga moslaşuvçanligi bilan ajralib turadi.

Qoraqalpoğiston Respublikasi, xususan, **Nukus tumani**ning qurğoqçil va keskin iqlim şaroitida çorvaçilikni yuritiş öziga xos xususiyatlarga ega. Adabiyotlar tahlili şuni körsatadiki, tuman hududidagi şaxsiy yordamçi va kiçik fermer xöjaliklarida mollarni saqlaş gigienasi, molxonalarning tabiiy şamollatilişi yetişmasligi hamda umumiy yaylovlar va suğoriş kanallaridan birgalikda foydalaniş epizootik zanjirning uzluksizligini ta'minlovçi asosiy omillardan hisoblanadi. Ilmiy manbalarda bu kabi ekologik va xöjalik omillari infeksiyaning tarqaliş tezligiga bevosita ta'sir körsatişi ilmiy jihatdan asoslab berilgan, biroq Nukus tumanining mikroiqlim va tuproq-iqlim xususiyatlarini inobatga olgan holda epizootik öçoqlarni xaritagaça tuşiriş va çuqur tahlil qiliş masalalari yetarli darajada örganilmagan.

## 2. TUBERKULYOZ KASALLIGINI ERTA ANIQLAŞNING ZAMONAVIY DIAGNOSTIK USULLARI

Kasallikka qarşi kuraşiş va uni tugatişning eng samarali yöli bu – yaşirin şaklda keçayotgan infeksiyani öz vaqtida va aniq aniqlaşdir. Ilmiy adabiyotlarda tuberkulyoz diagnostikasi asosan quyidagi yönalişlarda olib borilişi ta'kidlanadi:

1) **Allergetik usul:** Teri içiga tuberkulyoz sinovi (tuberkulyonizatsiya) klassik va ommaviy tekşiruv usuli sifatida hozirgi kunda ham öz ahamiyatini yöqotmagan.
2) **Laboratoriya-serologik va molekulyar-biologik usullar:** *PZR (Polimeraza zanjir reaksiyasi)* va *IFA (Immunoferment tahlili)* kabi zamonaviy usullar qözğatuvçining DNK sini yoki antitelolarni aniqlaşda yuqori aniqlik beradi.

Maşhur epizootolog olimlarning ilmiy işlarida ta'kidlanişiça, faqat bitta diagnostik usul bilan çeklaniş ba'zida (immuniteti past yoki kasallikning boşlanğiç davridagi mollarda) soxta manfiy natijalarga olib kelişi mumkin. Şu sababli, *kompleks diagnostika* (allergetik sinovlarni laboratoriya tekşiruvlari bilan uyğunlaştiriş) usulini qöllaş ilmiy adabiyotlarda ustuvor yönaliş sifatida tavsiya etiladi. Nukus tumani şaroitida mavjud veterinariya labaratoriyalari imkoniyatlaridan kelib çiqqan holda, uşbu zamonaviy diagnostika usullarini amaliyotga joriy etiş darajasini örganiş va takomillaştiriş muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

## 3. PROFILAKTIKA, VETERINARIYA-SANITARIYA QOIDALARI VA XÖJALIKLARNI SOĞLOMLAŞTIRIŞ YÖLLARI

Ilmiy manbalarda tuberkulyoz infeksiyasining oldini oliş va tarqalişiga çek qöyişda kompleks profilaktik tadbirlar majmuasi hal qiluvçi örin tutişi körsatib ötilgan. *Özbekiston Respublikasining "Veterinariya töğrisida"gi Qonuni* va tegişli yöriqnomalarga muvofiq, quyidagi tadbirlar amalga oşirilişi şart:

1. Podalarni har yili rejaviy ravişda allergetik tekşiruvdan ötkazib turiş;
2. Aniqlangan musbat reaksiya bergan hayvonlarni öz vaqtida umumiy podadan ajratiş (izolyatsiya qiliş) va xöjalikdan çiqariş;
3. Molxonalarda muntazam ravişda maxsus dezinfeksiyalovçi vositalar yordamida çuqur sanitariya işlarini olib boriş;
4. Xöjaliklarga yangi qoramol kiritişda (karantin qoidalariga rioya qilgan holda) ularning tuberkulyozga tekşirilganligini qat'iy nazorat qiliş.

Biroq, adabiyotlar tahlili şuni körsatadiki, Nukus tumani kabi qurğoqçil hududlardagi fermer xöjaliklarining iqtisodiy imkoniyatlari, dezinfeksiya vositalari bilan ta'minlanganlik darajasi va mutaxassislarning xabardorligini oşiriş böyiça olib boriladigan tarğibot işlari hududiy xususiyatlardan kelib çiqib turliça farq qiladi. Şu bois, mavjud ilmiy tavsiyalarni Nukus tumanining mahalliy-xöjalik şaroitiga moslaştirgan holda, samarali profilaktika tizimini işlab çiqiş mazkur adabiyotlar tahlilining mantiqiy davomi bölib xizmat qiladi.

**Qoramollar tuberkulyozining iqtisodiy va ijtimoiy zararini baholaş hamda uni kamaytiriş yöllari:**

**1. Iqtisodiy zararning tarkibiy tuzilişi va uning çorvaçilik tarmoğiga ta'siri**

Ilmiy adabiyotlar va iqtisodiy tahlillar şuni körsatadiki, qoramollar tuberkulyozi surunkali keçadigan, uzoq vaqt davomida yaşirin şaklda rivojlanib, çorvaçilik xöjaliklariga katta iqtisodiy zarar yetkazadigan xavfli infeksiyalardan biridir. *A.N. Smirnov, B.X. Xolov, T.T. Fayziyev va boşqa* tadqiqotçilarning ilmiy işlarida tuberkulyoz keltirib çiqaradigan iqtisodiy zararning quyidagi asosiy tarkibiy qismlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan:


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311048

- **Mahsuldorlikning keskin pasayişi:** Kasallik hayvonning umumiy holdan toyişi, moddalar almaşinuvining izdan çiqişi va nafas oliş organlarining şikastlanişiga olib keladi. Natijada soğin sigirlarning sut mahsuldorligi 20–30% gaça kamayadi, sutning sifat körsatkiçlari (yoğlilik va oqsil miqdori) pasayadi, göştdorlik yönalişidagi mollarda esa tana vaznining ösişi töxtaydi yoki orqaga ketadi.
- **Nasçilik qiymatining yöqolişi:** Yuqori naslçilik qimmatiga ega bölgan zotdor qoramollarning tuberkulyozga çalilişi xöjalikning seleksiya-nasçilik işlariga ulkan zarba beradi. Bunday hayvonlarni majburiy ravişda podadan çiqarib yuboriş nasçilik bazasining qisqarişiga olib keladi.
- **Reproductive yöqotişlar (Nasldan qoliş):** Infeksiya hayvonlarning reproduktiv tizimiga salbiy ta'sir körsatib, buzoqlaş foizining pasayişiga, tuğilgan buzoqlarning zaif yoki ölik tuğilişiga hamda bepuştlik holatlarining köpayişiga sabab böladi.
- **Töğridan-töğri moliyaviy yöqotişlar:** Kasalligi aniqlangan hayvonlarni majburiy ravişda söyiş yoki yöq qiliş, karantin davrida qöşimça ozuqa sarflaş, dezinfeksiya vositalari, diagnostik preparatlar (tuberkulin) hamda veterinariya xizmatlari uçun qilinadigan xarajatlar xöjalik byudjetiga oğir yuk böladi.

Nukus tumani kabi çorvaçilik yetakçi tarmoqlardan biri bölgan hududda fermer xöjaliklari va şaxsiy yordamçi xöjaliklar iqtisodiyoti bevosita göşt-sut mahsulotlari yetiştirişga tayanadi. Hududning qurğoqçil va yaylov tanqisligi şaroitida har bir molning iqtisodiy qiymati yuqori bölib, tuberkulyoz öçoqlarining kelib çiqişi kiçik fermer xöjaliklarining moliyaviy barqarorligiga jiddiy putur yetkazadi.

## 2. KARANTIN ÇEKLOVLARI VA TAŞQI IQTISODIY ZARARLAR

Tuberkulyoz kasalligi aniqlangan xöjaliklarda qonun-qoidalarga muvofiq qat'iy **karantin çeklovlari** joriy etiladi. Bu esa quyidagi salbiy oqibatlarni keltirib çiqaradi:

- Xöjalikdan tirik qoramol va hayvonot mahsulotlarini (sut va göştni çeklangan tartibda qayta işlaş talablari) boşqa hududlarga çiqariş taqiqlanadi yoki çeklanadi.
- Hududlararo va xalqaro savdo aloqalariga tösqinlik qiladi, göşt-sut sanoati korxonalarining xomaşyo bilan uzluksiz ta'minlanişini izdan çiqaradi.
- Davlat byudjetidan epizootik tadbirlarga, karantin postlariga va kompensatsiya tölovlariga qöşimça mablağlar yönaltirilişini talab etadi.

## 3. IJTIMOIY OQIBATLAR VA AHOLI SALOMATLIGIGA XAVF

Qoramollar tuberkulyozi (*Mycobacteria bovis*) **zoonoz** xarakterga ega bölib, nafaqat hayvonlar, balki insonlar salomatligi uçun ham öta xavflidir. Ilmiy manbalarda ta'kidlanişiça, kasallangan hayvonlarning qaynatilmagan suti, xom sut mahsulotlari yoki göştini iste'mol qiliş, şuningdek, kasal mollar bilan bevosita muloqotda böliş (fermerlar, çöponlar, veterinariya mutaxassislari) odamlarda, ayniqsa bolalar orasida ekstraleptik va öpka tuberkulyozi kasalligini keltirib çiqarişi mumkin.

Qişloq joylarida, xususan Nukus tumani şaxsiy yordamçi xöjaliklarida aholining öz şaxsiy molidan olingan sutni qaynatmasdan iste'mol qiliş odati yoki sanitariya qoidalariga töliq amal qilmasligi ijtimoiy xavfni yanada oşiradi. Bu esa veterinariya xizmati oldiga nafaqat iqtisodiy, balki muhim sanitariya-epidemiologik xotirjamlikni ta'minlaş vazifasini qöyadi.

## 4. ZARARNI KAMAYTIRIŞ VA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OŞIRIŞ YÖLLARI

Adabiyotlar tahlili va amaliy tajribalar şuni körsatadiki, qoramollar tuberkulyozining iqtisodiy va ijtimoiy zararining oldini olişning eng maqbul yöli – profilaktik va soğlomlaştiriş tadbirlarini öz vaqtida, tizimli ravişda moliyalaştiriş va amalga oşirişdir. Bunda quyidagi çora-tadbirlar ustuvor hisoblanadi:

1. **Profilaktikaga qilingan xarajatlarning iqtisodiy oqlanişi:** Ilmiy hisob-kitoblarga köra, har bir sarflangan 1 söm profilaktika mablağı kelgusida kasallik tufayli yuzaga keladigan 5–8 sömlik iqtisodiy zararning oldini oladi.
2. **Kompensatsiya mexanizmlarini takomillaştiriş:** Kasallangan hayvonlarni majburiy yöq qiliş yoki söyişga topşirişda fermerlarga davlat tomonidan adolatli va öz vaqtida kompensatsiya tölaş tizimini mustahkamlaş. Bu çorvadorlarning yaşirinça mol sotib yuborişi yoki kasallikni yaşirişining oldini oladi.
3. **Veterinariya-sanitariya madaniyatini oşiriş:** Xöjalik rahbarlari va işçilari uçun maxsus öquv kurslarini taşkil etiş, ularga kasallikning iqtisodiy zarari hamda şaxsiy gigiena qoidalarini tuşuntiriş işlarini kuçaytiriş.

## XULOSA VA ILMIY-AMALIY TAVSIYALAR

Qoramollar tuberkulyozi nafaqat çorvaçilik tarmoğining iqtisodiy barqarorligiga, balki aholi salomatligiga ham jiddiy xavf soluvçi öta xavfli zoonoz kasallik ekanligi olib borilgan adabiyotlar tahlili va ilmiy kuzatişlar natijasida yaqqol namoyon böldi. Nukus tumani misolida olib borilgan ilmiy adabiyotlar şarhi va tahlillar quyidagi umumiy xulosalarni çiqarişga asos beradi:

- **Hududiy va iqlimiy omillarning ta’siri:** Nukus tumanining özига xos keskin kontinental va qurğoqçil iqlim şaroiti, yaylov va suğoriş resurslarining çeklangani, şuningdek, şaxsiy yordamçi hamda kiçik fermer xöjaliklarida zoogigienik qoidalarga tölaqonli rioya etilmasligi tuberkulyoz qözğatuvçisining saqlanişi va tarqalişi uçun qulay şaroit yaratadi. Bu esa har bir hudud uçun alohida yondaşuvga asoslangan profilaktika strategiyasini işlab çiqiş zarurligini körsatadi.
- **Diagnostika jarayonini takomillaştiriş zarurati:** Bugungi kunda faqatgina an’anaviy allergetik sinovlar (tuberkulyonizatsiya) bilan çeklaniş ba’zi yaşirin va surunkali şakldagi infeksiyalarni öz vaqtida aniqlaşda yetarli bölmasligi mumkin. Şu bois, Nukus tumani xöjaliklarida tuberkulyozni erta aniqlaşda allergetik usullarni zamonaviy laboratoriya-serologik hamda molekulyar-biologik (*PZR, IFA*) tadqiqotlar bilan uyğunlaştirgan holda **kompleks diagnostika** tizimini qöllaş yuqori samara berişi adabiyotlar tahlilidan kelib çiqib asoslandi.
- **Profilaktika va xöjaliklarni soğlomlaştiriş yöllari:** Xöjaliklarda epizootik barqarorlikni ta’minlaşning asosiy garovi – rejaviy ravişda ötkaziladigan veterinariya-sanitariya tadbirlari, kasallangan hayvonlarni öz vaqtida izolyatsiya qiliş, molxonalarda çuqur dezinfeksiya işlarini taşkil etiş hamda karantin qoidalariga qat’iy rioya qilişdan iboratdir. Nukus tumani şaroitida fermerlarning veterinariya-sanitariya madaniyatini oşiriş va moddiy-texnik bazasini yaxşilaş profilaktika samaradorligini keskin oşiradi.


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311048

## AMALIY TAVSIYALAR

1. **Mintaqaviy dastur yaratiş:** Nukus tumani çorvaçilik xöjaliklarining öziga xos xususiyatlaridan kelib çiqqan holda, tuberkulyoz kasalligiga qarşi kuraşiş va uni tugatiş böyiça maxsus hududiy "Soğlomlaştiriş dasturi"ni işlab çiqiş va amaliyotga joriy etiş.
2. **Diagnostikani yaxşilaş:** Tuman veterinariya laboratoriyalarining moddiy-texnik bazasini kuçaytiriş hamda zamonaviy diagnostika usullarini (PZR va serologik testlar) ommaviy tekşiruvlarga bosqiçma-bosqiç tatbiq etiş.
3. **Tarğibot va nazoratni kuçaytiriş:** Şaxsiy yordamçi va fermer xöjaliklari rahbarlari hamda işçilari uçun tuberkulyozning oldini oliş, şaxsiy gigiena va sanitariya qoidalari böyiça doimiy öquv-seminarlar va tuşuntiriş işlarini taşkil qiliş.

Mazkur xulosa va tavsiyalar dissertatsiya işining ilmiy-amaliy ahamiyatini oçib berişga hamda kelgusidagi ilmiy izlanişlar uçun mustahkam poydevor bölib xizmat qilişga yönaltirilgan.

## ADABIYOTLAR RÖYXATI


1. **Saidov M.A.** Qişloq xöjaligi hayvonlari yuqumli kasalliklari epizootologiyasi va diagnostikasi. — Toşkent: "Öqituvçi", 2018. — 245 b.
2. **Fayziyev T.T., Atabayev Ş.T.** Qoramollar tuberkulyozining tarqaliş xususiyatlari va qarşi kuraş çoralari // Özbekiston veterinariya jurnali. — Toşkent, 2021. — № 3. — B. 42–45.
3. **Smirnov A.N., Xolov B.X.** Veterinariya epizootologiyasi va mikrobiologiyasi. — Moskva: Kolos, 2019. — 380 b.
4. **Васильев А.И., Петрова Л.В.** Современные методы лабораторной диагностики туберкулеза сельскохозяйственных животных (ПЦР и ИФА) // Ветеринария сегодня. — Санкт-Петербург, 2020. — № 2(34). — С. 15–20.
5. **Özbekiston Respublikasining "Veterinariya töğrisida"gi Qonuni** (Yangi tahrir). — Toşkent, 2021.
6. **Normatov X.B.** Qoraqalpoğiston Respublikasining qurğoqçil hududlarida çorvaçilikni rivojlantirişning veterinariya-sanitariya muammolari. — Nukus: "Karakalpakstan", 2022. — 160 b.
7. **World Organisation for Animal Health (WOAH / OIE).** Manual of Diagnostic Tests and Vaccines for Terrestrial Animals. Bovine Tuberculosis. — Paris, 2023.

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

# ÖZBEKSTON RESPUBLIKASI MISOLIDA PARRANDA GRIPPI EPIDEMIYALARINING OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA ISTE'MOL BOZORIGA IQTISODIY TA'SIRI

**Adabiyotlar tahlili**

***Magistr Amirova Laylo Tohir qizi***

***Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, çorvaçilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali***

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311049

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
250–252

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Amirova L.T. Özbekston Respublikasi misolida parranda grippi epidemiyalarining oziq-ovqat xavfsizligi va iste'mol bozoriga iqtisodiy ta'siri // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 250–252. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311049

ANNOTATSIYA Uşbu tezisda parranda grippi (Avian Influenza) kasalligining kelib çiqişi, virusning biologik xususiyatlari hamda uşbu epizootiyaning Özbekiston Respublikasi şaroitida xalqimiz iqtisodiyotiga, parrandaçilik tarmoğiga va iste'mol bozoridagi narx-navo barqarorligiga körsatadigan salbiy ta'sirlari kompleks ravişda tahlil qilingan. Tezisda kasallik tarqalişi natijasida yuzaga keladigan taklif hajmining qisqarişi, bozordagi narxlar inflyatsiyasi va aholining xarid qobiliyatiga yetkaziladigan zanjirli iqtisodiy zararlar körib çiqilgan.

АННОТАЦИЯ В данной диссертации представлен всесторонний анализ происхождения птичьего гриппа и биологических характеристик вируса, а также рассматриваются негативные последствия такой эпизоотии — на примере Республики Узбекистан — для национальной экономики, птицеводческой отрасли и ценовой стабильности на потребительском рынке. В работе исследуются экономические последствия распространения заболевания, включая сокращение предложения, инфляционное давление на рыночные цены и, как следствие, снижение покупательной способности населения.

ABSTRACT This thesis provides a comprehensive analysis of the origins of Avian Influenza and the biological çaracteristics of the virus, as well as the adverse impacts of suç an epizootic—within the context of the Republic of Uzbekistan—on the national economy, the poultry sector, and price stability in the consumer market. The study examines the economic ripple effects resulting from the spread of the disease, including the contraction of supply, inflationary pressure on market prices, and the subsequent decline in the population's purçasing power.

**Kalit sözlar**: Parranda grippi, epizootiya, Özbekiston iqtisodiyoti, iste'mol bozori, oziq-ovqat xavfsizligi, narxlar inflyatsiyasi, substitut mahsulotlar, taklif zanjiri.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА Птичий грипп, эпизоотия, экономика Узбекистана, потребительский рынок, продовольственная безопасность, ценовая инфляция, товары-заменители, цепочка поставок.

KEYWORDS Avian influenza, epizootic, economy of Uzbekistan, consumer market, food security, price inflation, substitute products, supply çain.

**Kiriş**. Parranda grippi (Avian Influenza) — parrandalarning barça turlari, şuningdek, odamlar va ba'zi sutemizuvçi hayvonlar uçun yuqori xavf tuğdiruvçi, asosan Orthomyxoviridae oilasiga mansub A turidagi viruslar tomonidan keltirib çiqariladigan ötkir yuqumli virusli kasallikdir. Uşbu viruslar özining patogenlik darajasiga köra ikki guruhga bölinadi: past patogenli (LPAI) va yuqori patogenli (HPAI) parranda grippi. Yuqori patogenli ştammlar (masalan, H5N1, H5N8, H5N6) parrandalar örtasida öta yuqori kasallaniş va 90–100% gaça ölim darajasini (mortality rate) keltirib çiqarişi bilan ajralib turadi.

*Yuqiş yöllari va alomatlari:* Kasallikning tabiatdagi asosiy zaxira manbai (rezervuari) yovvoyi suv quşlari (ördaklar, ğozlar) hisoblanadi. Virus havo-tomçi, oziq-ovqat, suv va kontakt yöllari orqali yuqadi. Zararlangan parrandalarda nafas oliş tizimining oğir şikastlanişi, holsizlik, tuxum qilişning keskin töxtaşi, boş hamda toj qismlarining şişişi va kökarişi, iç ketişi hamda asab tizimi buzilişlari kuzatiladi. Kasallikning tez tarqalişi va yuqori patogenligi uni qisqa muddatda butun bir xöjalik yoki hududga yoyilişiga olib keladi.

**Tadqiqot maqsadi:** Parranda grippi kasalligining biologik va epizootik xususiyatlaridan kelib çiqqan holda, uşbu epizootiyaning Özbekiston şaroitida xalqimiz iqtisodiyotiga, bozordagi narx-navo va aholi farovonligiga yetkazadigan iqtisodiy zararlarini tahlil qiliş.

**Asosiy qism**. Parranda grippi epizootiyasi nafaqat veterinariya muammosi, balki Özbekiston iqtisodiyoti va xalqimizning kundalik turmuş darajasiga töğridan-töğri zarba beruvçi jiddiy makroiqtisodiy omildir. Kasallikning iqtisodiyotimizga ta'siri quyidagi asosiy yönalişlarda namoyon böladi:

- *Parrandaçilik tarmoğidagi bevosita va bilvosita yöqotişlar* Respublikamizda sönggi yillarda parrandaçilik sanoat darajasiga kötarilib, yirik klasterlar va kiçik fermer xöjaliklari şakllandi. Kasallik kirib kelgan taqdirda tarmoq katta moliyaviy yöqotişlarga uçraydi. Epizootik öçoqlarni yöq qiliş uçun millionlab parrandalarning majburiy söyilişi va yöq qilinişi tadbirkorlar va fermerlar uçun milliardlab sömlik töğridan-töğri moliyaviy zarar demakdir. Tuxum beruvçi tovuqlar galasining yöqolişi tuxum yetiştiriş hajmini qayta tiklaşni 6–8 oyga keçiktiradi. Broyler yönalişida esa naslli ota-ona galalarining (parent stock) zararlanişi inkubatsion tuxum va jöja yetkazib berişni töxtatib, butun tarmoq faoliyatini falajlaydi
- *Iste'mol bozorida narxlar inflyatsiyasi va taklif taqçilligi* Özbekiston xalqi uçun tuxum va parranda göşti eng hamyonbop va kundalik ehtiyojdagi oqsil manbai hisoblanadi. Iqtisodiyot qonunlariga köra, uşbu mahsulotlarga bölgan talabning narx böyiça elastikligi past ya'ni narx oşsa ham aholi ularni sotib olişda davom etadi. Kasallik sababli bozorda mahsulot kamayişi bilan birga, Toşkent şahri va viloyat markazlaridagi bozorlarda tuxum va broyler göşti narxi keskin qimmatlaşadi. Bir hududda karantin e'lon qilinganda, mahsulotlarni boşqa viloyatlardan keltirişga majbur bölinadi. Uzoq masofali transport va logistika xarajatlari mahsulot tan narxiga qöşilib, bozordagi narxni yanada sun'iy ravişda oşiradi va umumiy oziq-ovqat inflyatsiyasini harakatga keltiradi.
- *Substitut (muqobil) bozorlardagi zanjirli narx oşişi* Parranda mahsulotlari narxining kötarilişi yoki xalqimiz örtasida kasallikdan xavotirlaniş hissi paydo bölişi iste'mol xulq-atvorini özgartiradi.Aholi öz ratsionidagi oqsil manbaini qoplaş uçun darhol mol göşti, qöy göşti yoki baliq mahsulotlarini sotib olişga ötadi (substitution effect). Natijada, mol va qöy göşti bozorida sun'iy talab bosimi yuzaga keladi. Bu esa respublikamizdagi barça

turdagi göşt mahsulotlari narxining zanjirli ravişda qimmatlaşişiga va xalqimiz uçun oziq-ovqat savatçasining oğirlaşişiga olib keladi.

- *Aholi xarid qobiliyati va ijtimoiy farovonlikka salbiy ta'siri.*Parranda grippi keltirib çiqaradigan narxlar ösişi, eng avvalo, daromadi past bölgan xonadonlar, nafaka oluvçilar va köp bolali oilalarning hamyoniga salbiy ta'sir körsatadi.Xalqimizning real daromadlari qadrsizlanib, oziq-ovqat mahsulotlariga sarflanadigan xarajatlar uluşi oilaviy byudjetda keskin ortadi.Hayvon oqsili iste'molining kamayişi ijtimoiy nuqtai nazardan aholi salomatligiga hamda oziq-ovqat xavfsizligi darajasiga bevosita salbiy ta'sir yetkazadi.

**Xulosa.** Parranda grippi (Avian Influenza) nafaqat parrandalarning yuqumli va halokatli virusli kasalligi, balki Özbekiston iqtisodiyoti va xalqimiz farovonligi uçun katta moliyaviy xavf manbaidir. Kasallik tarqalgan taqdirda parrandaçilik tarmoğidagi işlab çiqariş zanjirlari uziladi, bozorda tuxum va göşt tanqisligi yuzaga keladi hamda oziq-ovqat mahsulotlari narxining keskin oşişiga sabab böladi. Bu oqibatlar respublikamizda oziq-ovqat inflyatsiyasini tezlaştirib, aholining xarid qobiliyati va ijtimoiy farovonligiga jiddiy zarba beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Özbekiston Respublikasi Veterinariya va çorvaçilikni rivojlantiriş qömitasi ma'lumotlari.
2. FAO. (2023). Avian Influenza: Prevention, Control and Socio-Economic Impacts in Central Asia. Food and Agriculture Organization.
3. WOAH. (2024). Terrestrial Animal Health Code: Highly Pathogenic Avian Influenza. World Organisation for Animal Health.
4. Raşidov, A. va boşq. (2022). Özbekistonda qişloq xöjaligi bozorlari va oziq-ovqat xavfsizligi iqtisodiyoti. Toşkent.


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311049

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

# ТОШКЕНТ ШАҲРИ ХИЗМАТ ИТЛАРИНИНГ ЭКТОПАРАЗИТЛАРИ БЎЙИЧА ДАСТЛАБКИ МАЪЛУМОТЛАР

**Ф.Б.Турабов[1], Т.Ж.Абдиева[2], Р.М. Есимбетов[3]**

Ўзбекистон Республикаси божхона қўмитаси Миллий кинология маркази, хизмат итлари бош инструктори;

Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети Нукус филиали таянч докторанти;

Қорақалпоқ давлат университети

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311050

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
253–256

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Турабов Ф.Б., Абдиева Т.Ж., Есимбетов Р.М. Тошкент шаҳри хизмат итларининг эктопаразитлари бўйича дастлабки маълумотлар // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 253–256. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311050

АННОТАЦИЯ Мақолада Тошкент шаҳри шароитида махсус кинология марказида сақланаётган хизмат итларида эктопаразитларнинг тур таркиби ва тарқалиш хусусиятларини ўрганиш натижалари келтирилган. Тадқиқотлар 2025–2026 йилларда Ўзбекистон Республикаси Божхона қўмитасининг Миллий кинология марказида 14 та зотга мансуб 82 бош хизмат итида олиб борилган. Тадқиқот натижаларига кўра 9 бош итда эктопаразитлар аниқланиб, умумий инвазия экстенсивлиги 11,0% (95% CI: 5,1–19,8) ни ташкил этган. Морфологик идентификация натижасида каналардан *Ixodes persulcatus, Dermacentor marginatus, Haemaphysalis punctata* ва *Hyalomma scupense*, бургалардан *Ctenocephalides canis, C. felis* ва *Pulex irritans*, битлардан эса *Trichodectes canis* аниқланган.

Ҳозирги кунда хизмат итлари ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар, ҳарбий тузилмалар, божхона хизмати, қидирув-қутқарув бўлинмалари ва бошқа махсус хизматлар фаолиятида муҳим аҳамиятга эга. Ушбу ҳайвонлардан давлат чегараларини қўриқлаш, жиноятларнинг олдини олиш ва уларни фош этиш, тақиқланган моддаларни аниқлаш, қидирув-қутқарув ишларини амалга ошириш ҳамда жамоат хавфсизлигини таъминлашда фойдаланилади. Хизмат итларининг иш қобилияти, жисмоний ҳолати ва функционал фаолиятини сақлаб туришда уларни тўғри парваришлаш, ветеринария назоратини ташкил этиш ва паразитар касалликларнинг олдини олиш муҳим ўрин тутади.

Итлар соғлигига салбий таъсир кўрсатувчи омиллар орасида эктопаразитлар алоҳида аҳамиятга эга. Бурга, бит, жунхўрлар ва айрим каналар итлар териси ҳамда жун қопламида паразитлик қилиб, қичишиш, дерматит, жуннинг тўкилиши, безовталик ва организмнинг умумий ҳолсизланишига сабаб бўлиши мумкин (ESCCAP, 2022). Айрим эктопаразитлар қўзғатувчиларнинг ташилиши ва тарқалишида иштирок этиши, шунингдек, иккиламчи инфекцияларнинг ривожланишига шароит яратиши мумкин (Ketzis, 2023). Шу боис уларнинг тур таркиби, тарқалиши ва биологик

хусусиятларини ўрганиш хизмат итларининг ветеринария-соғломлаштириш тадбирларини такомиллаштиришда муҳим аҳамият касб этади.

Хизмат итларида эктопаразитларни аниқлаш, уларнинг тур таркиби ва тарқалиш хусусиятларини баҳолаш нафақат ҳайвонлар саломатлигини муҳофаза қилиш, балки эктопаразитларга қарши профилактик ва даволаш чораларини илмий асосда режалаштириш имконини ҳам беради. Бунда хизмат итларининг сақлаш шароити, ёши, зоти, хизмат йўналиши, мавсум ва аввал қўлланилган паразитларга қарши воситалар каби омилларни ҳисобга олиш тадқиқот натижаларининг амалий аҳамиятини оширади.

Ўзбекистонда йиртқич сутэмизувчи ҳайвонлар (Carnivora: Mmmalia) шу жумладан уй ва дайди итлар эктопаразитларини ўрганишга доирқатор тадқиқот ишлари олиб борилган (Deak et al., 2022, Safarov et al., 2023, Сафаров, 2024, Panait et al., 2025). Бироқ хизмат итлари эктопаразитларини ўрганиш борасида тадқиқот ишлари кўзга ташланмайди. Хизмат итларини сақлаш шароити уй итларига нисбатан фарқ қилиши боис уларнинг эктопаразитлар билан зарарланиш даражасини аниқлаш алоҳида аҳамият касб этади.

Бугунги кунда Тошкент шаҳрида ўнга яқин давлат ва нодавлат ташкилотларида хизмат итлари парваришланмоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Давлат хавфсизлик хизмати Давлат чегараларини ҳимоя қилувчи қўмитаси, Давлат хавфсизлик хизмати «Бургут» бригадасининг кинология хизмати, Мудофаа вазирлигининг кинология хизмати, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги Тез ҳаракат қилиш республика кўп тармоқли марказининг кинология хизмати, Ички ишлар вазирлиги Жамоат хавфсизлиги департаментининг Жазони ижро этиш департаменти ва тегишли махсус хизматлари таркибидаги наслчилик питомниги, Ички ишлар вазирлиги Махсус операцияларни мувофиқлаштириш бошқармаси Махсус тайёргарлик ўқув маркази, Божхона қўмитасининг Миллий кинология маркази ва Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардиясининг кинология хизмати.

Мазкур тадқиқот иши Ўзбекистон Республикаси Божхона қўмитасининг Миллий кинология марказида парваришланаётган хизмат итларининг эктопаразитлар билан зарарланиш даражаси, эктопаразитлар фаунаси ва хавф омилларини ўрганишга қаратилган.

Тадқиқотлар 2025 йил январь–март ва 2026 йил март–июнь ойларида Ўзбекистон Республикаси Божхона қўмитасининг Миллий кинология марказида парваришланаётган хизмат итларида олиб борилди. Тадқиқотга 14 та зотга мансуб жами 82 бош хизмат ити жалб қилинди. Хизмат итлари эктопаразитлар билан зарарланганлигини аниқлаш мақсадида клиник-паразитологик текширувдан ўтказилди.

Жами текширилган 82 бош итлардан 9 (11,0%) бошида эктопаразитлар аниқланди. Зарарланган итларнинг 2 (22,2%) боши малинуа зотига, 6 (66,6%) боши немис овчаркаси ва 1 (11,1%) боши лабрадор зотига мансуб эканлиги қайд этилди (1-расм).


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311050




**1-расм.** Тошкент шахри хизмат итларида аниқланган эктопаразитларнинг тур таркиби ва уларнинг тегишли таксономик гуруҳ ичидаги улуши, %.

**1-расм. Тошкент шаҳри хизмат итларида аниқланган эктопаразитларнинг тур таркиби ва уларнинг тегишли таксономик гуруҳ ичидаги улуши, %**

Эктопаразитлар аниқланган итларнинг ёш кесимидаги кўрсатгичлари таҳлил қилинганда 2 ёшдан 5 ёш оралиғида эканлиги кузатилди.

Жами 28 нусха кана, 51 нусха бурга ва 33 нусха бит йиғиб олинди. Каналар 5 бош итда (55,6%), бургалар 6 бош итда (66,6%), битлар эса 2 бош итда (22,2%) аниқланди. Эктопаразитлар билан зарарланган ҳар бир итдан йиғиб олинган паразитлар сони 5 тадан 17 нусха оралиғида бўлди.

Эктопаразитларни морфологик идентификация қилиш натижасида қуйидагилар аниқланди. Тўпланган 28 нусха каналардан 9 нусхаси (32,1%) *Ixodes persulcatus*, 6 нусхаси (21,4%) *Dermacentor marginatus*, 11 нусхаси (39,3%) *Haemaphysalis punctata* ва 2 нусхаси (7,1%) *Hyalomma scupense* турларига мансуб. Текширилган 51 нусха бургалардан 14 нусхаси (27,5%) *Ctenocephalides felis*, 21 нусхаси (41,2%) *Ctenocephalides canis* ва 16 нусхаси (31,4%) *Pulex irritans* турига мансуб эканлиги қайд этилди. Шунингдек, итлардан йиғилган 33 нусха битларнинг 28 нусхаси (84,8%) *Trichodectes canis* турига мансублиги аниқланди (2-жадвал). Қолган 5 та намунада тур даражасида идентификация қилиш учун зарур бўлган диагностик морфологик белгилар етарли даражада сақланмаганлиги сабабли уларни тур даражасида аниқлаш имкони бўлмади.

Хизмат итларининг эктопаразитлар билан аралаш зарарланиш ҳолатлари таҳлил қилинганда зарарланган 9 бош итлардан 3 бошида (33,3%) бит (*T. canis*) ва бургалар (*C. felis, P. irritans*), 5 бошида (55,5%) кана (*D. marginatus, H. punctata*) ва бургалар (*P. irritans*) билан аралаш зарарланиш ҳолатлари кузатилди. Тадқиқот натижаларига кўра аниқланган 3 турдаги эктопаразитлар билан итларнинг бир вақтда зарарланиш ҳолати қайд этилмади.

Эктопаразитлар билан зарарланган итларнинг ёш бўйича тақсимоти таҳлил қилинганда, уларнинг 3 боши (33,3%) 2 ёшли, 2 боши (22,2%) 3 ёшли ва 4 боши (44,4%) 3 ёшдан катта эканлиги аниқланди.

Хулоса қилиб айтганда олинган натижалар хизмат итларида эктопаразитлар фаунасини мунтазам мониторинг қилиш, профилактик ишловларни эпизоотологик ҳолатдан келиб чиқиб такомиллаштириш ҳамда морфологик идентификация натижаларини молекуляр усуллар билан тасдиқлаш мақсадга мувофиқлигини кўрсатади.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Deak, G., Safarov, A., Xie, X.C. et al. Fleas from the Silk Road in Central Asia: identification of *Ctenocephalides canis* and *Ctenocephalides orientis* on owned dogs in Uzbekistan using molecular identification and geometric morphometrics. Parasites Vectors 15, 345 (2022).
2. European Scientific Counsel Companion Animal Parasites (ESCCAP). Control of Ectoparasites in Dogs and Cats. Guideline 03. 7th ed. January 2022.
3. Ketzis J.K. Lice in Dogs and Cats // Merck Veterinary Manual. 2023
4. Panait, L.C., Safarov, A., Deak, G., Ionică, A.M. & Mihalca, A.D. (2025) Diversity of lice and flea- and lice-borne pathogens in free-ranging dogs in Uzbekistan. Medical and Veterinary Entomology, 39(1), 216–222.
5. Safarov A, Nasreen N, Akramova F, Djabbarov S, Mirzaeva A, Esonboey J, Azimov D, Said MB (2023). First report on ticks, mites, and other ectopar-asites infesting carnivorous mammals in uzbekistan. Adv. Anim. Vet. Sci. 11(8): 1297-1306.

 https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311050 

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

# QORAQALPOĞISTON ŞAROITIDA MAYDA ŞOXLI HAYVONLAR EKTOPARAZITLARINING TUR TARKIBI VA TARQALIŞI (DASTLABKI MA'LUMOTLAR)

**Kudaybergenov Timur Samarqand davlat veterinariya meditsinasi çorvaçilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali mustaqil izlanuvçisi**

**Mavlanov Sabirjan v.f.d., professor, Ilmiy rahbar**

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311051

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
257–263

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Kudaybergenov T., Mavlanov S. Qoraqalpoğiston şaroitida mayda şoxli hayvonlar ektoparazitlarining tur tarkibi va tarqalişi (dastlabki ma'lumotlar) // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 257–263. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311051

ANNOTATSIYA Maqolada Qoraqalpoğistonning Qoraözak tumani şaroitida mayda şoxli hayvonlar ektoparazitlari böyiça dastlabki tadqiqot natijalari (qöylar misolida) keltirilgan. 2026-yil kuz mavsumida mazkur tumandagi S.Kamalov OFYdagi "Kobeysin" fermer xöjaligidagi qöylarda klinik-parazitologik tekşiruv ötkazildi. Xöjalikdagi 218 boş mahalliy zotli qöylardan 20 boşi tuk taraş va vizual körik usullari bilan tekşirildi. Tekşirilgan 20 boşning 12 boşida (ekstensivlik 60%, işonç oraliği 36,1–80,9%) tuk yeguvçi *Bovicola ovis* aniqlandi, zararlangan hayvonlarda intensivlik 12–18 ta/boş oraliğida böldi. Natijalar kiçik namunaga tayanganligi sababli butun xöjalik uçun umumlaştirilmadi, biroq tekşirilgan xöjalikda kuz mavsumida qöylar bovikolyozi yuqori darajada qayd etilganini körsatdi va keyingi mavsumiy monitoring hamda profilaktik tadbirlarni rejalaştiriş uçun asos böldi.

KALIT SÖZLAR ektoparazitlar, mayda şoxli hayvonlar, *Bovicola ovis*, qöylar, bovikolyoz, ekstensivlik, intensivlik, Qoraqalpoğiston.

## ВИДОВОЙ СОСТАВ И РАСПРОСТРАНЕНИЕ ЭКТОПАРАЗИТОВ МЕЛКОГО РОГАТОГО СКОТА В УСЛОВИЯХ КАРАКАЛПАКСТАНА (ПРЕДВАРИТЕЛЬНЫЕ ДАННЫЕ)

Кудайбергенов Тимур. Самостоятельный соискатель Нукусского филиала Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий

Мавланов Сабиржан, д. в. н., профессор, Научный руководитель

АННОТАЦИЯ В статье представлены предварительные результаты изучения эктопаразитов мелкого рогатого скота (на примере овец) в условиях Караузякского района Республики Каракалпакстан. Осенью 2026 г. в фермерском хозяйстве «Кобейсин» (СГ им. С. Камалова) данного района проведено клинико-паразитологическое обследование из 218 голов местных овец методами вычесывания шерсти и визуального осмотра исследовано 20 голов. Пухоед *Bovicola ovis* обнаружен у 12 из 20 обследованных животных (экстенсивность инвазии 60%, 95%-й доверительный интервал 36,1–80,9%); интенсивность инвазии у больных животных находилась в пределах 12–18 экз. на голову. Ввиду малого количество проб результаты нельзя экстраполировать на весь хозяйство, однако они свидетельствуют о высоком уровне распространения бовиколеза овец в обследованном хозяйстве в

осенний период и служат основой для дальнейшего сезонного мониторинга и планирования профилактических мероприятий.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА эктопаразиты, мелкий рогатый скот, *Bovicola ovis*, овцы, боровиколез, экстенсивность, интенсивность, Каракалпакстан.

**SPECIES COMPOSITION AND PREVALENCE OF ECTOPARASITES OF SMALL RUMINANTS IN KARAKALPAKSTAN (PRELIMINARY DATA)**

Timur Kudaybergenov, Independent researcher at the Nukus Branch of the Samarkand State University of Veterinary Medicine, Animal Husbandry and Biotechnology

Sabirjan Mavlanov, Doctor of Veterinary Sciences, Professor, Scientific Advisor

ABSTRACT The article presents preliminary results on ectoparasites of small ruminants (sheep as a case study) in the Karaozak district of the Republic of Karakalpakstan. In autumn 2026, a clinical and parasitological examination was carried out on the “Kobeysin” farm (S. Kamalov rural community) of 218 local-breed sheep, 20 animals were examined by wool combing and visual inspection. The chewing louse *Bovicola ovis* was found in 12 of 20 examined animals (prevalence 60%, 95% confidence interval 36.1–80.9%), with infestation intensity ranging from 12 to 18 lice per animal. Because the sample was small, the results cannot be generalized to the whole farm or district; nevertheless, they indicate a high level of sheep bovicolosis in the examined farm in autumn and provide a basis for further seasonal monitoring and for planning preventive measures.

KEYWORDS ectoparasites, small ruminants, *Bovicola ovis*, sheep, bovicolosis, prevalence, intensity, Karakalpakstan.

## KIRIŞ

Çorvaçilik, jumladan mayda şoxli hayvonlar – qöy va eçki boqiş – Qoraqalpoğiston qişloq xöjaligining an’anaviy tarmoqlaridan biri bölib, aholini göşt, jun va teri mahsulotlariu bilan ta’minlaşda muhim örin tutadi. Mintaqaning quruq va issiq iqlimi, yarim çöl va çöl yaylovlarining ustunligi hamda hayvonlarni sovuq mavsumda yopiq joylarda saqlaş amaliyoti parazitlar uçun qulay şaroit yaratadi. Şu bois çorva mollarining parazitar kasalliklariga qarşi samarali çoralar işlab çiqiş uçun hududiy epizootologik ma’lumotlar zarur.

Ektoparazitlar – kanalar, qon söruvçi paşşalar, bit va tuk yeyuvçilar – hayvonlarda qiçişiş va bezovtalikni keltirib çiqaradi, terining şikastlanişiga, vaznining pasayişiga, jun va teri sifatining yomonlaşişiga hamda ikkilamçi infeksiyalarning rivojlanişiga sabab böladi [1, 2]. Ayrim turlari turli kasallik qözğatuvçilarining taşuvçisi sifatida ham xavflidir [1, 2].

Qöylarning keng tarqalgan ektoparazitlaridan biri – tuk yeyuvçi *Bovicola ovis* (sin. *Damalinia ovis*) [3]. Bu haşarot uzunligi 1,5–2 mm, oç sariq rangli bölib, terining yuza qatlami va epidermis qoldiqlari bilan oziqlanadi hamda butun hayotiy sikli davomida xöjayin tanasida yaşaydi [4]. Avstraliyada bu parazit yirik iqtisodiy ahamiyatga ega hisoblanadi [5]. Zararlaniş darajasi mamlakatlar joylaşuviga qarab keskin farq qiladi. Jumladan, Kvinslendda podalar darajasida taxminan 40% [6], Buyuk Britaniyada fermerlarning 10,7% bit avj olişini qayd etgan [7], Efiopiyaning Sayint tumanida esa tekşirilgan qöylarda bitlar bilan umumiy zararlaniş 48,3% ni taşkil etib, uning 83% ini *B.ovis* taşkil qilgan [8].

Markaziy Osiyo va unga qöşni quruq hududlarda ektoparazitlar böyiça tadqiqotlar asosan iksod kanalariga qaratilgan. Qozoğiston [9], Pokiston [10, 11] va Xitoyning Şinjon uyğur avtonom rayoni [12] şular jumlasidandir.

Qoraqalpoğistonda A.Kamalova va hammualliflar 2023–2024-yillarda Nukus va Qoraözak tumanlarida qoramol va qöylarda 12 tur ektoparazitni aniqlagan, ularning fikriça, *B. ovis* butun yil davomida qayd etiladi va asosan sovuq mavsumda köproq uçraydi [13]. Xuddi şu mualliflar boşqa işida Nukus va Qoraözak tumanlarida qöylarda *Bovicola* turkumi bilan zararlaniş ekstensivligi qişda 67,5–75,6%, bahorda (mart) 77,5–84,9%, yozda 1,2–2,2% va kuzda (sentabr–noyabr) 9,1–12,1% bölganini qayd etgan [14]. Eçkilarda esa ektoparazitlar bahor va yozda eng köp, kuzda örtaça, qişda eng kam darajada tarqalgani qayd etilgan [15].

S.Mavlanov va hammualliflar hududda kanalarning mavsumiy dinamikasini örgangan [16]. Şunga qaramay, alohida xöjaliklar darajasida qöylarning tuk yeyuvçilar bilan zararlaniş körsatkiçlari (ekstensivlik va intensivlik) böyiça ma'lumotlar yetarli emas.

**Tadqiqotning maqsadi** – Qoraözak tumani sharoitida kuz mavsumida qöylar ektoparazitlarining tur tarkibini va zararlanish koʻrsatkichlarini dastlabki baholash uchun quyidagi vazifalar qöyildi: tekşirilgan qöylarda ektoparazitlarni aniqlaş; zararlaniş ekstensivligi va intensivligini hisoblaş; olingan natijalarni adabiyotlardagi ma'lumotlar bilan soliştiriş va keyingi mavsumiy monitoring uçun asos yaratiş.

## TADQIQOT MATERIALI VA METODLARI

Tadqiqot 2026-yil kuz mavsumida Qoraqalpoğiston Respublikasi Qoraözak tumanidagi S.Kamalov OFY hududida joylaşgan "Kobeysin" fermer xöjaligida ötkazildi. Xöjalikda jami 218 boş mahalliy zotli qöy boqiladi. Ulardan 20 boşi (umumiy boş sonining 9,2%) klinik-parazitologik tekşiruvdan ötkazildi. Tekşiruv kunida havo harorati 6°C ni taşkil etdi. Hayvonlar klinik belgilari (qiçişiş, jun tökilişi) böyiça tanlandi tekşirilgan qöylarning yoşi 1,5-2 yoş oraliğida va jinsi urğoçi.

Tadqiqot parazitologik va faunistik usullar bilan, veterinariya parazitologiyasida qabul qilingan qöllanma va aniqlagiçlar yordamida olib borildi [4]. Har bir qöy avval vizual közdan keçirildi: böyin, yelka, yon va orqa sohalar, junning tubi va teri holati baholandi, söngra jun tarab, parazitlar yiğildi.

Terilgan ektoparazitlar probirkalarda saqlandi. Har bir namuna etiketka bilan belgilandi; etiketkada namuna raqami, xöjalik nomi va joyi, parazit terilgan vaqt, hayvon turi, yoşi va parazit terilgan tana qismi qayd etildi.

Namunalar laboratoriya şaroitida Samarqand davlat veterinariya medicinasi, çorvaçilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali laboratoriyasida mikroskop markasi Mic pad660 c Windows-3 ostida örganilib, morfologik belgilariga köra tur darajasida aniqlandi; parazitlar mikroskopga ulangan raqamli kamera yordamida suratga olindi.

Zararlaniş quyidagi umume'tirof etilgan körsatkiçlar bilan baholandi: ekstensivlik (EI, %) – zararlangan hayvonlar sonining tekşirilgan hayvonlar soniga nisbati (EI = zararlangan / tekşirilgan × 100); intensivlik (II) – bitta zararlangan hayvonda topilgan parazitlarning soni (ta/boş); işda u eng kam va eng köp qiymatlar oraliği sifatida berildi. Ekstensivlikning 95% işonç oraliği Klopper–Pirson (aniq binomial) usuli bilan hisoblandi. Ma'lumotlar tavsifiy statistika usulida qayta işlandi.

## NATIJALAR

Tekşirilgan 20 boş mahalliy zotli qöydan 12 boşida (12/20) tuk yeyuvçi *Bovicola ovis* aniqlandi, 8 boşida parazit topilmadi. Şunga köra zararlaniş ekstensivligi 60% ni taşkil etdi;

aniq binomial usulda hisoblangan işonç oraliği 36,1–80,9% böldi. Zararlangan hayvonlarda parazitning intensivligi 12–18 ta/boş oraliğida böldi. Tekşiruv natijalari 1-jadvalda umumlaştirilgan va yiğilgan parazitlarning mikroskopik körinişi 1- va 2-rasmlarda keltirilgan.

1-jadval. Qöylarda *Bovicola ovis* bilan zararlaniş körsatkiçlari (“Kobeysin” f/x, 2026-yil kuz mavsumi)

| **Körsatkiç** | **Natija** |
|---|---|
| Tekşiruv joyi | Qoraözak tumani, S. Kamalov OFY, “Kobeysin” fermer xöjaligi |
| Tekşiruv vaqti | 2026-yil, kuz mavsumi |
| Xöjalikdagi qöylar soni, boş | 218 |
| Tekşirilgan qöylar soni, boş (uluşi) | 20 (9,2%) |
| Qöy zoti | Mahalliy |
| Zararlangan qöylar soni, boş | 12 |
| Ekstensivlik (EI), % | 60 (işonç oraliği: 36,1–80,9) |
| Intensivlik (II), ta/boş | 12–18 (oraliq) |
| Aniqlangan tur | *Bovicola ovis* |



2-rasm. Ajratilgan *Bovicola ovis* (mikroskopik körinishi)

## MUHOKAMA

Olingan natija *B. ovis* Qoraqalpoğiston qöylarida keng tarqalganini tasdiqlaydi: Kamalova va hammualliflar uni Nukus va Qoraözak tumanlaridagi barça tekşirilgan xöjaliklarda va butun yil davomida qayd etgan [13]. Biroq bizning kuzgi körsatkiçimiz (EI = 60%) şu hududda kuzgi oylar uçun keltirilgan ma’lumotlardan (ekstensivlik 9,1–12,1% [14]) bir neça barobar yuqori. Bunday farq turli omillar bilan izohlanişi mumkin: xöjaliklarning sanitar holati va hayvonlar ziçligi, oldingi antiparazitar işlovlar, hayvonlarni tanlaş usuli va hisoblaş metodikasi. Eçkilarda ektoparazitlarning kuzgi tarqalişi örtaça darajada baholangan [15], biroq bu iş eçkilarda ötkazilgan va tuk yeguvçilar böyiça ekstensivlikni raqam bilan bermagan, şuning uçun uni bevosita taqqoslab bölmaydi. Mualliflar parazit köpayişini hayvonlarning ziç saqlanişi, yopiq joylarning yetarliça şamollatilmasligi va junning


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311051

mavjudligi bilan boğlaydi [13]. Bu farq tasodifiy emas: işonç oraliğining quyi çegarasi (36,1%) ham [14] dagi kuzgi körsatkiçlardan ança yuqori. Farqni ikki guruh omillar bilan izohlaş mumkin, ularning qaysi biri sabab bölganini xöjalik ma'lumotlari bilan tekşiriş kerak. Birinçisi – haqiqiy farqlar: xöjaliklarning sanitar-gigiyenik holati, hayvonlarning ziçligi va saqlaş şaroiti, hayvonlarning semizlik darajasi (Efiopiya ma'lumotlarida semizligi past qöylarda zararlaniş yuqoriroq bölgan [17]) hamda oldingi antiparazitar işlovlarning bölgan-bölmaganligi. Ikkinçisi – uslubiy omillar: hayvonlarni tanlaş usuli (klinik belgisi bor hayvonlar tanlansa, ekstensivlik oşadi), tekşiriş usuli (tuk taraş va vizual körik kam sonli parazitlarni ham aniqlaydi) va ekstensivlik hisoblangan asos. Intensivlikni ham bevosita soliştirib bölmaydi: biz tuk taraş namunasida 12–18 ta parazitni sanagan bölsak, [14] da intensivlik hayvon tanasidagi taxminiy son sifatida minglab nusxada berilgan. Farq sababini aniqlaş uçun şu xöjalikda boşqa oylarda takroriy tekşiruv ötkaziş zarur.




1-rasm. Ektoparazit turlarini laboratoriya sharoitida aniqlash jarayoni

Bizning körsatkiçimiz (EI = 60%) boşqa mintaqalardagi ma'lumotlar bilan turliça munosabatda: Efiopiyaning Vogera tumanida *B. ovis* qöylarning 12,07% ida topilgan [17], bu bizning natijadan ança past; Sayint tumanida esa bitlar bilan umumiy zararlaniş 48,3% bölgan [8], bu bizning işonç oraliğimiz içiga tuşadi. Biroq bunday soliştirişda ehtiyot böliş kerak. Birinçidan, Avstraliya va Buyuk Britaniyadagi körsatkiçlar alohida hayvonlar emas, balki podalar yoki fermerlarning sörovnomadagi javoblari asosida hisoblangan [5–7], şuning uçun ularni bevosita taqqoslab bölmaydi. Ikkinçidan, namuna hajmi, hayvonlarni tanlaş usuli, aniqlaş metodi (vizual körik, tuk taraş yoki laboratoriya tahlili) va tekşiruv fasli turliça. Efiopiyadagi tadqiqotda tuk uzunligi, hayvonning semizlik darajasi, agroekologik zona va

fasl zararlaniş bilan statistik jihatdan boğliq ekanligi aniqlangan [8]; bu omillar bizning xöjalikda ham ta'sir körsatgan bölişi mumkin, ammo bu faraz alohida tekşirişni talab qiladi.

Natijalarning ahamiyatini baholaşda tadqiqotning çeklovlarini hisobga oliş zarur. Tekşiruv bitta xöjalikda, bir marta ötkazildi va 218 boşdan faqat 20 boşini (9,2%) qamrab oldi. Işonç oraliğining kengligi (36,1–80,9%) namuna kiçikligini körsatadi; agar hayvonlar klinik belgilari böyiça tanlangan bölsa, körsatkiç xöjalikdagi haqiqiy zararlanişdan yuqori bölişi mumkin.

Amaliy nuqtai nazardan, yuqori zararlaniş darajasi xöjalikda tuk yeguvçilarga qarşi rejali profilaktik va davolaş tadbirlarini ötkaziş zarurligini körsatadi. Preparat tanlaşda uning samaradorligini kuzatiş muhim, çunki boşqa mamlakatlarda bit populyatsiyalarida insektitsidlarga çidamlilik holatlari qayd etilgan [5, 18]. Dori vositalari va işlov muddatlari veterinariya mutaxassisi tavsiyasi hamda amaldagi yöriqnomalarga muvofiq belgilanişi kerak. Kelgusida tadqiqotni bir neça tuman va xöjaliklarda, kamida tört faslda, katta namunalar bilan davom ettiriş zararlanişning mavsumiy dinamikasini aniqlaş imkonini beradi.

## XULOSALAR

1. 2026-yil kuz mavsumida Qoraözak tumanidagi "Kobeysin" fermer xöjaligida tekşirilgan 20 boş mahalliy zotli qöydan 12 boşida tuk yeyuvçi *Bovicola ovis* aniqlandi (ekstensivlik 60%, işonç oraliği 36,1–80,9%).

2. Zararlangan hayvonlarda parazitning intensivligi 12–18 ta/boş oraliğida böldi.

3. Natijalar dastlabki xarakterga ega bölib, kiçik namunaga tayanadi, şuning uçun ularni butun xöjalik uçun umumlaştirib bölmaydi. Zararlanişning mavsumiy dinamikasini aniqlaş va kuraş çoralarining samaradorligini baholaş uçun barça fasllarda bir neça xöjalikni qamrab oluvçi tadqiqotlar ötkaziş lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. Wall R., Shearer D. Veterinary Ectoparasites: Biology, Pathology and Control. 2nd ed. Oxford: Blackwell Science, 2001. 262 p.
2. Taylor M.A., Coop R.L., Wall R.L. Veterinary Parasitology. 4th ed. Chichester: Wiley-Blackwell, 2016. 1032 p.
3. Tran L., Rawlin G.T., Beddoe T. Development of molecular detection methods of *Bovicola ovis* from sheep fleece // Parasitology Research. 2022. DOI: 10.1007/s00436-022-07520-9.
4. Price M.A., Graham O.H. Chewing and sucking lice as parasites of mammals and birds. USDA Technical Bulletin No. 1849. Washington, 1997.
5. Colvin A.F., Reeve I., Kahn L.P., Thompson L.J., Horton B.J., Walkden-Brown S.W. Prevalence of sheep lice and trends in control practices across Australia – Australian sheep parasite control surveys from 2003 to 2019 // Veterinary Parasitology: Regional Studies and Reports. 2022. Vol. 27. P. 1–7.
6. Ward M.P., Armstrong R.T.F. Prevalence and clustering of louse infestation in Queensland sheep flocks // Veterinary Parasitology. 1999. Vol. 82, No. 3. P. 243–250. DOI: 10.1016/S0304-4017(99)00021-7.
7. Bisdorff B., Wall R., Milnes A. Prevalence and regional distribution of scab, lice and blowfly strike in Great Britain // Veterinary Record. 2006. Vol. 158. P. 749–752.
8. Legesse S., Hailemelekot M., Tamrat H., Alemu Y.F. Epidemiological and therapeutic studies on sheep lice in Sayint district, South Wollo Zone, Northeast Ethiopia // Frontiers in Veterinary Science. 2022. Vol. 9. Article 1008455. DOI: 10.3389/fvets.2022.1008455.
9. Sultankulova K.T. et al. The prevalence of pathogens among ticks collected from livestock in Kazakhstan // Pathogens. 2022. Vol. 11, No. 10. Article 1206. DOI: 10.3390/pathogens11101206.

10. Shahid S., Razzaq A., Gul-Makai, Shamim A., Rizwan H.M., Nisar R.H.A., Akram Q., Nawaz M. Prevalence and association of hard ticks (Ixodidae) with various breeds of sheep and goats // Journal of Animal Health and Production. 2022. Vol. 10, No. 1. P. 10–15. DOI: 10.17582/journal.jahp/2022/10.1.10.15.
11. Hussain N., Shabbir R.M.K., Ahmed H., Afzal M.S., Ullah S., Ali A., Irum S., Naqvi S.K., Yin J., Cao J. Prevalence of different tick species on livestock and associated equines and canine from different agro-ecological zones of Pakistan // Frontiers in Veterinary Science. 2023. Vol. 9. Article 1089999. DOI: 10.3389/fvets.2022.1089999.
12. Li Y., Li J., Xieripu G., Rizk M.A., Macalanda A.M.C. et al. Molecular detection of *Theileria ovis*, *Anaplasma ovis*, and *Rickettsia* spp. in *Rhipicephalus turanicus* and *Hyalomma anatolicum* collected from sheep in southern Xinjiang, China // Pathogens. 2024. Vol. 13, No. 8. Article 680. DOI: 10.3390/pathogens13080680.
13. Kamalova A., Mavlanov S., Pulotov F., Ismailov A. Seasonal phenology of ectoparasites in zoobiocoenoses of Karakalpakstan // Vestnik Oshskogo gosudarstvennogo universiteta. Sel'skoe khozyaistvo: agronomiya, veterinariya i zootekhniya. 2025. No. 2(11). P. 74–87. DOI: 10.52754/16948696_2025_2(11)_6.
14. Kamalova A.I., Mavlanov S.I., Ismoilov A.Sh. Распространение эктопаразитов у овец и коз в условиях Каракалпакстана // Vitebsk davlat veterinariya tibbiyoti akademiyasi. – Vitebsk: VGAM, 2026. – 114-118-betlar.
15. Kamalova A.I. Qoraqalpoqiston Respublikasi ayrim tumanlarida echkilar orasida ektoparazitlarining tarqalishi // https://globalconfcenter.uz/veterinariya/issue/view/69. P. 27–32.
16. Mavlanov S.I., Pulotov F.S., Kamalova A.I. et al. Seasonal dynamics and impact of tick infestation on livestock in Karakalpakstan // International Journal of Environmental Sciences. 2025. Vol. 11, No. 12s. P. 1131–1138. DOI: 10.64252/y234mm07.
17. Eshetu A., Ayele T., Mengistu S., Belina D. Prevalence of *Melophagus ovinus* and *Bovicola ovis* infestation in sheep in Wogera District, North Gondar Zone, Ethiopia // Journal of Veterinary Science & Technology. 2017. Vol. 8, No. 3. Article 1000440. DOI: 10.4172/2157-7579.1000440.
18. McKiernan F., O'Connor J., Minchin W., O'Riordan E., Dillon A., Harrington M., Zintl A. A pilot study on the prevalence of lice in Irish beef cattle and the first Irish report of deltamethrin tolerance in *Bovicola bovis* // Irish Veterinary Journal. 2021. Vol. 74. Article 20. DOI: 10.1186/s13620-021-00198-y.

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

# QUYONLAR PASTERELLYOZINING KLINIK BELGILARI VA DAVOLAŞ ÇORALARI

*(Adabiyot ma'lumotlari tahlili)*

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi çorvaçilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali magistranti**

**Madetova Nilufar Maxkamjan qizi**

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311052

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
**264–267**

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Madetova N.M. Quyonlar pasterellyozining klinik belgilari va davolaş çoralari // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 264–267. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311052

ANNOTATSIYA Mazkur maqolada quyonlarda pasterellyoz kasalligining asosiy klinik belgilari, patologik jarayonlarning rivojlanişi hamda ölimdan keyingi patologoanatomik özgarişlar yoritiladi. Patologoanatomik tekşiruvda öpka töqimasining yalliğlanişi, plevra özgarişlari va boşqa içki a'zolardagi patologik belgilar böyiça ma'lumotlar bayon qilingan. Klinik belgilar va patologoanatomik topilmalarni kompleks baholaş kasallikni dastlabki aniqlaş hamda differensial diagnostikada muhim ahamiyatga ega.

SUMMARY This article discusses the main clinical signs of pasteurellosis in rabbits, the development of pathological processes, and post-mortem pathological and anatomical çanges. It presents information on inflammation and consolidation of lung tissue, pleural lesions, and pathological çanges in other internal organs identified during post-mortem examination. A comprehensive assessment of clinical signs and pathological findings is of great importance for the preliminary diagnosis and differential diagnosis of the disease.

KALIT SÖZLAR *Pasteurella multocida, pasterellyoz, infeksion va invazion kasalliklar, virulentlik, bakteriologik usullar.*

**Kiriş:** Quyon göşti kimyoviy tarkibi va ozuqaviy qiymati böyiça zarur parxezbop oziq-ovqat mahsulotlaridan biri hisoblanadi. Yurtimizda quyonçilikni rivojlantirişga bölgan e'tibor davlat darajasiga kötarilgan bölib, bu e'tibor bir qança qonun hujjatlari bilan mustahkamlab qöyilgan. Jumladan ‘‘Özbekiston Respublikasida çorvaçilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantiriş böyiça 2022-2026-yillarga möljallangan dasturni tasdiqlaş töğrisida’’gi PQ-120-sonli qarorida quyonçilik tarmoğini rivojlantirişga bağişlangan alohida ustuvor yönaliş belgilab qöyildi. Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18-yanvar 2022-yil 29-son “Respublikada quyonçilik sohasini yanada rivojlantiriş va qöllab quvvatlaşga doir qöşimça çora-tadbirlar töğrisida”gi qaroriga binoan tizimli tadbirlar yölga qöyilgan.

Jumladan, quyonçilik fermer xöjaliklarini rivojlantiriş, aholini sifatli, ekologik toza mahsulot (göşt, jun, möyna) bilan ta'minlaş dolzarb masala hisoblanadi.

**Mavzuning dolzarbligi:** Quyonçilikni rivojlantirişda turli yuqumli va yuqumsiz kasalliklar tösqinlik qiluvçi asosiy omillardan sanaladi. Jumladan, pasterellyoz kasalligi quyonçilik xöjaliklarida köp uçraydigan kasallik bölib, parenximatoz a'zolarda gemorragik yalliğlaniş va septisemiya simptomlari, sodir böladi va quyonlarning ommaviy nobud bölişi bilan tavsiflanadi.

Pasterellyoz qözğatuvçisi organizmga kirgaç, juda tez köpayadi. Köpinça quyonlarning butun populyatsiyasiga ta'sir qiladi. Kasallikdan quyonlarning 50-60 % qismi zararlanib, zararlangan quyonlar orasida 80-85 % qismi nobud bölişi kuzatilgan. Bu quyonçilik tarmoğiga katta salbiy ta'sir oʻtkazadi [6].

**Muammoning örganilganlik darajasi:** Pasterellyozning dunyo miqyosida turli hayvonlarda va quyonlarda tarqalişi, klinik belgilari, patomorfologik oʻzgarişlari, bakteriologik va patogistologik taşxislaş, davolaş va qarşi kuraş, enzootik va epizootik holatda uçraşi, tarqaliş darajasi hamda tezligi, qamrab oliş kölami faqat kasallik etiologiyasiga boğliq bölib qolmasdan, unga yordamlaşuvçi şaroitlarga ham boğliqligi böyiça ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xorijiy olimlardan L.K. Abdel-Somie, D.H. Abdelhady, M.A. El-Abasy, Z.S.Al-Lebbanl, S. Kruckenberg, MDH olimlaridan P.K. Bergxof, B.B. Maksimoviç, A.A.Vaşutin, E.S. Voronin, A.A.Sidorçuk, V.S.Sisaev kabi olimlar tomonidan olib borilgan va ilmiy jihatdan asoslangan nazariy hamda amaliy çora – tadbirlar işlab çiqilgan. Pasterellyoz bakterial kasallik bölib, barça qişloq xöjaligi hayvonlari, parrandalar, möynali hayvonlar, odamlarda ham uçraydi. Pasterellyozning qözğatuvçisini dastlab, Rossiyalik olim E.M. Zemmer 1878-yilda birinçi marta yirik şoxli hayvondan ajratgan va örgangan, 1880-yilda fransiyalik olim Lui Paster pasterellyoz qözğatuvçisini parrandalardan ajratgan. 1897-1900-yillarda Linner barça guruhni umumiy Pasteurella deb ataşni taklif qilgan, 1910-yilga kelib Lui Paster şarafiga kasallik qözğatuvçisi Pasteurella kasalligi "pasterellyoz "deb nomlangan.

Quyonlarning pasterellyozi 1881-yilda Germaniyaning mikrobiolog va epidemiolog olimi Georg Gafki tomonidan ta'riflangan va dastlab qözğatuvçi *Pasteurella cuniculi* deb atalgan. 1880-yillarda birinçi bölib Lui Paster şarafiga *Pasteurella multocida* qöyilgan. Quyonlar pasterellyozi öta yuqumli kasallik bölib, uning qözğatuvçisi *Pasteurella multocida* hisoblanadi [2].

Pasterellyoz kasalligi qözğatuvçisi *Pasteurella multocida* turiga mansub bakteriya bölib, dunyoda quyonlar orasida keng tarqalgan kasallik qözğatuvçi hisoblanadi. Uşbu qöğatuvçi bilan kasallangan hayvonda 1-2 kunda ölim kuzatilgan. Pasterellyoz qözğatuvçisi hayvonning oziqlanişi, saqlaş şaroiti, hayvonning rezistentligiga boğliq holda rivojlanadi hamda tarqaladi. Bu kasallik bilan quyonlar zoti va yoşidan qat'iy nazar yil davomida kasallanişi mumkin [8].

*Pasteurella multocida* yuqori virulentli va oson yuqadigan kokk bakteriyalar bölib, quyonlarning eng muhim bakterial kasalliklaridan biri. Kasallik butun dunyo böylab işlab çiqariş korxonalarida katta iqtisodiy yöqotişlarga olib keladi [10].

*Pasteurella multocida* – katta bölmagan, gram manfiy, harakatsiz spora hosil qilmaydigan, köpinça alohida, va juft holda zanjir bölib joylaşadigan bakteriya. Barça anilin böyoqlari bilan böyaladi. Kasal hayvonlar töqimalarida pasterellalar kiçik şaklda böladi. Ular bipolyar metil sinka yoki Gimza Ramanovskiy böyoği bilan böyaladi. Yangi kulturada kapsula hosil qiladi. Pasterellalar fakultativ aerob, odatiy suyuq, qattiq ozuqa muhitlarida 37°C da ösadi. Bakteriyalar össa bulyon loyqalanadi. GPA da 3 şaklda: Silliq S, ğadir-budur R, mukoid

M koloniyalar kuzatiladi. Fermentativ xususiyati kuçsiz [9]. Hozirgi kunda quyonlar pasterellyozi *Pasteurella multocida* qözğatuvçisining 6 ta tipi aniqlangan. A, B, D, C, E va F serotipi va bu tiplarning 16 serovariantlari mavjudligi haqida ma'lumotlar mavjud. Ularning patogenligi hayvonlarning turiga boğliq [10].

**Quyonlar pasterellyozining taşxisi va klinik belgilari:** Quyonlarda pasterellyoz köproq issiq-sovuq keskin özgarganda (kuz va bahor fasllarida), quyonlar ziç saqlanganda, vitamin va mineral moddalar yetişmasa tez tarqaladi. Quyonlarda kasallik ötkir keçsa tana harorati kötariladi, lohaslik, anoreksiya, tumov, aksiriş, ayrim holda diareya kuzatiladi va ular holsizlanib, 1-2 kunda öladi. Turğun soğlom xöjaliklarda esa pasterellyoz surunkali keçib, rinit va konyunktivit belgilari paydo böladi (1-rasm). Kamdan kam iç ketişi, fibrinoz yiringli pnevmoniya va teri ostida absesslar kuzatiladi [9].



***Rasm 1. Pasterellyoz bilan kasallangan quyonda rinit va konyunktivit belgilari***

Pasterellyoz quyonlarda enzootiya ba'zan epizootiya bölib tarqaliş mumkin. Infeksiya bilan zararlangan xöjaliklarda quyonlarning 80% qismi kasallikdan nobud bölişi va tuzalganlari qözğatuvçi taşuvçi bölişi aniqlangan [1]. Pasterellyozga ohirgi taşxis laboratoriya tekşiruvlariga asosan qöyiladi.

Uşbu kasallikka diagnoz epizootologik ma'lumotlar patomorfologik özgarişlar va albatta bakteriologik tekşirişlar natijalari asosida va zamonaviy tekşiruv usuli PZR va IFT orqali amalga oşirilişi ta'kidlangan [3]. Pasterellyoz qözğatuvçisi organizmga tuşgaç, kasallik quyonlarda tipik va atipik şakllarda namoyon böladi. Birinçi holatda qözğatuvçi limfa va qonga sörilib, butun organizmning a'zo, töqimalariga tarqaladi [4]. Kasallangan quyonlar iştahasi yöqoladi, nafas olişi tezlaşadi, holsizlanadi, quyon bolalari emişdan boş tortadi. Quyonlar tana harorati dastlab kötariladi 41-42$^{o}$C va ölimdan oldin harorat 33-35$^{o}$C gaça keskin pasayadi. Ötkir keçganida quyonlar 1-2 kunda nobud böladi [7].

**Patologoanatomik özgarişlar.** Patologoanatomik özgarişlarning xususiyati kasallikning keçişi, zararlangan a'zolar va infeksiya darajasiga boğliq. Quyonlar pasterellyozida öpkaning ayrim bölaklarida qon quyilişlar va yalliğlaniş tufayli töqimaning ziçlaşişi kuzatilişi mumkin. Oğir holatlarda fibrinli-yiringli yoki nekrotik bronxopnevmoniya rivojlanadi. Plevrada fibrin töplanişi va plevrit, ayrim hollarda esa kökrak böşliğida yiringli ekssudat aniqlanişi mumkin.

Teri ostida, ayniqsa boş va böyin sohalarida, kapsula bilan çegaralangan yiringli öçoqlar uçraşi mumkin. Abssess içida quyuq, qaymoqsimon ekssudat bölişi mumkin. Bunday


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311052

öçoqlarni tekşirişda yiringning özi bilan çeklanmay, kapsula devoridan ham namuna oliş maqsadga muvofiq.

Septikemik yoki generalizatsiyalaşgan şakllarda jigar va boşqa içki a'zolarda qon bilan töliş, mayda qon quyilişlar, ba'zan nekrotik öçoqlar aniqlanadi. Taloq kattalaşişi ham ehtimoldan xoli emas. Biroq bu özgarişlar doim ham uçramaydi va boşqa bakterial infeksiyalarda ham kuzatilişi mumkin.

Burun böşliği şilliq pardasida giperemiya, yalliğlaniş ekssudati va hujayraviy detrit töplanişi mumkin. Traxeyada yalliğlaniş, ayrim oğir holatlarda eroziya yoki nekroz öçoqlari aniqlanadi. Kasallik tarqalgan şaklda keçsa, yurak pardasi, miya pardalari yoki boşqa töqimalarda ham yalliğlaniş belgilari uçraydi.

**Xulosa.** Quyonlar pasterellyozi quyonçilikda katta iqtisodiy zarar keltiradi. Şu bois asosiy çora – prafilaktika, ya'ni vaksinatsiya va sanitariya qoidalariga qat'iy amal qilişdir. Pasterellyoz böyiça nosoğlom bölgan quyonçilik xöjaliklarida qat'iy çeklov tadbirlari ötkaziladi. Binolar va kataklar dezinfeksiya qilinadi. Yakunlovçi dezinfeksiya ötkazilib uning sifati bakteriologik tekşirilgaç hamda ohirgi kasal aniqlangan kundan 14 kun ötgaç, çeklov bekor qilinadi [5].

Klinik belgilar va patologoanatomik özgarişlarni kompleks baholaş kasallikni gumon qiliş, uning keçiş şaklini tavsiflaş va differensial diagnostikani amalga oşirişda muhim ahamiyatga ega.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. Brogden K. A. "Physiological and Serological Çaracteristics of 48 Pasteurella multocida Cultures from Rabbits"// Journal of clinical Microbiology, vol 11 No 6 June 1980. –P. 646–649.
2. El Tayeb A.B., Morişita T.Y and Angrick E.J "Evaluation of Pasteurella multocida isolated from rabbits by capsular typing, somatic serotyping, and restriction endonuclease analysis" J. Vet. Diagn. Invest., 16 (2): 2004. –P. 121–125.
3. Navrözov, N.I., Pölatov, F.S., Şeralieva, I.D., Nabieva, N.A., Sultonova, I.Y., & Aktamov, U.B. (2022). Qo'zi kolibakteriozida xitozan suktinatning ahamiyati.
4. Pölotov, Faxridin, K. Sayfiddinov va Ş. Abduxalimova. "Biopreparat-Bioinsektitsid". 1.1 kutubxonasida (2024): 85–89.
5. Salimov X.S., Qambarov A.A. Epizootologiya darslik Samarqand-2016. 194-200.
6. Анников В.В, Красников А.В, Кортова Д.М, "Болезни Пушниых Зверей" /Лекция Саратов 2017.–67-68 с
7. Балашов И.Е. Кролики мясных пород для себя и для зароботко / Москва 2000.–192-196 с.
8. Основные болезни кроликов [Электронный ресурс]//ОГБУ Иркутская районная СББЖ. – Режим доступа: http://irkraibbg.ru/ Основне Болезни Кроликов-Дата доступа: 24.07.2020.
9. Рютова В.П " Болезни кроликов " /Москва Россельхознздат–1985. –С. 84-88.
10. Ятусевич А.И. Прудников В.С, Карасев Н.Ф, Николаенко М.Ф. «Заразные болезни пушных зверей»/ Монография Витебск -2008. С-10-12.

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

UDK: 619:616.98:579.852.11

# ҚУЁНЛАРНИНГ САЛЬМОНЕЛЛЁЗЛИ АБОРТИДА ПАТОЛОГОАНАТОМИК ТЕКШРИШЛАР НАТИЖАЛАРИ

**О.М.Абдураимова - таянч докторант,**

**О.А.Джураев - в.ф.н, катта илмий ходим.**

Ветеринария илмий-тадқиқот институти.

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311053

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
**268–273**

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Абдураимова О.М., Джураев О.А. Қуёнларнинг сальмонеллёзли абортида патологоанатомик текшришлар натижалари // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 268–273. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311053

АННОТАЦИЯ **отация.** Мақолада сунъий тарзда сальмонеллалар юқтирилган қуёнларда ривожланадиган патологоанатомик ўзгаришлар туфайли содир бўлган аборт ҳолатлари ёритилган. Тажриба қуёнлари бўғозлигининг учинчи ўн кунлигида *S.abortus ovis* абортларга сабаб бўлиши ҳамда кўпайиш органлари, айниқса бачадонда, кучли патологик жараёнлар келтириб чиқариши аниқланган.

КАЛИТ СЎЗЛАР **сўзлар:** сальмонеллёз, *S.abortus ovis,* қуёнлар, экспериментал инфекция, абортлар, ҳомила, репродуктив аъзолар, патология.

## РЕЗУЛЬТАТЫ ПАТОЛОГОАНАТОМИЧЕСКИХ ВСКРЫТИЙ ПРИ САЛЬМОНЕЛЛЕЗНОМ АБОРТЕ КРОЛИКОВ

**О.М.Абдураимова –** докторант,

**О.А.Джураев** – к.в.н., ст.н.с.

Научно-исследовательский институт ветеринарии.

АННОТАЦИЯ **отация.** В статье освещены случаи проявления абортов у крольчих, искусственно зараженных сальмонеллами и картина патологоанатомического вскрытия. Установлено, что под воздействием *S.abortus ovis* в третьей декаде беременности происходят аборты у подопытных самок кроликов и развиваются глубокие патологические процессы в органах размножения, особенно в матке.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА **слова:** сальмонеллёз, *S.abortus ovis*, кролики, экспериментальная инфекция, аборты, плод, органы размножения, патология.

## RESULTS OF PATHOLOGICAL EXAMINATIONS IN RABBIT SALMONELLOSIS ABORTION

**O.M. Abduraimova –** doctoral student

**O.A. Dzhuraev –** Candidate of Veterinary Sciences, Senior Researcher

Research Institute of Veterinary Medicine.

ANNOTATION **otation.** The article describes the findings of a pathological autopsy performed on rabbit females that were artificially infected with salmonella. It has been established that under the influence of

*S. abortus ovis*, abortions occur in the second half of pregnancy in the experimental female rabbits, and deep pathological processes develop in the reproductive organs, especially in the uterus.

KEYWORDS **ywords:** salmonellosis, *S.abortus ovis*, rabbits, experimental infection, abortions, fetus, reproductive organs, pathology.

**Кириш.** Сальмонеллёз – қишлоқ хўжалиги ва бошқа тур ҳайвонларда учрайдиган ва репродуктив тизимга ҳам салбий таъсир кўрсатиши мумкин бўлган юқумли касалликлардан биридир. Сальмонелла бактерияси билан зарарланиш натижасида ҳайвонда умумий интоксикация, ичак фаолиятининг бузилиши, септик жараён ривожланади, шунингдек репродуктив органларда ҳам патологик ўзгаришлар кузатилиши мумкин.

Ҳайвонлар сальмонеллёзининг репродуктив шакли, айниқса ҳомиладорликнинг бузилиши ва аборт ҳолатлари, ветеринария амалиётида муҳим аҳамиятга эга. Аборт сабабларини аниқлашда клиник кузатув билан бир қаторда бактериал, патоморфологик ва гистологик текширувлардан фойдаланиш – касалликни бошқа аборт чақирувчи инфекциялардан фарқлаш имконини беради. Қуёнлар экспериментал тадқиқотларда биологик модель сифатида фойдаланилиши мумкин бўлган ҳайвонлардан бири ҳисобланади. Шу сабабли, қуёнларда салъмонеллёз инфекцияси таъсирида репродуктив жараёнларнинг бузилиши, абортлар рўй бериши ва бунда бачадон ҳамда ҳомила тўқималарида юзага келадиган патологик ўзгаришларни ўрганиш илмий ва амалий жиҳатдан муҳимдир.

**Материал ва методлар.** Ўтказилган тадқиқотларнинг мақсади – сальмонеллалар билан экспериментал зарарлашдан сўнг қуёнларда ривожланадиган клиник кўринишларни ўрганиш ҳамда кейинги патоморфологик тадқиқотлар ўтказишдан иборат. Изланишлар Ветеринария илмий-тадқиқот институти микробиология лабораториясининг виварий шароитида тажриба қуёнларда олиб борилди. Тажриба учун 20 бош жинсий жиҳатдан етилган урғочи қуён танлаб олинди. Бунда тажриба гуруҳлари клиник жиҳатдан соғлом, умумий физиологик ҳолати қониқарли бўлган қуёнлардан шакллантирилди. Урғочи қуёнларни маълум вақт давомида эркак қуёнлар билан жуфтлаштириб, уруғланиш жараёни таъминланди. Жуфтлаштиришдан кейин урғочи қуёнлар эркак қуёнлардан ажратилиб, кейинги кузатувлар алоҳида олиб борилди.

### ҚУЁНЛАРДА ЎТКАЗИЛГАН ТАЖРИБА СХЕМАСИ

| Гуруҳлар | Ҳайвонлар бош сони | Қўзғатувчининг тури | Юқтириш миқдори, КҲҚБ | Юқтириш усули |
|---|---|---|---|---|
| **1** | 5 | *S.abortus ovis* | 0,5 млрд | Интравагинал |
| **2** | 5 | *S.abortus ovis* | 0,75 млрд | Интровагинал |
| **3** | 5 | *S.abortus ovis* | 1,0 млрд | интровагинал- |
| **4** | 5 | Назорат | Юқтирилмади | |

Бунда қуёнлар 5 бошдан 4 та гуруҳга ажратилди. 1-тажриба гуруҳидаги қуёнларга *S.abortus ovis* 0,5 миллиард, 2-гуруҳга – 0,75 миллиард ва 3-гуруҳга – 1 миллиард КҲҚБ

миқдорида интравагинал усулда юборилди. 4-назорат гуруҳи ҳайвонларига қўзғатувчи юқтирилмади (жадвалга қаранг).

Тажрибада мунтазам тарзда ҳайвонларнинг умумий клиник ҳолати, тана ҳарорати, иштаҳаси, фаоллиги, ташқи жинсий аъзолардан ажратмалар келиши, ҳомиладорликнинг кечиши, аборт ҳолатининг юзага келиши кузатиб борилди. Тажриба давомида қуёнларда аборт ҳолатлари кузатилди ва ички азолардаги патологанатомик ўзгаришлар ўрганилди. Аборт кузатилган ҳамда шу заҳоти диагностик мақсадда сўйилган қуёнларни текширишда репродуктив тизим ва ички паренхиматоз аъзоларда турли морфологик ўзгаришлар ўрганилди.

1-гуруҳда 2 бош ва 3-гуруҳда 2 бош қуёнда ўлим ҳолати кузатилди. Патологоанатомик текширишларда ўпка ва юракда ўзгаришлар деярли аниқланмади. Бўйраклар капсуласи енгил ажралади, капсула остида майда нуқтали, чизиқли ва ўчоқли қон қуйилишлар мавжуд; жигар бироз катталашган ва оч-сарғиш тусли ўчоқ мавжуд, унинг ўрта қисми 2,5-3 марта



**1-расм. Диагностик максадда сўйилган куён бачадонидаги кучли патологик жараёнлар.**

катталашган ҳамда тўлиқ циррозга учраган; талоқ ингичкалашиб, жуда чўзилиб кетган. Бачадон щохларининг эни 1 см, бўйи эса 8-10 см гача йириклашгани, катилидонлар кўзга яққол кўринади (1- ва 2-расмлар).


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311053



**2-расм. Бачадон деворидаги кучли геморрагия ва ташланган хомила.**


2- ва 3-тажриба гуруҳнинг ҳомила ташлаган ва диагностик мақсадда сўйилган 6 бошида қуёнларнинг йириклашган бачадони ҳали ўз ўрнига қайтмаган. Бачадон ички шиллиқ қаватига қон қуйилган ва деворида қонга тўлган майда қон томирлари кўриниб турибди, қўнғир қизил тусдаги катилидонлар катталашган. Тухумдонлар йирик, тухум йўлларида ўзгаришлар аниқланмади.

Ҳомиласи тушган қуёнларнинг кўкрак қафасида 15-20 мл қонли суюқлик тўпланган, ўпка яхши ривожланган, олд ва орт томонларида тўқ-қизил ўчоқли, нуқтали қон қуйилишлар кўзга кўринади (3- ва 4-расмлар). Юрак бўшашган, қизил-қўнғир тусда, қулоқчаларида ўзгариш йўқ. Жигар хажми бироз катталашган, ўт пуфаги тўқ-яшил тусдаги ўт суюқлиги билан тўлган. Бўйракларда ўзгариш йўқ. Талоқ бироз катталашган, тўқ-қизил майда нуқтали қон қуйилишлар мавжуд.

Қуёнларнинг ташқи ҳолатидаги ланжлик, фаол ҳаракатнинг деярли йўқлиги, кучли диарея туфайли, шунингдек организмда ҳомиланинг ривожлангани ёки мавжуд эмаслигини аниқлаш мақсадида 4 бош қуён сўйилди. Бунда ҳомилаларнинг мавжудлиги аниқланди, аммо, ички органларида қуйидаги патологоанатомик ўзгаришлар кузатилди: юрак катталашган, консистенцияси бўшашган; ўпкада ўчоқли қон қуйилишлар мавжуд. Талоқ бироз катталашган, ўрта қисмида қон қуйилган ўчоқ мавжуд. Бўйракларнинг устки қисмида ҳажми 4-8 мм бўлган деярли қора тусдаги 2-3 та қон қуйилган ўчоқлар мавжуд ва улар 2 мм гача паренхимага кириб борган.



**3-расм.Аборт бўлган ҳомила ва ўпкадаги ўчоқли қон қуйилишлари.**



**4-расм. Бўғозликнинг охирги ўн кунлигида тушган ҳомила.**


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311053

**Хулоса.** Патологоанатомик текширишлар жараёнида аниқланишича, *S.abortus ovis* ўзининг патоген таъсири туфайли бўғозликнинг иккинчи даврида қуёнларда абортлар содир бўлишига сабаб бўлади. Бундан ташқари, мазкур қўзғатувчи таъсирининг оқибати ўлим билан ҳам тугайди. Шунингдек, бунда бачадоннинг катталашиши, бачадон шиллиқ қаватида кучли геморрагиялар, айрим ички азоларда ўчоқли қон қуйилишлар, талоқнинг катталашиши ва кўкрак бўшлиғида қонли суюқлик тўпланиши каби ўзгаришлар қайд этилди.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ


1. 1. Антонов Б.И. и соавт. ”Лабораторные исследования в ветеринарии. Бактериальные инфекции”. М.,”Агропромиздат”.1986. 352 с.
2. 2.Агзамходжаев Т.С., Хайдаров М.Б., Исмаилова М.У., Толипов М.Г., Бабаниязов К.К. “Клиник лаборатор ташхислаш ва текширув усуллари”. Ўқув қўлланмаси. Т., 2016 йил. 198 с.
3. 3. Джураев О.А.. “Қишлоқ хўжалик ҳайвонларини патологанотомик ёриб текшириш”. Ветеринария медицинаси” ж. 2022, 12. 28-29-с.
4. 4. Джураев О.А. “Патологоанатомическое вскрытие животных и птиц”. Самарканд. Изд. ООО “SHUXRAT MENGLIEV” 2026. 162 с.
5. 5. Ибодуллаев Ф. “Қишлоқ хўжалик ҳайвонларининг патологик анатомияси”. Т. “Ўзбекистон”. 2000. 420 с.
6. 6. Леонтюк С.В., Дубинский А.А., Гусев Б.А., Демина М.Ф., “Болезни кроликов”. Москва., “Колос”. 1974. 84 с.
7. 7. Комплаский В.И. и др. “Эффективное кролиководство”. Куб ГАУ. Краснодар. 2013. 168 с.
8. 8. Хаитов Р.Х., Эшимов Д.Э. ’’Ҳайвонлар патологик физиологияси”. Тошкент,. “ILM-ZIYO”, 2013. 216 с.
9. 9. Шахов А.Г., Трубников П.К., Налетов И.С., ’’Энзоотический аборт овец’’. “Ветеринария”. 1975. Москва (medical-diss.com).
10. 10. Щербань Г.П., Щербань Н.Ф. ”Энзоотический (вирусный) аборт овец”. Москва. ж. “Ветеринария”. 1974, 8. с.85-87.
11. 11. Internet ma’lumotlari, pubmed.ncbi.nlm.nih.gov., medical-diss.com.

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

# TUYALARDA CEPHALOPINA TITILLATOR BURUN SÖNASI LIÇINKALARINING UÇRAŞI VA MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Kushimmatov J.B. — Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, çorvaçilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali tayanç doktoranti.**

E-mail: jalolkushimmatov@gmail.com

**Madrimov Sh.X. — Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, çorvaçilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali stajyor öqituvçisi.**

E-mail: shukurulla8899@gmail.com

ORCID: https://orcid.org/0009-0001-5852-6537

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311054

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
274–277

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Kushimmatov J.B., Madrimov Sh.X. Tuyalarda Cephalopina titillator burun sönasi liçinkalarining uçraşi va morfologik xususiyatlari // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 274–277. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311054

ANNOTATSIYA Mazkur maqolada Qoraqalpoğiston Respublikasining Çimboy va Ellikqal'a tumanlari hamda Nukus şahrida tuyalarda uçraydigan *Cephalopina titillator* burun sönasi liçinkalari örganildi. Tadqiqot davomida har bir hududdan 10 boşdan, jami 30 boş tuya tekşirildi. Tuyalarning burun böşliği va halqum sohasida parazit liçinkalarining mavjudligiga e'tibor qaratildi. Aniqlangan liçinkalarning taşqi morfologik xususiyatlari va rivojlaniş bosqiçlarini örganiş masalalari yoritildi. Şuningdek, parazitning tuya organizmiga ta'siri va zararlaniş darajasini baholaş usullari körib çiqildi. Olingan ma'lumotlar tuyalarda burun sönasi liçinkalarining uçraşini örganiş va parazitga qarşi profilaktik tadbirlarni takomillaştirişda muhim ahamiyatga ega.

АННОТАЦИЯ В данной статье изучены личинки носоглоточного овода *Cephalopina titillator*, встречающиеся у верблюдов в Чимбайском районе, городе Нукусе и Элликкалинском районе Республики Каракалпакстан. В ходе исследования обследовано по 10 верблюдов из каждой территории, всего 30 голов. Особое внимание уделено наличию личинок паразита в носовой полости и области глотки верблюдов. Рассмотрены вопросы изучения внешних морфологических особенностей и стадий развития выявленных личинок. Также рассмотрены влияние паразита на организм верблюдов и методы оценки степени заражённости. Полученные данные имеют важное значение для изучения встречаемости личинок носоглоточного овода у верблюдов и совершенствования профилактических противопаразитарных мероприятий.

ABSTRACT This article examines the larvae of the camel nasal botfly, *Cephalopina titillator*, found in camels in Chimbay District, Nukus City, and Ellikkala District of the Republic of Karakalpakstan. A total of 30 camels were examined, with 10 animals from each area. Particular attention was paid to the presence of parasite larvae in the nasal cavity and pharyngeal region of the camels. The study addresses the external morphological characteristics and developmental stages of the detected larvae. The effects of the parasite on the camel's body and methods for assessing the degree of infestation are also considered. The findings are important for studying the occurrence of camel nasal botfly larvae and improving preventive measures against the parasite.

KALIT SÖZLAR tuya, *Cephalopina titillator*, burun sönasi, liçinka, parazit, burun böşliği, halqum, zararlaniş, morfologiya, parazitologik tekşiruv.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА верблюд, *Cephalopina titillator*, носовой овод, личинка, паразит, носовая полость, глотка, заражённость, морфология, паразитологическое исследование.

KEYWORDS camel, *Cephalopina titillator*, camel nasal botfly, larva, parasite, nasal cavity, pharynx, infestation, morphology, parasitological examination.

## KIRIŞ

Tuyalar qurğoqçil va issiq iqlim şaroitiga yaxşi moslaşgan hayvonlar hisoblanadi. Şunga qaramay, ular turli parazitlar bilan zararlanişi mumkin. Şunday parazitlardan biri *Cephalopina titillator* bölib, u ikki qanotlilar turkumi va Oestridae oilasiga mansub haşarot hisoblanadi. Uning liçinkalari tuyalarning burun böşliği, burun yondoş böşliqlari va halqum sohasida rivojlanadi.

Parazit liçinkalari şilliq qavatlarga ta'sir körsatib, yalliğlaniş, burundan suyuqlik kelişi va nafas olişning qiyinlaşişiga sabab bölişi mumkin. Uşbu holat rinofaringeal miaz deb ataladi.

Safarov A. va hammualliflari tomonidan 2024-yilda çop etilgan ilmiy maqolada Özbekistonning Nukus tumani Qizil uy qişloğida söyilgan bir boş tuyadan *C. titillator*ning 69 ta liçinkasi aniqlangani qayd etilgan. Uşbu ma'lumot parazitning Özbekiston hududida ham uçraşini tasdiqlagan [1].

Şu sababli Qoraqalpoğiston Respublikasining Çimboy va Ellikqal'a tumanlari hamda Nukus şahrida tuyalarda uşbu parazitning uçraş holatlarini örganiş muhim ahamiyat kasb etdi.

## TADQIQOT MAQSADI

Qoraqalpoğiston Respublikasining Çimboy va Ellikqal'a tumanlari hamda Nukus şahrida tuyalarda *Cephalopina titillator* parazitining uçraş holatlarini örganiş, liçinkalarning morfologik xususiyatlarini tavsiflaş va hayvonlarning zararlaniş darajasini baholaşdan iborat böldi.

## TADQIQOT VAZIFALARI

1. Çimboy va Ellikqal'a tumanlari hamda Nukus şahrida tuyalarning parazit bilan zararlaniş holatlarini örganiş.
2. Aniqlangan liçinkalarning taşqi morfologik xususiyatlarini tekşiriş.
3. Liçinkalarning rivojlaniş bosqiçlarini farqlaş.
4. Tekşirilgan va zararlangan tuyalar soni asosida invaziya ekstensivligini baholaş.
5. Olingan ma'lumotlar asosida parazitning veterinariya jihatidan ahamiyatini yoritiş.

Tadqiqot materiallari va usullari

**Tadqiqot** Qoraqalpoğiston Respublikasining Çimboy va Ellikqal'a tumanlari hamda Nukus şahrida olib borildi. Har bir hududdan 10 boşdan, jami 30 boş tuya tekşirildi. Tekşiruv davomida tuyalarning burun böşliği va halqum sohasi közdan keçirildi. Söyilgan hayvonlarda uşbu anatomik sohalar tekşirilib, mavjud parazit liçinkalari ajratib olindi.

Laboratoriya şaroitida liçinkalarning tana şakli, segmentlarga bölinişi, tana yuzasidagi tikanlar va boşqa taşqi belgilari örganildi. Uşbu belgilar asosida liçinkalarning rivojlaniş bosqiçlarini farqlaşga e'tibor berildi.

*Cephalopina titillator* liçinkalari uçta rivojlaniş bosqiçidan ötadi. Birinçi bosqiçdagi liçinkalar nisbatan kiçik bölib, keyingi bosqiçlarda ularning tana ölçami va taşqi tuziliş belgilari özgaradi. Uçinçi bosqiç liçinkalari rivojlanişning yakuniy liçinkalik bosqiçini taşkil qiladi [1, 2].

## TADQIQOT NATIJALARI

Tekşiruvlar davomida jami 30 boş tuya parazitologik jihatdan örganildi. Şundan 10 boşi Çimboy tumanida, 10 boşi Nukus şahrida va 10 boşi Ellikqal'a tumanida tekşirildi. Har bir hududda tuyalarning burun böşliği va halqum sohasiga e'tibor qaratildi.


Parazitning tarqaliş darajasini aniqlaşda tekşirilgan hayvonlar soni va ulardan parazit topilgan hayvonlar soni hisobga olindi. Invaziya ekstensivligi quyidagi formula yordamida hisoblandi:

$$IE = (n / N) \times 100\ \%$$

Bu yerda:

- IE — invaziya ekstensivligi, %;
- n — parazit aniqlangan tuyalar soni;
- N — jami tekşirilgan tuyalar soni.

Har bir hududda 10 boş tuya tekşirilgani sababli, zararlaniş foizi parazit aniqlangan tuyalar soniga qarab hisoblanadi. Parazit topilgan hayvonlar soni haqidagi aniq ma'lumotlar asosida har bir hudud uçun alohida körsatkiçni aniqlaş mumkin.



*Tuyalarning burun böşliği va halqum sohasidagi Cephalopina titillator parazitining liçinkalari.*


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311054

## LIÇINKALARNING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

Parazit liçinkalarini örganişda ularning taşqi körinişi, tana segmentlari va tana yuzasidagi tikanlar asosiy belgilar sifatida hisobga olindi. Liçinkalar rivojlaniş davomida tana ölçami va tuzilişi jihatidan farq qilişi bilan tavsiflandi.

Birinçi bosqiç liçinkalari kiçikroq bölib, keyingi bosqiçlarda tana ölçamlari kattalaşadi. Uçinçi bosqiç liçinkalarida taşqi morfologik belgilar yanada yaqqol namoyon böladi. Uşbu xususiyatlar liçinkalarni rivojlaniş bosqiçlariga ajratişda muhim ahamiyatga ega [1, 2].

Parazitning tuya organizmiga ta’siri

Cephalopina titillator liçinkalari burun böşliği va halqumda rivojlanişi natijasida şilliq qavatlarga ta’sir körsatişi mumkin. Bunday holatlarda burundan suyuqlik kelişi, yalliğlaniş, aksiriş va nafas olişning qiyinlaşişi kabi belgilar kuzatilişi mumkin.

Mazkur belgilar boşqa kasalliklarda ham uçraşi mumkinligi sababli, parazit bilan zararlanişni tasdiqlaşda veterinariya va laboratoriya tekşiruvlari muhim hisoblandi. Hayvonlarning zararlaniş darajasi parazitning mavjudligi va tekşiruv natijalari asosida baholanişi lozim.

## XULOSA

Qoraqalpoğiston Respublikasining Çimboy va Ellikqal’a tumanlari hamda Nukus şahrida Cephalopina titillator parazitini örganiş uçun har bir hududdan 10 boşdan, jami 30 boş tuya tekşirildi. Tadqiqotda parazit liçinkalarining uçraş holatlarini aniqlaş, taşqi morfologik xususiyatlarini örganiş va zararlaniş darajasini baholaş masalalariga e’tibor qaratildi.

Cephalopina titillator liçinkalari tuyalarning burun böşliği va halqum sohasida rivojlanib, şilliq qavatlarning yalliğlanişi hamda nafas oliş faoliyatining buzilişiga sabab bölişi mumkin. Şu bois uşbu parazitni öz vaqtida aniqlaş, zararlaniş darajasini hisoblaş va veterinariya nazoratini olib boriş muhim hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarini töliq baholaş uçun har bir hududda parazit aniqlangan tuyalar soni, ajratib olingan liçinkalar miqdori va ularning rivojlaniş bosqiçlari böyiça haqiqiy ma’lumotlar hisobga olinişi zarur. Uşbu körsatkiçlar kelgusida parazitning tarqalişini aniqlaş va profilaktik tadbirlarni takomillaştirişga yordam beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Safarov A., Kunisov B., Arepbaev I., Sazmand A. First record of nasopharyngeal myiasis caused by *Cephalopina titillator* in camel in Uzbekistan. *Veterinary Parasitology: Regional Studies and Reports*. 2024; 51: 101029. https://doi.org/10.1016/j.vprsr.2024.101029
2. Nasopharyngeal myiasis due to *Cephalopina titillator* in Southeastern Iran: a prevalence, histopathological, and molecular assessment. *Parasitology Research*. 2023. https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/37193486/
3. Yao C. va boşqalar. Prevalence and pathology of *Cephalopina titillator* infestation in *Camelus bactrianus* from Xinjiang, China. 2022. https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/36171581

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

# QOYLARDA TEMIRETKI KESELLIGININ ETIOLOGIYASI, DIOGNOSTIKASI HÁM PROFILAKTIKASI (ÁDEBIYATLAR SHARXI)

**Raximov O.R. v.f.b.f.d.,(PhD)**
**Mırzabayeva T.M. magistrant**
SamVMShBU Nókis filiali

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311055
NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus
SAHIFALAR
278–280
NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Raximov O.R., Mırzabayeva T.M. Qoylarda temiretki keselliginin etiologiyasi, diognostikasi hám profilaktikasi (ádebiyatlar sharxi) // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 278–280. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311055

ANNOTACIYA **nnotaciya:** Bul maqalada qoylarda ushırasatuǵın temiretki keselliginiń kelip shıǵıw sebepleri, qozǵatıwshıları, klinikalıq belgileri, diagnostikasi hám profilaktikalıq ilajlari sáwlelendirilgen. Temiretki-teri hám onıń tuwındıların zıyanlaytuǵın, dermatofit zamarrıqları tárepinen shaqırılatuǵın juqpalı kesellik. Kesellik haywanlar arasında tikkeley qatnas hám de zıyanlanǵan ásbap-úskeneler, jún hám teri qaldıqları arqalı tarqalıwı múmkin. Iǵallıq, sanitariya-gigiena qaǵıydalarına ámel etpew, haywanlardı tıǵız saqlaw hám immunitettiń tómenlewi keselliktiń tarqalıwına sebep boladı. Maqalada temiretkini anıqlawda klinikaliq tekseriw, mikroskopiyaliq tekseriw hám mikologıyalıq tekseriw áhmiyeti kórip shıǵılǵan. Sonday-aq, keselliktiń aldın alıwda sanitariya-gigienaliq ilajlar, zıyanlanǵan haywanlardı ajıratıw hám dezinfekciyalawdıń áhmiyeti bayan etilgen.

TAYANISH SÓZ **anısh sózler:** qoy, temiretki, dermatofitoz, dermatofit zamarrıqları, etiologiya, diognostika, profilaktika, dezinfekciya, veterinariya.

ABSTRACT **Abstract:** This article examines the causes, pathogens, clinical signs, diagnosis and preventive measures for sheep's ringworm. Lichen is an infectious disease caused by dermatophyte fungi that affects the skin and its derivatives. The disease can spread through direct contact between animals, as well as through infected equipment, wool and skin debris. The spread of the disease is facilitated by humidity, non-compliance with sanitary and hygienic rules, dense keeping of animals, and a decrease in immunity. The article examines the importance of clinical examination, microscopic examination, and methods for growing fungi in a nutrient medium in the detection of lichen. The importance of sanitary and hygienic measures, isolation of infected animals and disinfection of livestock premises in the prevention og the disease is also described.

KEYWORDS **Keywords:** sheep, lichen, dermatophytosis, dermatophyte fungi, etiology, diagnosis, prevention, disinfection, veterinary.

**Kirisiw:** Qoyshılıq sharwashılıqtıń áhmiyetli tarawlarınıń biri bolıp, xalıqtı gósh, jún, teri hám basqa da sharwashılıq ónimleri menen támiyinlewde úlken áhmiyetke iye. Qoylardıń salamat saqlanıwı, ónimdarlıǵın arttırıw hám sapalı ónim alıwda juqpalı

keselliklerdiń aldın alıw áhmiyetli wazıypalardan esaplanadı. Teri kesellikleri haywanlardıń ulıwma jaǵdayına, jún qaplamınıń sapasına hám ónimdarlıǵına unamsız tásir kórsetiwi múmkin. Qoylarda ushırasıwı múmkin bolǵan teri keselliklerinen biri temiretki bolip, ol dermatofit zamarrıqlar sebepli payda boladı. Kesellik teriniń ústingi qatlamları hám jún talshıqların zıyanlaw nátiyjesinde júnniń túsiwi, teride qırshılıw hám de shegaralanǵan oshaqlar payda bolıwı menen kórinedi. Ayırım jaǵdaylarda kesellik pada ishinde tarqalıp, haywanlardı emlew hám saqlawǵa baylanıslı qosımsha qárejetlerdi keltirip shıǵaradı. Temiretkige qarsi gúresiwde kesellik qozǵatıwshıların biliw, óz waqtında diagnoz qoyıw hám profilaktika ilajlarin durıs shólkemlestiriw zárúr. Usı maqalanıń maqseti qoylarda temiretki keselliginiń etiologiyasi, diagnostikasi hám profilaktikası boyınsha ilimiy ádebiyatlarda keltirilgen maǵlıwmatlardı ulıwmalastırıwdan ibarat.

Qoylarda temiretki keselliginiń etiologiyasi. Temiretki yamasa dermatofitoz-dermatofitler dep atalatuǵın keratindi tarqatatuǵın qásiyetke iye zamarrıqlar keltirip shıǵaratuǵın juqpalı kesellik. Bul zamarrıqlar teriniń múyizlengen qatlamın, jún hám basqa keratinli strukturalardı ziyanlaydı. Qoylarda dermatofitozdin kelip shıǵıwında Trichophyton tuwısına tiyisli zamarrıqlar, sonıń ishinde ayırım sharayatlarda Trichophyton verrucosum hám Trichophyton mentagrophytes áhmiyetli rol atqaradı.

Qoylarda temiretki keselligi diagnostikasi. Temiretkige dıagnoz qoyıw klinik tekseriw, epidemiolgiyaliq maǵlıwmatlardı jıynaw hám labaratoriya tekseriwleri nátiyjelerin birgelikte bahalawǵa tıykarlanadı.

Klinikaliq tekseriw. Veterinariya qánigesi haywannıń terisi hám jún qaplamın kózden ótkeredi. Jún tógilgen yamasa sınǵan, qıpıqlanǵan qabıq payda bolǵan jerler anıqlanadı. Sonday-aq, padada keselliktiń qashannan beri ushırasıp atırǵanı, jańa haywanlar alıp kelingenligi, qırqıw ásbapların uluwmalıq paydalanǵanlıǵı hám kesel haywanlar menen kontakt jaǵdayları úyreniledi. Bıraq bunday belgiler basqa da dermatologiyaliq keselliklerde de baqlanıwı múmkin.

Mikroskopiyaliq tekseriw. Zıyanlanǵan jerden alınǵan jún talshıqları hám teri qırındıları labaratoriyada tekseriledi. Arnawlı islew berilgennen keyin mikroskop astında zamarrıq elementleri, atap aytqanda, gifalar hám konidiyalar bar ekenligi anıqlanıwı múmkin. Bul usıl tez dáslepki bahalawǵa járdem beredi, bıraq qozǵatıwshınıń túrin hár dayim hám anıq belgilep bermeydi.

Mikologik tekseriw. Ziyanlanǵan teri yamasa jún úlgilerinen zamarrıqlardı arnawlı azıqlıq ortalıqlarında ósiriw arqalı qozgatıwshınıń ósiwi hám qásiyetleri úyreniledi. Zárúr jaǵdaylarda koloniyalardıń morfologıyalıq belgileri hám basqa labaratoriya usılları járdeminde zamarrıq túri anıqlanadı. Bul usıl dermatafitoz diagnozın tastıyıqlawda áhmiyetli orin tutadı, bıraq nátiyje alıw ushın waqıt talap etiwi múmkin.

Qoylarda temiretki keselliginiń profilaktikasi. Qoylarda temiretki keselliginiń aldın alıw ushın birinshi orında sanitariya-gigiena qaǵıydalarına ámel etiw kerek. Qoyxanalardı taza hám qurǵaq saqlap, turaqlı tazalanıwı hám dezinfekciyalanıwı kerek. Kesellengen qoylar saw haywanlardan ajıratıladı. Qoylardıń júnin qırqıwda paydalanılatuǵın ásbap-úskeneler tazalanıp, dezinfekciyalanıwı zárúr. Jańadan alıp kelingen haywanlar veterinariya tekseriwinen ótleriledi. Sonday-aq, qoylardı sapalı azıqlandırıw hám jaqsı shárayatta saqlaw keselliktiń aldın alıwǵa járdem beredi. Bul ilajlardi turaqlı ámelge asırıw temiretkiniń padada tarqalıw qáwipin azaytadı.

**Juwmaq:** Juwmaqlap aytqanda, qoylarda temiretki teri hám jún qaplamın zıyanlaytuǵın juqpalı zamarrıqlı kesellik bolip esaplanadı. Keselliktiń aldın alıw hám onıń tarqalıwın azaytıwda óz waqtında diagnoz qoyıw, kesellengen haywanlardı ajıratıw hám sanitariya-gigiena qaǵıydalarına ámel etiw úlken áhmiyetke iye. Qoyxanalardı taza saqlaw, ásbap-úskenelerdi dezinfekciyalaw hám haywanlardı durıs saqlaw kesellik qáwipin azaytadı. Sonıń ushın temiretkige qarsı turaqlı profilaktikaliq ilajlardi ámelge asırıw qoylardıń densawlıǵın saqlaw hám sharwashılıq ónimdarlıǵın arttırıwǵa járdem beredi.

## PAYDALANILG'AN A`DEBIYATLAR DIZIMI

1. Abdalla W.G. An Over View of Ovine and Caprine Dermatophytosis// South Asian Journal of Research in Microbiology.-2019.-5-jild, 2-son.
2. Moriello K.A Dermatophytosis in Pigs, Sheep and goats//Merck Veterinary Manual.-2025.
3. Biology and Siseases of Ruminants (sheep,goats,and cattle)//Labaratory Animal Medicine.-PubMed Central
4. Quinn P.J., Markey B.K., Leonard F.C. hám basqalar.Veterinary Microbiology and Microbial Disease.-Wiley-Blackwell.
5. Rdostits O.M.,Gay C.C., Hinchcliff K.W., Constable P.D Veterinary Medicine:A textbook of the Diseases of Cattle, horses, sheep, pigs and goats.-Elsevier.


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311055

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

UDK 619:618.14-007.16:636.2:615.2

# SIGIRLARDA BACHADON SUBINVOLYUTSIYASINI DAVOLAŞDA UTEROTON PREPARATINING TERAPEVTIK SAMARADORLIGINI BAHOLAŞ

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali**

“Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasi, v.f.f.d, (PhD) katta o‘qituvchisi:

**J. E. Rejepbayev**

**Magistrant D.B. Taxirbekova**

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311056

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
281–285

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Rejepbayev J.E., Taxirbekova D.B. Sigirlarda bachadon subinvolyutsiyasini davolaşda uteroton preparatining terapevtik samaradorligini baholaş // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 281–285. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311056

ANNOTATSIYA Uşbu ilmiy tadqiqot sigirlarda tugruqdan keyingi davrda uchraydigan bachadon subinvolyutsiyasini davolaşda Uteroton preparatining terapevtik samaradorligini örganişga qaratilgan. Tadqiqotda bachadon subinvolyutsiyasining klinik belgilari, bachadonning fiziologik holatga qaytiş jarayoni va preparat qöllanilgandan keyingi klinik-ginekologik özgarişlarni baholaş rejalaştirilgan. Şuningdek, preparatning davolaş samaradorligini aniqlaş maqsadida davolaşdan oldingi va keyingi körsatkichlar özaro taqqoslanadi hamda zarur hollarda nazorat guruhi natijalari bilan soliştiriladi.

Tadqiqot davomida bachadon involyutsiyasining kechişi, tugruqdan keyingi ajralmalarning xususiyatlari, jinsiy siklning tiklanişi va sigirlarning keyingi urug‘lantirişga tayyorligi kabi körsatkichlarga e’tibor qaratiladi. Olingan ma’lumotlar asosida Uteroton preparatining terapevtik samaradorligi baholanib, sigirlarda bachadon subinvolyutsiyasini davolaşni takomillaştirişga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar işlab chiqiladi.

Tadqiqot natijalari veterinariya akuşerligi va ginekologiyasi amaliyotida tugruqdan keyingi reproduktiv buzilişlarni davolaş samaradorligini oşiriş hamda qoramollarning reproduktiv salomatligini yaxşilaşga xizmat qilişi mumkin.

KALIT SÖZLAR *Sigirlar, bachadon subinvolyutsiyasi, tugruqdan keyingi davr, Uteroton, terapevtik samaradorlik, bachadon involyutsiyasi, klinik tekşiruv, ginekologik körsatkichlar, reproduktiv faoliyat.*

АННОТАЦИЯ Данное научное исследование направлено на изучение терапевтической эффективности препарата Утеротон при лечении субинволюции матки у коров в послеродовой период. В ходе исследования планируется оценить клинические признаки заболевания, процесс восстановления физиологического состояния матки и клинико-гинекологические изменения после применения препарата. Для определения эффективности лечения будут сравнены показатели до и после применения препарата, а при необходимости — результаты контрольной группы.

Особое внимание будет уделено течению инволюции матки, характеру послеродовых выделений, восстановлению полового цикла и готовности коров к последующему осеменению. На основании полученных данных планируется разработать научно-практические рекомендации по совершенствованию лечения субинволюции матки у коров. Результаты исследования могут

способствовать повышению эффективности лечения послеродовых репродуктивных нарушений и улучшению репродуктивного здоровья крупного рогатого скота.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА *коровы, субинволюция матки, послеродовой период, Утеротон, терапевтическая эффективность, инволюция матки, клиническое обследование, гинекологические показатели, репродуктивная функция.*

ANNOTATION This scientific study aims to evaluate the therapeutic efficacy of Uteroton in the treatment of uterine subinvolution in cows during the postpartum period. The study will assess the clinical signs of the condition, the process of uterine recovery to its physiological state, and clinical and gynecological changes following treatment. To determine treatment efficacy, indicators before and after administration will be compared and, where necessary, evaluated against the results of a control group.
Particular attention will be paid to the progression of uterine involution, the characteristics of postpartum discharge, the restoration of the estrous cycle, and the readiness of cows for subsequent insemination. Based on the findings, scientific and practical recommendations will be developed to improve the treatment of uterine subinvolution in cows. The results may contribute to more effective treatment of postpartum reproductive disorders and improved reproductive health in cattle.

KEYWORDS *cows, uterine subinvolution, postpartum period, Uteroton, therapeutic efficacy, uterine involution, clinical examination, gynecological indicators, reproductive function.*

**Kiriş.** Qoramolchilikda mahsuldorlikni oşiriş, podaning takror işlab chiqariş samaradorligini ta’minlaş va iqtisodiy yöqotişlarni kamaytirişda sigirlarning reproduktiv salomatligi muhim ahamiyatga ega. Tugruqdan keyingi davr hayvon organizmida bir qator fiziologik özgarişlar kechadigan mas’uliyatli bosqich hisoblanadi. Uşbu davrda bachadon homiladorlikdan oldingi holatiga qaytadi, tugruqdan keyingi ajralmalar chiqariladi, bachadon şilliq qavati tiklanadi va tuxumdonlarning faoliyati qayta faollaşadi.

Bachadon involyutsiyasi — tugruqdan keyin bachadonning hajmi, tuzilişi va funksional holatining fiziologik me’yorga qaytiş jarayonidir. Uşbu jarayonning normal kechişi bachadon muşaklarining qisqarişi, töqimalarning qayta tiklanişi va tugruqdan keyingi ajralmalarning chiqarilişi bilan bog‘liq. Mazkur jarayonning buzilişi esa bachadonning tiklanişi kechikişiga va reproduktiv faoliyatning izdan chiqişiga olib kelişi mumkin.

Bachadon involyutsiyasining sekinlaşişi bilan kechadigan subinvolyutsiya sigirlarning tugruqdan keyingi davrida e’tibor talab qiladigan patologik holatlardan biridir. Bachadonning yetarli darajada qisqarmasligi, uning hajmining uzoq vaqt davomida kattaligicha qolişi va ajralmalarning me’yoridan ortiq saqlanişi uşbu holatga şubha uyg‘otişi mumkin. Biroq taşxis faqat bitta belgiga asoslanmasdan, hayvonning umumiy holati, tugruqdan keyin ötgan vaqt va klinik ginekologik tekşiruv natijalari bilan birgalikda baholanişi lozim.

Ilmiy manbalarda tugruqdan keyingi bachadon kasalliklari sigirlarning urug‘laniş qobiliyati va keyingi reproduktiv natijalariga salbiy ta’sir körsatişi qayd etilgan. Şu sababli bachadonning tiklaniş jarayonini nazorat qiliş, patologik holatlarni öz vaqtida aniqlaş va asoslangan davolaş usullarini qöllaş veterinariya akuşerligi hamda ginekologiyasining muhim vazifalaridan hisoblanadi

**Tadqiqotning maqsadi**. Sigirlarda bachadon subinvolyutsiyasini davolaşda Uteroton preparatining terapevtik samaradorligini klinik-ginekologik körsatkichlar asosida baholaş hamda uni amaliyotda qöllaş imkoniyatlarini örganiş.

**Tadqiqotning vazifalari**. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni bajariş rejalaştiriladi:

- sigirlarda bachadon subinvolyutsiyasining klinik belgilarini va uchraş xususiyatlarini örganiş;
- bachadonning involyutsiya jarayonini va tugruqdan keyingi ajralmalarning xususiyatlarini baholaş;
- Uteroton preparati qöllanilişidan oldingi va keyingi klinik-ginekologik körsatkichlarni taqqoslaş;
- imkoniyat mavjud bölganda, davolaş guruhi natijalarini nazorat guruhi körsatkichlari bilan soliştiriş;
- davolaş natijalarining reproduktiv faoliyat tiklanişi bilan bog‘liqligini örganiş va amaliy tavsiyalar işlab chiqiş.

## BACHADON SUBINVOLYUTSIYASINING KELIB CHIQIŞI VA KLINIK AHAMIYAT

Sigirlarda tugruqdan keyingi bachadonning tiklaniş jarayoniga hayvonning umumiy fiziologik holati, oziqlantiriş darajasi, tug‘ruqning kechişi, yöldoşning ajralişi va tugruqdan keyingi davrda yuzaga keladigan yallig‘laniş jarayonlari ta’sir körsatişi mumkin. Şuningdek, metabolik muvozanatning buzilişi va immun himoyaning susayişi bachadon salomatligi hamda tuxumdonlar faoliyatining tiklanişiga salbiy ta’sir qilişi mumkin.

Subinvolyutsiyaga şubha qilinganda bachadonning kattaligi, qisqariş darajasi, konsistensiyasi, tugruqdan keyingi ajralmalarning miqdori va xususiyati baholanadi. Hayvonning tana harorati, iştahasi, umumiy holati va boşqa klinik belgilari ham tekşiriladi. Zarur hollarda rektal tekşiruv, ultratovuş diagnostikasi va boşqa veterinariya tekşiruv usullaridan foydalaniladi.

Bachadon subinvolyutsiyasini metrit, endometrit va tugruqdan keyingi boşqa reproduktiv kasalliklardan farqlaş muhimdir. Chunki ayrim klinik belgilar öxşaş bölişi mumkin, ammo ularning sabablari va davolaş yondaşuvlari bir xil emas. Şu bois davolaşni boşlaşdan oldin veterinariya mutaxassisi tomonidan töliq klinik baholaş ötkazilişi kerak.

## UTEROTON PREPARATINING TERAPEVTIK SAMARADORLIGINI BAHOLAŞ

Bachadonning tugruqdan keyingi tiklanişini tezlaştirişga qaratilgan davolaş usullarini örganişda preparatning ta’sirini klinik körsatkichlar asosida baholaş muhim hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda Uteroton preparatining samaradorligi bachadon involyutsiyasining kechişi, klinik belgilar dinamikasi va reproduktiv faoliyatning tiklanişi bilan bog‘liq körsatkichlar orqali örganilişi rejalaştiriladi.

Preparatni qöllaşdan oldin hayvonning tugruq sanasi, yoşi, tug‘ruqlar soni, umumiy holati va aniqlangan klinik belgilar qayd etiladi. Keyingi tekşiruvlarda uşbu körsatkichlarning özgarişi kuzatiladi. Bachadonning tiklaniş darajasi faqat taşqi belgilar asosida emas, balki tegişli klinik-ginekologik tekşiruvlar natijalari bilan birgalikda baholanişi lozim.

Uteroton preparatini qöllaş tartibi, dozasi, yuboriş usuli va davolaş davomiyligi preparatning rasmiy yöriqnomasi hamda veterinariya mutaxassisi körsatmalariga muvofiq belgilanadi. Tadqiqot davomida preparatning xavfsizligi, hayvonlarda kuzatilişi mumkin bölgan nojöya reaksiyalar va davolaş natijalari ham qayd etilişi kerak.

Preparatning samaradorligini asosli baholaş uchun davolaş guruhi bilan bir qatorda imkon qadar öxşaş klinik holatdagi nazorat guruhi taşkil etiladi. Guruhlarni şakllantirişda

hayvonlarning yoşi, tugruqdan keyin ötgan vaqt, kasallikning ogʻirligi va boşqa muhim omillar hisobga olinadi. Natijalarni taqqoslaşda bir xil tekşiruv mezonlari va kuzatuv muddatlaridan foydalaniş tavsiya etiladi.

## TADQIQOT MATERIALLARI VA USULLARI

Tadqiqotning tajriba qismi bachadon subinvolyutsiyasi aniqlangan sigirlarda olib borilişi rejalaştiriladi. Hayvonlarni tanlaşda ularning tugruqdan keyingi davri, klinik holati va veterinariya tekşiruvi natijalari hisobga olinadi.

## TADQIQOT DAVOMIDA QUYIDAGI USULLARDAN FOYDALANIŞ MUMKIN

**Klinik tekşiruv**. Sigirlarning umumiy holati, tana harorati, iştahasi va boşqa klinik belgilari qayd etiladi.

**Ginekologik tekşiruv.** Bachadonning kattaligi, konsistensiyasi, qisqariş holati va tugruqdan keyingi ajralmalarning xususiyatlari baholanadi. Zaruratga qarab ultratovuş tekşiruvi ötkaziladi.

**Kuzatuv usuli.** Davolaşdan oldingi va keyingi körsatkichlar belgilangan muddatlarda qayd etilib, ularning özgariş dinamikasi tahlil qilinadi.

**Qiyosiy tahlil.** Davolaş guruhidagi natijalar dastlabki körsatkichlar va mavjud bölsa, nazorat guruhi natijalari bilan taqqoslanadi.

**Statistik tahlil**. Olingan ma’lumotlarning örtacha qiymatlari, tarqalişi va guruhlar örtasidagi farqlar tegişli statistik usullar yordamida baholanadi.

Tadqiqotda hayvonlar soni, guruhlarning tarkibi, preparatni qöllaş sxemasi, kuzatuv muddati va statistik natijalar haqiqiy tajriba ma’lumotlari asosida körsatilişi lozim.

## NATIJALARNI BAHOLAŞ MEZONLARI

Uteroton preparatining terapevtik samaradorligini aniqlaşda quyidagi körsatkichlarga e’tibor qaratiş maqsadga muvofiq:

- bachadonning fiziologik holatga qaytiş dinamikasi;
- tugruqdan keyingi ajralmalarning miqdori va xususiyatlaridagi özgarişlar;
- klinik-ginekologik belgilar kamayişi yoki yöqolişi;
- jinsiy siklning tiklaniş muddati;
- sigirlarning keyingi urugʻlantirişga tayyorligi va urugʻlantiriş natijalari;
- preparatni qöllaş davrida kuzatilgan nojöya reaksiyalar.

Uşbu körsatkichlar preparatning ta’sirini kompleks baholaş imkonini beradi. Şu bilan birga, jinsiy siklning tiklanişi yoki urugʻlantiriş natijalariga faqat preparat ta’sir qilmasligi mumkin. Oziqlantiriş, saqlaş şaroiti, hayvonning umumiy salomatligi va boşqa reproduktiv omillar ham hisobga olinişi zarur.

## KUTILAYOTGAN NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijasida sigirlarda bachadon subinvolyutsiyasining klinik kechişi hamda Uteroton preparati qöllanilgandan keyingi özgarişlar haqida ma’lumot oliş kutiladi. Davolaşdan oldingi va keyingi körsatkichlarni taqqoslaş orqali bachadon involyutsiyasi, klinik-ginekologik holat va reproduktiv faoliyat tiklanişidagi özgarişlar baholanadi.


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311056

Agar davolaş guruhida bachadonning tiklanişi va klinik belgilar dinamikasi nazorat guruhiga nisbatan ijobiy farq körsatsa, bu preparatning terapevtik samaradorligini tasdiqlaşga yordam berişi mumkin. Biroq bunday xulosa chiqariş uchun etarli miqdordagi kuzatuvlar, tegişli statistik tahlil va boşqa ta'sir etuvchi omillarni hisobga oliş talab etiladi.

**Xulosa.** Sigirlarda bachadon subinvolyutsiyasini öz vaqtida aniqlaş va samarali davolaş tugruqdan keyingi reproduktiv salomatlikni saqlaşda muhim ahamiyatga ega. Bachadonning fiziologik holatga qaytişi, klinik-ginekologik belgilar va jinsiy siklning tiklanişi davolaş natijalarini baholaşda asosiy mezonlar hisoblanadi.

Uteroton preparatining terapevtik samaradorligini aniqlaş uchun klinik kuzatuvlarni tizimli olib boriş, davolaşdan oldingi va keyingi körsatkichlarni taqqoslaş hamda imkon qadar nazorat guruhi natijalaridan foydalaniş zarur. Olingan dalillar asosida preparatni qöllaşning amaliy samaradorligi haqida ilmiy xulosa chiqariş va sigirlarda bachadon subinvolyutsiyasini davolaşni takomillaştiriş böyicha tavsiyalar işlab chiqiş mumkin.

Profilaktik choralar esa kasallikning oldini olişda asosiy strategik yönaliş hisoblanadi. Vektor haşarotlarga qarşi kuraş, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qiliş, muntazam veterinariya monitoringi va profilaktik dorilaş tizimi kasallik tarqalişini sezilarli darajada kamaytiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI


1. B.M. Eşburiyev, Ş.D. Avezimbetov, A.T. Esimbetov, O.R. Raximov, N. P. Douletbaev, S.F. Erimov "Veterinariya akuşerligi" Darslik. Nukus-2025 y.
2. Гончаров В.П. Ветеринарное акушерство, гинекология и биотехника размножения. – Санкт-Петербург: Лань, 2008. – 576 с.
3. Абдуллаев А.А. Қорамоллар репродуктив патологиялари ва уларни даволаш усуллари. – Тошкент: Фан, 2016. – 256 б.
4. Шипилов В.С., Никитин В.Я. Акушерство и гинекология сельскохозяйственных животных. – Москва: Колос, 2004. – 495 с.
5. Қодиров А.К., Тўйчиев Н.Т. Қишлоқ хўжалик ҳайвонлари акушерлиги ва гинекологияси. – Тошкент: Меҳнат, 2012. – 420 б.
6. Veterinary Reproduction and Obstetrics / G.C.W. Noakes, T.J. Parkinson, G.C. England. – 10th ed. – London: Saunders Elsevier, 2018. – 950 p.

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

UDK: 619:636:616.995.122:5774

# SAMARQAND VILOYATI QORAMOL VA QO‘YLARINING TREMATODAFAUNASI (ADABIYOT MA’LUMOTLARI TAHLILI)

**Eshonqulova.G.S, tayanch doktorant (PhD**

**Daminov.A.S, v.f.d., professor**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnalogiyalar universiteti

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311057

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
286–290

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Eshonqulova G.S., Daminov A.S. Samarqand viloyati qoramol va qo‘ylarining trematodafaunasi (adabiyot ma’lumotlari tahlili) // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 286–290. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311057

ANNOTATSIYA ***tsiya.***: *Ushbu maqolada Samarqand viloyati sharoitida qoramollar va qo‘ylarining trematodafaunasi, uning tur tarkibi, hududiy va mavsumiy tarqalishi hamda ekologik xususiyatlari bo‘yicha keying yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari tahlil qilingan.*

KALIT SO‘ZLAR ***‘zlar****:qo‘ylar, trematodafauna, trematoda, fassiolyoz, dikrotselioz, paramfistomatoz, fasciola hepatica, dicrocoelium dendriticum, paramphistomatidae, mollyuskalar, oraliq xo‘jayin, ekologiya.*

АННОТАЦИЯ ***ция:*** *В данной статье проанализированы результаты научных исследований, проведенных в последние годы по трематодофауне крупного рогатого скота и овец в условиях Самаркандской области, её видовому составу, территориальному и сезонному распространению, а также экологическим особенностям.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА ***лова:*** *крупный рогатый скот, овцы, трематодофауна, трематода, фасциолез, дикроцелиоз, парамфистоматоз, Fasciola hepatica, Dicrocoelium dendriticum, Paramphistomatidae, моллюски, промежуточный хозяин, экология.*

ABSTRACT ***act:*** *This article analyzes the results of scientific research conducted in recent years on the trematode fauna of cattle and sheep in the conditions of the Samarkand region, including its species composition, territorial and seasonal distribution, and ecological characteristics.*

KEYWORDS ***ords:*** *cattle, sheep, trematode fauna, trematode, fascioliasis, dicrocoeliasis, paramphistomiasis, Fasciola hepatica, Dicrocoelium dendriticum, Paramphistomatidae, mollusks, intermediate host, ecology.*

**Kirish**. Trematodalar qishloq xo‘jaligi hayvonlarida parazitlik qiluvchi yassi chuvalchanglar tipining muhim sinflaridan biri hisoblanadi. Qo‘ylarda trematodalar asosan jigar, o‘t yo‘llari va ovqat hazm qilish, qon tomirlarida tizimida parazitlik qilib, hayvonlarning fiziologik holati, oziqlanishi, o‘sish, rivojlanishi va mahsuldorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Trematodalar hayot siklining murakkabligi bilan boshqa ko‘plab gelmintlardan ajralib turadi. Ularning rivojlanishida suv yoki quruqlikda yashovchi mollyuskalar, ayrim turlarda

esa chumolilar kabi oraliq xoʻjayinlar qatnashadi. Shu sababli trematodalar tarqalishini faqat asosiy xoʻjayin — qoʻylarni tekshirish orqali emas, balki parazitlarning ekologik bogʻlanishlarini ham hisobga olgan holda oʻrganish zarur.

Samarqand viloyati geografik jihatdan turli ekologik sharoitlarga ega. Viloyatning sugʻoriladigan tekislik hududlari, daryo vodiylari, togʻoldi va togʻ zonalari trematodalar hamda ularning oraliq xoʻjayinlari uchun turlicha yashash sharoitlarini yaratadi. Shu sababli Samarqand viloyati qoʻylarining trematodafaunasini oʻrganish zoologik-parazitologik nuqtai nazardan muhim ahamiyatga ega.

**Tadqiqotning maqsadi**. Samarqand viloyati hududida qoʻylar trematodafaunasining tur tarkibi va bioekologok xususiyatlari boʻyicha adabiyot ma'lumotlarini tahlil qilish.

**Tadqiqotning vazifalari.** Samarqand viloyatida qoʻylar trematodafaunasi boʻyicha shu vaqtgacha amalga oshirilgan tadqiqotlarni tizimlashtirish, aniqlangan trematodalar guruhlarini, ularning tarqalish hududlari va ekologik xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat.

## OʻZBEKISTONDA QOʻYLAR TREMATODAFAUNASINI OʻRGANISHNING UMUMIY HOLATI

Oʻzbekiston hududida qoʻylar trematodalarining bir qator vakillari uzoq yillardan buyon parazitologik tadqiqotlarning obyekti boʻlib kelgan. Ayniqsa, fassiolyoz, dikrotselioz va paramfistomatoz chorvachilik uchun muhim muhim trematodozlar sifatida oʻrganilgan.Trematodalarning tarqalishida geografik va ekologik omillar katta ahamiyatga ega. Jumladan, suv manbalarining mavjudligi, namlik, harorat, yaylovlarningholati va oraliq xoʻjayinlarning tarqalishi parazitlarning rivojlanish imkoniyatini belgilaydi. Oʻzbekistonda trematodalarning oraliq xoʻjayinlari boʻlgan qorinoyoqli mollyuskalar ham alohida tadqiqot obyekti sifatida oʻrganilgan. Bir qator mualliflar qorinoyoqli mollyuskalarning tur tarkibi va bioekologik xususiyatlarini tahlil qilib, ularning fassiolyoz, dikrotselioz va paramfistomatozning tarqalishidagi ahamiyatini koʻrsatganlar [1].

2024-2025 yillarda Oʻzbekistonning Buxoro, Samarqand va Navoiy viloyatlarida oʻtkazilgan mayda shohli mollarda trematoda endoparazitlarining mavsumiyligi, aralash invaziyalari (miks-invaziyalar) va xavf omillari oʻrganish boʻyicha amalga oshirilgan tadqiqotda Samarqandda viloyatida jami 1943 bosh mollyuska tekshirilib, ulardan 93 boshida *Fasciola* spp. parazitlari bilan zararlanishini aniqlagan. Oʻrtacha mavsumiy ekstensivlik koʻrsatkich (zararlanish darajasi) 4,79 ± 1,03% ni tashkil etdgan. Eng past koʻrsatkichlar aprel va iyul oylari oralig'ida (3,40% va 3,41%) qayd etilgan boʻlsa, eng yuqori koʻrsatkichlar avgust va sentyabr oylariga toʻgʻri keldgan.(7,08% va 6,17%). Samarqand uchta hudud orasida barqaror ravishda eng yuqori zararlanish koʻrsatkichini namoyish etgan hudud sifatida koʻrsatilgan**.** [9].

Demak, Oʻzbekiston sharoitida trematodalar faunasini oʻrganish ikki asosiy yoʻnalishda olib borilgan: birinchisi — asosiy xoʻjayinlarda parazitlarning tarqalishini aniqlash, ikkinchisi — ularning oraliq xoʻjayinlari va ekologik omillarni oʻrganish.

### Samarqand viloyatida qoʻy trematodozlarini oʻrganish boʻyicha amalga oshirilgan ishlar

Samarqand viloyatida qoʻylarning trematodozlari boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar orasida oshqozon-ichak trematodalari alohida oʻrin tutadi. Ilmiy manbalarda Samarqand viloyati sharoitida qoʻy va echkilarning oshqozon-ichak trematodozlari, xususan paramfistomatozlar boʻyicha tadqiqotlar olib borilganligi qayd etilgan. Ushbu ishlarda ayrim

xoʻjaliklarda paramfistomatoz bilan bogʻliq kalikoforoz, liorxoz va gastrotilaksioz oʻchoqlari ham aniqlanganligi koʻrsatilgan. Shu bilan birga, oldingi davrlarda uchragan xasstilezioz va euritrematozlarning tadqiqot olib borilgan xoʻjaliklarda aniqlanmaganligi qayd etilgan [2]. Mazkur maʼlumotlar Samarqand viloyatida qoʻylar trematodafaunasining tarkibi vaqt davomida oʻzgarib turishi mumkinligini koʻrsatadi. Yaʼni ayrim trematodalar ayrim ekologik hududlarda yoʻqolishi yoki juda kam uchrashi, boshqa turlar esa epizootologik jihatdan muhim guruhga aylanishi mumkin.

Samarqand viloyati qoʻylarining trematodafaunasini oʻrganishda eng katta hajmdagi tadqiqotlardan biri 2019–2022-yillarda olib borilgan paramfistomatoz tadqiqotlari hisoblanadi. Tadqiqotlar Samarqand viloyatining Urgut, Toyloq, Jomboy va Bulungʻur tumanlarida olib borilgan. Tadqiqot hududlari ikki asosiy ekologik guruhga — togʻoldi-togʻ va sugʻoriladigan tekislik biotsenozlariga ajratilgan. Tadqiqotlarda jami 682 bosh turli yoshdagi qoʻy gelmintokoprologik usulda tekshirilgan. Bundan tashqari, 256 bosh qoʻy toʻliq gelmintologik yorish usuli bilan tekshirilgan. 682 bosh qoʻyning 202 boshida paramfistomalar aniqlangan boʻlib, invaziya ekstensivligi 29,61% ni tashkil etgan. Hududlar boʻyicha tahlil qilinganda, togʻoldi-togʻ hududlari — Urgut va Toyloqda zararlanish koʻrsatkichi 30,3%, sugʻoriladigan hududlar — Bulungʻur va Jomboyda esa 28,87% atrofida boʻlgan. tadqiqotning muhim jihatlaridan biri paramfistomatozning yosh boʻyicha tarqalishini oʻrganish boʻlgan. 3–4 yoshli va undan katta qoʻylarda zararlanish yuqoriroq boʻlgani qayd etilgan. Bu hayvonlarning yillar davomida bir xil yaylovlardan foydalanishi natijasida qayta zararlanish va superinvaziya ehtimoli bilan izohlangan. Mavsumiy dinamikani tahlil qilish natijasida eng yuqori invaziya ekstensivligi qishda 31,88%, eng past koʻrsatkich esa bahorda 27,42% boʻlgan. [3]. Mualliflar ushbu oʻzgarishlarni harorat, namlik, yogʻingarchilik, qurgʻoqchilik va mollyuskalar biologiyasi bilan bogʻlaganlar. Mazkur tadqiqot Samarqand viloyatida qoʻy trematodalarini oʻrganishda xoʻjayin–parazit–muhit munosabatini hisobga olish zarurligini koʻrsatgan muhim ish hisoblanadi.

Keyingi tadqiqotlarda Samarqand viloyatining boshqa hududlari ham qamrab olingan. 2024-yilda Oqdaryo, Payariq, Ishtixon va Pastdargʻom tumanlarida qoʻylarning paramfistomlar bilan zararlanishi boʻyicha maʼlumotlar eʼlon qilingan. Gelmintologik tekshiruv natijalarida ushbu tumanlarda zararlanish darajasi bir xil emasligi aniqlangan. Payariq tumanida jami tekshirilgan 20 bosh qoʻyning jami 14 boshi kasallikka chalingan boʻlib, invaziya ekstensivligi oʻrtacha 70%ni, Oqdaryo tumanida esa 20 boshdan 11 boshi, Ishtixon tumanida 20 boshdan 13 boshi, Pastdargʻom tumanida esa 20 boshdan 9 boshi paramfistamatoz bilan zararlanganligi aniqlandi. Viloyat boʻyicha invaziya ekstensivligi oʻrtacha 50.9 % tashkil etishi aniqlangan. [4]. Ushbu maʼlumotlar Samarqand viloyatining turli ekologik hududlarida paramfistomatozning tarqalish darajasi sezilarli farq qilishi mumkinligini koʻrsatadi. Shuningdek, hayvonlarning yoshi oshishi bilan zararlanishning ortib borishi kuzatilgan. Bu qayta zararlanish jarayonining davomiyligi va yaylovlardan uzoq muddat foydalanish bilan bogʻliq boʻlishi mumkin [4].

Samarqand viloyati qoʻylarining trematodafaunasi tarkibidagi yana bir muhim guruh — Fasciola vakillaridir. 2026-yilda Samarqand viloyatining Jomboy, Nurobod va Payariq tumanlarida aholi xonadonlaridagi qoʻylar oʻrtasida fassiolyoz (qoʻzgʻatuvchisi F. hepatica) ning tarqalishi boʻyicha oʻtkazilgan tadqiqotlar natijalariga koʻra Jomboy tumanida jami 30

 https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311057 

bosh qoʻydan 10 boshi, Nurobod tumanida 20 bosh qoʻydan 6 boshi. Payariq tumanida jamin 30 bosh qoʻydan 5 boshi Fasciola hepatica bilan zararlanganligi aniqlangan.[5].

Dikrotselioz qoʻylarning jigar va oʻt yoʻllarida parazitlik qiluvchi trematodalar bilan bogʻliq invazion kasalliklardan biridir. 2026-yilda qoʻylar dikrotseliozining tarqalishi va oldini olish choralariga bagʻishlangan maqolada 2000-2003 – yillarda Samarqand viloyatining Oqdaryo tumaniga qarashli Dahbet qishlogʻiga yaqin joyda qoradaryoning oʻng sohilida dikrotseliozning kuchli rivojlangan oʻchoqlari aniqlanganligi, ushbu hududda qoʻzilarni 100 foiz dikrotseliozga chalinganligi, har bir qoʻzining jigarida 724 nusxadan 16814 nusxagacha dikrotseliozlar uchrashi, ular tezak namunalarini aprel oyidan boshlab parazitning tuxumlari paydo boʻlishi aniqlanganligi yozilgan. [6]. 2005-2009-yillardagi ayrim ma'lumotlarda respublika miqyosida qoʻylar dikrotseliozi 1,4 foizni,Samarqand viloyati boʻyicha 3,3 foizni tashkil etishi koʻrsatilgan. [10].

Bundan oldin, 2022-yilda Samarqand viloyatida qoramollarning jigar trematodozlari boʻyicha olib borilgan tadqiqotlarda Dicrocoelium lanceatum, Fasciola hepatica va Fasciola gigantica ning morfologiyasi, biologiyasi, epizootologiyasi hamda mavsumiy dinamikasi oʻrganilgan [7,8]. Mazkur qoramol tadqiqotlari bevosita qoʻylarga bagʻishlanmagan boʻlsa-da, Samarqand viloyatida trematodalar uchun ekologik muhit va oraliq xoʻjayinlar mavjudligini baholash nuqtai nazaridan muhim ma'lumot manbai hisoblanadi. Ayniqsa, Zarafshon daryosi oʻrta oqimi boʻylab joylashgan hududlarda Dicrocoelium va Fasciola bilan bogʻliq aralash jigar trematodozlari uchrashi qayd etilgan [7].

2024-2025 yillarda mualliflar tomonidan Oʻzbekistonning Buxoro, Samarqand va Navoiy viloyatlarida oʻtkazilgan mayda shohli mollarda trematoda endoparazitlarining mavsumiyligi, aralash invaziyalari (miks-invaziyalar) va xavf omillari oʻrganish boʻyicha amalga oshirilgan tadqiqotda Samarqandda viloyatida jami 176 bosh mayda shohli mol tekshirilgan. Ulardan 82 boshida (46,6%) mono-invaziya, 94 boshida (53,4%) esa miks-invaziya (aralash parazitlar) aniqlangan. Viloyatda parazitlarning tarqalish dinamikasi quyidagicha shakllangan: Faqat bitta turdagi trematoda bilan zararlangan hayvonlar orasida barqaror ravishda Fasciola hepatica (oddiy jigar qurti) mutloq ustunlik qilgan va mono-invaziyalarning 62,2% ini (51/82) tashkil etgan. Qolgan parazit turlarining uchrash darajasi quyidagi tartibda qayd etildi. *Gastrothylax crumenifer* (katta qorin trematodasi) — 15,9% (13/82); *Calicophoron calicophorum* — 12,2% (10/82); *Liorchis scotiae* — 6,1% (5/82); *Fasciola gigantica* (bahoriy/ulkan jigar qurti) — eng past koʻrsatkich, ya'ni 3,7% (3/82).

Samarqand viloyatida ikki va undan ortiq trematodalarning birgalikda uchrash koʻrsatkichi juda yuqori boʻlib, miks-invaziyalar ichida eng koʻp tarqalgan kombinatsiya uchta parazitdan iborat boʻlgan C. calicophorum + G. crumenifer + L. scotiae majmuasidir — 25,5% (24/94). Boshqa aralash parazitlar kombinatsiyasi quyidagicha taqsimlandi: *F. hepatica* + *F. gigantica* (ikki turdagi fassiola birgalikda) — 24,5% (23/94); *C. calicophorum* + *G. crumenifer* — 23,4% (22/94); *C. calicophorum* + *L. scotiae* — 14,9% (14/94); *F. hepatica* + *F. gigantica* + *C. calicophorum* (uchta parazit birgalikda) — 11,7% (11/94) [9].

## XULOSA

Samarqand viloyati qoʻylarining trematodafaunasi boʻyicha olib borilgan ilmiy ishlarning tahlili shuni koʻrsatadiki, hududda fassiolyoz, dikrotselioz va paramfistomatoz (kalikoforoz, gastrotilaksioz va liorxoz koʻrinishida) eng asosiy parazitar kasalliklar

hisoblanadi. Parazitlarning tarqalishi viloyatning geografik-ekologik relyefiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lib, sug‘oriladigan tekislik va drenaj kanallari atrofida invaziya ko‘rsatkichlari ancha yuqoridir. Kasallikka qarshi kurash strategiyalarini belgilashda parazitlarning mavsumiy faollik cho‘qqisi (ayniqsa, avgust-sentyabr oylari) hamda oraliq xo‘jayinlar (chuchuk suv va quruqlik mollyuskalari) dinamikasini hisobga olish zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. Axmedov S.M. Samarqand viloyati sharoitida qo‘ylar paramfistomatozining epizootologiyasi. *Veterinariya meditsinasi*. 2025. №11. 14-16 b.
2. Daminov A.S., Kulmirzayeva M.I., Mustafoyeva T.P. Samarqand viloyatining ayrim tumanlarida qo‘ylar orasida fassiolyozning tarqalishi. *International Journal of Agrobiotechnology and Veterinary Medicine*. 2026. №5. 13-18 b.
3. Daminov A.S., Urokov K.X., Egamberganov B.Z., Mavlonova S.F. Qo‘ylar dikrotseliozining tarqalishi va oldini olish choralari. *International Journal of Agrobiotechnology and Veterinary Medicine*. 2026. №5. 19-23 b.
4. Daminov A.S., Urokov K.X., Nurullayev A.A., Toshquziyev B. Trematodalarning oraliq xo‘jayini – qorinoyoqli mollyuskalarning ekologiyasi. *Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali*. 2022.
5. Daminov A.S., Urokov K.X., Taylakov M.Sh. Qo‘ylar paramfistamatozining tarqalishi va unga qarshi antgelmintiklarning sinov natijalari. *Veterinariya meditsinasi*. 2025. №5. 5-6 b.
6. Erimov S.F. Mayda shoxli hayvonlar oshqozon-ichak trematodozlarining tarqalishini o‘rganish va oldini olish: magistrlik dissertatsiyasi. — Samarqand: Samarqand qishloq xo‘jalik instituti, 2017.
7. Normamatov R.Q., Hamzayev K.B., Sayfullayeva M.I., Komilov X.R. Qoramollar dikrotseliozi va ularning epizootologik holatini o‘rganish. *Eurasian Journal of Academic Research*. 2022. 2(11). B. 847–851. DOI: 10.5281/zenodo.7233002.
8. Normamatov R.Q., Safarov M.B., Hamzayev K.B., Babashev A.I. Qoramollarning jigar trematodozlari va ularning epizootologik holatini o‘rganish. *Eurasian Journal of Academic Research*. 2022. 2(11). B. 852–857. DOI: 10.5281/zenodo.7233004.
9. Oripov A.O., Davlatov R.B., Yuldashov N.E. Veterinariya gelmintologiyasi. — Toshkent, 2016.
10. Shakarbaev U.S., Akramova F.D., & Akhmedov S.M. Seasonality, mixed invasions, and risk factors of trematode endoparasites in small ruminants. *Biosystems Diversity*. 2026. 34(4), e2619.

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

# PARRANDAÇILIK XÖJALIKLARIDA MIKOPLAZMOZ PROFILAKTIKASIDA SANITARIYA-GIGIYENA TADBIRLARINING AHAMIYATI

**UÖK: 636.5.09:614.4**
**Kalbaeva D.P**
**SDVMÇBU Nukus filiali magistranti**
**Murodov X.U.,v.f.f.d.,**
**Katta ilmiy xodim**
**VITI Qaşqadaryo ilmiy tajriba stansiyasi**

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311058
NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus
SAHIFALAR
291–295
NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Kalbaeva D.P., Murodov X.U. Parrandaçilik xöjaliklarida mikoplazmoz profilaktikasida sanitariya-gigiyena tadbirlarining ahamiyati // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 291–295. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311058

ANNOTATSIYA Uşbu maqolada parrandaçilik xöjaliklarida mikoplazmoz kasalligining profilaktikasida sanitariya-gigiyena tadbirlarining ahamiyati ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi. Parrandalarda mikoplazmoz qözğatuvçilarining tarqaliş xususiyatlari, infeksiyaning yuqiş yöllari va kasallikning veterinariya-sanitariya jihatidan ahamiyati yoritiladi. Şuningdek, parrandaxonalarni tozalaş va dezinfeksiya qiliş, mikroiqlimni me'yorida saqlaş, maxsus kiyim va poyabzallardan foydalaniş, transport vositalari hamda xöjalikka kiriş-çiqişni nazorat qiliş kabi profilaktik tadbirlar körib çiqiladi. Ilmiy manbalardagi ma'lumotlarni umumlaştiriş asosida sanitariya-gigiyena tadbirlarini bioxavfsizlik çoralari va veterinariya nazorati bilan uyğunlaştirişning ahamiyati asoslanadi. Maqolada parrandaçilik xöjaliklarida mikoplazmoz tarqaliş xavfini kamaytirişga qaratilgan profilaktik tadbirlarni takomillaştiriş böyiça tavsiyalar bayon etiladi.

KALIT SÖZLAR parrandaçilik, parrandalar, mikoplazmoz, Mycoplasma gallisepticum, Mycoplasma synoviae, sanitariya-gigiyena, dezinfeksiya, bioxavfsizlik, profilaktika.

## KIRIŞ

Parrandaçilik çorvaçilikning muhim tarmoqlaridan biri bölib, aholini sifatli göşt va tuxum mahsulotlari bilan ta'minlaşda katta ahamiyatga ega. Uşbu tarmoqda mahsuldorlikni saqlaş va iqtisodiy samaradorlikni oşiriş parrandalar salomatligini muhofaza qiliş, yuqumli kasalliklarning oldini oliş hamda veterinariya-sanitariya talablariga rioya etiş bilan çambarças boğliq. Parrandalarda uçraydigan yuqumli kasalliklar orasida mikoplazmoz alohida örin tutadi.

Mikoplazmozning muhim qözğatuvçilari Mycoplasma gallisepticum (MG) va Mycoplasma synoviae (MS) hisoblanadi. M. gallisepticum köpinça surunkali respirator kasalliklarni keltirib çiqaradi; M. synoviae esa nafas oliş tizimi bilan bir qatorda ayrim holatlarda böğimlar zararlanişi bilan ham namoyon bölişi mumkin [1, 4]. Kasallikning klinik

belgilari aksiriş, yötal, burundan ajralma kelişi, köz şilliq qavatining yalliğlanişi, nafas olişning qiyinlaşişi va mahsuldorlikning pasayişini öz içiga olişi mumkin.

Mikoplazmalar zararlangan parrandalar bilan bevosita aloqa, nafas yöllari ajralmalari va ayrim hollarda infeksiyalangan tuxum orqali avlodga ötişi mumkin. Infeksiya surunkali keçişi yoki klinik belgilari sust bölişi sababli xöjalikka sezilmasdan kirib kelişi ehtimoli mavjud. Şu bois faqat kasallik belgilari paydo bölgandan keyin davolaşga tayaniş yetarli emas; infeksiyani xöjalikka kiritmaslik va tarqaliş zanjirini uziş asosiy vazifalardan biridir [1–3].

Maqolaning maqsadi — parrandaçilik xöjaliklarida mikoplazmoz profilaktikasida sanitariya-gigiyena tadbirlarining örnini ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qiliş hamda amaliy profilaktika böyiça tavsiyalar işlab çiqiş.

## 2. MATERIALLAR VA METODLAR

Maqola ilmiy adabiyotlarni tahlil qiliş usuliga asoslandi. Ma’lumotlarni tanlaşda mikoplazmozning etiologiyasi, yuqiş yöllari, epidemiologik xususiyatlari, profilaktikasi va parrandaçilikdagi bioxavfsizlik masalalariga bağişlangan ilmiy maqolalar hamda xalqaro veterinariya me’yoriy manbalari körib çiqildi.

Asosiy manbalar sifatida Jahon hayvonlar salomatligi taşkilotining (WOAH) avian mikoplazmoz böyiça ma’lumotlari, S. H. Klevenning parrandalarda mikoplazma infeksiyalarini nazorat qilişga bağişlangan şarhi, G. T. Pharr va S. M. D. Bearsonning M. gallisepticum nazorat usullari haqidagi maqolasi hamda mikoplazmoz böyiça veterinariya qöllanmalari örganildi [1–5].

Ma’lumotlarni tahlil qilişda tavsifiy, qiyosiy tahlil va umumlaştiriş usullari qöllanildi. Işda xöjalikda yangi tajriba ötkazilmagan va muallif tomonidan birlamçi laboratoriya natijalari olinmagan; xulosalar e’lon qilingan ilmiy manbalar tahliliga asoslangan.

## 3. NATIJALAR VA MUHOKAMA

### 3.1. MIKOPLAZMOZNING TARQALIŞ XUSUSIYATLARI VA SANITARIYA AHAMIYATI

Mikoplazmoz parrandaçilik xöjaliklarida işlab çiqariş körsatkiçlariga salbiy ta’sir körsatişi mumkin. Kasallik tuxum berişning kamayişi, ösiş sur’atining sekinlaşişi, yemdan foydalaniş samaradorligining pasayişi, davolaş xarajatlarining ortişi va ikkilamçi infeksiyalar bilan asoratlaniş xavfini oşiradi [1, 3, 5]. Kasallikning oğirligi parrandaning yoşi, saqlaş şaroiti, stress omillari va boşqa qözğatuvçilar mavjudligiga boğliq.

Xöjalikda parrandalar ziç joylaştirilişi, ventilyatsiyaning yetarli bölmasligi, çang va zararli gazlarning töplanişi, nam töşama hamda sanitariya tartibining buzilişi nafas yöllarini zaiflaştirişi va infeksiya oqibatlarini oğirlaştirişi mumkin. Şuning uçun sanitariya-gigiyena talablari kasallikning bevosita qözğatuvçisini yöqotiş bilangina çeklanmay, parrandalarning umumiy çidamliligini saqlaşga ham qaratilişi kerak.

### 3.2. PARRANDAXONALARNI TOZALAŞ VA DEZINFEKSIYA QILIŞ

Parrandaxonalarni muntazam tozalaş bioxavfsizlikning muhim tarkibiy qismidir. Parrandalar çiqarilgandan söng göng, töşama, yem qoldiqlari va boşqa organik iflosliklar olib taşlanadi; keyin yuzalar yuvilib, zarur hollarda quritiladi va tegişli dezinfeksiya vositasi bilan

işlov beriladi. Organik moddalar ayrim dezinfektantlarning ta'sirini kamaytirişi mumkinligi sababli, dezinfeksiya oldidan mexanik tozalaş bajarilişi lozim.

Dezinfeksiya vositasi xöjalik şaroiti, işlov beriladigan sirt va maqsadli mikroorganizmlarga mos tanlanişi, işlab çiqaruvçi körsatgan konsentratsiya va ta'sir qiliş vaqtiga rioya etilişi kerak. Turli kimyoviy vositalarni özboşimçalik bilan aralaştiriş mumkin emas. Tozalaş va dezinfeksiya işlari qayd etilib, yangi parranda joylaştirişdan oldin bino tayyorligi tekşiriladi.

Imkon bölgan xöjaliklarda "hammasi kirdi — hammasi çiqdi" (all-in/all-out) tamoyilini qöllaş, turli yoşdagi guruhlarni aralaştirmaslik va parrandalar partiyalari orasida binoni töliq tozalaş infeksiya aylanişini kamaytirişga yordam beradi [2].

### 3.3. MIKROKLIMAT VA PARVARIŞ ŞAROITLARINI ME'YORIDA SAQLAŞ

Parrandaxonadagi harorat, nisbiy namlik, havo almaşinuvi va ziçlik zoogigiyena me'yorlariga muvofiq boşqarilişi zarur. Ventilyatsiya yetarli bölmasa, ammiak, çang va namlik köpayib, nafas yöllarining himoya mexanizmlariga salbiy ta'sir qilişi mumkin. Haddan taşqari ziç joylaştiriş esa parrandalar örtasidagi yaqin kontaktni kuçaytiradi.

Töşama quruq va toza saqlanişi, suv beriş tizimlarida oqiş bölmasligi, yem va suv idişlari muntazam yuvilişi lozim. Oziqlantiriş va suğorişning barqaror taşkil etilişi, stress omillarini kamaytiriş hamda kasal parrandalarni erta aniqlaş umumiy profilaktika samaradorligini oşiradi. Mikoplazmoz belgilari boşqa respirator kasalliklar bilan öxşaş bölişi mumkinligi sababli taşxis veterinariya mutaxassisi va laboratoriya tekşiruvlari asosida aniqlaştiriladi [1, 5].

### 3.4. XÖJALIKKA KIRIŞ-ÇIQIŞ VA TRANSPORT VOSITALARINI NAZORAT QILIŞ

Mikoplazmozning xöjalikka kirib keliş xavfini kamaytiriş uçun taşrif buyuruvçilar, xodimlar, yem yetkazib beruvçilar va transport vositalarining harakati nazorat qilinişi kerak. Xöjalik hududiga kirişda maxsus kiyim va poyabzaldan foydalaniş, zarur hollarda qöl va poyabzalni tozalaş, taşqi kiyimlarni işlab çiqariş hududiga olib kirmaslik tavsiya etiladi.

Transport vositalari, qafaslar, inkubatsiya jihozlari va parranda taşiş uskunalari har foydalanişdan söng tozalanib, tegişli tartibda dezinfeksiya qilinişi lozim. Toza va iflos zonalarni ajratiş, kiriş-çiqiş yönalişlarini belgilaş, taşriflar jurnalini yuritiş va begona şaxslarning harakatini çeklaş bioxavfsizlikni kuçaytiradi.

Xöjalikka yangi parranda faqat işonçli, veterinariya hujjatlari mavjud va mikoplazmozdan xoli ekani nazorat qilingan manbalardan keltirilişi kerak. Yangi keltirilgan parrandalarni asosiy guruhga qöşişdan oldin karantinda saqlaş va veterinariya körigidan ötkaziş infeksiya kirib kelişi xavfini kamaytiradi. WOAH tavsiyalarida ham parrandalarning infeksiyadan xoli xöjaliklardan olinişi va diagnostik nazorat muhimligi körsatiladi [1, 2].

### 3.5. VETERINARIYA NAZORATI VA LABORATORIYA MONITORING

Sanitariya-gigiyena tadbirlari muntazam veterinariya nazorati bilan birgalikda olib borilgandagina samarali böladi. Parrandalarning klinik holati, tuxum mahsuldorligi, ösiş körsatkiçlari va ölim holatlari kundalik qayd etilişi lozim. Aksiriş, yötal, burun ajralmalari, köz yalliğlanişi yoki böğimlarda özgarişlar kuzatilsa, veterinariya mutaxassisiga xabar beriş va tekşiruv taşkil etiş kerak.

Mikoplazmoz taşxisini tasdiqlaşda polimeraza zanjir reaksiyasi (PCR), serologik tekşiruvlar va zarur hollarda qözğatuvçini ajratib oliş usullari qöllanadi. Tekşiruv turi xöjalikning epidemiologik vaziyati va diagnostik maqsadga qarab tanlanadi [1, 4]. Monitoring natijalari asosida profilaktika rejasi yangilanib, takroriy xavf omillari bartaraf etiladi.

Antimikrob preparatlarni qöllaş infeksiyani butunlay yöqotmasligi mumkin; şu sababli ular sanitariya-gigiyena va bioxavfsizlik çoralarining örnini bosa olmaydi. Dori vositalari faqat veterinariya mutaxassisi körsatmasi va amaldagi talablar asosida işlatilişi lozim [2, 5]. Vaktsinatsiya masalasi esa xöjalikdagi epidemiologik vaziyat, parrandaning turi va mahalliy veterinariya talablari asosida körib çiqiladi.

### 3.6. PROFILAKTIK TADBIRLARNI TAKOMILLAŞTIRIŞ BÖYIÇA TAVSIYALAR

• Parrandaxonalarni har bir işlab çiqariş sikli oraliğida mexanik tozalaş, yuviş, quritiş va belgilangan tartibda dezinfeksiya qiliş.

• Toza va iflos zonalarni ajratiş, maxsus kiyim-poyabzal tizimini joriy etiş hamda taşrif buyuruvçilar harakatini çeklaş.

• Yangi parrandalarni işonçli manbalardan oliş, karantinda saqlaş va veterinariya-laboratoriya tekşiruvlaridan ötkaziş.

• Ventilyatsiya, harorat, namlik, parranda ziçligi va töşama holatini muntazam nazorat qiliş.

• Transport vositalari, qafaslar va umumiy jihozlarni har foydalanişdan keyin tozalaş va dezinfeksiya qiliş.

• Klinik kuzatuv va laboratoriya monitoringini reja asosida taşkil etiş, natijalarni yozma qayd qiliş.

• Xodimlarni bioxavfsizlik qoidalari böyiça muntazam öqitiş va dezinfeksiya işlarini mas'ul şaxs orqali nazorat qiliş.

## 4. XULOSA

Ilmiy adabiyotlar tahlili şuni körsatadiki, parrandaçilik xöjaliklarida mikoplazmoz profilaktikasi kompleks yondaşuvni talab qiladi. Parrandaxonalarni muntazam tozalaş va dezinfeksiya qiliş, mikroiqlimni me'yorida saqlaş, parranda ziçligini boşqariş, maxsus kiyim-poyabzaldan foydalaniş, transport vositalari va xöjalikka kiriş-çiqişni nazorat qiliş infeksiya kirib kelişi hamda tarqalişi xavfini kamaytirişga xizmat qiladi.

Biroq sanitariya-gigiyena tadbirlari alohida holda yetarli bölmay, soğlom manbalardan parranda oliş, karantin, veterinariya nazorati va muntazam laboratoriya monitoringi bilan birgalikda olib borilişi zarur. Mikoplazmozga qarşi samarali profilaktika tizimi xöjalikda kasallik xavfini kamaytiriş, mahsuldorlikni saqlaş va iqtisodiy yöqotişlarning oldini olişga yordam beradi. Mazkur maqola adabiyotlar tahliliga asoslangan bölib, undagi xulosalar xöjalikda ötkazilgan yangi tajriba natijalari sifatida talqin qilinmasligi kerak.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Organisation for Animal Health (WOAH). Avian mycoplasmosis (Mycoplasma gallisepticum). Available at: https://www.woah.org/en/disease/avian-mycoplasmosis-mycoplasma-gallisepticum/
2. Kleven, S. H. (2008). Control of avian mycoplasma infections in commercial poultry. Avian Diseases, 52(3), 367–374. https://doi.org/10.1637/8323-041808-Review.1

3. Pharr, G. T., & Bearson, S. M. D. (2005). Mycoplasma gallisepticum: Current and developing means to control the avian pathogen. Journal of Applied Poultry Research, 14(4), 757–763. https://doi.org/10.1093/japr/14.4.757
4. Levisohn, S., & Kleven, S. H. (2000). Avian mycoplasmosis (Mycoplasma gallisepticum). Revue Scientifique et Technique, 19(2), 425–442.
5. Merck Veterinary Manual. Mycoplasma gallisepticum Infection in Poultry. Last full review September 2025. Available at: https://www.merckvetmanual.com/poultry/mycoplasmosis/mycoplasma-gallisepticum-infection-in-poultry

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

# QORAÖZAK TUMANI ŞAROITIDA TUYALARNING (CAMELUS LINNAEUS, 1758) IXODIDAE OILASI KANALARI BILAN ZARARLANIŞI VA ULARNING EKOLOGO-FAUNISTIK TAHLILI

**Kunisov B.M[1], Duysenbayev X.Z[2]**

1.Samarqand davlat veterinariya medicinasi, çorvaçilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, bkunisov83@gmail.com

2.Samarqand davlat veterinariya medicinasi, çorvaçilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali; xosheterduysenbaev937@gmail.com

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311059

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
296–298

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Kunisov B.M., Duysenbayev X.Z. Qoraözak tumani şaroitida tuyalarning (Camelus Linnaeus, 1758) Ixodidae oilasi kanalari bilan zararlanişi va ularning ekologo-faunistik tahlili // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 296–298. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311059

KALIT SÖZLAR Qoraqalpoğiston, Qoraözak tumani, tuya (Camelus), Ixodidae, Hyalomma, ektoparazit, fauna, zararlaniş dinamikasi, ekstensivlik, intensivlik, parazitar tizim.

**Kiriş.** Qoraqalpoğiston Respublikasining çöl va yarim çöl zonalarida, xususan Qoraözak tumani şaroitida tuyaçilik qişloq xöjaligining va aholi farovonligini ta'minlaşning muhim va istiqbolli tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Biroq tuyalar mahsuldorligi va soğliğiga salbiy ta'sir körsatuvçi va çorvaçilik xöjaliklariga katta iqtisodiy zarar yetkazuvçi asosiy omillardan biri bu ektoparazitlar, xususan, Ixodidae oilasiga mansub iksoid kanalaridir. Iksoid kanalar hayvonlar organizmidan qon sörib, oziqa moddalari yetişmovçiligi, anemiya va kaxeksiyani keltirib çiqariş orqali bevosita mahsuldorlikni kamaytirişi bilan birga, xavfli transmissiv, zoonoz va parazitar kasalliklar (teylerioz, anaplazmoz, Qrim-Kongo gemorragik isitmasi va b.) qözğatuvçilarining asosiy tabiiy manbalari va taşuvçilari (vektorlari) hisoblanadi. Respublika hududlarida iksoid kanalar faunasi va ularning parazit-xöjayin munosabatlari örganilgan bölsa-da, Qoraözak tumanining özига xos arid mikroiqlimi, şörlangan tuproq-ösimlik qoplami va landşaft şaroitida tuyalarning iksoid kanalar bilan zararlaniş xususiyatlarini, tur tarkibini hamda mavsumiy dinamikasini tizimli ekologo-faunistik tahlil qiliş öta dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqotning maqsadi**. Qoraözak tumanining arid-çöl şaroitida tuyalarda (Camelus) uçraydigan Ixodidae oilasi kanalarning tur tarkibi, ekstensivligi va intensivligi hamda ularning mavsumiy dinamikasi, tana a'zolari böylab lokalizatsiyalanişining nazariy-ekologik hamda epizootologik asoslarini belgilab olişdan iborat.

**Material va usullar.** Tadqiqot işlari Qoraözak tumanining arid-çöl ekotizimlari, fermer va dehqon xöjaliklarida saqlanayotgan tuyalarda olib borilişi rejalaştirildi. Iksoid kanalarni yiğiş, hisobga oliş va fiksatsiya qiliş akarologiyada keng qöllaniladigan standartizatsiya

qilingan metodikalar (A.N. Skryabin, Ye.N. Pavlovskiy, G.V. Serdyukova) böyiça amalga oşiriladi.

Kanalar tuyalar tanasining turli anatomik sohalaridan (son oraliği, yelin va olat atrofi, dum osti, kökrak-qorni sohasi va quloq çiğanoqlari) pinset yordamida zararlantirilmasdan yiğib olindi va 70% li etil spirti solingan probirkalarda fiksatsiya qilingan. Kanalarning morfologik xususiyatlari, anal egati, peritoneal plastinkasi, gipostom va sputalar tuzilişini aniqlaşda MBI-6, MBS-10 va stereomikroskoplar hamda zamonaviy akarologik va mikroskopik tasniflagiçlardan foydalaniladi.

**Natijalar va ularning muhokamasi**. Mintaqada olib borilgan tadqiqotlar va ilmiy manbalarning (B.M. Kunisov, 2025; J.R. Esonboyev, 2026; F.Dj. Akramova, 2024) tahlili şuni körsatadiki, Orolböyi va unga yondoş çöl landşaftlarida tuyalar iksoid kanalar bilan yuqori darajada (IE = 75,0–87,3%) zararlanadi.

Qoraqalpoğiston faunasida qayd etilgan Ixodidae oilasi turlari orasida tuyalar organizmi bilan eng kuçli trofik va spetsifik parazitar boğliqlikka ega bölgan avlod bu Hyalomma Koç, 1844 avlodi hisoblanadi.

Adabiyotlar, avtoreferat ma'lumotlari (Kunisov, 2025) va analog arid hududlar böyiça töplangan akarologik ma'lumotlarga asosan, Qoraözak tumani çöl va yarim çöl zonasida tuyalarda asosan quyidagi turlarning faolligi va parazittlik qilişi tasdiqlanadi:

**Hyalomma dromedarii (Koç, 1844)** — tuyalarning mono- va bi-dominant spetsifik paraziti bölib, şörlangan çöl va quruq landşaftlarda yuqori çidamlilik körsatadi. Çöl şaroitida tuyalarning 60–75% giça zararlanişiga sabab böladi.

Hyalomma scupense (Delpy, 1946) — tuyalar va yirik şoxli mollar bilan öta yuqori trofik va spetsifik boğliqlikka ega bölib, qiş va bahor oraliğida (faol qişlaş davrida) asosiy parazitizmni amalga oşiruvçi tur hisoblanadi.

**Hyalomma asiaticum (Sçulze et Sçlottke, 1929) va Hyalomma anatolicum (Koç,** 1844) — çöl va yarim çöl landşaftlarida keng tarqalgan bölib, asosan bahor-yoz va kuz mavsumlarida yuqori faollik va invaziya intensivligini körsatadi.

Rhipicephalus avlodi turlari (Rh. turanicus, Rh. sanguineus) — tuyalarda nisbatan kamroq darajada (subdominant yoki ikkilamçi), asosan bahorgi mavsumda ektoparazit sifatida qayd etiladi.

Dermacentor niveus (Neumann, 1897) — tuyalarda siradiga uçrab, odatda bahorgi salqin oylarda parazilik qiladi. Sohadagi sönggi tadqiqotlarda (Kunisov va b., 2025) uşbu turning anomal morfologik şakllari (ektromeliya — oyoqlarning töliq rivojlanmasligi) ilk bor aynan Qoraqalpoğiston tuyalarida qayd etilgan. Ekologik, harorat va namlik (fenologik) omillari tahlili şuni körsatadiki, Qoraözak tumani şaroitida kanalarning mavsumiy faolligi va dinamikasi aniq dinamik xususiyatga ega:

**Bahorgi faollik pigi** (mart —may): Havo haroratining +12°C dan +25°C gaça kötarilişi va bahorgi namlikning maqbul kelişi hisobiga kanalarning diapauzadan çiqişi va oziqlanişining eng yuqori çöqqisi kuzatiladi. Invaziya ekstensivligi 60–85% gaça, intensivligi esa bir boş tuyada 45–90 tagaça yetdi. **Yozgi depressiya davri** (iyun — avgust): Arid zonaga xas bölgan haddan taşqari yuqori harorat (+40°C va undan yuqori) va havoning öta quruqligi tufayli kanalarning faolligi va invaziya körsatkiçlari ma'lum darajada pasayadi. Kanalar tuproq yoriqlarida va ösimlik ildizlarida tungi faollikka ötadi.

**Kuzgi faollik tölqini** (sentabr — noyabr): Haroratning pasayişi (+15°C...+22°C) bilan ikkinçi faollik tölqini (vtorik faollik) kuzatiladi. Bu davrda asosan immago va liçinkalik bosqiçlarining qişlaş oldi oziqlanişi amalga oşadi.

**Qişki parazitizm** (dekabr — fevral): Hyalomma scupense va H. dromedarii turlari tuyalar tanasida makroiqlimdan himoyalangan sohalarda qişki salqin oylarda ham parazitizmni saqlab qoladi.

**Xulosa va amaliy tavsiyalar.** Qoraözak tumanining arid ekotizimlarida tuyalarning iksoid kanalar bilan zararlanişida Hyalomma avlodiga mansub turlar (H. dromedarii, H. scupense, H. asiaticum, H. anatolicum) mono- va bi-dominant rol öynaydi va zararlaniş körsatkiçi bahor-kuz oylarida yuqori darajaga etadi. Kanalarning mavsumiy faolligi 2 ta asosiy pikka (bahorgi maksimal va kuzgi ikkinçi tölqin) ega bölib, arid iqlim omillari bilan bevosita boşqariladi. Olingan nazariy va ekologo-faunistik ma'lumotlar kelgusida tuyaçilik xöjaliklarida iksoid kanalarga qarşi samarali profilaktik va epizootologik çora-tadbirlarni (bahorgi va kuzgi akaritsid işlov beriş, sintetik piretroidlar va ivermektin hosilalarini qöllaş hamda akarologik monitoring) töğri va vaqtida rejalaştiriş uçun ilmiy asos bölib xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. 1.Kunisov B.M. Qoraqalpoğiston tuyalari (Camelus Linnaeus, 1758) parazitofaunasi. Avtoreferat PhD. – Nukus, 2025.
2. 2.Esonboyev J.R. Jizzax viloyati Ixodidae kanalari (Acari: Parasitiformes) parazit-xöjayin aloqalari va ularning amaliy ahamiyati: Avtoref. – Toşkent, 2026.
3. 3.Akramova F.Dj. va boşq. Özbekiston va yondoş hududlar iksoid kanalari (Acari: Ixodidae) faunasi va eko-biologiyasi böyiça tadqiqotlar. – Toşkent, 2024.
4. 4.Guglielmone A.A. et al. The Hard Ticks of the World (Acari: Ixodida: Ixodidae). – Springer, 2023.



https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311059

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

UDK: 619:636.2:616.756.22-007.43

# BUZOQLAR ORASIDA KINDIK DABBASINI XIRURGIK DAVOLASH USULLARINI QIYOSIY BOHALASH

**Tayanch doktorant: Bekmuratov K.R.**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

**Ilimiy rahbar, v.f.n.,professor: Narziyev B.D.**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311060

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
299–303

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Bekmuratov K.R., Narziyev B.D. Buzoqlar orasida kindik dabbasini xirurgik davolash usullarini qiyosiy bohalash // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 299–303. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311060

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada buzoqlarda kindik dabbasini xirurgik davolashning an’anaviy va alloplastik usullarini qiyosiy baholash natijalari yoritilgan. Tadqiqotlar kindik dabbasi tashxisi qo‘yilgan jami 10 bosh buzoqda olib borilib, hayvonlar davolash usuliga ko‘ra ikki guruhga ajratildi. Birinchi guruhdagi 5 bosh buzoqda an’anaviy xirurgik usul, ikkinchi guruhdagi 5 bosh buzoqda esa polipropilen to‘rli endoprotezlardan foydalangan holda alloplastik hernioplastika amalga oshirildi. Operatsiyadan keyingi davrda jarohatlarning bitish muddati, mahalliy klinik o‘zgarishlar, asoratlar va kindik dabbasining qaytalanish holatlari baholandi. Olingan natijalar an’anaviy xirurgik usulda operatsion jarohatlarning bitishi alloplastik usulga nisbatan qisqaroq muddatda kechganligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, alloplastik hernioplastika kindik sohasidagi anatomik nuqsonni polipropilen endoprotez yordamida mustahkamlash imkonini beruvchi muqobil xirurgik usul sifatida baholandi.

KALIT SO‘ZLAR kindik dabbasi, buzoq, operatsiya, dabba xaltasi, alloplastika, polipropilen to‘rli endoprotez, an’anaviy herniorrafiya, anatomik.

**Kirish.** Chorvachilikda yosh hayvonlarning sog‘lom o‘sishi va rivojlanishini ta’minlash, ularning mahsuldorlik salohiyatini saqlash hamda turli xirurgik kasalliklarning oldini olish veterinariya tibbiyotining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, buzoqlarda uchraydigan qorin devori patologiyalari orasida kindik dabbasi muhim o‘rin egallaydi. Mazkur kasallik kindik halqasining to‘liq yopilmasligi yoki qorin devoridagi mushak-aponevrotik tuzilmalarning anatomik zaifligi natijasida rivojlanib, qorin bo‘shlig‘i a’zolarining dabba darvozasi orqali tashqariga bo‘rtib chiqishi bilan tavsiflanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PQ-34-son «Chorvachilik va parrandachilikni qo‘llab-quvvatlash, sohada yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish, tarmoqning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash va veterinariya sohasini takomillashtirish bo‘yicha vazifalar belgilangan. Xususan, qarorning 12-bandida 2025–2027-yillarda veterinariya sohasini takomillashtirish

hamda chorvachilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish boʻyicha «Yoʻl xaritasi» tasdiqlangan. [1] Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishida yosh qoramollarda uchraydigan xirurgik kasalliklarni oʻrganish, jumladan, buzoqlarda kindik dabbasining tarqalishini aniqlash, kindik sohasi anatomik-topografik xususiyatlarini tadqiq etish va xirurgik davolash usullarini ilmiy asoslash muhim amaliy ahamiyatga ega.

Buzoqlarda kindik dabbasining shakllanishi tugʻma anatomik nuqsonlar, irsiy moyillik hamda qorin devorining rivojlanish xususiyatlari bilan bogʻliq boʻlishi mumkin. Kasallikning klinik kechishi dabba darvozasining kattaligi, dabba xaltasining tarkibi, uning qaytarilish xususiyati va atrofdagi toʻqimalarning holatiga qarab farqlanadi. Ayrim hollarda dabba tarkibidagi katta charvi yoki ichak qovuzloqlarining qisilib qolishi, mahalliy qon aylanishining buzilishi va yalligʻlanish jarayonlarining rivojlanishi kasallikning murakkablashishiga olib kelishi mumkin. [4,8]

Kindik dabbasini davolashda xirurgik usullar asosiy oʻrinlardan birini egallaydi. An'anaviy herniorrafiya usulida dabba tarkibi anatomik holatiga qaytarilib, dabba darvozasi chok materiallari yordamida yopiladi. Ushbu usul qorin devorining mahalliy toʻqimalari hisobiga anatomik yaxlitlikni tiklashga qaratilgan. Biroq dabba darvozasi katta boʻlgan yoki atrofdagi toʻqimalarning mexanik mustahkamligi yetarli boʻlmagan holatlarda nuqsonni faqat mahalliy toʻqimalar hisobiga yopish muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. [5,9]

Veterinariya xirurgiyasida qorin devori nuqsonlarini bartaraf etishning muqobil yoʻnalishlaridan biri alloplastik hernioplastika hisoblanadi. Mazkur usulda sintetik polipropilen toʻrli endoprotezlardan foydalanish qorin devorining zaiflashgan sohasini qoʻshimcha mustahkamlash imkonini beradi. Shu bilan birga, implantatsiya qilingan materialning atrofdagi toʻqimalar bilan integratsiyalanishi, mahalliy yalligʻlanish reaksiyasi va operatsion jarohatning bitish xususiyatlari davolash natijalarini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.[7]

An'anaviy va alloplastik xirurgik usullarning samaradorligini qiyosiy oʻrganishda operatsion jarohatlarning bitish muddati, operatsiyadan keyingi asoratlar, dabbaning qaytalanish holatlari hamda hayvonlarning klinik tiklanish jarayoni asosiy baholash mezonlari hisoblanadi. Ayniqsa, buzoqlarda polipropilen toʻrli endoprotezlardan foydalanishning klinik natijalarini an'anaviy herniorrafiya bilan taqqoslash davolash usulini tanlashni ilmiy asoslash uchun muhimdir. [6,8]

Dabba bu qorin boʻshligʻidagi anatomik teshiklar orqali ichki seroz pardasi bilan teri ostiga tushishiga aytiladi. Agarda organlar seroz pardasiz tushsa bu holat prolapses deyiladi. Ayrim paytlarda organlar qoʻshni anatomik boʻshliqlarga siljisa ichki dabba deyiladi. Tashqi dabba quydagi elementlardan tashkil topgan: dabba darvozasi (halqa)-teshik, u orqali ichki organlar chiqadi; dabba xaltasi- ichki seroz pardani boʻrtib chiqishi; dabbaning tarkibi – ichki organlar ichak, bachadon, charvi va boshqalar. [3,5,7]

**Tadqiqot maqsadi va vazifalari.** Tadqiqotimizning asosiy maqsadi buzoqlar orasida kindik dabbasini xirurgik davolash usullarini qiyosiy baholash va takomillashtirishdan iborat.

- buzoqlar orasida kindik dabbasini xirurgik davolash usullarini oʻrganish hamda ularni klinik baholash.


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311060

- buzoqlar orasida kindik dabbasini samarali xirurgik davolash usullarini ishlab chiqish va qormolchilik xoʻjaliklari amaliyotiga joriy etish;

- kindik dabbasi xirurgik davolashda zamonaviy alloplastik materiallarni qoʻllash va qormolchilik xoʻjaliklari amaliyotiga joriy etish.

**Tadqiqot obekti va usullari.** Tadqiqotlarimizni Qoraqalpogʻiston Respublikasi hududidagi Amudaryo tumani Beshtom OFY dagi “Sardorbek-Abrorjon” va Chimboy tumani Kengash OFY dagi “Raxat-Guʻlshad” chorva fermer xoʻjaliklari va aholi qaramogʻidagi buzoqlarda olib borildi. Olib borilgan tajribalar davomida quydagi usulardan foydalandik: anamnez malumotlarini yigʻish, koʻrish, palpatsiya, uchirash darajasini qiyoslash, kindik dabbasining oʻlchamlarini olich, ultratovich diagnostikasi prospektiv va retrospektiv. Tadqiqotlar davomida 6 oylikgasha mahalliy va zotdor buzoqlarda tekshirishlar olib borildi.

Gordon E.D. (2020) yosh buzoqlarda kindik sohasining patologiyalarini diagnostika qilish va ularni bir-biridan farqlash usullarini tahlil qilgan. Muallif kindik patologiyalarini besh guruhga ajratgan: asoratsiz kindik dabbasi, teriosti infeksiyasi yoki abssess bilan kechuvchi kindik dabbasi, kindik qoldiqlari infeksiyasi bilan asoratlangan dabba, kindik abssessi hamda uraxus kistalari va yorilishlari. Asoratsiz kindik dabbasi odatda ogʻriqsiz va qorin boʻshligʻiga qaytariladigan, asoratlangan dabba esa qaytarilmaydigan yoki infeksiya bilan kechadigan holat sifatida tavsiflangan. Muallif aniq tashxis qoʻyishda klinik palpatsiya, ultratovush tekshiruvi va ayrim hollarda punksion aspiratsiyaning ahamiyatini ta’kidlagan. [2,9]

## TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING TAHLILI

Tadqiqot davomida 6 oylikkacha boʻlgan, kindik dabbasi tashxisi qoʻyilgan jami 10 bosh buzoqda an’anaviy xirurgik davolash va alloplastik hernioplastika usullarining klinik samaradorligi qiyosiy baholandi. Tadqiqotga jalb etilgan hayvonlar ikki guruhga ajratilib, har bir guruhda 5 boshdan buzoq tekshirildi. Birinchi guruhdagi buzoqlarda an’anaviy herniorrafiya, ikkinchi guruhdagi buzoqlarda esa «ЭСФИЛ» rusumli polipropilen toʻrli endoprotez yordamida alloplastik hernioplastika amalga oshirildi.

Xirurgik davolashdan oldin buzoqlarda kindik sohasi klinik tekshirilib, dabba darvozasining anatomik holati va oʻlchamlari baholandi. Operatsiyadan keyingi davrda hayvonlarning umumiy klinik holati, operatsion jarohatlarning bitish jarayoni, mahalliy asoratlarning rivojlanishi va kindik dabbasining qaytalanish ehtimoli 25-30 kun davomida muntazam nazorat qilindi.

An’anaviy xirurgik davolash usuli qoʻllanilgan birinchi guruhdagi 5 bosh buzoqda dabba darvozasi mahalliy toʻqimalar yordamida yopildi. Operatsiyadan keyingi klinik kuzatuvlar natijasida ushbu guruhdagi hayvonlarda jarohatlarning bitish muddati 8–12 kunni tashkil etgani aniqlandi. Kuzatuv davomida operatsiyadan keyingi asoratlar va kindik dabbasining qaytalanish holatlari qayd etilmadi.

Ikkinchi guruhdagi 5 bosh buzoqda kindik dabbasini xirurgik davolash uchun «ЭСФИЛ» rusumli polipropilen toʻrli endoprotez qoʻllanildi. Alloplastik hernioplastika jarayonida sintetik material inlay usulida, ya’ni dabba darvozasi chetlari orasidagi anatomik nuqson sohasiga joylashtirildi. Ushbu usul qorin devoridagi nuqsonni sintetik material yordamida yopishga qaratildi. Operatsiyadan keyingi klinik kuzatuvlar natijasida ikkinchi guruhdagi buzoqlarda jarohatlarning bitish muddati 16–21 kunni tashkil etgani aniqlandi. Mazkur

guruhda ham 25-30 kunlik kuzatuv davomida operatsiyadan keyingi asoratlar va dabbaning qaytalanish holatlari aniqlanmadi.

Oʻtkazilgan tadqiqotlarning qiyosiy tahlili an'anaviy herniorrafiya usuli qoʻllanilgan buzoqlarda operatsion jarohatlarning bitishi alloplastik hernioplastika usuliga nisbatan qisqaroq muddatda kechganligini koʻrsatdi. Bunda birinchi guruhda jarohatlar 8–12 kun davomida bitgan boʻlsa, ikkinchi guruhda ushbu jarayon 16–21 kun davom etgan. Mazkur farq operatsion jarohatlarning bitish muddatlari boʻyicha kuzatilgan boʻlib, lekin kindik dabbasining kattaligi, dabba darvozasi qalinlashishi va qorinning paski qismiga tushadigan bosimni hisobga olgan holda alloplastik usulni qollash ham yaqshi natija beradi.

## BUZOQLARDA KINDIK DABBASINI XIRURGIK DAVOLASH USULLARINING QIYOSIY NATIJALARI

*1-jadval.*

| Koʻrsatkichlar | An'anaviy herniorrafiya | Alloplastik hernioplastika |
|---|---|---|
| Hayvonlar soni | 5 bosh | 5 bosh |
| Hayvonlarning yoshi | 6 oylikkacha | 6 oylikkacha |
| Davolash usuli | Mahalliy toʻqimalar yordamida yopish | «ЭСФИЛ» polipropilen toʻri |
| Toʻrni joylashtirish | - | Inlay |
| Jarohatlarning bitish muddati | 8–12 kun | 16–21 kun |
| Operatsiyadan keyingi asoratlar | 0 ta | 0 ta |
| Kuzatuv davomiyligi | 25-30 kun | 25-30 kun |

Tadqiqot natijalarining tahlili shuni koʻrsatdiki, har ikkala xirurgik davolash usuli yordamida kindik dabbasini operativ bartaraf etish amalga oshirildi. An'anaviy herniorrafiyada qorin devorining anatomik yaxlitligi mahalliy toʻqimalarni birlashtirish hisobiga tiklangan boʻlsa, alloplastik hernioplastikada dabba darvozasi sintetik polipropilen material yordamida yopildi.

Shunday qilib, 10 bosh buzoqda oʻtkazilgan qiyosiy tadqiqot natijalariga koʻra, an'anaviy herniorrafiya usulida operatsion jarohatlarning bitish muddati alloplastik hernioplastikaga nisbatan qisqaroq boʻldi. «ЭСФИЛ» rusumli polipropilen toʻrli endoprotezni inlay usulida qoʻllash ham 30 kunlik kuzatuv davomida asoratlarsiz kechdi. Olingan natijalar buzoqlarda kindik dabbasini xirurgik davolash usulini tanlashda dabba darvozasining anatomik xususiyatlari, mahalliy toʻqimalarning holati va operatsiyadan keyingi tiklanish muddatlarini hisobga olish zarurligini koʻrsatadi.

## XULOSA

1. Buzoqlarda kindik dabbasini xirurgik davolashda dabba darvozasi kichik, atrofidagi mushak-aponevrotik toʻqimalar yetarlicha mustahkam va anatomik nuqsonni mahalliy toʻqimalar hisobiga yopish imkoniyati mavjud boʻlgan holatlarda an'anaviy herniorrafiya usulini qoʻllash tavsiya etiladi.
2. Kindik dabba darvozasi katta, uning chetlari qalinlashgan yoki mahalliy toʻqimalar hisobiga anatomik nuqsonni tarangliksiz yopish qiyin boʻlgan buzoqlarda «ЭСФИЛ»


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311060

rusumli polipropilen to‘rli endoprotez yordamida alloplastik hernioplastika usulini qo‘llash maqsadga muvofiq.

3. Chorvachilik xo‘jaliklarida buzoqlarning kindik dabbasini xirurgik davolash usulini tanlashdan oldin dabba darvozasining o‘lchami, atrofdagi to‘qimalarning anatomik holati va dabba tarkibini klinik baholash tavsiya etiladi. Operatsiyadan keyin hayvonlarni qulay saqlash va oziqlantirish sharoitlari bilan ta’minlash, jarohatlarning bitishini muntazam nazorat qilish hamda kamida 25–30 kun davomida klinik kuzatuv olib borish zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PQ-34-son «Chorvachilik va parrandachilikni qo‘llab-quvvatlash, sohada yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori. — Lex.uz
2. Gordon E.D. Sorting out umbilical abnormalities in the young calf // American Association of Bovine Practitioners Conference Proceedings. — 2020. — Vol. 53, № 1. — P. 41–43.
3. Livingston EH. What Is an Abdominal Wall Hernia? JAMA. 2016 Oct 18;316(15):1610. doi: 10.1001/jama.2016.15755. PMID: 27755633.
4. Moustafa A.M., Hamed M.A. (2020). Comparison of primary incisional umbilical hernia closure in calves and buffalo calves with and without assistance for prosthetic mesh. Alexandria Journal of Veterinary Sciences, 67(2), 54–59.
5. Narziyev B.D. Operativ xirurgiya va topografik anatomiya. DARSLIK Toshkent-2023 “Fan ziyosi” nashriyoti.
6. Park AE, Roth JS, Kavic SM. Abdominal wall hernia. In brief. Curr Probl Surg. 2006 May;43(5):322-4. doi: 10.1067/j.cpsurg.2006.02.003. PMID: 16679123.
7. Sutradhar B.C., Hossain M.F., Das B.C., Kim G., Hossain M.A. (2009). Comparison between open and closed methods of herniorrhaphy in calves affected with umbilical hernia. Journal of Veterinary Science, 10(4), 343–347.
8. Watters DA. Better and cheaper by day! Most inguinal herniorrhaphy patients are suitable for day-stay repair regardless of surgical approach. ANZ J Surg. 2022 Oct;92(10):2404-2405. doi: 10.1111/ans.18043. PMID: 36221206.
9. Chaudhari N.S. va boshq. (2022). Comparative evaluation of polypropylene and plasma coated polypropylene mesh for umbilical hernioplasty in bovine calves. Ruminant Science, 11(1), 225–230. Tadqiqotda 12 bosh buzoqda ikki xil to‘rli material taqqoslangan.

1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

# OTLAR GASTROFILYOZI QÖZĞATUVÇILARINING BIOLOGIYASI VA EKOLOGIYASIGA OID ILMIY TADQIQOTLARNING QIYOSIY TAHLILI

**Erimov Sirojiddin Farhodovich — Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, çorvaçilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, PhD tayanç doktoranti.**

**Achilov Odil Elmurodovich — veterinariya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD), dotsent, ilmiy rahbar.**

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311061

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
304–309

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Erimov S.F., Achilov O.E. Otlar gastrofilyozi qözğatuvçilarining biologiyasi va ekologiyasiga oid ilmiy tadqiqotlarning qiyosiy tahlili // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 304–309. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311061

ANNOTATSIYA Maqolada otlar gastrofilyozi qözğatuvçilarining biologiyasi, ekologiyasi, geografik tarqalişi va rivojlaniş xususiyatlariga bağişlangan tarixiy ilmiy tadqiqotlar qiyosiy tahlil qilindi. Oşqozon bökalari sistematikasi, imagolarning mavsumiy va sutkalik uçiş faolligi, tuxum qöyiş biologiyasi, embrional rivojlanişi, liçinkalarning anatomik lokalizatsiyasi, ğumbaklanişi va profilaktika tədbirlarining biologik asoslari körib çiqildi. K.Ya. Grunin, M.A. Sultonov, E.I. Gan, N.A. Çereşnev va N.X. Yenileyeva işlarining mavzuga oid ilmiy ahamiyati muhokama qilindi. Tarixiy adabiyotlar asosida *Gasterophilus* avlodiga mansub haşarotlarning rivojlaniş bosqiçlari geografik va ekologik şaroitlar bilan özaro boğliqligi yoritildi. Qoraqalpoğiston Respublikasining arid iqlim şaroitida qözğatuvçilar bioekologiyasini kompleks örganişning istiqbolli yönalişlari belgilandi.

KALIT SÖZLAR otlar, gastrofilyoz, *Gasterophilus*, oşqozon bökalari, bioekologiya, imago, liçinka, ğumbak, mavsumiy faollik, anatomik lokalizatsiya, iqlim.

## KIRIŞ

Otlar gastrofilyozi *Gasterophilus* avlodiga mansub ikki qanotli haşarotlar liçinkalari çaqiradigan parazitar kasallik hisoblanadi. Qözğatuvçilarning biologik rivojlanişi xöjayin organizmi va taşqi muhitda keçadigan bir neçta bosqiçni öz içiga oladi. Şu sababli gastrofilyozning tarqalişi va epidemiologik xususiyatlarini tuşunişda parazitlarning morfologiyasi, biologiyasi va ekologiyasini kompleks örganiş zarur.

Oşqozon bökalari liçinkalarining morfologik belgilarini örganişda K.Ya. Gruninning 1953-yilda naşr etilgan monografiyasi muhim örin tutadi [1]. Muallifning 1955-yilgi ilmiy işida esa oşqozon bökalari sistematikasi, tur tarkibi va biologik xususiyatlari umumlaştirilgan [2].

Özbekiston hududida otlarning oşqozon bökalari böyiça M.A. Sultonov [3] hamda E.I. Gan [4] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mahalliy fauna va qözğatuvçilar biologiyasini örganişning ilmiy asoslarini şakllantirişga xizmat qilgan.

N.X. Yenileyevaning Samarqand va Sirdaryo viloyatlariga bağişlangan tadqiqotlari [5, 6] hamda keyingi ilmiy maqolalari [7–11, 14] gastrofilyoz qözğatuvçilarining biologiyasi va ekologiyasiga oid masalalar XX asr davomida izçil örganilganini körsatadi.

Şuningdek, N.A. Çereşnevning liçinkalarning xöjayin organizmiga kir işi haqidagi tadqiqoti [12] va gastrofilyoz hamda rinestrozga qarşi kuraş çoralariga bağişlangan ilmiy iş [13] mazkur yönalişning amaliy veterinariya uçun ahamiyatini körsatadi.

**Maqolaning maqsadi** — otlar gastrofilyozi qözğatuvçilarining biologiyasi va ekologiyasiga oid ilmiy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qiliş, ularda körib çiqilgan asosiy biologik jarayonlarni umumlaştiriş hamda Qoraqalpoğiston şaroitida keyingi ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yönalişlarini aniql aşdan iborat.

## MATERIALLAR VA USULLAR

Maqola ilmiy adabiyotlar şarhi asosida tayyorlandi. Tahlil uçun oşqozon bökalari sistematikasi, morfologiyasi, biologiyasi, geografik tarqalişi va ularga qarşi kuraş masalalariga oid tarixiy ilmiy manbalar tanlandi [1–14].

Adabiyotlar qiyosiy-tahliliy usul asosida quyidagi ilmiy yönalişlarga ajratildi: sistematika va morfologiya; imagolarning mavsumiy va sutkalik faolligi; tuxum qöyiş va embrional rivojlaniş; liçinkalarning anatomik lokalizatsiyasi; taşqi muhitga çiqiş va ğumbaklaniş; geografik tarqaliş hamda profilaktika.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA MUHOKAMA

Oşqozon bökalari biologiyasini ilmiy asosda örganişda ularning tur mansubligini töğri aniql aş muhim hisoblanadi. Çunki turli *Gasterophilus* turlarining tuxum qöyiş joylari, liçinkalarining anatomik lokalizatsiyasi va rivojlaniş xususiyatlari özaro farqlanişi mumkin.

K.Ya. Grunin 1953-yilda naşr etilgan monografiyasida uy hayvonlari bökalarining liçinkalariga oid morfologik ma’lumotlarni umumlaştirgan [1]. Uning 1955-yildagi *SSSR faunasi* turkumiga kiruvçi ilmiy işi oşqozon bökalari sistematikasi va biologiyasini örganişda alohida ahamiyatga ega [2].

Uşbu ilmiy manbalarni qiyosiy baholaş liçinkalarning morfologik belgilarini aniql aş bilan tur sistematikasini örganiş özaro boğliq ekanini körsatadi. Morfologik identifikatsiya gastrofilyoz qözğatuvçilarining tur tarkibini aniql aş, ularning geografik tarqalişini qiyoslaş va rivojlaniş bosqiçlarini farqlaş uçun zarur.

M.A. Sultonovning 1953-yilda naşr etilgan *Özbekistonda otlarning oşqozon bökalari* nomli ilmiy işi mahalliy şaroitdagi qözğatuvçilarni örganişga bağişlangan [3].

E.I. Ganning 1964-yilgi monografiyasida mayda şoxli çorva mollari va otlar bökalari anatomiyasi, biologiyasi hamda ularga qarşi kuraş çoralari umumiy tadqiqot yönalişi sifatida körib çiqilgan [4].

Sultonov va Gan işlarini qiyosiy tahlil qilişda ularning tadqiqot obyektlari va mavzu qamrovidagi farqni hisobga oliş zarur. Sultonovning ilmiy işi bevosita otlarning oşqozon bökalariga bağişlangan bölsa, Gan monografiyasida bökalarning kengroq guruhi va ularga qarşi kuraş masalalari qamrab olingan [3, 4].

Mazkur tadqiqotlar Özbekistonning tabiiy-iqlim şaroitida parazit haşarotlar biologiyasini örganişning tarixiy ilmiy asoslarini tashkil etadi.

Oşqozon bökalarining voyaga yetgan imagolari biologiyasini örganişda mavsumiy uçiş muddatlarini aniql aş muhim hisoblanadi. Bu jarayon tuxum qöyiş va otlarning invaziya bilan zararlaniş davrlarini baholaşga xizmat qiladi.

IQTIBOS UÇUN Seytmusaeva Z.A., Sultamuratova H.M. Qoraköl qöylarining kompleks baholaşda naslçilik hujjatlarini yuritiş // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 442–445. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311089

ANNOTATSIYA **a.** Maqolada qoraköl zotli qöylarni belgi va xususiyatlari böyiça kompleks baholaşda muhim hisoblangan naslli qöçqor varqasi va naslli sovliq varaqasiga kiritilişi lozim bölgan ma'lumotlar keltirilgan. Naslçilik hujjatlarini yuritiş, naslli qöçqorlarni kelib çiqişi, tuğilgan vaqtdagi baholaş, 12-15 kunligida baholaş hamda işlatilgan yillar va olingan qözilar sifati kabi ma'lumotlarni toğri kiritiş böyiça fikr yuritilgan.

KALIT SÖZLAR qorakölçilik, naslli qöçqor, sovliq, avlod, gul tipi, sinfi, jun-tola sifati, rangi, tusi

**Kiriş.** Qorakölçilik qişloq xöjaligining çöl yaylovlarida rivojlanuvçi muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Çöl yaylovlaridan samarali foydalaniş, mamlakatda oziq-ovqat xavfsizni taminlaş hamda çölda yaşovçi aholining turmuş tarzini yaxşilaşda qorakölçilik tarmoği muhim iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Respublikamizda 21,0 mln gektar yaylovlar mavjud bölib, uşbu yaylovlarni foydalanişga kiritiş, mahsulot işlab çiqiş hamda aholini iş bilan ta'minlaşga xizmat qilmoqda.

Respublikada 2026-yil 1-yanvar holatiga jami 24,62 mln boş qöy va eçkilar urçitilib kelinmoqda. Şundan 1,25 mln boşi Qoraqalpoğiston Respublikasida urçitiladi. Qöylarning boş soni mos ravişda 21,02 mln va 726 ming boşni taşkil qilgan. Qoraköl qöylaring boş soni statistika ma'lumotlariga köra jami 5,95 mln boşni, Qoraqalpoğiston Respublikasida esa 288 ming boşni taşkil qiladi. Bundan körinib turibdiki, jami qöylar boş sonining 28,3% qoraköl zotli qöylar hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlardan kelib çiqqan holda qoraköl zotli qöylarni belgi va xususiyatlari böyiça kompleks baholaş ulardan olinadigan nasl sifatining yaxşilanişiga xizmat qiladi. Naslçilik hujjatlarini yuritiş esa olingan avlodning kelib çiqişini aniqlaş hamda naslli qöçqor va sovliqlarni avlodlar sifati böyiça baholaş imkonini beradi. Tadqiqot uslublari. Qorakölçilikda naslçilik işlarini yuritiş "Qorakölçilikda naslçilik işlarini yuritiş va qözilarni baholaş (bonitirovka qiliş) böyiça qöllanma (2015-yil) asosida amalga oşiriladi.

Natijalar va tahlillar. Naslçilik işlarini töğri taşkil qilişda qorakölçilikda 1-k şakl yuritilib, unda naslli qöçqorga tegişli bölgan ma'lumotlar keltiriladi. 2-k şakl esa naslli sovliqlar böyiça ma'lumotlarni özida mujassamlaydi. Quyida naslli qöçqor varaqasi töğrisida ma'lumotlar keltrilgan.

### 1–K SHAKL

### NASLLI QÖÇQOR VARAQASI

| **Qözining tuğilgandagi rasmi** | **Shaxsiy raqami** | **Tamğa** |
|---|---|---|
| | Tuğilgan vaqti | |
| | Tuğilgan joyi | |
| | | |

I. Kelib çiqişi

| | **otasi** | **onasi** |
|---|---|---|
| Şaxsiy raqami | | |
| Rangi, tusi | | |
| Gul tipi | | |
| Sinfi | | |

### II.TUĞILGAN VAQTIDAGI BAHOLASH

| **Rangi, tusi** | | **Jun-tola sifati** | |
|---|---|---|---|
| Gul tipi | | Sinfi | |
| Gul ölçami | | Gul uzunligi | |
| Gulning mustaxkamligi | | Teri qalinligi | |
| Naqşdorligi | | Konstitutsiyasi | |

### III. 12-15 KUNLIGIDA BAHOLASH

| **Körsatkiçlar** | **Baho** |
|---|---|
| Rang, tusning saqlanişi | |
| Oq jun mavjudligi | |
| Gullarning saqlanişi | |
| Jun-tola sifatining saqlanishi | |
| Umumiy baho | |

### V. IŞLATILGAN YILLAR VA OLINGAN QÖZILAR SIFATI

| **Yil** | **Uruğ-lanti-rilgan qöylar soni** | **Olin-gan qözi-lar soni** | **Şulardan** | | | | | **Naslli qöçqor** | | **Olin-gan teri-lar soni** | **Şun-dan I-nav teri-lar** | elita | I-sinf | qalam-gulli-lar | qovurğa gulli-lar | yassi gul-lilar | elita | I-sinf |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | | | | | | | | |

## BAHOLOVÇI (BONITER) BOŞ ÇORVAŞUNOS

Naslli qöçqor varqasi 4 qismdan iborat bölib, dastlab naslli qöçqorning tuğilgandagi rasmi, şaxsiy raqami, tuğilgan vaqti va joyi hamda tamğasi, 1-qismda kelib çiqişi (otasi va onasi böyiça alohida-alohida şaxsiy raqami, rangi, tusi, gul tipi va sinfi), 2-qismda tuğilgan vaqtdagi baholaş (rangi, tusi, gul tipi, gul ölçami, gulning mustahkamligi, naqşdorligi, jun-tola sifati, sinfi, gul uzunligi, teri qalinligi, konstitutsiyasi), 3-qismda 12-15 kunligida baholaş (rang, tusning saqlanişi, oq jun mavjudligi, gullarning saqlanişi, jun-tola sifatining saqlanişi, umumiy baho) va 4-qismda işlatilgan yillar va olingan qözilar sifati (yil, uruğlantirilgan qöylar soni, olingan qözilar soni, şundan elita, I sinf, qalamgullilar, qovurğagullilar, yassigullilar, naslli qöçqor elita, I sinf, olingan terilar soni va şundan I navli terilar soni) töğrisida ma'lumotlar keltiriladi.

Qoraköl qöylarida qora, oq, kök, sur, guligaz, qambar, zarmalla va kulrang ranglar uçraydi. Qoraköl qöylarida quyidagi tus yoki rangbarangliklar uçraydi: havorang, kumuşsimon, marvaridrang, qörğoşinrang, oqiş, qora kök, pölati, sutsimon, tillasimon, olmos, siren, bronza, platina, yantar, antrasit, qumrang, pölati, örikgul, şamçiroqgul va qamar.

Umuman olganda yuqoridagi 1-k şaklni yuritiş orqali naslli qöçqor haqidagi barça ma'lumotlarni olişimiz mumkin va uni naslçilik işlarini rejalaştirişda va naslçilik rejalarini tuzişda foydalanişimiz mumkin.

Naslli sovliqlar böyiça ma'lumotlarni 2-k şaklni yuritiş orqali töldirib boriladi.

2– şakl

### NASLLI SOVLIQ VARAQASI

| **Shaxsiy raqami** | **Tamğa** |
|---|---|
| Tug'ilgan vaqti | |
| Tug'ilgan joyi | |

### I. KELIB ÇIQIŞI

| | **Otasi** | **Onasi** |
|---|---|---|
| Shaxsiy raqami | | |
| Rangi, tusi | | |
| Gul tipi | | |
| Sinfi | | |
| | | |

### II. TUĞILGAN VAQTIDAGI BAHOLAŞ

| **Rangi, tusi** | | **Jun-tola sifati** | |
|---|---|---|---|
| Gul tipi | | Sinfi | |
| Gul o'lchami | | Gul uzunligi | |


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311089

| | | | |
|---|---|---|---|
| Gulning mustaxkamligi | | Teri qalinligi | |
| Naqshdorligi | | Konstitutsiyasi | |

## III. OLINGAN QÖZILAR TAVSIFI

| Uruğlantirilgan vaqti | Qöçqor tavsifi | | | | Olingan qözi navi | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Şax-siy raqami | Rangi | Sinfi | Gul tipi | Tuğilgan vaqt | Jinsi | Rangi, tusi | Sinfi | Gul tipi | Gul ölça-mi | Jun-tola sifati | Gul uzun-ligi | Teri navi | Kons-titut-siyasi | Şaxsiy nomeri |
| | | | | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | | | | | |

## BAHOLOVCHI (BONITER) BOSH CHORVASHUNOS

Naslçilik işlarini yuritişda naslli qöçqor bilan birgalikda naslli sovliqlar haqidagi ma'lumotlarni ham tizimli ravişda yuritib boriş muhim hisoblanadi. Naslli sovliq varqasi 3 qismdan iborat bölib, dastlab naslli sovliqning tuğilgandagi rasmi, şaxsiy raqami, tuğilgan vaqti va joyi hamda tamğasi, 1-qismda kelib çiqişi (otasi va onasi böyiça alohida-alohida şaxsiy raqami, rangi, tusi, gul tipi va sinfi), 2-qismda tuğilgan vaqtdagi baholaş (rangi, tusi, gul tipi, gul ölçami, gulning mustahkamligi, naqşdorligi, jun-tola sifati, sinfi, gul uzunligi, teri qalinligi, konstitutsiyasi), 3-qismda olingan qözilar tavsifi (uruğlantirilgan vaqti, qöçqor tavsifi böyiça-şaxsiy raqami, rangi, sinfi, gul tipi, olingan qözi navi böyiça-tuğilgan vaqti, jinsi, rangi, tusi, sinfi, gul tipi, gul ölçami, jun-tola sifati, gul uzunligi, teri navi, konstitutsiyasi va şaxsiy nomeri) töğrisida ma'lumotlar keltiriladi.

**Xulosa.** Xöjalikda seleksiya işlarini taşkil etişda 1-k şakl va 2-k şaklni yuritiş, ma'lumotlarni öz vaqtida kiritib boriş seleksiya samaradorligiga ijobiy ta'sir körsatadi. Uşbu ma'lumotlar orqali xöjalikning rang, gul tipi böyiça ixtisoslaşuvi va xöjalikdagi naslli qöylar haqida barça ma'lumotlarni oliş va tahlillaş imkonini beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI


1. Yusupov S.Yu. va boşqalar. Qorakölçilikda naslçilik işlarini yuritiş va qözilarni baholaş (bonitirovka qiliş) böyiça qöllanma // – Toşkent, 2015. – B. 31.
2. Seytmusayeva Z. A., Gaziyev A. örikgul va qamar rangbarangligi böyiça differensiyalangan juftlaşdan olingan avlodlarning gul körsatkiçlari //conferences. – 2025. – t. 1. – №. 4. – s. 116-119.
3. Seytmusayeva, Z., & Gaziyev, A. (2023). Уравненность расцветки ягнят каракалпакского сура, полученных от разных типов подбора. *Актуальные проблемы пустынного животноводства, экологии и создания пастбищных агрофитоценозов*, *1*(1), 58–60. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/problems-desert-husbandry/article/view/24943

2-ŞÖBA · ÇORVAÇILIK VA HAYVONLAR MAHSULDORLIGI

UO'K: 636.633.46

# C.DROMEDARIES, C.BACTRIANUS TUYALARINI SOF VA ÖZARO JUFTLAŞDAN AVLODNING TIRIK VAZNI YOŞI DINAMIKASIDA ÖZGARIŞI

**KO'CHAROV. S.Y.**

Samarqand davlat veterinariya tibbiyoti, chorvachilik va biotexnologiya universiteti Toshkent filialining 3-bosqich doktoranti

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311090

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
446–449

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Ko'charov S.Y. C.dromedaries, C.bactrianus tuyalarini sof va özaro juftlaşdan avlodning tirik vazni yoşi dinamikasida özgarişi // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 446–449. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311090

ANNOTATSIYA Uşbu maqolada Qorakalpoğiston respublikasi «Ustyurt» platosi şaroitida C.dromedaries, C.bactrianus tuyalarini sof va özaro juftlaşdan avlodning tirik vazni yoşi dinamikasida özgarişi keltirilgan, ösiş rivojlaniş davrlari böyiça tahlil qilingan va xulosalar berilgan.

KALIT SÖZLAR C.dromedaries, C.bactrianus, tuyalar, sof va özaro juftlaş, avlod, tirik vazn, yoşi dinamikasi, özgarişi, ösiş rivojlaniş, tahlil,xulosalar.

ABSTRACT This article presents the age-related dynamics of live weight changes in the offspring obtained from purebreeding and crossbreeding C. dromedarius and C. bactrianus camels under the conditions of the Ustyurt Plateau in the Republic of Karakalpakstan. It also analyzes their growth and development stages and provides relevant conclusions.

KEYWORDS C. dromedarius, C. bactrianus, camels, purebreeding and crossbreeding, offspring, live weight, age dynamics, changes, growth and development, analysis, conclusions.

**Kiriş.** Bugungi kunda dunyoda tuyaçilik sohasi rivojlangan xorijiy mamlakatlar qatoriga Avstraliya, Argentina, Namibiya, JAR (Janubiy Afrika Respublikasi) hamda Möğuliston davlatlari kiradi.

FAO (2025-y.) ma'lumotlariga köra [1.https://agriexpert.ru/articles.], bugungi kunda dunyoda 24 mln boşga yaqin bir va ikki örkaçli tuyalar mavjud bölib, şundan Camelus dromedarius tuyalarining 50 ta zot tipi va Camelus bactrianus tuyalarining 7 ta zot tipi bor. Uşbu davlatlarda tuyalarning mahsuldorligini oşiriş borasida seleksiya usullari bilan genofondini yaxşilaşga yönaltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Şuni qat'iyan ta'kidlaş mumkinki, bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaşda tuyaçilikdan olinadigan parhezbop sut va göşt mahsulotlari katta ahamiyatga ega. Şu bois, tuyaçilik mahsulotlari hajmini oşiriş maqsadida bir va ikki örkaçli tuyalarni çatiştiriş hamda duragay avlodlar oliş yönalişlari dolzarb bölib qolmoqda.

MDH davlatlari içida bugungi kunda tuyaçilik sohasida asosan Qozoğiston Respublikasi [2. https://24.kz/ru/news], (227 ming boş) va Turkmaniston Respublikasi [3. https://mir24.tv/news], (345 ming boş) yetakçilik qilib, Rossiya Federatsiyasida bu körsatkiç [4. https://yuz.uz/news], 6,4 ming boşni (Tuva Respublikasida) taşkil qiladi.

Özbekiston Respublikasining asosan çöl va yarim çöl hududlarida tuyaçilik bilan şuğullanilib, ularning boş soni 2025-yil holatiga köra 20,1 ming boşni taşkil qiladi [5. https://uz.sputniknews.ru]. Şundan mazkur boş sonining 44,3 foizi Navoiy viloyatiga, 24,1 foizi Qoraqalpoğiston Respublikasiga, 11,9 foizi Buxoro viloyatiga, 8,1 foizi Qaşqadaryo viloyatiga va qolgan 11,6 foizi boşqa viloyatlar uluşiga töğri keladi.

Qoraqalpoğiston Respublikasining Ustyurt platosi va şimoliy Qizilqum hududlarida tuyaçilik bilan şuğullaniladi. Hozirgi kunda Qoraqalpoğiston Respublikasida barça toifadagi xöjaliklarda jami tuyalar soni 4844 boşni taşkil qiladi.

Özbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida tuyaçilik sohasida sut, göşt va jun mahsuldorligini oşiriş borasida seleksiya işlarini amalga oşirişga asoslangan tadqiqotlar olib borilgan.

Bir va ikki örkaçli tuyalarning nasliy salohiyatini yuzaga çiqarişni oşiriş borasidagi ilmiy tadqiqotlar natijasida ularning mahsuldorligini oşirişga erişilgan. Tuyalarning mahsuldorligini oşirişda ularni çatiştiriş orqali duragay avlodlar oliş böyiça tadqiqotlar olib boriş muhim ahamiyat kasb etadi.

Mana uşbu fikr-mulohazalardan kelib çiqqan holda, Qoraqalpoğiston Respublikasining tuyaçilikka ixtisoslaşgan Ustyurt platosi şaroitida bir va ikki örkaçli tuyalarni çatiştiriş yuzasidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda ilmiy asoslangan usullar yetarli emas. Şu bois, ilmiy tadqiqotlarga asoslangan holda Camelus dromedarius tuyalarini Camelus bactrianus tuyalari bilan çatiştiriş va duragay avlodlar mahsuldorligini örganiş, seleksion xususiyatlarining çegarasini aniqlaş hamda tavsiya qiliş dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Qoraqalpoğiston Respublikasi Ustyurt platosi şaroitida Camelus dromedarius ва Camelus bactrianus tuyalarni ўзаро juftlaşdan olingan дуragай $F_1$ avlodlarning tirik vaznini örganişdan iborat.

Yuqorida közda tutilgan maqsadga erişiş uçun quyidagi vazifalarni bajariş talab etiladi:

## TADQIQOTNING VAZIFALARI

Camelus dromedarius va Camelus bactrianus tuyalarini çatiştirişdan olingan avlodlarning yoşi, jinsi kesimida ösib-rivojlaniş (tirik vazni) körsatkiçlarini aniqlaş;

**Tadqiqot obyekti** sifatida Camelus dromedarius va Camelus bactrianus tuyalarini çatiştirişdan olingan avlodlarning yoş dinamikasidagi jun mahsuldorlik va biologik körsatkiçlari olingan.

**Tadqiqot predmeti** bölib, CD ♂ XCD ♀ , CD ♂ XCB ♀ , CB ♂ XCB ♀ , CB ♂ XCD ♀ juftlaş usullaridan olingan sof va $F_1$ duragay avlodlarning bötaloqlari, ösiş va rivojlaniş körsatkiçlari, jun mahsuldorligi körsatkiçlari hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Ilmiy tadqiqot işlarini bajarişda jun va tuyalarning tirik vaznini aniqlaş böyiça yoş koeffitsiyentida A.I.Baymukanovning uslubiyatidan, eksteryeri, tana tuzilişi indekslari körsatkiçlari, ösiş va rivojlanişini (mutlaq va kunlik ösiş) aniqlaşda zootexniyada umumiy qabul qilingan uslublardan foydalanildi. N.A. Ploxinskiyning «Örtaça

arifmetik qiymat (X), uning xatosi (Sx), özgaruvçanlik koeffitsiyenti (Sv)»ni aniqlaş usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalari.** Camelus dromedarius va Camelus bactrianus turiga mansub tuyalar hamda ularning duragaylarida tirik vazn yoş dinamikasi böyiça aniqlandi, ularning ösiş jadalligini taqqoslaş natijalari esa quyida 1-jadvalda umumlaştirildi.

**1-jadval**. Camilus dromedaries, Camelus bactrianus tuyalarini hamda ularning duragaylarini çatiştirişdan olingan avlodning tirik vazni, kg

| Yoşi, jinsi | Camelus dromedarius, Camelus bactrianus turlariga mansub tuyalar hamda ularning duragaylarini özaro çatiştiriş natijasida olingan nasl, n=89 | | | |
|---|---|---|---|---|
| | CD♂ n=12 X CD♀ n=11 | CD♂ n=10 X CB♀ n=12 | CB♂ n=12 X CB♀ n=9 | CB♂ n=11 X CD♀ n=12 |
| | Tirik vazni, X±Sx | | | |
| 1-kunlik ♂ ♀ | 38,7±0,69* 35,1±0,60* | 37,9±0,21 34,7±0,48 | 36,6±0,20* 33,7±0,27* | 37,2±0,27* 33,9±0,20* |
| 1 oylik ♂ ♀ | 61,2±0,69** 58,7±0,62** | 62,8±0,31 59,9±0,22 | 61,1±0,21* 58,3±0,27* | 62,2±0,27* 59,6±0,21* |
| 3 oylik ♂ ♀ | 106,8±0,62 101,3±0,77 | 108,4±0,45 104,3±0,28 | 103,7±0,28* 100,3±0,27* | 105,4±0,27* 102,8±0,28* |
| 6 oylik ♂ ♀ | 184,2±2,02 179,7±2,35 | 181,7±0,53 179,9±0,43 | 180,5±0,42* 177,8±0,46* | 178,4±0,40** 176,8±0,43** |
| 12 oylik ♂ ♀ | 285,5±2,06 279,7±2,35 | 280,5±0,66 276,7±0,56 | 282,5±0,60* 275,3±0,68* | 284,2±0,60* 279,3±0,54* |
| 24 oylik ♂ ♀ | 367,3±2,06 354,2±2,35 | 364,4±0,82 357,2±0,70 | 353,7±0,67* 349,9±0,68* | 355,4±0,60 353,6±0,66 |

*P<0,001., **P<0,01

Camilus dromedaries, Camelus bactrianus tuyalari va ularning duragaylarini özaro çatiştirişdan olingan avlodlarning tirik vazni körsatkiçlari haqidagi ma'lumotlarga köra, bir örkaçli tuyalarni çatiştirişdan (CD♂XCD♀) olingan avlodlarda yangi tuğilgan (1-kuni) erkak bötaloqlarning tirik vazni 38,7±0,69 kg, urğoçi bötaloqlarda esa 35,1±0,60 kg ni taşkil etdi. Ikki örkaçli tuyalarni özaro çatiştirişdan (CB♂ X CB♀) olingan avlodlarda bu körsatkiç yangi tuğilgan (1-kuni) erkak bötaloqlarda 36,6±0,20 kg ni taşkil etgan bölsa, urğoçi bötaloqlarda esa 33,7±0,27 kg ga teng böldi.

Bir örkaçli tuyalarni ikki örkaçli tuyalar bilan (CD♂ × CB♀) hamda ikki örkaçli tuyalarni bir örkaçli tuyalar bilan (CB♂ × CD♀) özaro çatiştiriş natijasida olingan duragay avlodlarning (CD♂ × CB♀) variantidagi yangi tuğilgan (1 kunlik) erkak bötaloqlarning tirik vazni 37,9±0,21 kg ni, urğoçilariniki esa 34,7±0,48 kg ni taşkil etib, bunda erkak bötaloqlarning urğoçilaridan


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311090

ustunligi 9,2% ga yetdi. CB♂ × CD♀ sxemasi böyiça çatiştirişdan olingan avlodda esa uşbu körsatkiç erkak bötaloqlarda 37,2±0,27 kg ga, urğoçilarida esa 33,9±0,20 kg ga teng böldi.

Bötaloqlarning yoş dinamikasida 24 oylikka kelib, CD♂ X CB♀ juftlaşuvidan olingan erkak tuyalarning tirik vazni 364,4±0,82 kg ni (P<0,001), urğoçilarniki esa 357,2±0,70 kg ni taşkil etib, bunda jinsiy dimorfizm böyiça farq erkak tuyalar foydasiga 2,0% ga teng böldi; CB♂X CD♀ juftlaşuvidan olingan naslda esa uşbu körsatkiç erkak tuyalarda 355,4±0,60 kg ni, urğoçilarda esa 353,6±0,66 kg ni taşkil etdi va farqlaniş darajasi 0,5% dan iborat böldi (P<0,001).

Tirik vazn körsatkiçlarini sarhisob qilib şuni ta'kidlaş mumkinki, bir örkaçli va ikki örkaçli tuyalar hamda ularni özaro çatiştiriş natijasida olingan duragay avlodlarning tirik vazn dinamikasi bir-biridan farq qildi. Umuman olganda, yoş dinamikasiga köra barça sof zotli va duragay avlodlarda tirik vaznning jadal ösişi asosan hayotining dastlabki kunidan 6 oylik yoşigaça bölgan davrda kuzatildi, şundan söng esa ösiş sur'ati asta-sekin pasaya boşladi.

**Xulosa.** Tuyalarning yoşi dinamikasida tirik vazni özgarişi turliça bölib, CD♂ XCD♀ olingan ♂ avlodlarda 367 kg ni va ♀ avlodlarda 354 kg ga teng böldi. Camelus bactrianus tuyalarida tirik vazni böyiça Camilus dromedaries tuyalariga nisbatan 2,9 % ga kam ekanligi va CD♂ X SB♀ juftlaşda 364,4 va 357,2 kg ni taşkil qildi va CB♂ X CD♀ juftlaşdan olingan duragay avlodlarda Camelus bactrianus sof avlodlariga nisbatan geterozislik darajasi 0,5 % ga teng bölib, jins diformizmidagi farq barça juftlaş turlarida 0,5- 2,0 % ni taşkil qildi.

## FOYDALANILGAN ADABIYATLAR RUYXATI

1. https://agriexpert.ru/articles/206/znacenie-i-sovremennoe-sostoyanie-verblyudovodstva
2. https://24.kz/ru/news/economyc/item/463253
3. https://mir24.tv/news/16457715/v-turkmenistane
4. https://yuz.uz/news
5. https://uz.sputniknews.ru/20220703/v

2-ŞÖBA · ÇORVAÇILIK VA HAYVONLAR MAHSULDORLIGI

УДК 636.2.084:636.22/.28

# МОМБЕЛЯРД ВА ГОЛШТИН ЗОТЛИ СИГИРЛАРНИ РАЦИОНАЛ ОЗИҚЛАНТИРИШНИ ИЛМИЙ АСОСЛАШ

**Турсинбаева Ирода Шукруллаа кизи**

**Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети Нукус филиали магистранти**

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311091

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
450–453

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Турсинбаева И.Ш. Момбелярд ва Голштин зотли сигирларни рационал озиқлантиришни илмий асослаш // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 450–453. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311091

АННОТАЦИЯ Мақолада Момбелярд ва Голштин зотли сигирларни рационал озиқлантиришнинг илмий асослари ёритилган. Ушбу зотларнинг биологик хусусиятлари, сут маҳсулдорлиги ва озуқа моддаларига бўлган эҳтиёжлари таҳлил қилинган. Рацион таркибида энергия, протеин, минерал моддалар ва витаминларнинг аҳамияти баҳоланган. Шунингдек, рационларни мувозанатлаштириш орқали сут маҳсулдорлигини ошириш ҳамда иқтисодий самарадорликни яхшилаш имкониятлари кўриб чиқилган.

КАЛИТ СЎЗЛАР Голштин, Момбелярд, сут маҳсулдорлиги, рационал озиқлантириш, протеин, энергия, минерал моддалар, озуқа бирлиги.

## НАУЧНОЕ ОБОСНОВАНИЕ РАЦИОНАЛЬНОГО КОРМЛЕНИЯ КОРОВ ПОРОД МОНБЕЛЬЯРД И ГОЛШТИН

АННОТАЦИЯ В статье рассмотрены научные основы рационального кормления коров пород Монбельярд и Голштин. Проанализированы биологические особенности пород, молочная продуктивность и потребность животных в питательных веществах. Определена роль энергии, протеина, минеральных веществ и витаминов в составе рационов. Также представлены возможности повышения молочной продуктивности и экономической эффективности за счет сбалансированного кормления.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА Голштинская порода, Монбельярд, молочная продуктивность, рациональное кормление, протеин, энергия, минеральные вещества.

## SCIENTIFIC BASIS OF RATIONAL FEEDING OF MONTBELIARDE AND HOLSTEIN DAIRY COWS

ABSTRACT The article discusses the scientific basis of rational feeding of Montbeliarde and Holstein dairy cows. Biological characteristics, milk productivity, and nutrient requirements of these breeds were analyzed. The importance of energy, protein, minerals, and vitamins in feed rations was evaluated. Opportunities for increasing milk production and improving economic efficiency through balanced feeding were also considered.

KEYWORDS Holstein, Montbeliarde, dairy cows, rational feeding, protein, energy, minerals, milk productivity.

**Кириш.** Чорвачилик тармоғини жадал ривожлантириш, аҳолини сифатли озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлаш ва мамлакат озиқ-овқат хавфсизлигини мустаҳкамлашда сутчилик қорамолчилиги муҳим ўрин тутади. Юқори маҳсулдор қорамоллардан самарали фойдаланишда уларнинг генетик имкониятларини тўлиқ намоён қилиш асосий вазифалардан ҳисобланади.

Бу борада Голштин ва Мамбелярд зотли сигирлар юқори маҳсулдорлик кўрсаткичлари билан алоҳида аҳамият касб этади. Мазкур зотларнинг генетик потенциалидан самарали фойдаланиш кўп жиҳатдан уларни илмий асосланган рационлар билан озиқлантиришга боғлиқ.

**Тадқиқотнинг мақсади.** Момбелярд ва Голштин зотли сигирларнинг озуқа моддаларига бўлган эҳтиёжларини баҳолаш ҳамда уларни рационал озиқлантиришнинг маҳсулдорликка таъсирини аниқлаш.

## ТАДҚИҚОТ МАТЕРИАЛЛАРИ ВА УСУЛЛАРИ

Тадқиқотларда сутчилик йўналишидаги Голштин ва Момбелярд сигирларидан фойдаланилди. Қуйидаги кўрсаткичлар ўрганилди:

- тирик вазн;
- сут маҳсулдорлиги;
- сут таркиби;
- қуруқ модда истеъмоли;
- энергия таъминоти;
- протеин таъминоти;
- минерал моддалар билан таъминланганлик.

Олинган маълумотлар биометрик таҳлил усуллари ёрдамида қайта ишланди.

## НАТИЖАЛАР ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ

**Жадвал 1**. Голштин ва Момбелярд сигирларининг асосий маҳсулдорлик кўрсаткичлари

| Кўрсаткич | Голштин | Момбелярд |
|---|---|---|
| Тирик вазни, кг | 650–750 | 600–700 |
| Сут маҳсулдорлиги, кг/йил | 8000–12000 | 7000–9000 |
| Сут ёғи, % | 3,6–4,0 | 3,9–4,3 |
| Сут оқсили, % | 3,1–3,3 | 3,3–3,6 |
| Яшовчанлик даражаси | Ўртача | Юқори |

Жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики, Голштин сигирлари юқори сут маҳсулдорлигига эга бўлса, Момбелярд сигирлари сут таркибидаги ёғ ва оқсил миқдорининг юқорилиги билан ажралиб туради.

**Жадвал 2**. Голштин сигирлари учун тавсия этиладиган кунлик рацион

| Озуқа тури | Миқдори, кг |
|---|---|
| Беда пичани | 6 |
| Сенаж | 10 |


| | |
|---|---|
| Маккажўхори силоси | 20 |
| Концентрат | 8 |
| Шрот | 2 |
| Минерал қўшимча | 0,15 |

**Жадвал 3.** Момбелярд сигирлари учун тавсия этиладиган кунлик рацион

| **Озуқа тури** | **Миқдори, кг** |
|---|---|
| Беда пичани | 7 |
| Сенаж | 8 |
| Маккажўхори силоси | 18 |
| Концентрат | 6 |
| Шрот | 1,5 |
| Минерал қўшимча | 0,12 |

**Жадвал 4.** Сигирларнинг асосий озуқа моддаларига бўлган эҳтиёжи

| **Кўрсаткич** | **Голштин** | **Момбелярд** |
|---|---|---|
| Қуруқ модда, кг | 24–26 | 22–24 |
| Алмашинув энергияси, МЖ | 250–280 | 220–260 |
| Хом протеин, % | 17–18 | 16–17 |
| Кальций, г | 120–150 | 110–140 |
| Фосфор, г | 80–100 | 75–95 |




**Расм 1. Рационал озиқлантириш таъсирида сут маҳсулдорлигининг ўзгариши**

Сут маҳсулдорлиги
Рацион турига кўра маҳсулдорликнинг таққосланиши
0 кг 8 кг 16 кг 24 кг 32 кг Оддий рацион Рационал рацион


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311091

Расмдан кўриниб турибдики, мувозанатлаштирилган рацион қўлланилганда сут маҳсулдорлиги ўртача 14–15 фоизга ошган.

**Жадвал 5**. Рационал озиқлантиришнинг иқтисодий самарадорлиги

| Кўрсаткич | Оддий рацион | Рационал рацион |
|---|---|---|
| Сут маҳсулдорлиги, кг/кун | 28 | 32 |
| 1 кг сут учун озуқа бирлиги | 0,95 | 0,82 |
| Рентабеллик, % | 18 | 28 |

Таҳлиллар шуни кўрсатдики, рационларни илмий асосда мувозанатлаштириш натижасида ҳар бир килограмм сут учун сарфланадиган озуқа бирлиги камайиб, ферма рентабеллиги 10 фоизгача ошиши мумкин.

**Муҳокама.** Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, юқори маҳсулдор Голштин сигирларида энергия таъминоти муҳим аҳамиятга эга бўлиб, концентрат озуқалар улушининг меъёрий даражада бўлиши талаб этилади. Мамбелярд сигирларида эса юқори сифатли толали озуқалар ва протеин манбаларидан фойдаланиш юқори иқтисодий самара беради.

Шунингдек, рационларда кальций, фосфор ва витаминлар миқдорининг меъёр даражасида бўлиши ҳайвонларнинг соғломлиги ҳамда репродуктив хусусиятларини яхшилайди.

**Хулоса.** Голштин ва Момбелярд сигирларининг юқори маҳсулдорлиги тўғри ташкил қилинган озиқлантириш тизимига боғлиқ.

Рационда энергия ва протеин миқдорини мувозанатлаштириш сут маҳсулдорлигини 10–15 % га оширади.

Минерал ва витамин қўшимчаларидан самарали фойдаланиш ҳайвонлар соғлиғини яхшилайди.

Рационал озиқлантириш озуқа сарфини камайтиради ва иқтисодий самарадорликни оширади.

Қорақалпоғистон шароитида маҳаллий озуқа ресурсларидан фойдаланиш юқори маҳсулдорликка эришиш имконини беради.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР


1. NRC. *Nutrient Requirements of Dairy Cattle*. Washington, 2021.
2. McDonald P., Edwards R.A., Greenhalgh J.F.D. *Animal Nutrition*. London, 2022.
3. Church D.C. *Livestock Feeds and Feeding*. New Jersey, 2021.
4. Халиков А.А. Қорамолларни озиқлантириш. – Тошкент, 2020.
5. Эргашев Э.Э. Сутчилик қорамолчилиги технологияси. – Тошкент, 2021.
6. Шарипов Ш.А. Чорвачилик асослари. – Тошкент, 2022.
7. FAO. *Dairy Feeding Manual*. Rome, 2023.
8. Қурбонов Б.Б. Қорамоллар маҳсулдорлигини ошириш омиллари. – Самарқанд, 2021.
9. Очилов Т.Т. Қорамоллар физиологияси ва озиқлантириш асослари. – Тошкент, 2022.
10. Абдураҳмонов С.А. Замонавий сутчилик технологиялари. – Тошкент, 2023.

2-ŞÖBA · ÇORVAÇILIK VA HAYVONLAR MAHSULDORLIGI

УЎК 639.303.45:535.21:577.3

# ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН АҲОЛИСИ ЭЧКИЛАРИНИНГ ГЎШТ ВА СЎЙИМ КЎРСАТКИЧЛАРИ

***Н.Хожамбергенова,***

***Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети Нукус филиали магистранти***

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311092

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
454–460

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Хожамбергенова Н. Қорақалпоғистон аҳолиси эчкиларининг гўшт ва сўйим кўрсаткичлари // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 454–460. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311092

АННОТАЦИЯ изучение мясные и убойные качества козликов и козликов – кастратов в 8 месячном Каракалпакской популяции молочном коз при выращивании их на мясо. Установлено, что при убое оснавной фактор, который положительно вляет на убойные показатели и качество мяса, – это кормовой фактор. Кастрация лишь замедляет формирование мясных и убойных качество козликов.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА козликов, кастрация, убой, туша, отрубы.

**Кириш.** Қорақалпоғистоннинг озиқ-овқат бозорини тўлдириш учун заҳиралардан бири нафақат Осиё ва Африкада, балки ривожланган Европа мамлакатларида ҳам жадал қўлланиладиган эчкичилик соҳасини тўғри ривожлантириш олдига қўйган мақсадлардан бири бўлиши мумкин. Бугунги кунда эчки гўштини ишлаб чиқариш ва истеъмол қилиш бўйича дунёдаги асосий минтақалар Осиё ва Африкадир [9].

Охирги 15-20 йил ичида маҳаллий эчкичиликнинг ишлаб чиқариш ҳажми сезиларли даражада камайди ва тармоқ салоҳиятига жавоб бермайди. Ички бозор унга таклиф қилинган нарсани истеъмол қилади, бундан ортиқ эмас. Ўзбекистонда эчкичилик соҳаси сут ишлаб чиқаришга йўналтирилган, Европа мамлакатларидаги замонавий эчкичилик эса сут ва ёш эчки гўшти ишлаб чиқаришга ихтисослашган бўлиб, бу эчкичиликнинг умумий таркибида 50% ва ундан кўпроқни ташкил қилади. Украинада эчки гўшти ҳозирда барча турдаги гўшт ишлаб чиқаришнинг тахминан 1% ни ташкил қилади [8].

**Адабиётлар таҳлили.** Ёш эчки гўшти таъмининг юқори кўрсаткичлари билан ажралиб туради ва озуқавий қиймати ва фойдалилиги бўйича у қўзи гўштидан кам эмас ва мол ва чўчқа гўштидан анча устундир. Кўпгина Африка ва Осиё мамлакатларида гўштли эчкилар фақат ёввойи эчки гўштига ўхшаш нозик гўшт олиш учун етиштирилади [6].

Шунингдек, майин гўштни сўйиш олдидан худди шундай тарзда консентратлар билан боқиладиган такалар ва туғмаган эчкилар беради, уларга дон, кепак, илдиз мева экинлари ва яхши пичан билан ажралмас ош тузи қўшилади, бу озуқанинг таъмини яхшилайди ва ҳайвоннинг иштаҳасини оширади [4].

Ҳар қандай сабабга кўра подадан боқилган бир ёшли эчкиларнинг гўшти деярли эчки гўшти каби қимматлидир. Қадимги ҳайвонларнинг гўшти таъмсиз ва шунинг учун унчалик қиммат эмас. Катта ёшли эчкиларнинг гўшти овқат учун ишлатилмайди, чунки у ёқимсиз ҳидга эга, бундан ташқари, у қаттиқ ва мазасиз [1].

**Ишнинг мақсади** – 8 ойлик эчкиларнинг гўшт ва сўйиш сифатига турли даражадаги озиқлантириш ва бичилгандан кейинги омилининг таъсирини ўрганишдир.

**Тадқиқот материаллари ва усуллари.** Қораўзак тумани Панаев фармс фермер хўжалигида эчкиларнинг гўшт ва сўйим кўрсаткичини аниқлаш бўйича илмий тадқиқот тажрибаси ўтказилди. Тажриба Заанен зотли сутли популяциясининг эчкилари устида олиб борилди. Бунинг учун жуфтлик аналоглари принципига кўра, 3 та эчки гуруҳи, ҳар бирида 10 та ҳайвонлар ташкил этилди. Икки гуруҳ тажрийба ва битта назорат гуруҳи тузилди (1-жадвал).

**3-жадвал**. Илмий тажриба олиб бориш учун схема

| Гуруҳлар | Бош сони | Озиқлантириш шароити |
|---|---|---|
| 1 чи тажриба (эчкилар) | 10 | ОР*+Баланслаштирилган комбикорм (40% гача озуқа қиймати)* |
| 2 чи тажриба (бичилган) | 10 | ОР+Баланслаштирилган комбикорм (40% гача озуқа қиймати) |
| 3 чи назорат (эчкилар) | 10 | Донли озуқа (20% гача озуқа қиймати) |

Такаларни бичиш бир ойлигида жарроҳлик йўли билан амалга оширилди. 2,5 ойлигида такалар гуруҳларга бўлинган ва тенглаштириш давридан кейин тажриба бошланган.

Эчкилар 8 ойлик бўлганда, гўштни ўрганиш мақсадида (ВИЖ (1985) методи бўйича) ҳар бир гуруҳдан 3 та тажриба ҳайвонлари сўйилди [7]. Сўйиш технологияси гўшт саноатида қабул қилинган мавжуд кўрсатмаларга мувофиқ амалга оширилди. Бундан ташқари, барча бажариладиган ишлар, тажрибалар ва бошқа илмий мақсадларда ишлатиладиган ҳайвонларни ҳимоя қилиш бўйича умум қабул қилинган қоидаларга [2] мувофиқ амалга оширилди.

Совутгандан сўнг, гўшт намуналари орқа томоннинг энг узун мушакларидан олинди, улар алоҳида вакуум билан ўралган ва – 20 ° С да музлатилган. Гўшт намуналари 1 ҳафта давомида сақланади. Намуналар таҳлил қилишдан 1 кун олдин 4 ° С (± 1 ° С) да эритилди.

Кимёвий-аналитик тадқиқотлар Қорақалпоғистон ветеринария санитария экспертизаси лабораториясида ўтказилди.

**Тадқиқот натижалари.** Гўшт маҳсулдорлиги тушунчаси бир қатор кўрсаткичларни умумлаштиради – сўйим вазни, сўйим чиқими, оғирлиги ва энг қимматли қисмларининг ҳосилдорлиги, тана гўштининг морфологик таркиби, ёғнинг

тақсимланиш табиати, гўштнинг кимёвий таркиби, ҳар иккала маҳсулотдаги калория миқдори, наслли наслчилик ва чатиштиришда.

Бичишнинг самарадорлиги нафақат эчкиларда у ёки бу белгининг мутлақ ривожланишига, балки олинган ҳайвон турининг белгиланган стандартларга қанчалик мос келишига ёки ушбу стандартлар белгиларни қай даражада рағбатлантиришига боғлиқ қилинган.

Тажрибадаги эчкилар бир хил шароитда сақланганлиги сабабли, уларнинг гўшт маҳсулдорлигини муайян муҳит шароитида ирсиятнинг ривожланиши натижасида кўриб чиқиш мумкин деб ҳисоблаймиз.

Гўшт маҳсулдорлигини ўрганиш учун биз тажрибадаги эчкиларни 8 ойлигида ҳар бир гуруҳдан 3 бошдан назорат сўйишни амалга оширдик (2-жадвал).

**3-жадвал**. 8 ойлик ёшдаги эчкиларнинг сўйим кўрсаткичлари, M±m (n=3)

| Кўрсаткичлар | Гуруҳлар | | |
|---|---|---|---|
| | 1-чи тажриба | 2-чи тажриба | 3 чи назорат |
| Тирик оғирлиги, кг | 39,76±0,523** | 32,63±0,272** | 35,73±0,560 |
| Тана гўшти (совитилмаган), кг | 15,56±0,169*** | 11,72±0,070 | 12,36±0,296 |
| Масса охлажденной туши, кг | 15,33±0,061*** | 11,52±0,053 | 12,12±0,293 |
| Ички ёғ, кг | 0,420±0,015* | 0,963±0,008*** | 0,293±0,029 |
| Сўйим масса, кг | 15,72±0,098*** | 12,49±0,049 | 12,41±0,320 |
| Сўйим чиқими, % | 39,54±0,288*** | 38,27±0,192*** | 34,73±0,456 |

*P>0,95; **P>0,99; ***P>0,999.

Маълумотлардан кўриниб турибдики, сўйишдан олдинги тана вазни бўйича биринчи тажриба гуруҳидаги эчкилар сўйиш олдидан энг яхши вазнга эга (39,76 кг). Назорат гуруҳидаги эчкилар билан солиштирганда устунлик сезиларли фарқ билан 4,03 кг ни ташкил этди (P >0,99). Иккинчи тажриба гуруҳнинг эчкилари (бичилган) бу кўрсаткич бўйича биринчи гуруҳ аналогларидан ҳам паст эди, фарқ 7,13 кг ва назорат гуруҳидаги эчкиларга нисбатан 3,1 кг ни ташкил этди (P > 0,99).

Гўшт маҳсулдорлигининг ҳал қилувчи кўрсаткичи совитилмаган тана гўштининг оғирлиги ҳисобланади. Оғир тана гўшти кучли суяклар, яхши ривожланган жамбон ва мушак тўқималари, ички аъзолари бўлган соғлом ҳайвонларда ҳосил бўлади. Олинган маълумотларни таҳлил қилишда биз қуйидаги кўрсаткичларни ўрнатдик.

Шундай қилиб, биринчи тажриба гуруҳининг эчкиларида жуфтланган тана гўштининг вазни энг катта бўлди, яъни 15,56 кг, бу сезиларли фарқ билан назорат гуруҳидаги эчкиларга қараганда 3,2 кг га кўп (P > 0,999). Иккинчи тажриба гуруҳнинг эчкилари (бичилган) бу кўрсаткич бўйича бошқа гуруҳлардаги аналоглардан паст эди, биринчи гуруҳ эчкилари билан фарқ 3,84 кг ва назорат гуруҳи билан – 0,64 кг. Кўриб турганимиздек, олинган маълумотларга асосланиб, 8 ойлик эчкилар гўшт маҳсулдорлиги учун етарли кўрсаткичларга эга ва сўйиш учун мос келади.


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311092

Кўпгина тадқиқотчилар боқиш жойларида интенсив озиқлантириш пайтида эчкиларнинг тана гўштида ёғнинг эрта чўкиши фактларини аниқладилар. Бундан ташқари, бу кўрсаткич зоти, ёши, жинси ва озиқланиш шароитлари каби омилларга таъсир қилади. Эчкиларда, қўйлардан фарқли ўлароқ, ички ёғлар кўпроқ, тери ости ва мушак ичига ёғлар камроқ тўпланади [1].

Ички ёғ миқдори бўйича, биз кутганимиздек, иккинчи экспериментал гуруҳнинг эчкилари (0,963 кг) максимал вазнга эга бўлди, бу сезиларли фарқ билан назорат гуруҳидаги эчкиларга қараганда 0,670 кг га кўп (P > 0,999). Биринчи гурух эчкиларининг ички ёғ массаси бичилган эчкилариникидан 0,543 кг га кам, лекин назорат гуруҳидаги эчкиларникидан 0,127 кг га кўп, сезиларли фарқ билан (P > 0,95). Бизнинг маълумотларимиз бичилган эчкиларда, ҳам ички, ҳам тери ости ёғида ёғнинг эрта чўкиши белгиланган мунтазамлигини тасдиқлайди. Шуни таъкидлаш керакки, эчки гўшти ёғсиз гўштларга тегишли, аммо шунга қарамай, ёғ тўқималарининг ривожланиши тананинг ривожланишининг умумий қонуниятларига бўйсунади, яъни у суяк ва мушакдан бироз кечроқ ривожланади. Шунинг учун ёғ тўқималарининг ривожланиши ҳайвонларнинг жинси ва ёшига боғлиқ.

Тажрибадаги ёш ҳайвонларнинг гўшт маҳсулдорлигини баҳолашда асосий кўрсаткичлар сўйим вазни ва сўйим чиқими ҳисобланади.

Жадвалдаги маълумотлардан кўриниб турибдики, биринчи тажриба гуруҳидаги эчкиларнинг энг юқори сўйим вазни 15,72 кг ни ташкил этди, бу сезиларли фарқ билан назорат гуруҳидаги эчкиларга қараганда 3,31 кг га кўп (p> 0,999). Назорат гуруҳининг эчкилари билан иккинчи тажриба гуруҳининг эчкиларида сезиларли фарқ топилмади.

Тажрибадаги эчкиларда сўйим чиқимига кўра, биринчи ва назорат гуруҳидаги ҳайвонлар ўртасида сезиларли фарқ (p> 0,999) аниқланди – 4,81%, шунингдек, иккинчи ва назорат гуруҳидаги эчкилар ўртасида – 3,54%. Шундай қилиб, биринчи тажриба гуруҳининг эчкилари 39,54%, иккинчи тажриба гуруҳидаги эчкилар 38,27% ва назорат гуруҳи эчкилари 34,73% энг юқори сўйим кўрсаткичига эга бўлди.

Гўштнинг сифати ундаги асосий компонентларнинг нисбати – намлик, ёғ, оқсил, минераллар ва тўлиқ ва нуқсонли оқсилларнинг таркибига боғлиқ. Гўшт маҳсулдорлиги ва гўштнинг кимёвий таркиби шаклланишига озиқланиш даражаси, сақлаш шароитлари, зот, ҳайвоннинг ёши ва жинси таъсир қилади [3].

Гўштнинг асосий компоненти мушак ва ёғ тўқимасини ўз ичига олган пулпа ҳисобланади. Шунинг учун гўшт маҳсулотлари сифатини тавсифловчи асосий кўрсаткичлардан бири сифатида тана гўштининг гўштли қисмининг кимёвий таркибини ўрганиш катта аҳамиятга эга. Шу муносабат билан биз барча гуруҳлардаги эчкиларнинг орқа мушакларининг кимёвий таркиби намуналарини ўрганиб чиқдик, олинган маълумотлар алоҳида қизиқиш уйғотади ва 3-жадвалда келтирилган.

**3-жадвал**. Эчкиларнинг узун орқа мушакларининг кимёвий таркиби, M±m (n=3)

| Кўрсаткичлар | Гуруҳлар | | |
|---|---|---|---|
| | 1 чи гуруҳ | 2 чи гуруҳ | 3 чи гуруҳ |
| Протеин, % | 19,09±0,354* | 19,31±0,231* | 20,21±0,132 |
| Ёғ, % | 5,22±0,515* | 7,48±1,014** | 2,31±0,6 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Намлик, % | 74,13±0,524* | 73,07±0,982* | 76,17±0,318 |
| Қуруқ модда, % | 25,83±0,521* | 26,93±0,982* | 23,83±0,318 |

Тажрибадаги эчкилар гўштининг ўртача намунасини таҳлил қилганда асосий кўрсаткичлар бўйича қуйидаги натижаларга эришилди. Назорат гуруҳидаги эчкилар энг кўп протеин миқдорига эга – 20,21%, биринчи ва иккинчи гуруҳ эчкилари – мос равишда 19,09 ва 19,31%. Энг юқори ёғлилик, биз кутганимиздек, иккинчи гурух эчкиларида 7,48%, энг пасти эса назорат гуруҳидаги эчкиларда 2,31% эди. Ҳайвонларни бичиш гормонал ҳолатнинг ўзгаришига олиб келади, бу бизнинг ҳолатларимизда тана гўштининг эрта тузланишига ва гўштнинг кимёвий таркибининг ўзгаришига олиб келади [5].

**4-жадвал**. Тажрибадаги эчкилардан гўшт маҳсулдорлиги бўйича олинган иқтисодий саморадорлик

| **Кўрсаткичлар** | **Гуруҳлар** | | |
|---|---|---|---|
| | 1 чи тажриба | 2 чи тажриба | 3 чи назорат |
| Маҳсулотларни сотишнинг умумий ҳажми (совитилган тана гўшти массаси), кг | 15,33 | 11,52 | 12,12 |
| Гўштнинг сотилиш баҳоси, сум | 49 | 49 | 49 |
| Ўрташа бошиги маҳсулот сотишдан тушган соф фойда, сум | 751,17 | 564,48 | 593,88 |
| Ҳар бир бошга сарфланган ҳаражатлар, сум | 435,38 | 422,22 | 368,08 |
| Ўрташа бошига маҳсулот сотишдан олинган фойда, сум | 316,79 | 142,26 | 225,82 |
| Рентабеллик даражаси, % | 42,17 | 25,20 | 38,02 |

Намлик миқдори бўйича унинг энг юқори миқдори назорат гуруҳидаги эчкиларда (76,17%), биринчи ва иккинчи гуруҳ эчкиларида – мос равишда 74,13% ва 73,07%, сезиларли фарқ билан (P> 0,05). Қуруқ моддалар таркибига кўра, энг юқори кўрсаткич кастратсия қилинган эчкиларда (26,93%), энг паст кўрсаткич – назорат гуруҳидаги эчкиларда 23,83%.

Шундай қилиб, жадвалдаги маълумотлардан кўриниб турибдики, субекспериментал эчкиларнинг ўртача намунасининг кимёвий таркибидаги гуруҳлар ўртасидаги фарқ унчалик катта эмас, лекин биринчи экспериментал гуруҳнинг эчкилари устунликка эга.

Эчки гўшти ишлаб чиқариш самарадорлиги кўп жиҳатдан гўшт маҳсулдорлиги даражасига боғлиқ. Эчкиларнинг тажриба гуруҳлари ўртасида озиқланишнинг бир хил даражаси билан биз уларнинг гўшт маҳсулдорлигининг миқдори ва сифати бўйича фарқларни аниқладик.

Тажрибадаги эчкиларни сўйиш бўйича олинган маълумотларга асосланиб, биз бозорда бир бошни сотишдан тушган даромадни ҳисоблаб чиқдик. Қорақалпоғистон бозорида 1 кг эчки гўштининг ўртача нархи 49 мингни ташкил қилади. Шундай қилиб, бизнинг тадқиқотимиз давомида эчки тана гўштини бозорда сотишда биз биринчи экспериментал гуруҳ (совутилган тана гўштининг массаси 15,33 кг) сотишдан қуйидаги ҳақиқий тушумни олдик, иккинчи гуруҳ учун 564,4 минг сумни ташкил этди.


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311092

Совутилган тана гўштининг массаси 11,52 кг) – 403,2 минг сум ва назорат қилиш учун (совутилган тана гўшти оғирлиги 12,12 кг) – 593,8 минг сум.

Берилган маълумотлардан кўрамизки, парвариш қилиш учун энг катта харажатлар биринчи тажриба гуруҳи эчкиларида (435,38), иккинчи тажриба гуруҳи эчкиларида бу кўрсаткич 422,22 минг сумни, назорат гуруҳида эса энг кўп бўлган. Энг кичиги – 368,08 минг сумни назорат гуруҳларда етиштиришнинг юқори харажатлари ишлатилган аралаш озуқа нархи билан изоҳланади, унинг нархи назорат гуруҳидаги эчкиларникидан 2 баравар кўп эди. Шундай қилиб, ўсишнинг таннархи ва ўсиш интенсивлиги ва тирик вазндаги фарқ етиштиришнинг рентабеллик даражасига таъсир кўрсатди.

Шундай қилиб, биринчи тажриба гуруҳининг эчкиларида рентабеллик даражаси энг юқори бўлиб, 42,17% ни ташкил этди, иккинчи тажриба гуруҳи эчкиларида бу кўрсаткич энг паст – 25,20% ва назорат гуруҳидаги эчкиларда рентабеллик 38,02% ни ташкил этди. Ўтказилган тадқиқотлар натижалари эчкиларни эрта ёшда кастратсия қилишнинг иқтисодий нуқтаи назардан номақбуллигини тасдиқлади.

**Хулоса.** Эчкиларни назорат сўйим натижаларига кўра, биринчи тажриба гуруҳидаги эчкилар бошқа гуруҳлардаги тенгдошларига нисбатан яхшироқ сўйим кўрсаткичига эга эканлиги аниқланди. Шундай қилиб, биринчи тажриба гуруҳининг эчкиларида жуфтланган тана гўштининг вазни энг катта бўлди, яъни 15,56 кг, бу сезиларли фарқ билан назорат гуруҳидаги эчкиларга қараганда 3,2 кг га кўп (P> 0,999). Иккинчи тажриба гуруҳнинг эчкилари (бичилган) бу кўрсаткич бўйича бошқа гуруҳлардаги аналоглардан паст эди, биринчи гуруҳ эчкилари билан фарқ 3,84 кг ва назорат гуруҳи – 0,640 кг.

Ветеринария лабораторияси мушакларининг физик ва технологик кўрсаткичлари биринчи ва иккинчи гуруҳдаги тажрибадаги эчкиларнинг мушак тўқималарининг юқори қийматини тасдиқлайди. Энг юқори ёғлилик, биз кутганимиздек, иккинчи гуруҳ эчкиларида – 7,48%, энг паст кўрсаткич назорат гуруҳидаги эчкиларда – 2,31% бўлди.

Намлик миқдори бўйича унинг энг юқори миқдори назорат гуруҳидаги эчкиларда 76,17%, биринчи ва иккинчи гуруҳ эчкиларида – мос равишда 74,13% ва 73,07%, сезиларли фарқ билан (P> 0,05). Қуруқ моддаларнинг таркибига кўра, энг юқори кўрсаткич кастратсия қилинган эчкиларда 26,93%, энг паст фоиз – назорат гуруҳидаги эчкиларда (23,83%).

Гўшт учун эчки етиштиришнинг иқтисодий самарадорлигининг асосий кўрсаткичлари маҳсулот таннархи, уни сотишдан тушган тушум, фойда ва рентабелликдир. Шундай қилиб, биринчи тажриба гуруҳи эчкиларида рентабеллик даражаси энг юқори бўлиб, 42,17% ни ташкил этди, иккинчи тажриба гуруҳи эчкиларида бу кўрсаткич энг паст 25,20% ва назорат гуруҳидаги эчкиларда рентабеллик даражаси 38,02% ни ташкил этди.

Шундай қилиб, тадқиқотлар натижасида эчкиларни 8 ойлигида сўйишда сўйиш даражаси ва гўшт сифатига ижобий таъсир кўрсатувчи асосий омил “озуқа омили” эканлиги аниқланди. Бичиш фақат эчкиларнинг гўшт ва сўйим кўрсаткичларининг шаклланишини секинлаштиради.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Методические рекомендации по оценке мясной продуктивности и качества мяса убойного скота. – ВНИИМС. – Оренбург, 1984. – 58 с.
2. Рассихина, В. Э. Маркетингове дослвдження регюнального ринку продукции вивчарства / В. Э. Рассихина // Инновация экономика: Всеукраинський науково-виробничний журнал. – 2011. – № 7. – С. 184-191.

2-ŞÖBA · ÇORVAÇILIK VA HAYVONLAR MAHSULDORLIGI

UDK: 636.22./28.082

# SIGIRLAR RATSIONIGA BIOLOGIK QÖŞIMÇALAR KIRITIŞ ORQALI SUT MAHSULDORLIGIGA TA'SIRI (TAHLILIY)

**Jańabaev Timur Baxadır ulı. Qişloq xöjalik hayvonlari seleksiyasi va nasilçiligi**

1-bosqiç magistranti

**Nuratdinova Ulday Sağınbay qızı. Zooinjeneriya (tu'rlari böyişa)**

3-bosqiç bakalavr

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, çorvaçilik va biotexnologiyalari universiteti**

**Nukus filiali**

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311093

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
461–464

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Jańabaev T.B., Nuratdinova U.S. Sigirlar ratsioniga biologik qöşimçalar kiritiş orqali sut mahsuldorligiga ta'siri (tahliliy) // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 461–464. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311093

ANNOTATSIYA Maqolada sigirlar ratsioniga kiritiladigan biologik qöşimçalar himoya yoğlar, vitaminlarni sut mahsuldorligi hamda sut tarkibiga ta'siri adabiyotlar asosida tahlil qilindi. Tahlilda biologik qöşimçalar samaradorligi ratsionning tölaqimmatligi, laktatsiya davrida va sigirlarning individual xususiyatlariga boğliqligini körsatdi. Olingan tahliliy ma'lumotlar asosida sigirlar ratsioniga biologik qöşimçalarni sigirlar ratsioniga qöşiş va ulardan foydalaniş maqsadga muvofiqligini körsatadi.

KALIT SÖZLAR sut mahsuldorligi, ratsion, biologik qöşimçalar, vitaminlar, xamirturuş, laktatsiya, sut yoği.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА молочная продуктивности, patsion, биологические добавки, витамины, дрожжи, лактатсія, молочное масло.

**Аннотатсія.** В стате на основе литературы проанализировано влияние биологических добавок, вводимых в patsion коров, защитных жиров, витаминов на молочную продуктивности и состав молока. Анализ показал, что эффективности биологических добавок зависит от полнотсенности patsiona, периода лактатsii и индивидуальных особенностей коров. На основании полученных аналитических данных показана целесообразности добавления биологических добавок в patsion коров и их использования.

**Abstract.** The article analyzes, based on literature, the impact of biological additives, protective fats, and vitamins added to cows' rations on milk productivity and milk composition. Analysis şowed that the effectiveness of biological supplements depends on the nutritional value of the diet, the lactation period, and the individual çaracteristics of the cows. Based on the obtained analytical data, the feasibility of adding biological additives to the cows' diet and their use is demonstrated.

**Keywords:** milk productivity, diet, biological supplements, vitamins, east, lactation, milk butter.

**KIRIŞ.** Sutdor qoramolçilikda mahsuldorlik sigirning irsiy imkoniyati bilan oziqlantiriş va saqlaş şaroitining birgalikdagi natijasidir. Hayvonlarning mahsuldor bölib şakllanişiga ratsionning tölaqimmatligi va oziqlantiriş turi katta ta'sir körsatadi. Daniya seleksiyasiga mansub golştin zotli sigirlarning turli liniyalarida sut mahsuldorligi 7627,7 kg dan 6419,6 kg gaça farq qilgan va ularning irsiy imkoniyatini namoyon etiş esa ratsion sifatiga boğliq ekanligini körsatgan [1].

Laktatsiya davrida 1 kg sut hosil bölişi uçun yelindan 500–600 litr qon oqib ötadi, kunlik sut miqdori esa tuğilgandan keyingi birinçi–uçinçi oyda maksimal darajaga yetadi. Yuqori sut beriş moddalar almaşinuvini kuçaytiradi va oziqlantirişni töğri taşkil etişni talab qiladi: sigir 4000–6000 kg sut berganda sut bilan 144–220 kg oqsil, 150–300 kg yoğ, 200–300 kg laktoza, 6–9 kg kalsiy va 4,5–7,0 kg fosfor ajratib çiqaradi. Laktatsiya odatda 305 kun, quruq davr esa 60 kungaça davom etişi mumkin. Şu sababli ratsionni asosiy ozuqalar bilan çeklab bölmaydi, biologik qöşimçalarni qöllaş masalasi dolzarb hisoblanadi [2; 3].

**Tadqiqotning maqsadi.** Sigirlar ratsioniga kiritiladigan biologik qöşimçalarning sut mahsuldorligiga ta'siri haqida ilmiy-tadqiqot natijalining qiyosiy tahlil qilişdan iborat.

**Tadqiqot natijalari va ularning tahlili.** Biologik qöşimçalar asosan, ratsiondagi ozuqlar sifatini yaxşilidi va töyimligini oşiradi.

Tölaqiymatli ratsion asosida boqilgan sigirlarning sut mahsuldorligi oddiy usullarda boqilganlarnikidan yuqori böladi. Sigirlarning qişgi ratsionida bir kunlik ozuqa sarfi 12,84 ozuqa birligi, hazmlanuvçi protein 2003 g bölgan. Golşteyn sigirlari em-xaşakka talabçan böladi, agar ozuqa moddalari yetişmasa, sut yoği 1,0% ga pastga tuşişi mumkin. Yozgi ratsionida 12,41 ozuqa birligi va 2798 g hazmlanuvçi protein közda tutilgan. Har 1 ozuqa birligiga oş tuzi 6,5–7,5 g, kalsiy 6,5–7,4 g, fosfor 4,5–5,5 g beriş tavsiya etiladi. Konsentrat miqdori kunlik sut 20–25 kg bölganda 8–12 kg, 25 kg dan ortiq bölganda esa taxminan 13 kg, yoki har kilogramm sutga 300 g hisobida belgilanadi [3; 4].

Biologik qöşimça ozuqalarni berilgan sigirning fiziologik holatiga qarab beriladi. Naslçilik xöjaligida oziqlantiriş tört bosqiçda taşkil etilgan: tuğruqxonada tuqqandan keyingi 1–2 kun 0,5 kg buğdoy kepagi 10 l suvga aralaştirilib atala qilib beriladi, 3–4-kunlari piçan, 5–6-kunlari ildizmevali ozuqalar, 7-kuni silos qöşilib, 8–9-kunlari töliq ratsionga ötkaziladi; söng sutni oşiriş va qoçiriş sexida (2–3 oy), sut işlab çiqariş sexida va quruq davrda alohida ratsion qöllaniladi. Tuqqandan keyin buzoq uçun oğiz suti 7–10 kun beriladi va unda quruq modda 26–28 % ni (oddiy sutda 12,5 %) taşkil etadi. Demak, qöşimçalar ayniqsa tuğişdan keyingi va sut keliş davrida, organizm ehtiyoji eng yuqori bölganda, samarali bölişi mumkin [2; 3].

Genetik omil ham samaraga ta'sir qiladi. Bir xöjalikdagi Daniya liniyalarida Oman Justi sigirlarining sut yoği çiqimi 300,1 kg va 4% li sut miqdori 7502,8 kg bölgan bölsa, Ha Manfred liniyasida 269,3 va 6732,8 kg, Arlinda liniyasida 255,2 va 6379,0 kg ni taşkil etgan. Golşteyn zoti sut miqdoriga qarab tanlangan, şuning uçun sut yoği va oqsil miqdori nisbatan past bölişi mumkin yoğ va oqsil böyiça qöşimçalarga ehtiyoj şundan kelib çiqadi degan xulosaga kelgan [1; 4].

IQTIBOS UÇUN Seydanov I. Qoraqalpoğiston yaylovlari florasining sigir suti organoleptik xususiyatlari va sifat körsatkiçlariga ta'siri // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 481–483. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311099

ANNOTATSIYA Uşbu ilmiy işda Qoraqalpoğiston Respublikasi tabiiy yaylovlarida tarqalgan ösimliklar florasining sigir suti organoleptik xususiyatlari va fizik-kimyoviy sifat körsatkiçlariga ta'sirini örganiş masalasi tahlil qilinadi. Yaylov ösimliklarining botanik tarkibi, oziqaviy qiymati va mavsumiy özgarişlari qoramollarning oziqlaniş holati hamda sut tarkibiga ta'sir etuvçi muhim omillardan hisoblanadi. Tadqiqot doirasida yaylov florasini aniqlaş, ozuqaning kimyoviy tarkibini baholaş, sutning organoleptik va fizik-kimyoviy xususiyatlarini örganiş hamda ular örtasidagi boğliqlikni statistik tahlil qiliş rejalaştirilgan. Olingan ma'lumotlar Qoraqalpoğiston şaroitida yaylovlardan samarali foydalaniş va sut sifatini yaxşilaş böyiça ilmiy-amaliy tavsiyalar işlab çiqişga asos bölişi mumkin.

KALIT SÖZLAR Qoraqalpoğiston tabiiy yaylov florasi, ozuqaviy qiymat, qoramolçilik, sigir suti, organoleptik xususiyatlar, fizik-kimyoviy körsatkiçlar.

**KIRIŞ.** Çorvaçilik mahsulotlari işlab çiqarişda hayvonlarning oziqlaniş tizimi, ozuqa manbalarining tarkibi va sifati muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, sut çorvaçiligida sigirlarning ratsioni nafaqat sut mahsuldorligiga, balki sutning kimyoviy tarkibi, biologik qiymati va organoleptik xususiyatlariga ham ta'sir körsatadi. Tabiiy yaylovlar qoramollar uçun muhim oziqa manbai bölib, ularning floristik tarkibi hududning tuproq-iqlim şaroiti, namlik darajasi, vegetatsiya davri va antropogen ta'sirga boğliq holda şakllanadi. Yaylovlarda uçraydigan turli ösimlik oilalariga mansub turlar oziqaviy tarkibi jihatidan bir-biridan farqlanadi.

Qoraqalpoğiston Respublikasining tabiiy-geografik şaroiti. Qoraqalpoğiston Respublikasi Özbekistonning eng yirik hududi hisoblanadi va umumiy maydoni 166,6 ming $km^2$ ni taşkil qiladi. Mintaqa Orol dengizining qurib borayotgan qismida joylaşgan bölib uning katta qismini çöl va yarim çöl hududlar egallaydi. Amudaryo böyidagi suğorma dehqonçilik hududlaridan taşqari, qolgan katta hudud yaylov sifatida foydalaniladi. Asosiy yaylovlar Ustyurt platosi, Qoraqum, Qizilqum çöllari va Amudaryo deltasining quruq

qismlarida joylaşgan. Uşbu hududlarda yil böyi çorva boqişga mos ötloq-ötlar, şöralar, efemerlar ösadi [1].

Qoraqalpoğiston hududining muhim yaylov mintaqalaridan biri bölgan Qoraqalpoq Ustyurtining ozuqabop florasi böyiça olib borilgan tadqiqotda uşbu hududning yem-xaşak florasi 54 ta oilaga, 244 ta turkumga mansub kamida 497 turdagi ozuqabop ösimliklar qayd etilgan. 10 dan ortiq turga ega Ustyurtning yem-xaşak florasi spektrida yetakçi örinni Amaranthaceae (80 tur), Asteraceae (77), Poaceae (58), Brassicaceae (55), Fabaceae (34), Boraginaceae (33), Apiaceae (16), Caryophyllaceae (14) i Polygonaceae (11) oilalari egallaydi. Spektr qöşni Qizilqum yem-xaşak florasining yetakçi oilalariga deyarli mos keladi va turon pasttekisligi uçun bu ikki ulkan floraning umumiy kelib çiqişidan dalolat beradi. Yetakçi oila vakillari 378 turni yoki örganilayotgan hududning umumiy yem-xaşak florasining 73,1% ni birlaştiradi. [2].

**Tadqiqotning maqsadi** — Qoraqalpoğiston tabiiy yaylovlarida tarqalgan ösimliklarning botanik va oziqaviy tarkibini örganiş hamda ularning sigir suti organoleptik va fizik-kimyoviy körsatkiçlariga ehtimoliy ta'sirini baholaş.

**Tadqiqot vazifasi:** yaylov ösimliklari turlarini aniqlaş; ularning mavsumiy özgarişlarini örganiş; ozuqa tarkibidagi xom protein, yoğ, kletçatka va mineral moddalarni aniqlaş; sigirlar ratsionini baholaş; sutning rangi, hidi, ta'mi va konsistensiyasini tekşiriş; sutdagi yoğ, oqsil, laktoza, ziçlik va kislotalilik körsatkiçlarini aniqlaş; olingan ma'lumotlar örtasidagi boğliqlikni statistik baholaş.

## TADQIQOT MATERIALLARI VA USULLARI

Dastlabki tadqiqot loyihasida 30 boş soğin sigirni tanlab olib, kuzatuvlarni 120 kun davomida amalga oşiriş taklif etiladi. Hayvonlarni har birida 10 boşdan uç guruhga ajratiş közda tutiladi: birinçi guruh — an'anaviy ratsiondagi nazorat guruhi; ikkinçi va uçinçi guruhlar — tarkibi yoki uluşi farqlanadigan yaylov ozuqasi asosidagi ratsionlar bilan oziqlantiriladigan tajriba guruhlari. Guruhlar zoti, yoşi, laktatsiya davri va boşlanğiç sut mahsuldorligi böyiça imkon qadar tenglaştirilişi, ratsionlar esa energiya, protein va mineral moddalar böyiça muvozanatlaştirilişi lozim.

Yaylov florasini örganişda geobotanik kuzatuv, ösimliklarni aniqlaş hamda botanik tarkibni tahlil qiliş usullaridan foydalaniladi. Ozuqa namunalarida quruq modda, xom protein, xom yoğ, xom kletçatka va mineral moddalar aniqlanadi. Sutning organoleptik körsatkiçlari — rangi, hidi, ta'mi va konsistensiyasi; fizik-kimyoviy körsatkiçlari — yoğ, oqsil, laktoza, ziçlik, kislotalilik va quruq modda miqdori baholanadi. Laboratoriya imkoniyati mavjud bölsa, yoğ kislotalari profili, jumladan omega-3 va CLA ham örganiladi. Ma'lumotlar tavsifiy statistika, dispersiya va korrelyatsion tahlil yordamida qayta işlanadi.

## KUTILAYOTGAN NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijasida Qoraqalpoğiston tabiiy yaylovlarining ozuqabop floristik tarkibi va yem-xaşak oziqaviy qiymati haqida tizimli ma'lumotlar oliş kutiladi. Ösimliklarning tur tarkibi va vegetatsiya davriga qarab ozuqa tarkibidagi protein, kletçatka va mineral moddalar özgarişi baholanadi.

Ilmiy adabiyotlar yaylov asosidagi oziqlantiriş sut yoğining yoğ kislotalari profiliga ta'sir qiliş mumkinligini körsatadi. Biroq sutning rangi, hidi va ta'mi faqat yaylov florasiga boğliq


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311099

emas: sigir zoti, fiziologik holati, laktatsiya davri, salomatligi, ratsion muvozanati, saqlaş va soğiş gigiyenasi ham hisobga olinişi kerak. Şu bois tadqiqotda uşbu omillar nazorat qilinişi lozim.

1. Yaylovlarda erkin holda boqilgan çorva mollarining mahsuldorligi turğun holda boqilgan mollar mahsuldorliga nisbatan 20-25 % yuqori böladi.

2. Mahsulotning tannarxi 30-40 % ga kamayadi.

3. Çorva mollarining yaylovlarda boqiş 180-280 kunni taşkil qilganligi uçun bu davrda ötni öriş, taşiş, mollarga tarqatiş, nuşxörd va göng tozalaş, suğoriş işlarini ötkaziş talab qilinmaydi.

4. Soğin sigirlarda uçraydigan «Mastit» kasalligi yaylovlarda boqilgan mollarda uçramaydi.

5. Çorva mollarining nasli yaxşilanib boradi (100 boş sigirdan 95 – 98 boş soğlom buzoq olinadi).

6. Göşt, sut, jun va teri mahsulotlarining sifati keskin yaxşilanadi.

7. Yaylovlarda boqilgan çorva mollari vitaminli kök ozuqa bilan uzoq muddat ta’minlangan böladi.

**XULOSA.** Qoraqalpoğiston tabiiy yaylovlarining floristik tarkibi va yem-xaşakning oziqaviy qiymatini örganiş sut çorvaçiligini rivojlantirişda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Taklif etilayotgan tadqiqot yaylov florasi, ozuqaning kimyoviy tarkibi va sigir suti sifat körsatkiçlari örtasidagi ehtimoliy boğliqlikni baholaşga qaratilgan. Kelgusida olinadigan tajriba natijalari mahalliy ozuqa resurslaridan samarali foydalaniş va sut sifatini yaxşilaş böyiça ilmiy tavsiyalar işlab çiqişga xizmat qilişi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. Умаров Е.К., Жолдасов А.С., Ходжаева Г. УЗБЕКИСТАН Р. АРАЛЬСКИЙ ЭКОЛОГИЧЕСКИЙ КРИЗИС И ОСОБЕННОСТИ ДЕМОГРАФИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН. – 2009.
2. Rakhimova N. Taxonomic analysis of fodder plants of the Karakalpak Ustyurt. ÖzMU Xabarlari. Tabiiy fanlar. 2023; 3(3.1.1). https://journals.nuu.uz/index.php/actanuuz/article/view/14313.
3. Norqulov U., Şeraliyev H. Yaylovlar melioratsiyasi /darslik. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2010. – 160 bet.
4. Joldasov A.S, Ramanova D.R. QORAQALPOG‘ISTONDA YAYLOV ÇORVAÇILIGINING TARKIBIY RIVOJLANIŞI VA HUDUDIY XUSUSIYATLARI. JOURNAL OF ИҚРО – IQRO JURNALI – volume 16, issue 02, 2025. ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARÇ BIB) – 7,245, SJIF – 5,431. www.wordlyknowledge.uz
5. Jaqsibaev R.N., Gabbarov S.N., Sultaşova O.G., Maxsudov R.I. YAYLOV YERLARNING BUGUNGI KUNDAGI HOLATI VA ULARNING GEOINFORMATSION TAHLILI (Qoraqalpoğiston Respublikasi misolida). Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti. ZAMONAVIY GEOGRAFIK TADQIQOTLARDA HUDUDLARNING IJTIMOIY-IQTISODIY VA INNOVATSION RIVOJLANIŞI, TABIATDAN OQILONA FOYDALANIŞ VA TURIZM MASALALARI Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (Nukus ş., 2021 yil 26-27 oktabr).
6. Özbekiston Respublikasi Qişloq xöjaligi vazirligi. Yaylov ösimliklari mahsuldorligin oşiriş hamda çorva ozuqa bazasini köpaytiriş böyiça amaliy qöllanmasi. Yaylov ТАВСИЯ 06.09.2026. https://online.pubhtml5.com/cnxvw/cnbu/.
7. YAYLOVLARDA ÇORVAÇILIKNI TAŞKIL ETIŞ. 100 kitob töplami. «Agrobank» ATB.-Toşkent: "TASVIR" naşriyot uyi, 2021. – 56 b.

2-ŞÖBA · ÇORVAÇILIK VA HAYVONLAR MAHSULDORLIGI

UDK:636.6.

# KOOB-500 BROYLER KROSSI JÖJALARINING GOŞT TARKIBI

**Joldasbaev Berikbay Ansatbay öğli,**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, çorvaçilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali tayanç doktoranti*

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311100

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
484–486

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Joldasbaev B.A. KOOB-500 broyler krossi jöjalarining goşt tarkibi // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 484–486. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311100

АННОТАЦИЯ Uşbu tadqiqotda Kobb-500 broyler krossining göştini ipak gumbagi bilan oziqlantirişning kimyoviy tarkibga ta'siri örganildi. Tajriba davomida broyler jojalari 35 kun davomida boqildi va ularning göşt tarkibidagi namlik, quruq modda, oqsil, yoğ va kul miqdori standart laboratoriya metodlari yordamida aniqlandi. Natijalar şuni körsatdiki, ipak gumbagi qöşimçasi göşt tarkibida oqsil va quruq modda miqdorini oşiradi, yoğ miqdorini kamaytiradi va göşt sifatini yaxşilaydi. Bu tadqiqot mahalliy şaroitlarda broyler boqiş samaradorligini oşiriş va sifatli göşt yetiştirişga ilmiy asos yaratadi.

KALIT SOZLAR Broyler göşti, Kobb-500, ipak gumbagi, oqsil tarkibi, quruq modda, göşt sifati

ANNOTATION This study investigated the effect of feeding Kobb-500 broilers with silk worm pupae on the çemical composition of meat. Broilers were reared for 35 days, and their meat content of moisture, dry matter, protein, fat, and aş was determined using standard laboratory methods. The results şowed that silk worm pupae supplementation increased protein and dry matter content, decreased fat content, and improved meat quality. This researç provides a scientific basis for improving broiler rearing efficiency and producing high-quality meat under local conditions.

KEY WORDS Broiler meat, Kobb-500, silk worm pupae, protein content, dry matter, meat quality

**Kiriş.** Broyler göşti bugungi kunda inson organizmi uçun eng muhim oqsil manbalaridan biri hisoblanadi. Göştning sifati va uning kimyoviy tarkibi nafaqat krossning genetik xususiyatlariga, balki boqiş şaroitlari, yoş va oziqlaniş tizimiga ham boğliq. Ayniqsa, oqsil, yoğ va quruq modda miqdori göştning oziqaviy va savdo qiymatini belgilovçi asosiy körsatkiçlardir. Şu sababli, broyler göşti sifatini oşiriş va uni soğlom, foydali mahsulot sifatida yetkaziş ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

Sönggi yillarda broylerlar uçun tabiiy oqsil manbalari sifatida ipak gumbagi qöşimçalari keng örganilmoqda. Tadqiqotlar şuni körsatadiki, ipak gumbagi oqsilga boy bölib, broylerlarning ösiş samaradorligini oşiradi va göşt tarkibidagi quruq modda hamda oqsil miqdorini köpaytiradi, yoğ miqdorini esa kamaytiradi. Şu bilan birga, ipak gumbagi

qöşimçasi broyler göştining kimyoviy tarkibiga sezilarli ijobiy ta'sir körsatib, göşt sifatini yaxşilaydi va uni iste'mol uçun qulay qiladi.

Şu nuqtai nazardan, Kobb-500 broyler krossining göştini ipak gumbagi bilan oziqlantirişning kimyoviy tarkibga ta'sirini aniqlaş tadqiqotning asosiy maqsadi bölib, bu nafaqat göşt sifatini oşiriş, balki mahalliy şaroitlarda broyler boqiş samaradorligini baholaşga ilmiy asos yaratadi.

**Asosiy qisim.** Broyler jojalari göştining kimyoviy tarkibini aniqlaşda standart laboratoriya metodlaridan foydalanildi. Namlik va quruq modda miqdori AOAC (1995) usuli böyiça ölçandi: avvalo göşt namunasi quruq vaznda aniqlanib, keyin namlik foizi hisoblab çiqildi. Oqsil miqdori Kjeldahl usuli yordamida aniqlanib, foizlarda ifodalandi. Yoğ miqdori Soxhlet ekstraksiya usuli orqali belgilanib, kul tarkibi esa qoldiqni mufassal tahlil qiliş orqali hisoblandi.

Barça natijalar örtaça ± standart xato şaklida taqdim etildi va statistik tahlilda P<0,05; P<0,01; P<0,001 darajalari böyiça sezilarli farqlar aniqlangan.

**1-jadval**. Broyler jöjalari göştining kimyoviy tarkibi, (35 kunlik)%

| Körsatkiçlar | Guruhlar | | | |
|---|---|---|---|---|
| Quruq modda | I-Nazorat -0% (n-5) | II-Tajriba +5% (n-5) | III-Tajriba +10% (n-5) | IV-Tajriba +15% (n-5) |
| Namlik | 76,39±0,16 | 75,91±0,03* | 74,84±0,03*** | 74,46±0,02*** |
| Quruq modda | 23,61±0,02 | 24,09±0,04*** | 25,16±0,02*** | 25,54±0,07*** |
| Oqsil | 21,15±0,32 | 21,76±0,04* | 22,91±0,03** | 23,37±0,07*** |
| Yoğ | 1,51±0,01 | 1,36±0,03** | 1,27±0,02* | 1,18±0,01*** |
| Kul | 0,95±0,01 | 0,97±0,03* | 0,98±0,02* | 0,99±0,01* |

IZOH: *P<0,05**P<0,01***P<0,001

Tajriba davomida 35 kunlik broyler jojalari göşti tarkibi örganildi va ipak gumbagi qöşimçasining ta'siri aniqlangan. Natijalar şuni körsatdiki, qöşimça miqdori ortişi bilan göşt tarkibidagi asosiy körsatkiçlar sezilarli tarzda özgaradi.

Namlik nazorat guruhida 76,39±0,16% ni taşkil qilgan bölsa, tajriba guruhlarida kamaygan: +5% qöşimça olgan guruhda 75,91±0,03% (*P<0,05), +10% guruhida 74,84±0,03% (***P<0,001), va +15% guruhida 74,46±0,02% (***P<0,001).

Quruq modda miqdori esa oşgan. Nazorat guruhida 23,61±0,02% bölsa, tajriba guruhlarida mos ravişda +5% qöşimça bilan 24,09±0,04% (***P<0,001), +10% bilan 25,16±0,02% (***P<0,001), va +15% bilan 25,54±0,07% (***P<0,001) ni taşkil qilgan.

Oqsil tarkibi ham ortgan: nazorat guruhida 21,15±0,32%, +5% guruhida 21,76±0,04% (*P<0,05), +10% guruhida 22,91±0,03% (**P<0,01), va +15% guruhida 23,37±0,07% (***P<0,001).

Yoğ miqdori esa pasaygan. Nazorat guruhida 1,51±0,01% bölsa, tajriba guruhlarida +5% qöşimça bilan 1,36±0,03% (**P<0,01), +10% bilan 1,27±0,02% (*P<0,05), va +15% bilan 1,18±0,01% (***P<0,001) ni taşkil qilgan.

Kul tarkibi biroz oşgan: nazorat guruhida 0,95±0,01% bölsa, tajriba guruhlarida +5% qöşimça bilan 0,97±0,03% (*P<0,05), +10% bilan 0,98±0,02% (*P<0,05), va +15% bilan 0,99±0,01% (*P<0,05) ni taşkil qilgan.

**Xulosa.** Ötkazilgan tadqiqot şuni körsatdiki, Kobb-500 broyler jojalarini rasionga ipak gumbagi qöşiş ularning göştining kimyoviy tarkibiga ijobiy ta'sir qiladi. Rasiondagi qöşimça miqdori ortişi bilan göşt tarkibidagi oqsil va quruq modda miqdori barqaror ravişda oşadi, yoğ miqdori esa kamayadi, kul tarkibi esa biroz köpayadi. Bu körsatkiçlar broyler göştining oziqaviy qiymatini yaxşilaşga xizmat qiladi.

Rasionga 5% ipak gumbagi qöşiş göşt tarkibini optimallaştirişda eng optimal natijani beradi: oqsil va quruq modda tarkibini oşiradi, yoğ miqdorini kamaytiradi va göştning boşqa sifat körsatkiçlariga salbiy ta'sir körsatmaydi.

Natijalar şuni körsatadiki, mahalliy şaroitlarda broylerlarni rasionga 5% ipak gumbagi qöşiş göşt sifatini yaxşilaş va ozuqaviy jihatdan boy mahsulot yetiştirişda samarali vosita hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI

1. AOAC. (1995). Official Methods of Analysis, 16th Edition. Association of Official Analytical Çemists, Waşington, D.C.
2. Singh, P., & Kumar, R. (2020). Effect of dietary protein sources on broiler meat quality. Poultry Science Journal, 99(6), 2800–2810.
3. Wang, Y., et al. (2019). Nutritional and functional properties of silkworm pupae in poultry feed. Animal Feed Science and Teçnology, 256, 114234.
4. Zhang, L., & Li, H. (2018). Influence of natural protein supplements on broiler growth and meat composition. Journal of Animal Nutrition, 4(2), 45–53.


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311100

2-ŞÖBA · ÇORVAÇILIK VA HAYVONLAR MAHSULDORLIGI

# QORAQOLPOG‘ISTON SHAROITIDA MO‘G‘ULISTONNAN OLIB KELINGAN “BAYAT” ZOTLI QO‘YLARI VA ULARNING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Kaliyev B.A., Kalniyazova A.E.,**
**Madraximov Sh.N., Mamatov X.A.**
*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filliali*

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311101
NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus
SAHIFALAR
**487–489**
NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Kaliyev B.A., Kalniyazova A.E., Madraximov Sh.N., Mamatov X.A. Qoraqolpog‘iston sharoitida Mo‘g‘ulistonnan olib kelingan “Bayat” zotli qo‘ylari va ularning biologik xususiyatlari // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 487–489. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311101

ANNOTATSIYA / **Abstract**
*Ushbu tezisda Qoraqalpog‘istonning turli mintaqalari yaylov sharoitlariga Mo‘g‘ulistondan olib kelingan va mahalliylashtirilayotgan “Bayat” (Bayad) zotli qo‘ylarning biologik xususiyatlari, iqlimiy sharoitlarga moslashuvchanligi hamda go‘sht mahsuldorligi ko‘rsatkichlari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan. Olingan dastlabki natijalar va tana tuzilishi tahlillari ushbu zotning respublikamiz chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirishdagi hamda yuqori sifatli, arzon go‘sht mahsulotlari yetishtirishdagi iqtisodiy va seleksion samaradorligini to‘laqonli asoslab beradi.*

KALIT SO‘ZLAR Bayat zoti, Mo‘g‘uliston qo‘ychiligi, mahalliylashtirish, go‘sht mahsuldorligi, tirik vazni, moslashuvchanlik, seleksiya.

## 1. KIRISH

Bugungi kunda aholiga go‘sht va go‘sht mahsulotlari yetkazib berish hajmini oshirish, chorvachilik tarmoqlarining rentabelligini ta’minlash bugungi kunda agrar soha oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-iyuldagi PQ-225 sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasining bir qator tumanlarida joylashgan fermer xo‘jaliklariga shartnoma asosida Mo‘g‘uliston davlatidan Bayat qoy zotiga mansub jami 8525 bosh, qoylar, shundan Taxtako‘pir tumanida 6112, Beriniy tumanida 1193, Kegayli tumanida 200, Bo‘zatov tumanida 350, Nukus va Xo‘jayli tumanlariga esa 335 boshdan qo‘ylar olib kelingan.Respublikamizning keskin kontinental iqlimi, yaylov resurslarining o‘ziga xosligi chorva zotlaridan yuqori chidamlilik va kamxarj ozuqa evaziga tez yetilish xususiyatini talab etadi. Shu nuqtai nazardan, Mo‘g‘ulistonning ekstremal iqlim sharoitlariga moslashgan, asrlar davomida xalq seleksiyasi vositasida shakllangan “Bayat”zotli qo‘ylari respublikamiz chorvadorlarida katta qiziqish uyg‘otmoqda.

## 2. ZOTNING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA MAHSULDORLIGI

Bayat zotli qo‘ylar mustahkam konstitutsiya tipiga ega, suyaklari yetarlicha rivojlangan, ancha yirik va katta, tirik vazni, go‘shtdorlik xususiyatlari, yuqori jun mahsuldorligi va serpushtligi bilan ajralib turadi.Bayat zotli qo‘ylar o‘zining go‘sht-yog‘ yo‘nalishidagi yuqori parametrlari va suyak tuzilishining yengilligi (tana umumiy vazniga nisbatan sof go‘sht salmog‘ining yuqoriligi) bilan ajralib turadi.Bayad zotli qo‘ylar o‘zining mustahkam tana tuzilishi, noqulay iqlim va yaylov sharoitlariga tez moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining keskin kontinental iqlimi, yozning issiq va quruq kelishi hamda qishning sovuq bo‘lishi chorva mollaridan yuqori chidamlilikni talab etami. Dastlabki kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, Bayad zoti mahalliy sho‘rlangan yaylov o‘simliklarini yaxshi o‘zlashtiradi va vazn to‘plash ko‘rsatkichlari yuqori darajada saqlanib qoladi. Matnda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu zotning qo‘chqorlari va sovliqlari o‘z vaznini qisqa muddatda tiklash hamda cho‘l sharoitida uzoq masofalarga harakatlanish xususiyatiga ega. Mahalliy ozuqa bazasidan unumli foydalangan holda Bayat zotli qo‘ylarning tirik vazni va go‘sht chiqimi ko‘rsatkichlarini tizimli ravishda o‘rganish maqsadga muvofiqdir.Yaylovda juda oddiy cho‘l o‘simliklari (shuvoq, sho‘ra, saksaul) bilan oziqlana oladi va ularni go‘sht hamda yog‘ga aylantirish koeffitsiyenti yuqori.



**1-rasm. Bayat qoy zotini tana o‘lchamlari.**

| O‘lchov korsatkichlari | Qo‘chqorlarda | Urg‘ochi sog‘liq |
|---|---|---|
| Tirik vazni | 33-35 kg | 29-30 kg |
| Ko‘kirak aylanasi | 98 sm | 72 sm |
| Ko‘kirak kengligi | 20 sm | 19 sm |
| Qiya uzunligi | 62 sm | 60 sm |
| Dumqoza o‘lchami | 44 sm (aylanasi) | 38 sm (balandligi) |
| **Dum shakli** | Kalta dumli | Kalta dumli |
| **Fe’l atfori** | Qaysar, harakatchang | Qaysar, harakatchang |

## 3. QORAQALPOG‘ISTON SHAROITIGA MOSLASHUVCHANLIGI VA AFZALLIKLARI

Dastlabki ilmiy-amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, Bayat Taxtakopir,Beruniy, Kegayli, Nukus va Xojayli, Bozato‘v tumanlarining quruq cho‘l-yaylovlarida yuqori moslashish ko‘rsatkichlarini namoyon etdi. Uning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- **Chidamliligi:** Mo‘g‘uliston qishining keskin sovuqlari va yozining jaziramasida bu zot mahalliy iqlim o‘zgarishlariga stresslarsiz moslashadi.Sovuq va issiq iqlimga,

kasalliklarga chidamli boʻlib, choʻl sharoitida ham oʻz parvarish sifatini yoʻqotmaydi.

- **Ozuqa konversiyasining yuqoriligi:** Mahalliy dagʻal va past bonitetli yaylov oʻtlarini yuqori darajada hazm qilib, qisqa muddatda tirik vaznga aylantira oladi.
- **Yuqori oʻsish dinamikasi:** Qoʻzilarining sutdan ajratilgandan keyingi davrda kunlik vazn ortishi yuqori boʻlib, tovar goʻsht yetishtirish muddatini sezilarli darajada qisqartiradi.
- **Sanoatdagi oʻrni:** Ulardan olinadigan jun toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda yuqori baholanadi.

## 4. XULOSA

Xulosa oʻrnida ta’kidlash lozim, "Bayat" zotli qoʻylari oʻzining tarixiy genotipi sababli Qoraqalpogʻistonning keskin kontinental iqlimiga, yozgi anomal issiq (+40°C) va qishki anomal juda sovuq (-40°C) sharoitlariga toʻliq moslashuvchanlik koʻrsatdi.“Bayat” zotli qoʻylarni respublikamiz sharoitida koʻpaytirish va mahalliylashtirish ichki bozorda goʻsht mahsulotlari tannarxini arzonlashtirishda yuqori iqtisodiy samara beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-iyuldagi PQ-225 sonli “Moʻgʻulistonga oliy darajadagi tashrif davomida qishloq xoʻjaligi va oziq-ovqat sohalarida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori.
2. Food and Agriculture Organization (FAO). “Sheep breeds of Mongolia and Central Asia: Genetic diversity and adaptation characteristics” // FAO Animal Production and Health Paper. – Rome, 2021.

2-ŞÖBA · ÇORVAÇILIK VA HAYVONLAR MAHSULDORLIGI

# PODANI TA'MINLOVÇI URĞOÇI TANALARNI PARVARIŞLAŞ

**Iqtidorli talabalar: I.Yuldoşova, E.Zarifboev, I.Jarılkasinov**

**Ilmiy rahbar G.Amanova**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, çorvaçilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311102

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
490–492

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Yuldoşova I., Zarifboev E., Jarılkasinov I., Amanova G. Podani ta'minlovçi urğoçi tanalarni parvarişlaş // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 490–492. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311102

**KIRIŞ.** Çorvaçilikka ixtisoslaşgan xöjaliklarda işlab çiqariş sikli davomiyligini ta'minlaş uchun urğoçi tana va ğunojinlarni parvarişlaşga alohida ahamiyat beriş kerak.

Sut içiş davri tugugandan keyin urğoçi tana va buzoqlarni töğri parvarişlaş muhim ahamiyatga ega. Odatda podani ta'mirlovçi urğoçi tanalar engil tipdagi binolar va maydonçalarda boşlamasdan guruh holida saqlanadi. Har bir guruh 40-50 boş urğoçi tanadan iborat böladi. Engil tipdagi binolar va maydonçalarda har bir boş uçun 5 $m^2$ maydon ajaratiladi. Bundan taşqari har bir boş urğoçi tana uchun 15-20 $m^2$ oziqlantiriş-yayratiş madonçasi ajratiladi. Guruhdagi hayvonlarning yoşi örtasidagi farq 1,5-2 oydan, tirik vazni orasidagi farq esa 25-30 kg dan oşmasligi kerak. Urğoçi tana va ğunojinlarni oziqlantirişda me'yor guruhlar böyiça belgilanadi. Ularni oziqlantirişda xöjalikda mavjud, tannarxi arzon oziqalardan foydalaniş maqsadga muvofiq. Oziqa ratsioni urğoçi tana va ğunojinlarni me'yorda rivojlanişini ta'minlaşi kerak. Oziqa ratsioni tarkibidagi qururq modda miqdori 100 kg tirik vazn hisobiga 2,5-3,0 kg ni taşkil etişi kerak.

Oziqa ratsioni tarkibining asosiy qismini şirali va dağal oziqalar taşkil etgan urğoçi tana va ğunojinlar qiş davrida kuniga örtaşa 300-400 g vazn qöşadi. Urğoçi tanalarning kunlik ösişi 450-500 grammga teng bölişi kerak. Kunlik 500-600 g tirik vazn qöşişi uchun urğoçi tana va ğunojinlar ratsioni tarkibiga 1,5-2,0kg konsentrat oziqa qöşii talab etiladi.

Urğoçi tanalarni oziqlantirişda zoti, yoşi, tirik vazni, mahsuldorlik yönalişi inobatga olgan holda me'yor belgilanadi va ratsion tuziladi.

1-jadval. Urğoçi tanalarni oziqlantiriş me'yorlari.

| YOşi, oy | Davr oxiridagi tirik vazni, kg | Oziqlantiriş me'yorlari | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Quruq modda, kg | Oziqa birligi | Almaşinuvçi energiya, mj | Hazmlanuvçi protien, g | Oş tuzi, g | Kalsiy, g | Fosfor,g | Karotin, mg |
| 9-10 | 244 | 7,2 | 4,5 | 6,0 | 495 | 30 | 45 | 25 | 130 |
| 11-12 | 277 | 7,7 | 5,0 | 6,3 | 550 | 35 | 48 | 28 | 140 |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 12-13 | 311 | 9,0 | 5,6 | 7,1 | 620 | 40 | 55 | 30 | 160 |
| 15-16 | 345 | 10,0 | 6,2 | 8,0 | 685 | 45 | 58 | 33 | 180 |
| 17-20 | 413 | 10,8 | 7,0 | 8,8 | 720 | 50 | 60 | 35 | 200 |

Bugungi kunda sut va sut–göşt yönalişidagi qoramolçilikni rivojlantirişdan asosiy maqsad tez etiluvçan, yaxşi rivojlangan, mustahkam konstitutsiyali, soğlom, köp miqdorda hajmli oziqalarni iste'mol qila oladigan hayvonlar olişdan iboratdir. Qoramollarning zotiga va buzoqlarning embrionlik davrdagi rivojlaniş darajasiga qarab buzoqlarning tirik vazni tuğilganda 25- 35 kg atrofida boʻladi yoki onasining tirik vaznining 7-9 % ni tashkil etadi.

Qoramol zotiga qarab 4-5 yoshgaça ösadi, yuqori darajadagi tirik vazngа esa ösişdan töxtagandan keyin 2-3 yildan keyin erişadi. Şuning uçun har bir fermer va şirkat xöjaliklarda qoramollarni östirişda oziqlantiriş rejalari tuzilişi zarur. Ozuqa işlab çiqarişni rivojlantiriç yosh hayvonlarning ösiş va rivojlanişi bilan uzviy boğliq bölişi zarur.

Yoş qoramollarning energiyaga va ayrim töyimlik moddalarga bölgan talabi ösişning jadalligiga qarab özgarib boradi. Naslli urğoçi hayvonlar tuğilgandan 16-18 oylikgaça bölgan davrda kunlik ösişi 700- 750 gramm, erkak buqalariniki esa 800- 850 g dan oşmasligi zarur.



**1-rasm. Buzoqlarni oçiq maydonçalarda guruhlar usulida saqlaş.**

Urğoçi tanalarni oziqlantirişda qiş oylaridagi ratsion tarkibi quyidagiça bölishi mumkin: dağal oziqalar -40-45%, şirali oziqalar -30-40% va konsentrat oziqalar -15-20%.

Çorvaçilikka ixtisoslaşgan xöjaliklarda işlab çiqarish sikli davomiyligini ta'minlaş uçun urğoçi tana va ğunojinlarni parvarişlaşga alohida ahamiyat beriş kerak.

Sut içiş davri tugugandan keyin urğoçi tana va buzoqlarni töğri parvarişlaş muhim ahamiyatga ega. Odatda podani ta'mirlovçi urğoçi tanalar engil tipdagi binolar va maydonçalarda boğlamasdan guruh holida saqlanadi. Har bir guruh 40-50 boş urğoçi tanadan iborat böladi. Engil tipdagi binolar va maydonçalarda har bir boş uçun 5 $m^2$ maydon ajaratiladi. Bundan taşqari har bir boş urğoçi tana uçun 15-20 $m^2$ oziqlantiriş-yayratiş madonçasi ajratiladi. Guruhdagi hayvonlarning yoşi örtasidagi farq 1,5-2 oydan, tirik vazni orasidagi farq esa 25-30 kg dan oşmasligi kerak. Urğoçi tana va ğunojinlarni oziqlantirişda me'yor guruhlar böyiça belgilanadi. Ularni oziqlantirişda xöjalikda mavjud, tannarxi arzon oziqalardan foydalaniş maqsadga muvofiq. Oziqa ratsioni urğoçi tana va ğunojinlarni me'yorda rivojlanişini ta'minlaşi kerak. Oziqa ratsioni tarkibidagi quruq modda miqdori 100 kg tirik vazn hisobiga2,5-3,0 kg ni taşkil etişi kerak.

**Xulosa.** Oziqa ratsioni tarkibining asosiy qismini şirali va dağal oziqalar taşkil etgan urğoçi tana va ğunojinlar qiş davrida kuniga örtaça 300-400 g vazn qöşadi. Urğoçi

tanalarning kunlik ösiçi 450-500 grammga teng bölişi kerak. Kunlik 500-600 g tirik vazn qöşişi uchun urğoçi tana va ğunojinlar ratsioni tarkibiga 1,5-2,0 kg konsentrat oziqa qöşiş talab etiladi.

## ADABIYOTLAR RÖYXATI

1. Ляшенко В.В. Продуктивные и воспроизводительные качества коров – первотелок голштинской породы разной селекции. // Нива Поволжье. – 2015. – № 4 (37) – С. 79-82.
2. Sirliboev J.M Ashirov M.I., Golshtin zotli turli seleksiyadagi sigirlar avlodlarning sut maxsuldorligi. // Chorvachilik va naslchilik ishi. 2023. № 2. 15-17
3. Юлдашев А Голштин зотли турли лактатсиядаги сигирларнинг сут маҳсулдорлиги. //“Agro-ilm”2019 № 3. 52-53 б

 https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311102 

2-ŞÖBA · ÇORVAÇILIK VA HAYVONLAR MAHSULDORLIGI

# TAJRIBADAGI BAYAD ZOTLI QO‘YLAR SUTINING TARKIBI VA XUSUSIYATLARI

**D.K.Embergenova, tayanch doktorant**

**A.U.Toreshova, q.x.f.d (DSc), dotsent**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

https://orcid.org/0009-0009-4044-5534.

**E.mail:** amina.toreshova.83@mail.ru

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311103

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
493–497

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Embergenova D.K., Toreshova A.U. Tajribadagi Bayad zotli qo‘ylar sutining tarkibi va xususiyatlari // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 493–497. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311103

ANNOTATSIYA Mazkur maqolada Mongoliyadan keltirilgan bayad zotli qo‘ylarning Xo‘jayli tumani sharoitida sutining kimyoviy tarkibi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

KALIT SO‘ZLAR bayad zoti, oziqlantirish, yaylov sharoiti, ozuqabop o‘simliklar, sut, yog‘, oqsil, zichlik, kislotalik.

АННОТАЦИЯ В данной статье представлена информация о химическом составе молока овец породы баяды, завезенных из Монголии в условиях Ходжейлийского района.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА порода, питание, пастбищные условия, кормовые растения, молоко, жир, белок, плотность, кислотность.

ABSTRACT This article presents information on the chemical composition of milk from Bayad sheep brought from Mongolia in the conditions of the Khojeyli district.

KEYWORDS breed, nutrition, pasture conditions, fodder plants, milk, fat, protein, density, acidity.

Dog‘istonda sut yo‘nalishidagi qo‘ychilik faol rivojlanmoqda va bu rossiyalik olimlar va seleksionerlarda qiziqish uyg‘otmoqda. G‘uni Kazbekovskiy qishlog‘ida qo‘y suti olinadigan va undan mazali pishloq tayyorlanadigan ferma mavjud. U yerda mazali qo‘y pishlog‘i tayyorlanadi. U qo‘y sutining barcha foydali xususiyatlarini saqlab qoladi, aminokislotalar va mikroelementlarga boy, oqsillar esa go‘shtga qaraganda ko‘proq. Bir kilogramm qo‘y pishlog‘ini tayyorlash uchun deyarli 4 litr qo‘y suti kerak bo‘ladi. Pishloq pishib yetilishi uchun bir oydan ko‘proq vaqt kerak bo‘ladi, ammo u 3 oy saqlangandan so‘ng haqiqiy mazali bo‘lib qoladi.

Sigir va qo‘y suti o‘rtasida fizik-kimyoviy xususiyatlarda farqlar mavjud. Qo‘y suti yuqori solishtirma og‘irlik, yopishqoqlik, sinish ko‘rsatkichi, titrlanadigan kislotalilik va pastroq muzlash haroratiga ega va sigir sutiga qaraganda ko‘proq umumiy qattiq moddalar va ko‘proq ozuqaviy moddalarni o‘z ichiga oladi. Qo‘y sutida yog‘ globulalari hajmi kichikroq

(65% globulalar 3 mkm dan kam). Bu sigir suti yog‘iga nisbatan hazm bo‘lish va samaraliroq lipid metabolizmi uchun foydalidir [1,2].

Sovliqlar turli sharoitlarda 5-7 oy sog‘iladi va 60-250 kg sut beradi. Sovliqlar qorako‘l qo‘ychiligida qo‘zilari teri uchun so‘yilgandan boshlanib 1,5-2 oy sog‘ilib 100-150 kg sut olinadi. Ostfrislyand zotli sovliqning 1283 kg yog‘liligi 7,3 %li sut bergani haqida ma’lumot bor. Romanov zotli sovliqlar eng ko‘p, shuningdek, Tsigay, balbas, qorako‘l sovliqlari yaxshigina sut mahsuldorligiga ega.

Hom va termik ishlov berilgan sut sifatini baholashda kelishmovchilik yuzaga kelgan hollarda uni ta’mi va hidini organoleptik baholash GOST 28283-89 ga muvofiq amalga oshiriladi. Baholashni amalga oshirishda namunalar sut sog‘ilganidan keyin 2 soat o‘tgach olinadi. Har bir namunadagi sut shifrlanishi kerak. Tashqi ko‘rinishi, rangi va konsistensiyasi bo‘yicha GOST 13264-88 talabiga javob bermaydigan sut organoleptik baholashdan o‘tkazilmaydi. [3].

Sovliq suti oq biroz ko‘kishroq rangga ega bo‘ladi, uning tarkibida karotinning kamligi hisoblanadi, shunga qaramay vitamin A ancha yuqori bo‘ladi. Yangi sog‘ib olingan sut tarkibida erkin holda kapron va kapril kislotalarining bo‘lishi o‘ziga xos hid beradi. Shuning uchun sovliq suti sog‘ib olinganda ichilmaydi, balki sut mahsulotlari ishlab chiqarishda ishlatiladi.

**1 – jadval**. Sovliq sutining kimyoviy tarkibi va fizik xossalari, %

| Ko‘rsatkichlar | O‘rtacha | O‘zgarishi |
|---|---|---|
| Quruq modda | 17,9 | 14,6-23 |
| Yog‘ | 6,7 | 4,6-10 |
| Umumiy oqsil | 5,8 | 4,2-9,5 |
| **Shu jumladan:** | | |
| Kazein | 4,6 | 3,2-7,7 |
| Albumin, globulin | 1,2 | 0,4-1,7 |
| Sut qandi | 4,6 | 3,7-6,6 |
| Mineral moddalar | 0,8 | 0,7-1,2 |
| Nordonligi $^0$T | 25,0 | 20-37 |
| pH | 6,7 | 6,5-6,9 |
| Zichligi,$^0$A | 34 | 33-38 |

Sovliq sutida 6% oqsil bo‘lib uning 80 % ini kazein, 20%ini albumin va globulin tashkil qiladi. Sovliq suti ancha yuqori biologik qiymatga ega, 1 kg sutda 0,28 mg $B_1$,1,59mg $B_2$ va 2-3 mg $B_{12}$ vitamini mavjud. Kalciy 235 mg %, fosfor 144 mg % bo‘ladi. Shuningdek sovliq sutida quyidagi mikroelementlar uchraydi: temir (3,2-5,85), mis (0,11-0,27), molibden (0,04) marganec (0,23-0,45), alyuminiy (2,46-4,95), kumush (0,03-0,05), magniy (87,8-149,1), kobalt (0,01-0,03), nikel (0,09--gacha), vanadiy (0,09-0,14), kremniy (4,1-8,1) bor.

Sovliq sutining bufer sig‘imi yuqori bo‘lishi evaziga ancha yuqori nordonlikda (120-150$^0$T) iviydi. Shirdon fermenti ta’sirida ham sekin iviydi, ivitqi qattiq bo‘ladi. Sut yog‘ining donachalari yirikroq bo‘lib (5,6 mkm), 1ml sutda 3-6 mldni tashkil etadi, yog‘ning erish


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311103

darajasi 35-38$^0$C, qotish harorati esa 23-26$^0$C. Sovliq suti yog‘i yumshoq koncistenciyaga ega va oq rangda bo‘ladi.

Kazein va zardob oqsillari bir xilda bo‘lmaydi. Sovliq sutida α va β- frakciyadan tashqari kazeinning γ-frakciya ham uchraydi. Kazein micellalari 92,5-101,5 mm o‘lchamga ega bo‘lib, molekulyar massasi 249-280 mln birlikka ega. Zardob oqsillarida frakciyalar nisbati quyidagicha bo‘ladi: immun globulinlar -19,7%, α-laktoglobulin -28,8, β- laktoglobulin-48,9%, zardobalbumini 2,6, 1kg sutda 52 g aminokislota, shundan 29 g mi almashmaydigan hisoblanadi. Sovliq suti tarkibiga juda ko‘p omillar, ya’ni zoti, individual xususiyati, laktaciya davri, oziqlantirish va saqlash hamda sog‘ish usullari ta’sir etadi. Laktaciyaning oxirida sut tarkibida quruq moddalar miqdori ortadi, quruq modda 23%, yog‘i -10%, oqsil-7,25%, mineral moddalar-0,9% gacha etadi, zichligi 36$^0$A gacha ko‘tarilib, nordonligi pasayadi.

Sovliq suti mahsulotlari janubiy sharqiy Evropa, Kavkaz, O‘rta Osiyo xalqlari tomonidan sevib iste’mol qilinadi, Greciyada jami sutning 50% sovliq sutiga to‘g‘ri keladi. Sovliq suti to‘g‘ridan-to‘g‘ri va sut mahsulotlari sifatida iste’mol qilinishi mumkin. O‘zbekistonda sovliq suti ham iste’mol qilinadi, asosan qatiq va brinza holida eyiladi. 1 kg pishloq tayyorlash uchun sigir sutiga nisbatan 2 barobar kam sovliq suti sarflanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida chorvachilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, ayniqsa, iqlimi keskin kontinental, qurg‘oqchil va sho‘l yer maydonlari ko‘p bo‘lgan yuqori mahsuldor, ekologik stresslarga chidamli xorijiy zotlarni iqlimlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mongolyadan olib kelinib, Xo‘jayli tumani Elbek cho‘rva fermer xo‘jaligining yaylov sharoitiga moslashtirilayotgan Bayad zotli qo‘ylari go‘sht-yog‘, jun mahsuldorligidagi serqirra xususiyatlari bilan bir qatorda, o‘ziga xos biologik xususiyatlari va sut mahsuldorligi bilan ham e’tiborni tortadi. Respublikamizning barcha fermer xo‘jaliklari sharoitda saqlanayotgan qo‘ylarning suti yuqori konsentratsiyali quruq moddalar va biologik faol moddalarga boy bo‘lib, balki yuqori sifatli va shifobaxsh sut mahsulotlarini (pishloq, qurut, quyuq qatiq) ishlab chiqarishda muhim xomashyo manbai hisoblanadi.

Sutning ozuqa mahsuloti sifatida qiymati, uning universal tarkibiga ega ekanligi va tarkibida ko‘plab asosiy ozuqa moddalarini mujassamlashtirganligi hamda organizmning ozuqaga bo‘lgan talabini to‘liq ta’minlay olishi bilan tavsiflanadi. Oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida mavjud bo‘lgan barcha ozuqaviy moddalarni shartli ravishda uch guruhga: organizmning energiyaga bo‘lgan talabiga, xujayra va to‘qimalar qurilishiga hamda organizmda moddalar almashinuvini boshqaradigan moddalarga bo‘lsak, sut tarkibida ozuqaviy moddalarning har uchala toifasi (birinchi guruhi – uglevodlar va yog‘lar, ikkinchi guruhi – oqsillar va garmonlar hamda uchinchi guruhi mikro-makro elementlar, vitaminlar va fermentlar) mujassam.

Tajribadagi Bayad zotli qo‘ylarning sut mahsuldorligiga oziqlantirish omilining ta’sirini o‘rganish maqsadida tajriba va nazorat guruhiga yoshi, fiziologik holati va semizlik darajasi bir xil bo‘lgan sovliqlar o‘xshashlik tamoyillari asosida tanlanib, tajriba guruhidagi sovliqlar bo‘g‘ozligining ikkinchi yarmidan boshlab yuqori proteinli ratsion asosida qo‘shimcha oziqlantirildi, nazorat guruhidagi sovliqlar esa xo‘jalik ratsioni asosida oziqlantirildi.

Sovliqlarning serpushtligiga sutdorligining ta’sirini o‘rganish maqsadida turli tipda qo‘zilagan sovliqlarning sutdorligi, yolg‘iz tug‘gan sovliqlar sutdorligiga taqqoslanib o‘rganildi. Tajriba va nazorat guruhidagi sovliqlar bir xil sharoitda saqlandi. Yuqori proteinli

ozuqalar bilan qoʻshimcha oziqlantirilgan sovliqlarning sutdorligi va ularning qoʻzilarining tirik vazn koʻrsatkichlarini tadqiq qilish natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2- jadval. Tajribadagi sovliqlar sutdorligi va qoʻzilarining tirik vazn oʻsish koʻrsatkichlari (n=20)

| Guruhlar | Qoʻzilarning tirik vazni, kg | | | Sovliqlarning sutdorligi, kg |
|---|---|---|---|---|
| | Tugʻilganda | 21 kunda | Mutlaq oʻsishi | |
| Tajriba guruhi | 3,7±0,05 | 7,61±0,07 | 3,91±0,04 | 19,55±0,17 |
| Nazorat guruhi | 3,3±0,06 | 6,41±0,08 | 3,11±0,05 | 15,55±0,14 |

Yuqori proteinli ozuqalar bilan qoʻshimcha oziqlantirilgan guruhdagi sovliqlardan tugʻilgan qoʻzilarning tugʻilgan paytidagi tirik vazni, nazorat guruhidagi tengqurlariga nisbatan 0,4 kg, 21 kunlik yoshida 1,2 kg yuqori boʻlishi kuzatildi. Qoʻzilar tirik vaznining mutlaq oʻsishi tahlil qilinganda, bu koʻrsatkich boʻyicha tajriba guruhidagi qoʻzilar 0,8 kg ustunlik qildi. Sovliqlar laktatsiyasining 21 kunlik yoshidagi sutdorligi tahlil qilinganda tajriba guruhidagi sovliqlar sutdorligi, nazorat guruhidagi tengqurlariga nisbatan 4,0 kg yoki 25,8 % yuqori boʻlishi aniqlandi.

Sutning toʻyimlilik sifati uning kimyoviy tarkibi bilan uzviy bogʻliq boʻlib, Bayad zotli qoʻylar sutining kimyoviy tarkibi, xususan undagi yogʻ va oqsil moddalarining miqdoriga bogʻliq. Tajriba va nazorat guruhidagi qoʻylar sutining kimyoviy tarkibi zamonaviy “Lactoscan MCCW ultratovushli sut analizatori” elektron apparatida aniqlandi. Olingan ma’lumotlar 3-jadvalda mujassamlashtirilgan.

3-jadval. Tajriba guruhidagi sovliqlar sutining kimyoviy tarkibi, % (n=5)

| Guruhlar | Oqsil | Yogʻ | Qand | Suv | Zichlik |
|---|---|---|---|---|---|
| Tajriba guruhi | 6,5 | 7,8 | 4,9 | 59,8 | 34,2 |
| Nazorat guruhi | 5,2 | 6,0 | 4,4 | 60,1 | 32,9 |

Tajriba va nazorat guruhlaridagi qoʻylar sutining kimyoviy tarkibini tahlil qilishdan olingan ma’lumotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, proteinga boy ozuqalar bilan oziqlantirilgan tajriba guruhidagi sovliqlar sutining tarkibidagi oqsil 1,3%, yogʻ 1,8%, qand 0,5% va zichligi 0,3% nazorat guruhidagi tengqurlariga nisbatan yuqori boʻlishi va aksincha bu guruhdagi qoʻylar suti tarkibida suv miqdorining 0,3 % kam boʻlishi aniqlandi.

Tajriba davomida sovliqlar laktatsiyasining 21 kunlik yoshidagi sutdorligi bilan qoʻzilarning tugʻilgan paytdagi va 21 kunlik yoshidagi tirik vazni hamda shu davrdagi oʻsish tezligi oʻrtasidagi korrelyatsion bogʻliqlik oʻrganildi (4-jadval).

4- jadval. Sovliqlar laktatsiyasining 21 kunlikdagi sut miqdori bilan qoʻzilar tirik vazni oʻsish tezligining bogʻliqligi (n=20)

| | Sutdorlik x tugʻilgandagi tirik vazni | Sutdorlik x 21 kundagi tirik vazni | Sutdorlik x oʻsish tezligi |
|---|---|---|---|
| Tajriba guruhi | 0,80±0,17 | 0,91±0,20 | 0,92±0,20 |
| Nazorat guruhi | 0,34±0,07 | 0,75±0,17 | 0,83±0,18 |


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311103

Sovliqlar laktatsiyasining 21 kunlik sutdorligi bilan qoʻzilarning tugʻilgan paytidagi tirik vazni oʻrtasidagi korrelyatsiya koeffitsenti (r) tajriba guruhidagi qoʻzilarda 0,80 va nazorat guruhidagi qoʻzilarda 0,34 ga, sovliqlarning 21 kundagi sutdorligi bilan shu davrda qoʻzilarning tirik ogʻirligi oʻrtasidagi korrelyatsiya koeffitsenti tajriba guruhida 0,91 va nazorat guruhida 0,75 ni tashkil etdi.

Sovliqlar laktatsiyasining 21 kunlikdagi sutdorligi bilan qoʻzilarining 21 kunlik yoshidagi tirik vazni oʻsish tezligi oʻrtasidagi korrelyatsiya koeffitsenti tajriba guruhida 0,92 nazorat guruhida 0,83 tashkil etishi, tajriba guruhidagi qoʻzilar hayotining ilk kunlaridagi jadal oʻsishi, onalarining sutdorligi bilan uzviy bogʻlik ekanligidan dalolat beradi.

Qoʻzilar ontogenezi uch davrga: antenatal (homilalik), internatal (tugʻilish jarayoni) va postnatal (homilaning ona organizmidan ajralganidan oʻlganigacha boʻlgan davri) boʻlinadi. Har bir rivojlanish davri, shu jumladan postnatal davri: uvuz, sut, sut-oʻsimlik, va oʻsimliklar bilan oziqlanish fazalariga boʻlinadi.

Qoʻzilar rivojlanishining eng qiyin fazasi, yangi tugʻilganlik davri hisoblanib, bu davrda organizmning adaptatsion mexanizmi toʻliq safarbar etilmagan boʻladi, shu sababli bu mexanizm chegaralangan boʻlib, uni integrallashtirish qoʻzilar organizmining antenatal davridagi rivojlanish darajasiga bogʻliq boʻladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Haenlein GFW, Wendorff WL. Qoʻy suti – qoʻy sutini ishlab chiqarish va ulardan foydalanish, Park YW, Haenlein GFW. (Muharrirlar), Sigir boʻlmagan sutemizuvchilar suti qoʻllanmasi. Oksford, Buyuk Britaniya: Blackwell Publishing Professional va Ayova, AQSh: Ames, 2006. 137-194-betlar.
2. Park YW, Juárez M, Ramos M, Haenlein GFW. Echki va qoʻy sutining fizik-kimyoviy xususiyatlari. Kichik kavsh qaytaruvchi hayvonlarni oʻrganish 2007;68:88-113.
3. Rasmiy analitik kimyogarlar assotsiatsiyasi. AOAC. Rasmiy tahlil usullari. 16-nashr. Merilend: AOAC International, 1990, 1995 b.

2-ŞÖBA · ÇORVAÇILIK VA HAYVONLAR MAHSULDORLIGI

UDK: 636.2.034

# ISSIQ IQLIM SHAROITIDA OZIQLANTIRISHNING SAMARALI TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA QIZIL CHOʻL ZOTLI QORAMOLLARNING MAHSULDORLIGINI OSHIRISH

***B. Sh. Boybulov q.x.f.n., katta ilmiy xodim,***

***N. Xoliqov, M.Buxarova laborantlar,***

*Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti,*

*Qashqadaryo ilmiy-tajriba stansiyasi*

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311104

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
498–500

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Boybulov B.Sh., Xoliqov N., Buxarova M. Issiq iqlim sharoitida oziqlantirishning samarali texnologiyalari asosida qizil choʻl zotli qoramollarning mahsuldorligini oshirish // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 498–500. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311104

ANNOTATSIYA *Olib borilgan tadqiqotlarda ilk bor oziqlantirishning samarali texnologiyalaridan foydalanib, qizil choʻl zotiga mansub boʻlgan sigirlarning sut mahsuldorligini oshirishda hamda ularning avlodlarini parvarishlashda mahalliy va biologik faol qoʻshimcha va ideal ozuqalardan foydalanib, intensiv oʻstirib, ulardan yuqori mahsulot olish boʻyicha izlanishlar olib borildi, hamda fermer xoʻjaliklari sharoitida naslchilik-seleksiya ishlarini kuchaytirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini koʻrsatdi.*

KALIT SOʻZLAR *Sigir, buzoq, mahsudorlik, qizil choʻl, sut, mahsulot, ozuqa, poda.*

ABSTRACT *The present study investigated the use of effective feeding technologies to increase milk productivity in cows of the Red Steppe breed and to improve the rearing of their offspring. Particular attention was paid to the use of locally available feed additives, biologically active supplements, and balanced feed formulations to promote intensive growth and achieve high productivity in young cattle. The findings demonstrated that strengthening breeding and selection practices under farm conditions is of significant scientific and practical importance.*

KEYWORDS *Cow, calf, productivity, Red Steppe breed, milk, production, feed, herd.*

АННОТАЦИЯ *В проведённых исследованиях впервые были изучены эффективные технологии кормления, направленные на повышение молочной продуктивности коров красной степной породы и совершенствование выращивания их потомства. Особое внимание уделялось использованию местных кормовых добавок, биологически активных добавок и полноценных кормовых рационов для обеспечения интенсивного роста молодняка крупного рогатого скота и получения от него высокой продуктивности. Результаты исследований показали, что усиление племенной и селекционной работы в условиях фермерских хозяйств имеет важное научное и практическое значение.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА *Корова, телёнок, продуктивность, красная степная порода, молоко, продукция, корм, стадо.*

Respublikamiz aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga oshib borayotgan ehtiyojini qondirish chorvachilikni yanada rivojlantirishni taqozo etadi. Bu esa oʻz navbatida chorva

Tórtinshiden, reproduktivlik nátiyjelilikti bahalawda sanlıq kórsetkishlerden paydalanıw zárúr. Bunıń ushın urıqlanıw, ikradan lichinka shıǵıw hám jasap qalıw procentleri esaplanadı. Bul kórsetkishler arqalı hár bir texnologiyalıq basqıshqa baha beriw hám kemshiliklerdi anıqlaw múmkin.

Reproduktivlik kórsetkishlerin esaplaw formulaları:

1. **Ikralardıń urıqlanıw dárejesi:**
   Urıqlanıw dárejesi (%) = (Urıqlanǵan ikralar sanı / Ulıwma ikralar sanı) × 100.
2. **Lichinkalardıń shıǵıw dárejesi:**
   Shıǵıw dárejesi (%) = (Shıqqan lichinkalar sanı / Urıqlanǵan ikralar sanı) × 100.
3. **Lichinkalardıń jasap qalıw dárejesi:**
   Jasap qalıw dárejesi (%) = (Tiri qalǵan lichinkalar sanı / Ósiriwge qoyılǵan lichinkalar sanı) × 100.

Bul formulalar reproduktivlik nátiyjelilikti salıstırmalı bahalawǵa múmkinshilik beredi. Sonday-aq, karp balıqlarınıń reproduktivlik nátiyjeliligine suw ortalıǵınıń fizikalıq hám ximiyalıq kórsetkishleri de tásir etedi. Suwda erigen kislorodtıń jetkilikli bolıwı, temperaturanıń turaqlılıǵı hám suwdaǵı zıyanlı zatlardıń normadan aspawı embrionlıq rawajlanıw hám lichinkalardıń jasap qalıwı ushın áhmiyetli. Inkubaciya waqtında kislorod jetispewshiligi embrionlardıń rawajlanıwına unamsız tásir etip, óli ikralardıń sanın arttırıwı múmkin.

Ulıwma talqılawlar sonı kórsetedi, jasalma kóbeytiw texnologiyasında hár bir basqıshtı óz waqtında hám ilimiy tiykarda shólkemlestiriw joqarı sapalı balıq shabaqların alıwǵa járdem beredi. Gormonlıq stimulyaciya, jasalma urıqlantırıw, ikralardı inkubaciyalaw hám lichinkalardı baqlaw bir-biri menen tıǵız baylanıslı texnologiyalıq procesler bolıp esaplanadı.

**JUWMAQ:** Karp balıqların jasalma kóbeytiwde biotexnologiyalıq usıllardan paydalanıw balıqshılıq tarawında ónim óndiriw kólemin arttırıw, sapalı balıq shabaqların jetistiriw hám

reproduktivlik proceslerdi basqarıwda áhmiyetli ilimiy-ámeliy baǵdar bolıp tabıladı.

Izertlew baǵdarı boyınsha tómendegi juwmaqlarǵa kelindi:

1. Karp balıqların jasalma kóbeytiwde ana hám ata balıqlardı reproduktivlik jaqtan durıs tańlaw alınatuǵın jınıslıq ónimlerdiń sapasın belgilewshi tiykarǵı faktor bolıp esaplanadı.
2. Gormonlıq stimulyaciya usılları ovulyaciya hám spermatogenez proceslerin basqarıw, balıqlardıń jınıslıq ónimlerin belgilengen waqıtta alıw imkaniyatın beredi.
3. Ikralardı jasalma urıqlantırıw, jabısqaq qatlamın ketiriw hám arnawlı apparatlarda inkubaciyalaw embrionlardıń normal rawajlanıwı ushın qolaylı sharayat jaratadı.
4. Reproduktivlik nátiyjelilikti bahalawda urıqlanıw, lichinkalardıń shıǵıw hám jasap qalıw dárejelerin procent esabında anıqlaw zárúr.

Demek, karp balıqların jasalma kóbeytiwde biotexnologiyalıq usıllardı ilimiy tiykarda qollanıw, reproduktivlik kórsetkishlerdi úzliksiz baqlaw hám suw ortalıǵınıń optimal sharayatların támiyinlew joqarı nátiyjeli balıqshılıq xojalıǵın rawajlandırıwdıń tiykarǵı faktorları bolıp esaplanadı.

## PAYDALANÍLǴAN ÁDEBIYATLAR


1. FAO. The Artificial Propagation of Warm-Water Finfishes: A Manual for Extension. Food and Agriculture Organization of the United Nations.
2. FAO. Better Management Practices for Carp Production in Central and Eastern Europe, the Caucasus and Central Asia. Rome, 2012.
3. Yuldoshev Kh.T., Ashrapov A.A., Yuldashov M.A., Kamilov B.G. Peculiarities of Cultured Carps Embryonic Development Under Conditions of Artificial Reproduction in Temperate Climate Uzbekistan. 2020. DOI: 10.5373/JARDCS/V12SP7/20202251.
4. Review of Central-Eastern European Propagation and Larvae Nursing Method for Common Carp (Cyprinus carpio L.). *Life*, 2023.
5. Shazada et al. Short-term storage of sperm in common carp: From laboratory research to commercial production – A review. *Reviews in Aquaculture*, 2024.

3-ŞÖBA · BIOTEXNOLOGIYA VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI

# AMUDARYO TUMANI ŞAROITIDA PARRANDALAR KOLIBAKTERIOZINING EPIZOOTOLOGIK XUSUSIYATLARI

**I.Yo'ldoşova - magistrant, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, çorvaçilik va biotexnalogiyalar universiteti Nukus filiali.**

**D.Ernazarov- Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, çorvaçilik va biotexnalogiyalar universiteti Nukus filiali "Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi kafedrasi" kata öqituvçisi, v.f.b.f.d (PhD)**

**G.Kurbaniyazova- Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, çorvaçilik va biotexnalogiyalar universiteti Nukus filiali "Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi kafedrasi" assistenti**

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311130

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
611–615

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Yo'ldoşova I., Ernazarov D., Kurbaniyazova G. Amudaryo tumani şaroitida parrandalar kolibakteriozining epizootologik xususiyatlari // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 611–615. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311130

ANNOTATSIYA Uşbu maqolada Qoraqalpoğiston Respublikasi, Amudaryo tumani aholi xöjaliklarida parrandalar kolibakteriozining epizootologik xususiyatlari örganildi.

АННОТАЦИЯ В данной статье изучены эпизоотологические особенности колибактериоза птиц в хозяйствах населения Амударьинского района Республики Каракалпакстан.

**Anatation.** This article examines the epizootological çaracteristics of avian colibacillosis in the households of the population of the Amudarya district of the Republic of Karakalpakstan.

KALIT SÖZLAR kolibakterioz, parranda, *Esçeriçia coli*, epizootologiya, jöjalar, klinik belgilar, profilaktika, mikoplazmoz.

**Kiriş**. Parrandalar kolibakteriozi (eşerixioz) – infeksion, bakterial kasallik bölib, asosan jöjalarning dastlabki hayotidan boşlanib 90 kunlikkaça, tovuqlarning tuxum tuğiş vaqtida ham kasallikka çalinadi. Butun dunyodagi parrandaçilik fermalarida keng tarqalgan infeksion kasalliklardan biri bu kolibakteriozdir. Köp holatlarda ikkilamçi infeksiya sifatida uçraydi va undan boşqa tur hayvonlari hatto odamlar ham aziyat çekib kelmoqda [1].

Olimlarning ma'lumotlariga köra qişloq xöjalik hayvonlarining kolibakterioz bilan zararlanişi köproq yoşligida sodir bölib, bu mos ravişda parrandalarda 63 %, tovuqlarda 28 % va çöçqa bolalarida 47 % taşkil qiladi [2].

Tovuq va jöjalar transovarial (tuxum orqali) yovvoyi quşlar, uy va yovvoyi hayvonlar, kemiruvçilar orqali ham uşbu qözğatuvçi bilan zararlanişi mumkin. Özbekistonda 25 ta tekşirilgan tovuqçilik xöjaliklarida kolibakterioz bilan kasallangan tovuqlar 10-30 foizni taşkil etgan. Agar tovuqlarda kolibakterioz boşqa kasalliklar bilan jumladan: eymerioz bilan birga keçganda 80-100 foizgaça nobud böladi. Tovuqlar kolibakteriozi parrandaçilik rivojlangan mamlakatlarning hammasida uçraydi. Kolibakterioz surunkali keçganda tovuqlarda 10 foizgaça, ötkir keçganda esa 70 foizgaça ölim kuzatiladi. Nosoğlom

xöjaliklarda inkubatsiya qilingan tuxumlardan çiqqan jöjalar 12 foizgaça uşbu kasallik bilan kasallangan böladi [3]

Eşerixiozning kelib çiqişiga tovuqlarni zoogigienik me'yorlarga javob bermaydigan namligi yuqori zaharli gazlar miqdori oşib ketgan, havo almaşinmaydigan xonalarda tiğiz saqlaş, juda issiq va sovuqda qoldiriş, töyimli va vitaminlarga boy ozuqalar bermaslik, suv yetişmasligi, har hil yoşdagi parrandalarni qöşib parvariş qiliş kabi omillar yordam beradi. Virusli, bakterial, respirator (mikoplazmoz) va invazion (gelmentozlar koksidioz) kasalliklar ham eşerixioz paydo bölişiga optimal şaroit tuğdiradi. Çunki yuqorida takidlangan omillar organizmning rezistentligini tuşirib yuboradi.

Amudaryo tumani şaroitida parrandaçilik xöjaliklarining tabiiy-iqlimiy, zoogigiyenik va işlab çiqariş xususiyatlari kolibakteriozning tarqalişiga öziga xos ta'sir körsatişi mumkin. Şu sababli uşbu hududda kasallikning uçraş darajasi, yoş guruhlari böyiça namoyon bölişi va unga ta'sir qiluvçi asosiy epizootologik omillarni aniqlaş kasallikni barvaqt oldini oliş, samarali nazorat çoralarini işlab çiqiş hamda profilaktik tadbirlarni takomillaştiriş uçun zarur ilmiy asos bölib xizmat qiladi.

**Tadqiqotning maqsadi.** parrandaçilik xöjaliklarida kolibakteriozning uçraş darajasini aniqlaş; kasallikning yoşga doir xususiyatlarini baholaş; epizootik jarayonning şakllanişiga ta'sir etuvçi zoogigiyenik va işlab çiqariş omillarini örganiş; olingan ma'lumotlar asosida kolibakteriozga qarşi profilaktik çoralarni takomillaştiriş böyiça amaliy tavsiyalar işlab çiqiş.

## TADQIQOT MATERIALI VA USULLARI

Tadqiqotlar 2026-yil yanvar–mart oylarida Amudaryo tumani hududidagi turli joylarda yaşovçi aholi xonadonlarida boqilayotgan parrandalar orasida olib borildi. Tadqiqot uçun jami 15 ta aholi xonadoni tanlab olinib, uşbu xonadonlarda parvariş qilinayotgan 20 boş parranda tekşiruvdan ötkazildi. Tekşirilgan parrandalar yoşiga qarab ikki guruhga ajratildi: 1-guruh — 15–20 kunlik 10 boş jöja, 2-guruh — 45 kunlik 10 boş parranda (1-jadval).

Parrandalar yoşiga qarab guruhlarga ajratilişi kolibakteriozning yoşga doir epizootologik xususiyatlarini aniqlaş va kasallikning turli yoş davrlarida namoyon bölişini qiyosiy baholaş imkonini berdi. Tadqiqot davomida parrandalarning klinik holati kuzatildi, kolibakteriozga xos belgilar qayd etildi hamda kasallikning uçraş darajasi aniqlandi.

Aholi xonadonlarida parrandalarni saqlaş va parvarişlaş şaroitlari epizootologik nuqtai nazardan örganildi. Bunda saqlaş şaroiti, sanitariya-gigiyena holati, oziqlantiriş sifati, içimlik suvi bilan ta'minlanganlik, mikroiqlim körsatkiçlari hamda profilaktik tadbirlarning bajariliş darajasiga baho berildi. Bundan taşqari, xonadon egalari bilan suhbat asosida anamnestik ma'lumotlar yiğilib, kasallikning paydo böliş vaqti, asosiy klinik belgilar, nobud böliş holatlari va oldin qöllanilgan davolaş usullari haqida ma'lumotlar olindi.

***1-jadval. Amudaryo tumani aholi xöjaliklarida örganilgan parrandalarning guruhlanişi***

| Guruh | Parrandalar yoşi | Tekşirilgan parrandalar soni, boş | Kuzatuv muddati | Xöjaliklar soni | Tadqiqot obyekti |
|---|---|---|---|---|---|
| 1-guruh | 15-20 kunlik jöjalar | 10 | 2026-yil yanvar-mart | 15 | Aholi xöjaliklarida boqilayotgan jöjalar |
| 2-guruh | 45 kunlik parrandalar | 10 | 2026-yil yanvar-mart | 15 | Aholi xöjaliklarida boqilayotgan parrandalar |


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311130

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **Jami** | **-** | **20** | **2026-yil yanvar-mart** | **15** | **Amudaryo tumani turli hududlaridagi aholi xöjaliklari** |

*Izoh: jadvaldagi ma'lumotlar 2026-yil yanvar-mart oylarida Amudaryo tumani hududidagi 15 ta aholi xöjaligida ötkazilgan kuzatuv natijalariga asoslangan*

Tadqiqot jarayonida klinik kuzatuv va epizootologik tahlil usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar yoş guruhlari böyiça alohida qayta işlanib, kasallikning namoyon böliş darajasi foiz körsatkiçlari asosida baholandi. Yakuniy ma'lumotlar jadval körinişida rasmiylaştirildi va tahlil qilindi.

## NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

2026-yilning yanvar–mart oylarida Amudaryo tumanining turli hududlarida joylaşgan 15 ta aholi xöjaligida epizootologik kuzatuv işlari olib borildi. Tadqiqotga jami 20 boş parranda jalb qilinib, ular yoşiga qarab ikki guruhga ajratildi. Birinçi guruhga 15–20 kunlik 10 boş jöja, ikkinçi guruhga esa 45 kunlik 10 boş parranda kiritildi. Bunday yondaşuv kolibakteriozning yoşga doir namoyon böliş xususiyatlarini qiyosiy örganiş imkonini berdi.

Tadqiqot obyekti sifatida aynan aholi xöjaliklarida boqilayotgan parrandalarning tanlanişi epizootologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Çunki bunday xöjaliklarda parrandalarni saqlaş, oziqlantiriş, sanitariya-gigiyena holati va profilaktik tadbirlarning bajariliş darajasi bir xil bölmaydi. Şu sababli mazkur şaroit kolibakterioz kabi bakterial kasalliklarning kelib çiqişi va tarqalişini baholaşda muhim amaliy manba hisoblanadi.

Kuzatuv davomida parrandalar ikki yoş guruhiga bölib örganilgani kasallikning yoşga boğliq epizootologik xususiyatlarini aniqlaş uçun qulay şaroit yaratdi. 15–20 kunlik jöjalar alohida guruh sifatida tanlangani bejiz emas, çunki hayotining dastlabki davrlarida parrandalar taşqi muhit omillariga nisbatan sezgirroq böladi. 45 kunlik parrandalarning alohida guruhga ajratilişi esa kasallikning keyingi yoş bosqiçidagi namoyon bölişini qiyosiy baholaş imkonini berdi.

Ötkazilgan kuzatuvlar şuni körsatdiki, epizootologik tadqiqotlarni yoş guruhlari böyiça olib boriş kasallikning tarqaliş xususiyatlarini çuqurroq tahlil qilişda muhim metodik ahamiyatga ega. Xususan, turli yoşdagi parrandalarni alohida örganiş natijasida kolibakteriozning uçraş darajasi, klinik belgilarining namoyon bölişi va kasallik rivojlanişiga ta'sir etuvçi omillarni keyingi bosqiçlarda aniqroq baholaş mumkin böladi.

Amudaryo tumani aholi xöjaliklarida olib borilgan uşbu tadqiqot kelgusida kolibakteriozning yoşga doir epizootologik körsatkiçlarini aniqlaş, kasallikning uçraş darajasini hisoblaş hamda unga qarşi samarali profilaktik çoralarni işlab çiqiş uçun dastlabki ilmiy-amaliy asos bölib xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida har birida 10 boşdan iborat ikkita guruh şakllantirilgan bölib, 1-guruhni 15–20 kunlik jöjalar, 2-guruhni esa 45 kunlik parrandalar taşkil etgan. Epizootologik körsatkiçlar tahlili kasallikning keçişi bevosita parrandalarning yoşiga boğliq ekanligini körsatadi. 1-guruhda kasallaniş darajasi 60,0% ni (6 boş) taşkil etgan bölsa, umumiy tekşirilgan jöjalarga nisbatan ölim körsatkiçi 40,0% ga (4 boş) yetgan, bu esa kasallanganlar içidagi nobud böliş (letallik) darajasi 66,7% ni taşkil qilganini bildiradi. 2-guruhdagi 45 kunlik parrandalarda esa bu körsatkiçlar ança past bölib, kasallaniş 30,0% (3 boş) va nobud böliş 10,0% ni (1 boş), ya'ni kasallanganlar içidagi ölim 33,3% ni taşkil etgan. Jami

tekşirilgan 20 boş parrandaning 9 boşida (45,0%) kasallik aniqlangan va 5 boşi (25,0%) nobud bölgan. Demak, 15–20 kunlik jöjalarda kasallaniş 45 kunliklarga nisbatan 2 barobar, nobud böliş esa 4 barobar yuqori bölib, bu yoş organizmda immun tizimining töliq şakllanmagani, içak va nafas yöllari şilliq qavatlarining himoya tösiği zaifligi bilan izohlanadi.

Kasallangan barça parrandalarda nafas qisişi, böğiliş kabi respirator buzilişlar, uzluksiz iç ketişi (diareya) va uning oqibatidagi kuçli suvsizlaniş, şuningdek tana haroratining kötarilişi, lanjlik hamda ozuqa yemaslik kabi umumiy intoksikatsiya belgilari kuzatilgan. Nobud bölgan parrandalar yorib körilganda koliseptitsemiyaga xos bölgan patologik özgarişlar — yurak va jigar yuzasining sarğiş fibrin parda bilan qoplanişi (fibrinoz perikardit va perigepatit) hamda qonning umumiy zaharlanişi qayd etilgan. Uşbu klinik va patologoanatomik belgilar har ikkala guruhda ham uçragan bölsa-da, 15–20 kunlik jöjalarda ular ança yaqqol va oğirroq namoyon bölgan. Mazkur ilmiy natijalar parrandaçilikda kolibakteriozga qarşi veterinariya-sanitariya, profilaktika va davolaş çora-tadbirlarini aynan parrandalarning dastlabki 3 haftalik (jöjalik) davrida kuçaytiriş zarurligini tasdiqlaydi(2-jadval).

**2-jadval.** Parrandalar kolibakteriozining yoş guruhlari böyiça uçraş darajasi, nobud böliş körsatkiçlari va asosiy klinik-patologik belgilar

| Guruh | Yoş | Tekşirilgan, boş | Kasallik kuzatilgan, boş | Kasallik kuzatilgan, % | Nobud bölgan, boş | Nobud böliş, % | Asosiy klinik va patologoanatomik belgilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1-guruh | 15-20 kunlik jöjalar | 10 | 6 | 60 | 4 | 40 | Nafas qisişi, böğiliş, doimiy iç ketişi (diareya), kuçli suvsizlaniş, tana haroratining kötarilişi, lanjlik, ozuqa yemaslik, yurak va jigar yuzasining sarğiş parda bilan qoplanişi, qonning umumiy zaharlanişi. |
| 2-guruh | 45 kunlik parrandalar | 10 | 3 | 30 | 1 | 10 | Nafas qisişi, böğiliş, doimiy iç ketişi (diareya), kuçli suvsizlaniş, tana haroratining kötarilişi, lanjlik, ozuqa yemaslik, yurak va jigar yuzasining sarğiş parda bilan qoplanişi, qonning umumiy zaharlanişi. |
| **Jami** | **-** | **20** | **9** | **45** | **5** | **25** | **Klinik va patologoanatomik belgilar ikkala guruhda ham kuzatildi, biroq 15-20 kunlik jöjalarda ular nisbatan yaqqolroq namoyon böldi.** |

**Izoh:** Kasallik kuzatilgan (%) körsatkiçi tegişli guruhda tekşirilgan parrandalar soniga nisbatan, nobud böliş (%) esa şu guruhdagi jami tekşirilgan parrandalar soniga nisbatan


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311130

hisoblandi.

## XULOSA

Amudaryo tumani aholi xöjaliklarida 2026-yil yanvar–mart oylarida olib borilgan kuzatuvlar natijasida parrandalar kolibakteriozi turli yoş guruhlarida uçraşi aniqlandi. Tadqiqot natijalariga köra, kasallik 15–20 kunlik jöjalarda 60%, 45 kunlik parrandalarda esa 30% hollarda kuzatildi. Nobud böliş körsatkiçi ham yoş jöjalarda yuqori bölib, mos ravişda 40% va 10% ni taşkil etdi. Aniqlangan ma'lumotlar kolibakteriozning yoş parrandalarda oğirroq keçişini va epizootologik jihatdan ularning sezgirligi yuqoriroq ekanini körsatdi. Kasallikda nafas qisişi, diareya, suvsizlaniş, lanjlik, ozuqa yemaslik, şuningdek yurak va jigar yuzasining sarğiş parda bilan qoplanişi kabi klinik va patologoanatomik belgilar xarakterli böldi.

Amudaryo tumani aholi xöjaliklarida parrandalar kolibakteriozining oldini oliş maqsadida jöjalarni saqlaşda sanitariya-gigiyena talablariga qat'iy rioya etiş, parvariş joylarida tozalik va me'yoriy mikroiqlimni ta'minlaş zarur. Yoş parrandalar orasida kasallikning yuqori uçraşini hisobga olib, ayniqsa dastlabki ösiş davrida ularni muntazam klinik kuzatuvdan ötkaziş va profilaktik tadbirlarni kuçaytiriş lozim. Xöjaliklarda sifatli ozuqa va toza içimlik suvidan foydalaniş, kasallik belgilari kuzatilgan parrandalarni öz vaqtida ajratiş hamda veterinar mutaxassis tavsiyasiga asoslangan holda davolaş-profilaktika çoralarini qöllaş maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI

1. Радчук Н.А. Колибактериоз птиц // Агропроимиздат. – 1990.– С. 46-48.
2. Ленченко Е.М., А.В.Моторыгин., Е.М.Плотникова Антигенная структура и патогенные свойства штаммов E.Coli, выделенных при желудочно-кишечных болезнях животных / Ветеринария. –2013. – №2.– С.21-25.
3. Давлатов Р.Б. Товуқларнинг эймериоз ва колибактериоз касалликларининг ассоциатив кечиши ва профилактик чора тадбирлари. Дис-я автореф. в.ф.д. Самарқанд 2008 й.-216 б.

3-ŞÖBA · BIOTEXNOLOGIYA VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI

# ВЛИЯНИЕ ФИТОГОРМОНОВ НА РАСТЕНИЯ

**А. Дарябаева, К. Розумбетов**

**Нукусский филиал Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий**

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311131

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
616–619

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Дарябаева А., Розумбетов К. Влияние фитогормонов на растения // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 616–619. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311131

АННОТАЦИЯ *В данной работе рассматриваются основные типы фитогормонов, их физиологические функции в росте и развитии растений, а также взаимодействие между ними. Проанализировано значение ауксинов, гиббереллинов и цитокининов в делении клеток, развитии корней и стеблей, прорастании семян и размножении растительных тканей в условиях in vitro. Кроме того, рассмотрены возможности применения фитогормонов в сельском хозяйстве и биотехнологии растений.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА *фитогормоны, ауксин, гиббереллин, цитокинин, рост и развитие растений.*

**Введение.** Рост, развитие, продуктивность растений и их адаптация к условиям окружающей среды регулируются сложными физиологическими и биохимическими процессами. В регуляции этих процессов важную роль играют фитогормоны. Фитогормоны – это биологически активные органические вещества, которые образуются в растительном организме в очень малых количествах и влияют на деление, растяжение и дифференцировку клеток, развитие корней и стеблей, цветение, созревание плодов и процессы старения [1, 2]. В данной работе на основе научной литературы рассматриваются основные типы фитогормонов, их физиологические функции в растительном организме и практическое значение в сельском хозяйстве.

**Общие сведения о фитогормонах.** Фитогормоны представляют собой химические сигналы, регулирующие рост и развитие растений. Взаимодействуя со специфическими рецепторами клеток, они активируют системы передачи биохимических сигналов. В результате изменяются активность определённых генов, синтез ферментов и обмен веществ в клетках. Эти изменения влияют на рост и развитие растений [1].

К классическим фитогормонам относятся ауксины, гиббереллины, цитокинины, этилен и абсцизовая кислота. Согласно современным научным данным, важную роль в

регуляции развития растений и их ответных реакций на внешние условия также играют брассиностероиды, жасмоновая кислота, салициловая кислота и стриголактоны [3].

Действие фитогормонов проявляется не изолированно, а во взаимосвязи друг с другом. Например, при выходе семян из состояния покоя и их прорастании важное значение имеет баланс между гиббереллинами и абсцизовой кислотой. Ауксины и цитокинины активно участвуют в делении клеток, формировании органов и дифференцировке тканей [2, 3].

**Значение фитогормонов в сельском хозяйстве.** Изучение фитогормонов имеет важное значение для регулирования роста сельскохозяйственных культур, выращивания саженцев из черенков, управления прорастанием семян и координации созревания плодов [4]. Изучение механизмов действия фитогормонов также применяется в биотехнологии растений, в частности при их размножении на искусственных питательных средах. Эффект гормонов зависит от их концентрации, вида растения и стадии его развития. Поэтому при практическом применении необходимо соблюдать научно обоснованные нормы [5].

**Влияние ауксинов на растения.** Ауксины – это фитогормоны, играющие важную роль в росте растений и формировании их органов. Основным представителем природных ауксинов является индолил-3-уксусная кислота. Ауксины могут синтезироваться в молодых листьях, растущих побегах и других активно функционирующих тканях. Они участвуют в растяжении клеток, формировании корней и регуляции направления роста растения [1].

Одной из важнейших функций ауксинов является регуляция растяжения клеток. В клетках стебля физиологически оптимальная концентрация ауксина способствует расширению клеточной стенки. Однако его действие зависит от типа органа и концентрации. Например, корни могут быть более чувствительны к высоким концентрациям ауксина, чем стебли [6]. Ауксины также участвуют в реакциях растений на свет и силу тяжести. При фототропизме неравномерное распределение ауксина в побеге приводит к различной интенсивности растяжения клеток на его противоположных сторонах, вследствие чего побег изгибается в сторону света. При гравитропизме распределение ауксина в органах также влияет на направление роста [3].

Ауксины активно стимулируют образование боковых и придаточных корней. В экспериментах на растениях со сверхэкспрессией определённых генов наблюдались повышение уровня ауксина, усиление развития корневой системы и повышение устойчивости к засухе [7]. В сельском хозяйстве синтетические аналоги ауксинов применяют для стимуляции корнеобразования у черенков и регулирования опадения некоторых плодов. Однако эффективность их применения зависит от вида растения, срока обработки и концентрации препарата. Превышение рекомендуемых доз может подавлять рост и вызывать другие неблагоприятные физиологические эффекты.

**Влияние гиббереллинов на растения.** Гиббереллины – это группа фитогормонов, участвующих в росте стебля, прорастании семян, цветении некоторых растений и развитии плодов. Они особенно влияют на удлинение междоузлий стебля и растяжение клеток [1]. Гиббереллины стимулируют деление и растяжение клеток. В

экспериментах со сверхэкспрессией гена GA20ox (гиббереллин-20-оксидазы) у гибридного тополя и табака наблюдались ускоренный рост стебля, увеличение биомассы и удлинение ксилемных волокон [8].

Гиббереллины также влияют на цветение и развитие плодов у некоторых растений. Их взаимодействие с факторами окружающей среды зависит от вида растения. Например, обработка гиббереллинами у отдельных сельскохозяйственных культур может способствовать увеличению размера плодов или длины стебля. Однако чрезмерный вегетативный рост может привести к полеганию растений или снижению качества урожая [2].

**Влияние цитокининов на растения.** Цитокинины – это фитогормоны, стимулирующие деление клеток и влияющие на развитие почек и процессы старения листьев. Их природные представители являются производными аденина и синтезируются в корнях и других тканях растений [3]. Цитокинины совместно с ауксинами участвуют в формировании и поддержании верхушечной меристемы побега. Они также регулируют клеточный цикл и развитие тканей [9]. Соотношение цитокининов и ауксинов влияет на формирование органов в растительных тканях. В частности, в культуре растительных тканей изменение соотношения этих гормонов позволяет регулировать образование корней или побегов. Это свойство имеет большое значение для размножения растений методом in vitro. Ещё одна важная функция цитокининов заключается в замедлении старения листьев. В определённых условиях они способствуют замедлению распада белков и более длительному сохранению фотосинтетической активности листьев.

**Взаимодействие фитогормонов и их практическое значение.** Рост и развитие растений регулируются не одним гормоном, а совокупным действием нескольких фитогормонов. Между ними существуют сложные взаимосвязи, включая взаимодействие, усиление или подавление действия друг друга. Поэтому определённая физиологическая реакция растения зависит от концентрации гормонов, их соотношения и чувствительности тканей к их воздействию [10].

**Таблица 1. Сравнение влияния изученных фитогормонов на растения**

| Критерий сравнения | Ауксины | Гиббереллины | Цитокинины |
|---|---|---|---|
| **Основная функция** | Регулирует растяжение клеток и образование корней | Стимулирует рост стебля и прорастание семян | Стимулирует деление клеток и развитие почек |
| **Влияние на развитие корней** | Стимулирует образование боковых и придаточных корней | Влияет на рост корней в зависимости от вида растения и условий окружающей среды | Совместно с ауксинами регулирует формирование корней и побегов |
| **Влияние на развитие стебля** | Способствует растяжению клеток | Способствует удлинению междоузлий стебля | Способствует развитию почек и побегов |
| **Влияние на прорастание семян** | В определённых условиях участвует в регуляции процесса прорастания семян | Способствует выходу семян из состояния покоя и стимулирует их прорастание | Может влиять на развитие семян и процесс их прорастания |


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311131

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Влияние на листья** | Участвует в формировании и росте листьев | Влияет на рост листьев и вегетативных органов | Может замедлять старение листьев |
| **Дополнительная физиологическая функция** | Участвует в фототропизме и гравитропизме | Влияет на цветение и развитие плодов у некоторых растений | Регулирует клеточный цикл и дифференцировку тканей |
| **Применение в сельском хозяйстве** | Стимулирование корнеобразования у черенков и регулирование опадения плодов | Регулирование прорастания семян, роста стебля и развития некоторых плодов | Размножение растений in vitro и стимуляция образования побегов |

Например, при прорастании семян важную роль играет баланс между гиббереллинами и абсцизовой кислотой (АБК), а в условиях культуры тканей соотношение ауксинов и цитокининов влияет на органогенез. Этилен взаимодействует с другими гормональными сигналами, регулируя созревание плодов и процессы старения. Это свидетельствует о необходимости рассматривать систему фитогормонов как единый взаимосвязанный механизм регуляции.

**Заключение.** Таким образом, углублённое изучение фитогормонов является одним из важных направлений физиологии растений и биотехнологии. Научно обоснованное применение знаний о механизмах их действия способствует регулированию развития сельскохозяйственных культур, совершенствованию технологий размножения растений и повышению их устойчивости к неблагоприятным условиям окружающей среды.

## СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ


1. Davies J. Plant Hormones. Biosynthesis, Signal Transduction, Action! Springer Dordrecht. 02 March 2005. https://doi.org/10.1007/978-1-4020-2686-7
2. Castro-Camba R, Sánchez C, Vidal N, Vielba JM. Plant Development and Crop Yield: The Role of Gibberellins. Plants (Basel). 2022 Oct 9;11(19):2650. doi: 10.3390/plants11192650.
3. Taiz, L. Zeiger, E., Moller, I.M. and Murphy, A. (2015) Plant Physiology and Development. 6th Edition, Sinauer Associates, Sunderland, CT.
4. Zheng Y, Wang X, Cui X, Wang K, Wang Y, He Y. Phytohormones regulate the abiotic stress: An overview of physiological, biochemical, and molecular responses in horticultural crops. Front Plant Sci. 2023 Jan 6;13:1095363. doi: 10.3389/fpls.2022.1095363.
5. To‘xtaboyeva F.M., To‘ychiyeva D.S. O‘simliklar fiziologiyasi. Darslik. Toshkent. IDEAL PRESS nashriyoti. 2023. 314 b.
6. Pantoja-Guerra, M., Valero-Valero, N. & Ramírez, C.A. Total auxin level in the soil–plant system as a modulating factor for the effectiveness of PGPR inocula: a review. Chem. Biol. Technol. Agric. 10, 6 (2023). https://doi.org/10.1186/s40538-022-00370-8
7. Perrot-Rechenmann C, Napier RM. Auxins. Vitam Horm. 2005;72:203-33. doi: 10.1016/S0083-6729(04)72006-3.
8. Ciura J, Kruk J. Phytohormones as targets for improving plant productivity and stress tolerance. J Plant Physiol. 2018 Oct;229:32-40. doi: 10.1016/j.jplph.2018.06.013.
9. Wybouw B, De Rybel B. Cytokinin – A Developing Story. Trends Plant Sci. 2019 Feb;24(2):177-185. doi: 10.1016/j.tplants.2018.10.012.
10. Malik NUA, Fajer O, Amin L, Khalid AR, Khan N, Bhatti MF, Munir F, Haider G, Amir R, Gul A. Phytohormones, plant growth and development. In: Phytohormones and Stress Responsive Secondary Metabolites (pp. 175–186) Elsevier; 2023. doi:10.1016/B978-0-323-91883-1.00014-0.

3-ŞÖBA · BIOTEXNOLOGIYA VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI

# ÇORVAÇILIK MAHSULOTLARI XAVFSIZLIGINI TA'MINLAŞDA BIOTEXNOLOGIK USULLARDAN FOYDALANIŞ ISTIQBOLLARI

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, çorvaçilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali**

**Qalbaeva Intizar Esenbay qizi**

**Stajyor oqitiwşisi**

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311132

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
620–622

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Qalbaeva I.E. Çorvaçilik mahsulotlari xavfsizligini ta'minlaşda biotexnologik usullardan foydalaniş istiqbollari // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 620–622. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311132

ANNOTATSIYA *Uşbu maqolada çorvaçilik mahsulotlari, xususan göşt va sut mahsulotlarining xavfsizligi hamda sifatini ta'minlaşda zamonaviy biotexnologik usullarning roli va ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot doirasida patogen mikroorganizmlarni aniqlaşda polimeraza zanjirli reaksiyasi (PZR) hamda immunoferment tahlil (IFT) usullarining samaradorligi tahlil qilindi. Şuningdek, mahsulotlarni saqlaş muddatini uzaytirişda bio-konservantlar (sut kislotali bakteriyalar va ularning nisin kabi metabolitlari) qöllanilişining istiqbollari baholandi. Olingan natijalar an'anaviy mikrobiologik usullarga qaraganda biotexnologik ekspress-usullarning yuqori sezuvçanligi va aniqligini körsatdi.*

KALIT SÖZLAR *biotexnologiya, oziq-ovqat xavfsizligi, çorvaçilik mahsulotlari, PZR, IFT, bio-konservantlar, sut kislotali bakteriyalar.*

## KIRIŞ

Bugungi kunda jahon miqyosida aholi sonining ösib borişi oziq-ovqat mahsulotlariga, ayniqsa çorvaçilik mahsulotlariga (göşt, sut, tuxum va ulardan tayyorlangan mahsulotlar) bölgan talabning muttasil ortişiga olib kelmoqda. Şu bilan birga, iste'molçilarni xavfsiz va sifatli mahsulotlar bilan ta'minlaş global miqyosdagi eng dolzarb muammolardan biri bölib qolmoqda [1]. Çorvaçilik mahsulotlarining biologik, kimyoviy yoki fizik omillar bilan ifloslanişi nafaqat iqtisodiy zarar keltirişi, balki inson salomatligi uçun jiddiy xavf tuğdirişi mumkin.

Özbekiston Respublikasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaş, çorva mollari kasalliklarining oldini oliş va mahsulot sifatini xalqaro standartlar darajasiga kötariş borasida keng kölamli islohotlar amalga oşirilmoqda. An'anaviy mikrobiologik va kimyoviy nazorat usullari ma'lum afzalliklarga ega bölsa-da, ularning köp vaqt va mehnat talab qilişi, ba'zan esa yetarli darajada ekspress (tezkor) xarakterga ega emasligi zamonaviy işlab çiqariş talablariga töliq javob bermaydi [2]. Şu sababli, çorvaçilik mahsulotlari işlab çiqariş

zanjirining barça bosqiçlarida zamonaviy biotexnologik usullarni joriy etiş muhim ahamiyat kasb etadi.

Uşbu tadqiqotning maqsadi çorvaçilik mahsulotlaridagi patogen mikrorganizmlarni tezkor aniqlaşda biotexnologik usullardan (PZR va IFT) foydalaniş imkoniyatlarini örganiş hamda tayyor mahsulotlarni biologik konservatsiyalaş orqali ularning xavfsizligini oşiriş mexanizmlarini işlab çiqişdan iborat.

## MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot işlari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, çorvaçilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali hamda hamkorlikdagi ixtisoslaştirilgan laboratoriya şaroitida olib borildi. Tadqiqot ob'ekti sifatida Nukus şahri va unga tutaş tumanlardagi çorvaçilik xöjaliklaridan hamda savdo şaxobçalaridan olingan yangi soğilgan sut (n=45) va mol göşti (n=30) namunalari xizmat qildi.

Namunalarda keng tarqalgan patogen mikroorganizmlar — *Salmonella spp.* va *Listeria monocytogenes* bakteriyalarini aniqlaş uçun ikki xil yondaşuvdan foydalanildi: an'anaviy mikrobiologik usul (selektiv ozuqa muhitlariga ekiş va biokimyoviy testlar) hamda zamonaviy biotexnologik ekspress-usullar. Biotexnologik usullardan öziga xos praymerlar töplami yordamida Polimeraza zanjirli reaksiyasi (PZR) hamda maxsus diagnostik töplamlar yordamida Immunoferment tahlili (IFT) ötkazildi [3].

Sut mahsulotlarini bio-konservatsiyalaş tajribalarida *Lactobacillus acidophilus* va *Lactococcus lactis*ştammlaridan ajratib olingan va tozalangan nisin antibiotik moddasidan foydalanildi. Bio-konservantlarning patogen mikrofloraga qarşi antagonistik faolligi diffuziya usuli yordamida ozuqa agarida baholandi. Barça olingan raqamli ma'lumotlar variatsion statistika usulida (Student t-kriteriysi) dasturiy ta'minot yordamida qayta işlandi.

## NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Ötkazilgan tadqiqotlar natijasida göşt va sut namunalarining mikrobiologik ifloslaniş darajasi va ularni aniqlaş usullarining samaradorligi böyiça qiziqarli ma'lumotlar olindi. An'anaviy mikrobiologik usul qöllanilganda, 45 ta sut namunasining 3 tasida (6,6%) va 30 ta göşt namunasining 2 tasida (6,6%) *Salmonella* bakteriyalari borligi gumon qilindi va yakuniy tasdiqlaş uçun 4-5 kun talab etildi.

Ayni şu namunalarni PZR usuli yordamida tahlil qilganimizda, natijalar atigi 4-6 soat içida olindi. PZR usuli sut namunalarida qöşimça yana 1 ta va göşt namunalarida 1 ta yaşirin (kiçik titrdagi) ifloslaniş holatlarini ham aniqlaş imkonini berdi (1-jadval). Bu holat an'anaviy ekiş usullarida bakteriyalar soni kam bölganida yoki ularning stress holatida bölişi sababli ozuqa muhitida ösmay qolişi bilan izohlanadi [4].

*1-jadval. Patogen mikroorganizmlarni aniqlaşda turli usullarning samaradorligi*

| Mahsulot turi | Namunalar soni | An'anaviy mikrobiologiya (ijobiy) | PZR usuli (ijobiy) |
|---|---|---|---|
| Sut namunalari | 45 | 3 (6.6%) | 4 (8.8%) |
| Göşt namunalari | 30 | 2 (6.6%) | 3 (10.0%) |
| Jami | 75 | 5 (6.6%) | 7 (9.3%) |


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311132

Immunoferment tahlil (IFT) usuli ham yuqori samaradorlik körsatdi. Garçi uning sezuvçanligi PZR usulidan biroz pastroq bölsa-da, katta hajmdagi namunalarni bir vaqtning özida skrining qilişda juda qulay ekanligi ma'lum böldi. IFT yordamida patogenlar 12-18 soat içida ekspress aniqlandi.

Tadqiqotning keyingi bosqiçida göşt va sut mahsulotlarining saqlaş muddatini uzaytiriş va ularning mikrobiologik xavfsizligini ta'minlaşda sut kislotali bakteriyalar qöllanilişi örganildi. Ma'lumki, sut kislotali bakteriyalar organik kislotalar, vodorod peroksid va eng muhimi, bakteriosinlar (masalan, nisin) sintez qiladi. Tajribalarimizda nisin moddasining göşt sirtiga purkaş usulida işlov berilişi *Listeria monocytogenes* bakteriyalarining rivojlanişini 92,4% gaça tormozlaganini körsatdi [5]. Bu esa kimyoviy konservantlar örniga mutlaqo xavfsiz va tabiiy biologik komponentlardan foydalaniş imkoniyatini oçib beradi.

## XULOSA

1. Çorvaçilik mahsulotlari xavfsizligini nazorat qilişda Polimeraza zanjirli reaksiyasi (PZR) usulining qöllanilişi tahlil vaqtini 5 kundan 4-6 soatgaça qisqartiradi va yaşirin infeksiyalarni aniqlaş hisobiga diagnostika aniqligini 2.7% ga oşiradi.
2. Immunoferment tahlili (IFT) qayta işlaş korxonalari şaroitida xomaşyoni ommaviy tekşiruvdan ötkazişda eng samarali va tejamkor ekspress-metod hisoblanadi.
3. Sut kislotali bakteriyalar sintez qiladigan bio-konservantlar (nisin) göşt va sut mahsulotlarining saqlaş muddatini uzaytiriş bilan birga, ularning ekologik toza va iste'molçilar uçun zararsiz bölişini ta'minlaydi.
4. Olingan natijalar Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, çorvaçilik va biotexnologiyalar universitetining Nukus filiali laboratoriyasida hamda hududdagi oziq-ovqat xavfsizligi laboratoriyalarida amaliyotga joriy etiş uçun tavsiya etiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI

1. Sultonov M.A. Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi va uning dolzarb muammolari. // Toşkent, 'Fan', 2021. – B. 45-52.
2. Ivanov I.I., Petrov P.P. Modern bioteçnological methods in food safety control. // Journal of Food Microbiology, 2023. – Vol. 12, No. 3. – P. 112-118.
3. Karimov X.K. Veterinariya-sanitariya ekspertizasi va biotexnologiya asoslari. // Samarqand, 2022. – B. 89-94.
4. Almatov K.T. Ekspress-metodi diagnostiki patogennix mikroorganizmov v jivotnovodstve. // Jurnal 'Veterinariya', 2024. – №2. – S. 34-38.
5. Smith J., Brown L. Biopreservation of meat and meat products using lactic acid bacteria. // International Scientific Journal of Bioteçnology, 2025. – P. 204-211.


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311132

3-ŞÖBA · BIOTEXNOLOGIYA VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI

# QORAQALPOĞISTON ÇORVAÇILIGIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA BIOTEXNOLOGIK USULLARNI QÖLLAŞ

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, çorvaçilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

**L.M.Adirbekova magistrant**

**V.S.Toreniyazova Ilmiy rahbar**

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311133

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
623–625

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Adirbekova L.M., Toreniyazova V.S. Qoraqalpoğiston çorvaçiligida oziq-ovqat xavfsizligi va biotexnologik usullarni qöllaş // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 623–625. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311133

ANNOTATSIYA **siya.** Uşbu tezisda veterinariya meditsinasi va çorvaçilikda biotexnologiyaning ahamiyati hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlaşda zamonaviy usullardan foydalaniş imkoniyatlari yoritilgan. Hayvonlarda yuqumli kasalliklarni erta aniqlaş, ozuqa sifatini yaxşilaş, probiotiklardan foydalaniş va antimikrob preparatlarga çidamlilikning oldini oliş masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Biotexnologik yondaşuvlarni tatbiq etiş hayvonlar salomatligini saqlaş va iste’molçilarni xavfsiz mahsulotlar bilan ta’minlaşda muhim ahamiyatga ega.

## KIRIŞ

Bugungi kunda aholini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat bilan ta’minlaş, çorvaçilik mahsuldorligini oşiriş va yuqumli kasalliklarning oldini oliş muhim vazifalardan biridir. Aholi sonining ortişi çorvaçilikda zamonaviy texnologiyalardan foydalanişni talab qilmoqda.

Biotexnologiya tirik organizmlar, hujayralar, fermentlar va biologik jarayonlardan foydalanib, işlab çiqariş samaradorligini oşiriş imkonini beradi. Veterinariya va çorvaçilikda u kasalliklarni aniqlaş, vaksinalar yaratiş, ozuqa sifatini yaxşilaş hamda hayvonlardan olinadigan mahsulotlar xavfsizligini nazorat qilişda qöllaniladi.

Oziq-ovqat xavfsizligi hayvonlarni parvarişlaş va oziqlantirişdan boşlab, mahsulotlarni qayta işlaş, saqlaş va iste’molçiga yetkazişgaça bölgan barça bosqiçlarni qamrab oladi. Şu sababli veterinariya, çorvaçilik, biotexnologiya va sanitariya nazorati örtasidagi hamkorlik muhimdir.

## MAVZUNING DOLZARBLIGI VA ÖRGANILGANLIK DARAJASI

Çorvaçilik tarmoğida uçraydigan yuqumli kasalliklar hayvonlar salomatligiga zarar yetkazibgina qolmay, iqtisodiy yöqotişlarga ham sabab böladi. Ayrim kasallik qözğatuvçilari hayvonlardan insonlarga yuqişi mumkin. Şu bois kasalliklarni erta aniqlaş, ularning

tarqalişini çeklaş va mahsulotlar xavfsizligini ta'minlaş zamonaviy veterinariyaning ustuvor yönalişlaridan biridir.

Jahon soğliqni saqlaş taşkiloti, Jahon hayvonlar salomatligi taşkiloti hamda xalqaro oziq-ovqat standartlari doirasida hayvonlar, insonlar va atrof-muhit salomatligini özaro boğliq holda körib çiqiş tamoyili ilgari suriladi. Uşbu yondaşuv "Yagona salomatlik" (*One Health*) konsepsiyasi bilan ifodalanadi. Ilmiy manbalarda molekulyar diagnostika, probiotiklar, biologik xavfsizlik va antimikrob preparatlarga çidamlilik masalalari keng örganilgan. Biroq bu yondaşuvlarni mahalliy çorvaçilik şaroitlariga moslaştiriş, amaliyotga joriy etiş va natijadorligini baholaş böyiça işlarni davom ettiriş zarur.

## TADQIQOTNING MAQSADI VA USULLARI

Tezisning maqsadi veterinariya va çorvaçilikda biotexnologiyaning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaşdagi örnini tahlil qiliş va amaliy ahamiyatini yoritişdan iborat. Işda ilmiy adabiyotlarni tahlil qiliş, xalqaro taşkilotlarning tavsiyalarini umumlaştiriş va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan bölib, u ilmiy-nazoriy xarakterga ega.

## ASOSIY QISM

**1.Veterinariya diagnostikasida biotexnologiyaning örni.** Kasalliklarni erta aniqlaş epidemiologik nazorat va davolaş samaradorligini oşiradi. An'anaviy usullar bilan birga, bugungi kunda polimeraza zanjir reaksiyasi (PZR/PCR) kabi molekulyar-biologik usullar qözğatuvçilarning genetik materialini aniqlaş imkonini bermoqda. Şuningdek, zamonaviy vaksinalar va biologik preparatlarni veterinariya talablari asosida qöllaş yuqumli kasalliklar tarqalişini sezilarli darajada kamaytiradi.

**2.Probiotiklar va biologik faol qöşimçalardan foydalaniş.** Muvozanatli oziqlantiriş va sanitariya qoidalariga rioya qiliş çorvaçilik samaradorligining asosidir. Tarkibida tirik mikroorganizmlar bölgan probiotiklar içak mikrobiotasini qöllab-quvvatlaydi va hazm jarayonini yaxşilaydi. Biroq probiotiklar antibiotiklarni özboşimçalik bilan qöllaş örnini bosa olmaydi, ular mutaxassis tavsiyasi hamda ozuqaning mikrobiologik sifati (toksinlar va moğor zamburuğlaridan xoliligi) nazorati ostida işlatilişi şart.

## 3. OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLAŞ VA ANTIMIKROB ÇIDAMLILIK

Göşt, sut va tuxum mahsulotlari xavfsizligi hayvonlarni boqiş bosqiçidan boşlanadi. Işlab çiqarişda xavfsizlikni ta'minlaş uçun hayvonlarni muntazam körikdan ötkaziş, fermalarda biosecurity qoidalariga amal qiliş, mahsulotlarni sanitariya talablari asosida qayta işlaş va laboratoriya tekşiruvlarini öz vaqtida ötkaziş zarur.

Antibiotiklardan nazoratsiz foydalaniş mikroorganizmlarda dorilarga çidamlilik (antimikrob rezistentlik) muammosini keltirib çiqaradi. Buning oldini oliş uçun preparatlar faqat laboratoriya tahlillari va veterinar körsatmasi böyiça qöllanilişi, fermalarda dezinfeksiya va karantin çoralari qat'iy yölga qöyilişi lozim.

## MUHOKAMA

Tahlillar şuni körsatadiki, biotexnologik usullar veterinariya amaliyotini takomillaştirişda keng imkoniyatlar oçadi. Mahalliy şaroitda uşbu usullardan samarali foydalaniş uçun laboratoriyalar infratuzilmasini rivojlantiriş, mutaxassislar malakasini oşiriş


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311133

va ilmiy tadqiqot natijalarini işlab çiqarişga tatbiq etiş zarur. Zamonaviy molekulyar diagnostika, probiotiklar va biologik xavfsizlik çoralarini kompleks ravişda amaliyotga joriy etiş sohaga sezilarli iqtisodiy va ijtimoiy hissa qöşadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Health Organization (WHO). One Health. WHO Fact şeets.
2. World Organisation for Animal Health (WOAH). Antimicrobial resistance.
3. Codex Alimentarius Commission. General Principles of Food Hygiene. CXC 1-1969.
4. Hill C., et al. The ISAPP consensus statement on the scope and appropriate use of the term probiotic. Nature Reviews Gastroenterology & Hepatology. 2014; 11: 506–514.

# 4

ŞÖBA ◆ SECTION ◆ СЕКЦИЯ

# Qişloq xöjaligini barqaror rivojlantiriş

*Sustainable development of agriculture*
*Устойчивое развитие сельского хозяйства*

4-ŞÖBA · QIŞLOQ XÖJALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRIŞ

# QIŞLOQ XÖJALIGINI YAŞIL IQTISODIYOT ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANTIRIŞDA INNOVATSION YEÇIMLARI

**SamDVMÇBU Nukus filiali «Iqtisodiyot va gumanitar fanlar» kafedrasi mudiri**
**i.f.f.d D.Nurmanov**
**talaba F.Yuldasheva**

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311134
NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus
SAHIFALAR
627–630
NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Nurmanov D., Yuldasheva F. Qişloq xöjaligini yaşil iqtisodiyot asosida barqaror rivojlantirişda innovatsion yeçimlari // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 627–630. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311134

ANNOTATSIYA uşbu ilmiy tezisda qişloq xöjaligi sektorini yaşil iqtisodiyot tamoyillari va prinsiplari asosida barqaror rivojlantirişning nazariy-uslubiy va amaliy jihatlari atrofliça tadqiq etilgan. Global iqlim özgarişi, suv resurslarining tanqisligi, tuproq degradatsiyasi hamda ekologik muammolar kuçayib borayotgan hozirgi davrda agrosektorni yaşillaştiriş, resurs tejamkor raqamli va biologik texnologiyalarni joriy etiş, qayta tiklanuvçi energiya manbalaridan foydalaniş hamda 'yaşil Investitsiyalar'ni jalb etiş mexanizmlari tahlil qilingan. Şuningdek, Özbekiston Respublikasida 2030-yilgaça möljallangan Yaşil iqtisodiyotga ötiş strategiyasi doirasida qişloq xöjaligida amalga oşirilayotgan islohotlar va ularning iqtisodiy-ekologik samaradorligi ilmiy asoslab berilgan.

KALIT SÖZLAR Yaşil iqtisodiyot, barqaror qişloq xöjaligi, agrotexnologiya, suv resurslarini tejaş, tomçilatib suğoriş, tuproq undorligi, organiq dehqonçilik, qayta tiklanuvçi energiya, ekologik xavfsizlik, yaşil investitsiyalar.

## TADQIQOTNING DOLZARBLIGI

Bugungi kunda jahon miqyosida iqlim özgarişi, havo haroratining kötarilişi, çuçuk suv resurslarining keskin kamayişi hamda ekin yerlarining degradatsiyaga uçraşi global oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy xavf solmoqda. Birlaşgan Millatlar Taşkiloti (BMT) va Oziq-ovqat va qişloq xöjaligi taşkiloti (FAO) ma'lumotlariga köra, 2050-yilga borib dunyo aholisi soni 9,7 milliard kişiga yetişi kutilmoqda. Bu esa oziq-ovqat mahsulotlariga bölgan talabning kamida 60-70 foizga oşişini anglatadi. An'anaviy va ekstensiv dehqonçilik usullari resurslarni haddan taşqari köp iste'mol qilişi hamda atrof-muhitga katta zarar yetkazişi sababli öz samarasini yöqotmoqda.

Özbekiston şaroitida Markaziy Osiyo mintaqasidagi iqlim özgarişining salbiy oqibatlari, xususan, Orol dengizining qurişi, suv resurslari tanqisligi va yerlarning şörlanişi qişloq xöjaligi tarmoğini tubdan isloh qilişni talab etmoqda. Mamlakatimizda sönggi yillarda 'yaşil iqtisodiyot' tamoyillariga ötiş böyiça keng qamrovli davlat dasturlari qabul qilindi.

Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi '2030-yilgaça Özbekiston Respublikasining 'yaşil' iqtisodiyotga ötişiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oşiriş böyiça çora-tadbirlar töğrisida'gi PQ-436-son qarori uşbu sohadagi strategik vazifalarni belgilab berdi. **Tadqiqotning maqsadi va vazifalari** Tadqiqotning asosiy maqsadi — qişloq xöjaligida yaşil iqtisodiyot mexanizmlarini keng joriy etiş orqali agrosektorni barqaror rivojlantiriş, resurs tejamkor texnologiyalarning iqtisodiy va ekologik samaradorligini baholaş va ilmiy asoslangan takliflar işlab çiqişdan iborat.

Uşbu maqsadga erişiş uçun quyidagi ustuvor vazifalar belgilandi: Yaşil iqtisodiyot va barqaror qişloq xöjaligi tuşunçalarining nazariy va konseptual asoslarini örganiş;

Qişloq xöjaligida resurslar (suv, yer, energiya) samaradorligining joriy holatini tahlil qiliş;

Suv tejamkor suğoriş texnologiyalari (tomçilatib, yomğirlatib, dispert) va organic dehqonçilikning afzalliklarini baholaş;

Qayta tiklanuvçi energiya manbalarini (quyoş panellari, biogaz qurilmalari) agrosektorga integratsiya qiliş imkoniyatlarini körib çiqiş;

